*Birinchi tendensiya.* Rossiya sosiologik assosiasiya prezidenta V.I. Dobrenkovning konsepsiyasi buyicha: "Umummilliy maksadlar yulida xalkni birlashtiruvchi milliy mafkura zarur. Unda nafakat zamonaviy, balki asriy an’analar joy olishi kerak. SHu asosda zamonaviy fanlarning eng muxim vazifasi — davlat rivojlanishining bir butun konsepsiyasini yaratishdir". M.A.Tarusin esa yukrridagi fikrlarga kushilgan xrlda, mafkurani targib kiluvchi

partiyalar zarurligini uktiradi. Uning fikricha, mafkura tarixiy ildizlarga ega bulib, Rossiyaning sobiq prezidenta V.V.Putinning kup yillar davomida gapirib kelayotgan ozodlik va mustakillik xakidagi fikrlari bilan uygun bulishi shart.

A.Golovning fikricha, butunrossiya jamiyatida mafkuralashtirish juda suet olib borilmokda. Jamiyat pul topish, sila muammolari va ulimdan tashkari, kelajak xakidagi orzularni birlashtiruvchi va amalga oshiruvchi mafkura xakida uylash kerak. CHunki milliy mafkurasiz jamiyat emiriladi.[71]

*Ikkinchi tendensiya.* 2004 yil Kondoliza Rais tomonidan birinchi bulib AKSH uchun uta mux,im bulgan, "Amerika qadriyatlarini butun dunyoga yoyish maksadida mafkuraviy xujumni, ta'sirni kuchaytirish" x,aqidagi goyalari edi.

Demak, fakat mustax,kam shakllangan milliy mafkuraga tayangan xrldagina, global Amerika mafkurachilarining ta'siriga qarshi tura olish mumkin.

## Globallashuvning nazariy asoslari

Reja:

1. Globallashuv universallashuv jarayonida sifatida.
2. Globallashuv to'lqinlari. Globallashuvning asosiy davrlari.
3. Globallashuv va dunyoning yo'nalishi masalasi.

XX asrning 90-yillaridan boshlab dunyo iqtisodiyotida shunday tendensiyalar kuzatilmoqdaki, ular yaqin kelajakni aniqlab beradi. Ular xarqanday davlatning ichki iqtisodiy, huquqiy va jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar bilan bog'liq vaziyatlar, boshqa tomondan ekzogen determinantlar – shartli nom olgan globalizasiya yoki regional integrasiya . Global xavf masalasi Butundunyo iqtisodiy forumi har yili global xavf xaqidagi xisobotlarni nashr qilaboshlaganidan so'ng buning dolzarbligini har bir kompaniya, tarmoq yoki davlat tushinishi va iqtisodiy, geosiyosiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik xavfni yumshatishi kerakligi bilan izoxladi .

Rossiya Federasiyasining uzoq muddatliijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasi loyihasida ko'rsatilishicha: «dunyo iqtisodiyotining keyingi rivojlanishi dunyo iqtisodiy harakatining globallashuvi va regionlashuvi tendensiyalarini dunyo kuchlari markazlari o'rtasidagi qarama – qarshilik va dunyo savdo sistemasidagi disproporsiya davomli yig'ilishi global iqtisodiy inqirozga va dunyo iqtisodiyoti rivojlanishining pasayishi xavfini oshirishi mumkin».

Globallashuv ilmiy tekshirishlarning va nazariy diskussiyalarning markaziy mavzusiga aylandi, natijada yuzlab har xil shu jumladan o'zaro istesno «globalizatsiya» aniqlanmalari, ular o'z navbatida bu tekshirish obyektining murakkabligi va bir xil ma'noga ega emasligini ko'rsatadi. Globallashtirish, uning musbat va manfiy tomonlari ko'pgina davlatlarning etakchi olimlari tomonidan tekshirilmoqda. CHet El tekshirishlar o'rtasida A.Pechchei, E. Pestel, M. Mesarevich, YA. Tinbergena, E. Mann-Borgeze, B. Gavrilishina, A. King, B.SHnayder, R. David, I. Vallerstayn, P. Ratlend,T. Fridman, K. Omae, M.Kastels, J.Lemannlarni ko'rsatish mumkin. Rossiya olimlari ilmiy ishlari orasidan R. Grinberg, Yu. Danilevskiy, M. Delyagin, N. Zagladin, V. Kollontay, E. Kochetov, V. Kulikov, A.Nekipelov, V.Obolenskiy, I. Osadchiy, M. CHeshkov, YU. SHishkov, A. Elyanovlarning asarlarini keltirish mumkin.

Ted Levidning «Bozorlar globalizasiyasi» nomli statyasidan so'ng yuqorida ta'kidlanganidek globallashuv tushunchasi dunyoga keldi. Ushbu ishda global biznes

masalalari ko‘rib chiqilgan va unda shu fikr keltirilgan: «Dunyoning yaqinlashuvini kata kuch harakatga keltiradi va bu kuch texnologiyalar … uning natijasi bo‘lib yangi kommersiali natija: global standart tovarlar bozorlarni shakillanishi bunday kata bozorlar hozirgacha ko‘rilmagan».

Globalizasiya mavzusi tadqiqotining davomini amerikalik olimlarning ishlarida o‘z aksini topdi. Ularda dunyodagi bog’liqlik, davlatchilikning milliy-davlat formasining zaiflashuvi, global masshtabda milliy strukturalar ustiga o‘tishni global masshtabga asoslangan. Ammo bizningcha global muommolar bo‘yicha ilmiy tekshirishlarda va olingan natijalarni keng nashr qilishda doklad formasida birinchilik Rim kulubiga tegishlidir[2].

Rim klubi a’zolari tomonidan (A. Pechchei, E. Pestel, M. Mesarovich, YA. Tinbergen, E. Mann-Borgeze, Dj. Forrester, B. Gavrilishin, A. King, B. SHnayder va b.q) engdolzarb dunyo muommolari (birinchi navbatda ijtimoiy) bu muommolarni tekshirishning ilmiy metodlari ishlab chiqildi (matematik modellashni qo‘shib), amaliy yo‘riqnomalar, dunyo rivojining alternativ ssenariylari taklif etildi. Rim klubi a’zolarining fikricha – «global» yoki «dunyo muommosi» dunyoni bir-butun sistema deb qarash tushunishdan dunyoga kelgan va u birbutun sistemadir uning yashashi va rivoji uchun umumiy xarakat bilan bir-qancha muommolarni hal qilish kerak . Ular lokal yoki xususiy echimga ega emaslar.

Hamma global muommolar o‘zaro murakkab bog’liqlikdadir, bu shuni ko‘rsatadiki qandaydir muommoni echish ungata’sir qiluvchi boshqa komplekslarni hisobga olish kerak. Bunda Rim klubi nazariyotchilari global muommolarni echish uchun hamma davlatlarni xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga e’tiborni qaratishni taklif etdi. Rim klubida A. Pechchei birinchi ma’ruzasi «O‘sish chegarasi» da iqtisodiy o‘sish, rivojlanish, o‘qitish yangi texnologiyalarini qo‘llashdan kelib chiqadigan natijalar,global fikrlash bilan bog’liqtekshirishlarning boshlanishiga asos soldi. U o‘zining «iqtisodiy sifatlar» ishida «globalnosti» degan tushunchani nafaqat shu xolat balki muommoni echishning «asosiy yo‘li insoniyat oldidagi … chunki ular bir butun sistemani tashkil qiladi bu butun dunyoni egallagan va o‘rab olgan».

1987 yilda o‘zining «rivojlanishdan tashqarida» Eduard pestel Rim klubidagi ma’ruzasida global muammoning vujudga kelish sabablarini kshrsatib berdi. Uning fikricha «butun dunyoning hamma tomonida shtish davri boshlandi. Bir tomondan ko‘pgina rivojlangan mamlakatlar agrar xolatdan sanoatsanoat jamiyatining birinchi stadiyasiga etib keldi, ikkinchidan – yuqori rivojlangan mamlakatlar «industurlashishdan keyingi» jamiyat yo‘lida ketmoqda».

---

[2] Rim klubi-xalqaro jamoat tashkiloti bo’lib,u karxona egalari,boshqaruvchilari, siyosiy arboblar,ishonchli ekspertlar,har xil davlat olimlarini birlashtiradi. U o’z faoliyatini 1968 yilda boshlagan Rim klubining boshida «Fiat» firmasi moliyalashtiruvchilari va «Volksvagen» konsernlari energetika va xomashyo muommolarining rivojini sistematik analiz qilish, bular bilan avtomabillarni sotish bozorini kengaytirish bilan bog’liq edi. Ammo bu prognozlarni hal etishga jalb etilgan olimlar (kibernetiklar, iqtisodchilar, sotsiolog va b.q) o’z xisobotlarida kengiroq masalalarni qamrab oldilar globallashuvga bog’liq muommolar Rim klubi tomonidan qo’yilgan maqsadlarni quyidagicha belgilash mumkin: 1) jamiyatga «insoniyat qiynalayotganini» planetadagi resurslarning chegaralanganligi, ishlab chiqarishning tez rivojlanayotgani haqida metodika berish; 2) insoniyatga Rim klubi a’zolarining bir qator aspektlar bo’yicha dunyoda vujudga kelgan xavfli situatsiyalar bo’yicha tushuntirish; 3)jamiyatda keng muozanatga erishish uchun qanday choralar ko’rishni tushuntirish.

Keyinchalik Manuel Kastels o‘zining «turmush shvroitining kuchi» degan ishida «informanasionalizm» tushunchasini kiritdi. Bu insoniyatningeng yangi sosial transformasiyasiga o‘tish davrini bunda informasiya va bilimga tayaniladi. Bu esa agrar xolatdan sanoatlashgan xolatga yoki sanoatlashgan davrdan servis xo‘jaligiga o‘tish bilan solishtrib bo‘lmaydi.

Muallif tomonidan o‘tkazilgan analitik tekshirishlar globalizasiyanitekshiruvchi ilmiy ishlarda asosiy e’tibor iqtisodni globallashtirishga qaratilgan va quyidagi asosiy yo‘nalishlarni ajratish mumkin:

1. Globallashtirish xudi obyektiv tarixiy jarayon deb qaraladi, internasionalizasiyaning[3] yangi sifat bosqichi xo‘jalik, siyosiy va insoniyatning madaniy hayoti;
2. Globalizasiya dunyo integrasiyasi[4] jarayonidek qaraladi;
3. Globalizasiya tashqi siyosiy va ideologik masala neoliberal formasi va ozod bozorning rivojlanish metodiga har tomonlama ko‘maklashish;
4. Globalizasiya o‘zida «amerikalashtirish»ni va dunyoni keng «vesternizasiya»lashtirishni («g’arblashtirish») aks ettirirdai hamda g’arb kapitalizmini va g’arb institutlarini tarqatish (bu uchinchi yo‘nalishga yaqin);
5. Globalizasiya yangi tarixiy reallikni aks ettiradi. U dunyo iqtisodidan farqlanadi.

Birinchi yo‘nalish tarafdorlariga V.Obolenskiy, I.Osadcheya, N.Zagladin, YU.SHishkov, A.Elyanovlar kiradilar. Bunda olimlar tomonidan prinsipial har xil sifat va vaqt xarakteristikalar-intoernizasiyalashtirish bosqichiga o‘tiladi. Navbatdagi bosqich oxirgisi va eng yangisi.

Xususan, A.Elyanov fikricha, «globalizasiya iqtisodiy hayotni internasionalizasiyalashning yangi sifat darajasidir»

I.Osadchey fikricha, «Globalizasiya internasionalizasiyaning yangi navbatdagi bosqichi bo‘lib, u informasion texnologiyalar rivojiga asoslangandir».

E.Kochetovaning Globalizasiya bu – internasionalizasiyaning tugallovchi bosqichi bo‘lib, u dunyo iqtisodiy sistemasini birlashuviga olib keldi degan tushunchasi e’tiborni tortadi.

Ikkinchi yo‘nalishni qo‘llovchilarga I.Vallerstayn, M.Delyagin, P.Ratlentlar hisoblanadilar. Unda biz har xil vaqt va sifat xarakteristkalarida oliy, tarixiy, eng yangi jarayonni kuzatamiz.

Xususan, M.Delyagin quyidagi aniqlikni keltiradi: Globalizasiya bu – juda muhim, zamonaviy, ehtimol integrasiyaning yuqori bosqichini ko‘rsatadi. O‘zgarishlarning ko‘rinishi va chuqur teranligiga qaramay globallashtirish o‘z rivojlanishining yuqori bosqichida turadi.

Immanuel Vallerstayn «Globallashtirish deb nomlangan» jarayonga to‘liq aniqlik kiritmay, bu duyodagi shunday tendensiyalar bilan chambarchas bog’langanki, bular integrasiya, marganilizasiya, bifurkasiya va deruralizasiya hamda dunyo iqtisodiyoti kapitalining to‘planishi bilan xarakterlanadi. (Eng kamida XVI asrdan buyon)

Zamonaviy jarayonlar global darajada I. Vollerstayn fikricha, bu o‘tish holati jarayoni bo‘ib bu qandaydir qoloq daalatlarning o‘tish davri emas, ular bu jarayondan orqada qolishni istamaydilar, ammo o‘tish holati natijasida hamma kapitalistik sistemalar qandaydir yangi holatga moslashadi.

[3] Internatsionalizatsiya – (lot. Inter – aro va nation – xalq – xalqaro),
[4] Integratsiya - (lot. Integratio – tiklash, to’ldirish, integer so’zidan).

Piter Radlent fikricha, «Globallashuv – vaqt birligida integrasiyaga jalb qilingandir. Bunda globalizasiyalash teologik jihatdan talqin qilinib, u tarixning davriyligi g'oyasini inkor qiladi, kelgusi hayot, o'tgan zamonni qaytarmagan holda bugun yangi era boshlanishi g'oyasini ilgari suradi».

Neoliberallarning (uchinchi yo'nalish) zamonaviy eng ko'p tarqalgan argumentlari bu – bozorlarning kamchiligi, davlatning xo'jalik faoliyatidan ko'p emas va shuning uchun davlatning o'zini obro'sizlatirgan aralashuvidan voz kechish kerak va erkin bozor va ochiq raqobatga qaytish kerak.

Erkin bozor va ochiq raqobat (Klassik nazariyaga ko'ra) resurslar kapitalini rasional va effektiv taqsimlab berishi kerak, xususan, erkin tanlovni kengaytirish har bir tadbirkor va iste'molchi oldidagi bozor talabidir. Liberal fundamentalizm asosi bo'lib, «Vashington kelishuvi» deb nomlangan yoki dunyo savdosini islohot qilishining o'nta tavsiyasi 1989 yilda Amerika iqtisodchisi J. Vilyamson tomonidan ta'riflab berilgan.

1. Byudjet defisitini minimallashtirish;
2. Korxonalarga subsidiyanikamatirish;
3. Soliq tizimi keng tarmoqli bo'lishi kerak, soliq to'lovlari eng past darajada;
4. Foiz to'lovlari ichki moliya bozoridan aniqlanishi kerak, bunda ular bankka qo'yilgan omonatlarni rag'batlantirishi kerak va kapitalning yo'qolishini oldini olishi zarur;
5. Rivojlanayotgan mamlakatlarda almashtirish kursi ularning eksportini rag'batlantirishi kerak;
6. Tashqi savdo ta'riflari minimal bo'lishi kerak va eksportga imkon beruvchi tovarlarga kirgizilmasligi keraq
7. Tashqi investisiyalarini stimullash siyosiy qabul qilinishi keraq
8. Privatizasiya har qanday usulda rag'batlaantirilishi keraq
9. Davlat boshqaruvini minimallash sanoatni davlat tomonidan tartibga solishni tugatish keraq
10. SHaxsiy mulk huquqi kafolatlanishi va kuchaytirilishi kerak.

A.Utkin fikricha, globalizasiya fenomeni – zamonaviy kapitalizm tabiatini tushunish, ma'nosini aniqlash uchun o'ylab topilgandir. Va bu tushuncha yorqin ifodalangan hodisalarni va jarayonlarni analitik ravishda tanlashni ko'zda tutadi.

Ushbu jumlada, erkin bozor kapitalizmi jahon davlatlarining barchasiga keng tarqalishini ko'rsatadi. Jan- Per Lemann quyidagilarni ta'kidlaydi, erkin savdoni kattaroq hodisa bo'lgan globallashuvdan ajratish mumkin emas, o'z holatiga ko'ra «globallashtirish bozorlarning birlashishini kuchayishi, tovarlarning trans chegarada kapital, axborot texnologiyalari ko'rinishida odamlarga tarqalishi - erkin savdoni globallashtirishning lakomatividir».

Dunyo iqtisodini yangi liberal ko'rinishida rivojlanishini tanqid qiluvchilar J.Stiglits va Jeyms K.Gelbreyt hisoblanadilar. Xususan, Jeyms K.Gelbreyt ko'satishicha, «Vashington kelishuvi»ning inqirozi ko'rinib turibdi. U neoliberal yo'nalishida gloaballashtirish bilan tenglashtiriladi va «Neoliberal amaliyotning qulashi asosan o'zida sistemali kamchilikni olib yurishidir».

Professor J.Stiglits hisoblashicha, «Vashington kelishuvi» tomonidan qo'llab quvvatlanishi siyosatini tizimli deb bo'lmaydi. Bir xil paytda u desintegrasiya qilinishi mumkin.

«Vashington kelishuvi» siyosatidan farqli ravishda u davlatning faol yo‘lini tan olmasligiga asoslangan J.Stiglits davlatga sezilarli rol beradi, uning aralashuvi bozorga kerakli qo‘shimcha bo‘lib, davlat faolligini past darajaga keltirishga qo‘shilmaydi. «amerikalashtirish» va «vesterlashtirish» tarafdorlariga Amerika nazariyotchisi N.Glayzer fikricha, globallashtirish bu g’arb axboroti va ko‘ngilochar vostalari tomonidan boshqariladigan va dunyo masshtabida tarqatilayotgan bo‘lib, u bu axborot kirib borsa, shu dapvlatlarning qadr qimmatiga kerakli ta’sir ko‘rsaiadi.

D. Lebedov ham shu fikrga qo‘shtladi va globalizasiya xuddi dunyoni «amerikalashtirish» va «vesternizasiya» bo‘lib ko‘rinishiga ishora qiladi.

Biz shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, «amerikalashtirish» va «vesternizasiyalash» terminlari globallashtirish tendensiyalariga sinonim sifatida foydalaniladi. Bizning fikrimizcha, ma’lum darajada bu to‘g’ridir, chunki «amerikalashtirish» eski Evropa sivilizasiyasining aks-sadosi bo‘lib ko‘rinadi. (shaxs javobgarligi tamoyili, demokratiya va liberal iqtisodiyot) «jamiyatshunoslik terminlari izohli lug’ati»da N.YAsenko tahriri ostida quyidagilarni aniqlashtirgan:

1. Vesternizasiya bu ko‘pgina g’arb qadriyatini (bozor iqtisodi, huquqiy dalat va parlamentarizm, g’oyaviy va siyosiy plyuralizm v. b.) zamonaviy sivilizasiyaning umuminsoniy qadriyatlariga aylantirish va G’arbiy Evropa hayot tarzini shundayligicha o‘ylamasdan qabul qilishdir;
2. «Amerikalashtirish» - bu shaxs yoki sosial jamoa tomonidan amerika mentalitetini, hayot tarzini va hulqini o‘zlashtirishdir.

Ko‘rganimizdek ushbu jumlada, so‘z ma’lum oliylikni yoki «evropa sivilizasiyasini» yoki «amerika»cha qadr-qimmatlarini yuqoriligin ko‘zda tutiladi. Amerikalashtirish tarixan J.Vashingtondan tarqalgan u shunday yozgan edi: «… Evropada o‘zining qiziqishlari bor, ular bizniki bilan bog’lanmagan yoki ular bilan juda bevosita, bir qadar bog’langan… Evropadan ajralib turish va uzoqda bo‘lish bizni boshqa yo‘lni qabul qilishimizni va bu yo‘l bilan ketishimizga ruxsat beradi… biz o‘zimizni shunday tutishimiz kerakkki, natijada ular bizni hurmat qilsinlar».

«Vesternizasiya» terminidan XX asrning 60 yillarida Rene David foydalangan edi, u o‘z ishlarida «… hamma dalatlar qandaydir miqdorda G’arb davlatlarinining g’oyalarini o‘zlashtiradi, chunki bu ularga mustaqillikni saqlash uchun va rivojlanishda progress bo‘lishida kerakdek tuyular edi…».

Bunda «vesternizasiya» termini Evropa qadriyatiga tenlashtirilardi. Fridrix List o‘zining ilmiy ishlarida ko‘rsatganidek, an’anaviy liberal davlatlarga (birinchi navbatda, anglo-sakson) davlatlariga o‘z modellarini hamma boshqalarga bog’lash juda muhim edi, chunki ushbu holatda ular kafolatlangan kata iqtisodiy va siyosiy foyda olardilar.

Beshinchi yo‘nalish talabgorlariga bu boshqalardan prinsipial farq qiladi bunga Manuel Kastelsni kiritish kearak. Uning fikricha, «Global iqtisod – bu juda yangi tarixiy voqelik bo‘lib, dunyo iqtisodidan qarqlanadi, bunda kpital jamg’arish jarayoni butun dunyoda bo‘lib o‘tgan. Global iqtisod bu – iqtisod bo‘lib, unda milliy iqtisodlar globallashgan yadro faoliyatiga bog’liq. Oxirgilari o‘zida moliya bozorini, xalqaro savdo transmilliy ishlab chiqarish, ma’lum darajada fan-texnologiya va shularga kerakli mehnat turlarini o‘z ichiga oladi». Umuman global iqtisodni iqtisod deb qarash mumkin, uning asosiy komponentlari institusional, tashkiliy va texnologik salohiyatlarga ega bo‘lib, bir butun harakatlanish xususiyatlariga egadir, u real vaqtda yoki tanlangan vaqtda planetar masshtabda harakatlanadi.

Kenichi Omas koʻrsatganidek, iqtisodiy qiyinchiliklar koʻpayib borayotgani uchun eski iqtisodiy nazariyalarni endi ishlayotgani yoʻq natijada, hammasi oʻzgarmoqda. Globallashtirish dunyo ongida va uning aktiv rivojlanishiga kiber-madaniyat va har erdagi bozor kapitallashuvini oʻz hissasini qoʻshmoqda.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan olimlar fikridan kelib chiqib shularni ta'kidlashimiz mumkinki, globallashtirish tushunchasiga bir xil aniqlik berilmagan va «globallashtirish» tushunchasi mualluflar har xil tendensiyalar(mayllar)ni ta'riflash uchun ishlatilmoqda. Globallashtirishni koenseptual aniqlash va uni emperik koʻrsatish qiyin.

Bizning fikrimizcha, globallashtirishni aniqlashda jarayon yoʻnalishidan kelib chiqishi kerak. Jarayonda moʻljal qilish oxirgi maqsadni va natijani hamda dunyo iqtisodida bu subyektlarning oʻrnini tushinamiz. Eng asosiysi, bu jarayon va ularning natijalari dunyo iqtisodida subyektlar orasidagi real bog'lovchi zanjir boʻlib qoladi. Jarayonlarni modellashtirish, analiz qilish hamma sistemaning sifatini oshirish va effektivligini koʻpaytirish imkonini beradi. SHuni ta'kidlash kerakki, jarayon yoʻnalishini globallashtirishni aniqlashda E.Kochetov foydalangan unga koʻra, «globallashtirish» bu milliy iqtisodni va ularning xoʻjalik strukturalarini kapital, qimmatli qog'ozlar, tovarlar, xizmat koʻrsatish, ishchi kuchlarining qayta ishlab chiqarish transformasi boʻlib, unda dunyo iqtisodi nafaqat milliy iqtisodlar, moliya, valyuta, huquq, informasiya sistemalari yig'indisidan iborat boʻlmay bir butun geoiqtisodiy populyasiya boʻlib oʻz qonunlari bilan harakatlanadi.

Ushbu voqelikdan kelib chiqib, aniq qarama-qarshilik vujudga keladi: agar dunyo iqtisodini bir butun geoiqtisodiy populyasiya deb qaralsa va u oʻz qonunlari bilan harakatlansa, biz mustaqil jarayon tushunchasi bilan toʻqnashamiz, bog'liq boʻlmagan oʻzgaruvchanlik bilan ishlaydigan bunday jarayon natijasiga unga bog'liq boʻlmagan jarayonnning ishlashi (milliy iqtisod), chunki oxirgisi birinchisining oʻzgaruvchanlarini oʻzgartira olmaydi. Biz esa, globallashtirish bu oʻzaro bog'liq jarayonlar boʻlib, ular birgalikda oʻzlarini xarakterlaydigan oʻzgaruvchanlikdan foydalanadilar va bir jarayonni bajarish ikkinchisining natijasiga ta'sir qiladi. «Oʻzgaruvchanlar» bu jumlada kengroq interpritasiya qilishni talab qiladi. Oʻzaro harakatda qarma-qarshi jarayonlar yoki birgalikda umumiy ishni bajaruvchilar oʻzaro harakatda boʻladilar, oʻzaro muloqot jarayonlari natijasida bir-biriga ta'siri har doim oldindan koʻra olish va uni qaytarish mumkin emas. Model tuzish jarayoniga koʻpgina yashirin muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bizning fikrimizcha, jarayon yoʻnalishi boʻyicha globallashtirish bu ketma-ket qilinadigan harakatlar yig'indisi boʻlib, u dunyo iqtisodiy sistemasining kerakli yoʻnalishlarini aniqlashga, ular subyektlarining faoliyatini taxmin qilish natijada esa, boshqaruv effektiv strukturasini tuzish mumkin.

## Globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari

Reja:

1. Globallashuvning ilm-fan va texnika taraqqiyotiga ta’siri.
2. Globallashuv insoniyat va jamiyat hayotining turli sohalarida hamkorlik va aloqalarning kuchayishi sifatida.
3. Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning o’rni.

Globallashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, har bir shaxsning ma’naviyati va intellektual salohiyatiga yangicha talablar qo‘ymoqda. O‘z navbatida, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to‘laqonli a’zosi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda yuksak ma’naviyatli, yuqori bilimli va xalqaro talablarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e’tibor berilmoqda. Mamlakatimizda bunday mutaxassislarga bo‘lgan talab kelajakda ham oshib boradi. SHu bois yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash, ularni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda.

Globallashuv – bu butun jahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integrasiya va unifikasiyalashuv (bir-birga yaqinlashuv) jarayonidir. Asosiy xususiyatlari xalqaro mehnat taqsimoti, kapital, ishchi kuchi va ishlab chiqarish resurslarining erkin harakati, qonunchilik, iqtisodiy va texnologik jarayonlarni standartlashtirish, shuningdek, turli mamlakatlarning madaniyatining qo‘shilish va yaqinlashuvidir. Bu obyektiv jarayon bo‘lib jamiyatning barcha sohalarini qamrab oluvchi tizimli xususiyatga ega. Zero biz A.Toynbi ta’biri bilan aytganda, insoniyat,”umumiy uy”, “umumiy taqdir» va umumiy tashvishlar bilan yashashga kiririshayotgan[5], bir so‘z bilan aytganda globallashuv deb atalayotgan jarayonlar sodir bo‘layotgan zamonda yashamoqdamiz.

SHunday ekan, milliy mafkurani takomillashtirish masalasi ham endilikda nafaqat milliy, balki global xarakter ham kasb etadi. Lekin, globallashuv jarayoni N.Jo‘raev[6] to‘g’ri qayd etganiday, hozircha faqat qandaydir mavhum ijobiy jihatlari bilangina emas, balki ko‘proq “hozirgi davr global muammolari”ni vujudga keltirgani bilan xarakterlidir. Ko‘pchilik mutafakkirlar bu davrni xatto global kriziz (buxron) davri deb atamoqdalar. “XX asr krizisni kuchli his etish bilan boshlangan edi va shu hissiyot bilan poyoniga etdi”,[7] - deb yozadi, masalan, rus faylasufi S.I.Dudnik. Darhaqiqat, globallashuv zamonaviy jamiyatga ko‘plab ijobiy jihatlar olib kirish bilan birga, insoniyat taraqqiyotidagi shunday pallani ham o‘zida aks ettiryaptiki, endilikda dunyo xalqlari vujudga kelayotgan muammolarga qarshi yolg’iz kurasha olmaydi, ularni birgalikda hal qilish mumkin.

Globallashuvning salbiy oqibatlari asosan, quyidagi sohalarda namoyon bo‘lmoqda: ekologiya, sog’liqni saqlash, demografik, resurslar, axloq, oila, ta’lim-tarbiya, ma’naviy, dunyoqarash va boshqalar shular jumlasidandir. Ayni shu ma’noda bugungi kunda eng yangi fani sinergetika ham shu krizis holatini ifodalash uchun “global bifurkasiya nuqtasi” degan maxsus yangi tushunchani kiritgani, “katastrofalar nazariyasi”ni ishlab chiqqani bejiz emas. CHunki S.P.Kapisa, S.P.Kurdyumov, G.G.Malineskiy

[5] Qarang: Juraev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.221.
[6] Qarang: Jo’raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.459.
[7] Дудник С. И. Парадигмы исторического мышления XX века: очерки по современной философии культуры. СПб.: Санкт-Петербургское философское общество, 2001.Б.132.

ta'kidlaganlaridek, "Olimlar siyosatchilarning qo'liga butun Planetadagi hayotni bir emas, birnecha necha bor yo'q qilish quvvatiga ega bo'la oladigan qurollarni tutqazdilar, vaholanki, kelajakda ularni qanday yo'qotish va nima qilish mumkinligini aniqlashga harakat qilmadilar..., ular energiyaning yangi manba'larini kashf etdilar va emoqdalar, shuning bilan birga radioaktiv chiqindilar va yadroviy terrorizmdan qutulishday juda jiddiy muammolarini ham vujudga keltirdilar..., ular odamlarga antibiotiklarni sovg'a qildilar, ayni paytda, zararli mikroorganizmlarning tabiiy tanlanish jarayonini kuchaytirdilar."[8]

Oksford universiteti direktori, professor Nik Bostrom bu ishlarning salbiy oqibatlari haqida o'ylab ko'rilmayotgani haqida shunday deydi: "Texnologik progressning tezlashuvi tufayli insoniyat hozir o'z taraqqiyotining keskin burilish nuqtasga katta tezlik bilan yaqinlashib kelayotgan bo'lishining ehtimoli katta. Insoniyatga yaxshi tanish bo'lib qolgan yadroviy xavfu xatar yoniga endilikda nanotizimlar va mashina intellekti kabi sohalarning jadal rivojlana boshlagan texnologiyalari misli ko'rilmagan o'z imkoniyatlari va xatarlari bilan qo'shilmoqda. Bizning kelajagimiz, agar u bor bo'lsa, bizning ana shu jarayonlarga munosabatimizga bog'liq. Hamon biz jadal rivojlanayotgan texnologiyalarga bog'liq ekanmiz, insoniyat jamiyatidan "post-insoniyat" (keyingi insoniyat) jamiyatiga o'tish dinamikasini yaxshi anglab etishimiz kerak. Ayniqsa tuzoq qaerda joylashganini, muqarrar o'limga olib borishi mumkin bo'lgan yo'llarni payqay bilishimiz zarur."[9]

Bir necha yillik tadqiqotlari natijasida A.Chumakov "Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalarning, ma'naviy qadriyatlar, dunyoqarash yo'nalishlarini universallashuviga olib kelishi bilan birga, an'anaviylik, o'ziga xoslik va madaniy xilma-xillikni saqlashni istisno qilmaydi"[10], - degan xulosaga keladi. Bunday davrda shaxs murakkab ijtimoiy muhit sharoitida faoliyat ko'rsatishga majburdir. Inson yashayotgan zaminining, tinch va barqaror kechirayotgan hayotining mohiyatini to'la anglashi, qadrlashi, ya'ni ijtimoiy muhitning obyekti sifatida namoyon bo'lishi kerak. Globallashuv jarayonining hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek "...shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"[11].

Global miqyosdagi muammolar ilmiy munozaralar predmeti sifatida XX asrning 60-yillarida jahon hamjamiyatida jiddiy qiziqish uyg'otgan. 1930 yillarda E.Lerua, Teyyar de SHarden va V.I.Vernadskiylarning nazariyalarida insoniyat hamjamiyatning global mohiyati va uning Erdagi yashash tarixi uchun mas'uldir, degan fikrlar ilgari surilgan. Keyinchalik bu masalaga e'tibor bir muncha susaygani tashlanadi. 19-80 yillarga kelib mazkur masalaga oid tadqiqotlar jonlanganligi bizga ma'lum. Bugungi kunda globallashuv jaryonining jadallashuvi o'zaro aloqadorlik va o'zaro ta'sir dialektikasi

---

[8] Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего Изд. 2-ое. М.: Эдиториал УРСС 2001. - Б.3 – 5.

[9] Ник Бостром - Ph.D., is Director of Oxford University's new Future of Humanity Institute.Угрозы существованию человечества. Анализ сценариев вымирания. //2007. http://www.nickbostrom.com/

[10] Чумаков А.Н. Глобализация. Контуры целостного мира. - М., Проспект, 2005.С.259.

[11] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.

qonunlari asosida ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmoqdaki, bu o'z navbatida yoshlardagi ijtimoiy mas'ullik jarayoni zamonaviy ilm-fan yutuqlari, texnika-texnologiya, xalqaro axborot almashinuvining jadal rivoji bilan o'zaro aloqadorlikda yuzaga keladi.

Hozirgi kunda "globalistika" termini zamonaviy fan tilining ajralmas qismidir, ammo uning ma'nosi haqida hanuz turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ba'zilar bu yangi fan, u hali shakllanish jarayonida, deb aytsalar, boshqalar ilmiy bilish integrasiyasi natijasi, deb bilib, o'ziga xos fanlararo tadqiqotlar sohasi, deb tan olmoqda[12].

Globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi dunyoda davlatning raqobat shartlariga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy ustunligi – ta'lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni ma'naviy rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog'liq. Davlatning bugungi va istiqbolidagi barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlovchi omillar aynan ta'lim sohasi rivojlanishiga bevosita bog'liq. Shu sababli mustaqillikning ilk yillaridanoq iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta'lim sohasida jahonda munosib o'rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta'lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu borada alohida ahamiyat kasb etadigan siyosiy globallashuv davlatlarning siyosiy tuzilishini, xalqlar va mintaqalar o'rtasidagi siyosiy aloqalarning kengayishini, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi va oxir-oqibat, ularning unifikasiyalashuviga olib keladi. Bunda o'ziga xos siyosiy munosabatlar ko'lamiga ko'ra global va barcha davlatlarning ichki tuzilishi bir tarmoqqa ulanib ketishi kuzatiladi. Bu jarayonda milliy davlatchilik suverenitetiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan bir qancha holatlar mavjud. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Birinchidan, jahon siyosiy sahnasida transmilliy korporasiyalar, nodavlat hamda xalqaro tashkilotlar, xalqaro kapital kabi yangi qudratli siyosiy subyektlar shakllanmoqda. Ular siyosatning an'anaviy subyekti — milliy davlatchilik suverenitetining ikkinchi darajaga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, globallashuv xalqaro huquq asoslariga sezilarli ravishda ta'sir etyapti. Bu esa davlatlarning o'z hududida huquqiy suverenitetidan qisman ayrilishiga olib kelmoqda. Natijada milliy davlatlarning nafaqat tashqi, balki ichki siyosiy masalalarini mustaqil echish imkoniyatlari chegaralanmoqda. Ma'lum bir davlatning ichki siyosatini tashkil etadigan muammo (ichki ixtilof, siyosiy kurash, saylov jarayonlari va boshqalar) bugungi kunga kelib, global ahamiyat kasb etib boshqa davlatlarning manfaatlariga ham daxldor bo'lib qolmoqda.

Uchinchidan, kishilar ongida davlatchilik suvereniteti asosini tashkil etuvchi hududiy omil globallashuv samarasi o'laroq, o'zining an'anaviy ahamiyatini yo'qotmoqda va tabiiy ravishda davlat hokimiyati mavqeiga ham putur etmoqda. Boshqacha aytganda, milliy chegaralar tobora shaffoflashib bormoqda.

To'rtinchidan, butun dunyo bo'ylab bir qator g'arb davlatlari rahnamoligida "demokratiyalashuv" jarayoni jadallashmoqda va buning natijasida ayrim davlatlarning o'ziga xos demokratik taraqqiyotiga chetdan kuchli ta'sir o'tkazilyapti. YA'ni, bu jarayondan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga urinayotgan globalizm g'oyasi asoschilari boshqa mamlakatlarning siyosiy boshqaruv tizimini o'z qo'llariga olishga urinmoqdalar. Misol uchun, MDHga a'zo bir qator davlatlarda 2005 yilda yuz bergan

---

[12] Қаранг: Чумаков А.Н.Философия глобальнқх проблем. - М.: Знание, 1994. С.77-80.

"inqiloblar", siyosiy globallashuv mahsuli bo‘lib, ushbu jarayon asoratlarining qanchalar xavfli ekanligidan darak beradi. Ushbu voqealar shundan dalolat beradiki, yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar boshqa davlatlarning suvereniteti va ichki ishlariga aralashmaslik prinsipini pardalangan shaklda buzmoqda. Bunda siyosiy globallashuv jarayonining yana bir mahsuli – nodavlat tashkilotlarning resurslari va nufuzidan tashkiliy niqob sifatida foydalanish dunyo bo‘ylab keng tarqalmoqda. Ayni shu ma’noda A.V.Buzgalin “Globallashuv siyosatga ta’siri kuchli bo‘lib, havfsizlik va iqtisod sohasida davlatlarning bir-biriga tobeligini kuchaytirib, har birining jahon sahnasidagi ustuvor jihatlarining chuqur o‘zgarishiga olib keladi. Tashqi siyosiy vositalar arsenaliga boshqacha nuqtai nazardan qarashga majbur qilib, jahon siyosatining tadrijiylashish jarayonining tezlashib ketishiga olib keladi”[13], - deb yozadi.

Globallashuv fenomeni obyektiv va ochiq ekanligini hisobga olinsa uning turli muqobillarda namoyon bo‘lishi tabiiy tus oladi. SHunday ekan globallashuv jarayonining biror-bir aspektini mutlaqlashtirib, unga mutlaq ijobiy yoki mutlaq salbiy jarayon sifatida qarash nojoizdir. O‘z navbatida nemis sosiolog olimi U.Bek “SHubhasiz, globalizasiya eng ko‘p qo‘llaniluvchi va eng ko‘p suiste’mol qilinuvchi va eng kam o‘rganilgan, ehtimol tushunarsiz mavhum, siyosiy jihatdan samarali so‘zdir (bahs-munozarada kuchli qurol, shior)”[14], - deb yozadi.

Globallashuv jarayonida axborot olishning tezlashuvi, shuningdek, internet orqali uzatiladigan turli yangiliklarni ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilish masalalarini e’tibordan chetda qoldirmaslikni taqozo etadi. Masalan, globallashuv haqida 1998 yilda Nobel mukofotini olgan Portugaliyalik yozuvchi J.Saramagu: “Men antiglobalistik harakatlar tarafdoriman. CHunki menga hozir sayyoramizda keskin tezlikda shakllanayotgan tartib, nizom yoqmaydi” - degan bo‘lsa, J.Soros “globallashuvning shuncha kamchiliklariga qaramay, men uning rashkchi tarafdoriman. Men uni qo‘llab-quvvatlashim sababi nafaqat u beradigan qo‘shimcha boyliklar, balki u odamlarga berishi mumkin bo‘lgan erkinlik sababli hamdir”[15], - deb yozadi.

Umuman olganda, globallashuv murakkab va serqirra jarayon bo‘lib, uni turli mamlakatlar hayotiga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlicha. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog’liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish, davlatlar kelajagini belgilab beruvchi asosiy omil bulib qolmoqda.

Yangilangan shaklda globalistika sovuq urushdan keyingi davrda dunyoni anglashning qutblanishini bartaraf eta olmasa, uni susaytira oladi. Globalistikaning umumilmiy va universal-evolyusion tili xususiy, masalan, iqtisodiy fanlar cheklanganligini bartaraf etish, mavjudlik va ongning globallashayotgan kapitalizm o‘sishi ortida yashirin tobora chuqur plastlarini tasvirlashga yordam beradi. YAngi globalistika kapitalistik dunyo tartibi muammolarini yangi yuzaga: insoniyatning yashab qolishi va xomo sapiens mavjudligi davridan tashqari tarix istiqbollariga ko‘chiradi. Uning «so‘l» tadqiqotchilarga ta’siri ayniqsa samarador. Ular ga globalistika tanqidiy zapalni saqlagani holda utopik ortodoksiyalar o‘zaniga qaytmaslik imkonini beradi. U

[13] Қаранг: Бузгалин А.В. Альтерглобализм: к теории феномена// Наука. Общество.Человек. - М., 2004.
[14] Бек У.Что такое глобализация? М., 2001.Б.40.
[15] Сарамагу Ж. Почему я поддерживаю антиглобалистов//Росси в глобальной политике. 2003.№1.С.176. Сорос Дж. О глобализации.М., 2002.С.22.

global muammolarning noglobal echimlarini izlashni rag'batlab, gumanizmga zaruriy pragmatiklik baxsh etadi.

Bugungi davr maishiy ongimizda plyuralizm, fragmentarlik va parchalanganlikning gullab-yashnashi bilan assosiasiyalanadi. Har erda bog'lanishsiz hodisa va obrazlarning parchalari va ayqash-uyqushligi ko'zga tashlanadi. Bu kabi tasavvurlarning shakllanishida bizning davrimizda ustivorlik qilayotgan postmodernizm mafkurasi katta rol o'ynamoqda. Falsafa yuritishning bu usuli har erda inson va jamiyat mavjudligining odatiy asos va orientirlari (yo'nalganliklari) ni dekonstruksiyalash urug'larini, qayta hududlashtirish va markazdan chiqarish (deterritorializasiya va desentralizasiya) urug'larini sochmoqda. O'zining bu ko'rinishida postmodernizm ommaviy ongning in'ikosi yoki uning shakllanish omili, ommaviy falsafa sifatida idrok etilmoqda. Biroq u bor-boricha faqat yuzada yotganlarni aks ettiradi. Bu, jumladan, zamonaviy dunyoning "odatiy" fragmentarligiga ham taalluqli. Biroq bu nuqtai nazar bir muncha vulgar (odobdan tashqari) ko'rinadi, zero o'z mohiyatiga ko'ra, ich-ichidan to'yingan davr g'ayriodatiy yaxlit sanaladi. Bu yaxlitlik postzamonaviylikning fatal xavotirliligi dan iborat, uni niqoblash va nazariy aldovga urinishlarning hech biri yashira olmaydi.

Er sayyorasidagi barcha insonlarning taqdiri yaxlitligi va birligi shu muqarrarlikdan iborat. Kim uchundir kutilmaganda, kim uchundir oldindan ma'lum va xatto oldindan belgilangan holda mazmunlar va mantiqiy sxemalarning fragmentar parchalari postmodernistik xaosi (tartibsizligi) globalizasiya nomi bilan qolgan barcha zamonaviy hamjamiyatlarga o'zini majburan singdirayotgan bir muncha primitiv (sodda) tartiblanganlik ksb etmoqda. Biroq bu hali globallashuv emas, faqat globalizm xolos. Mazmun nuqtai nazaridan, globalizmda sira ham etnoslar, madaniyatlar va siyosiy institutlarning har biridan eng yaxshisini o'zlashtirish va uni umumiy yaxlitlikka kiritish emas, balki g'arb, ayniqsa amerikacha madaniyatning qolgan barchasi ustidan g'alabasi o'z ifodasini topmoqda.

Globalizm ortidan globallashuv hamma vaqt yuzaki jarayon sifatida qiziqtirib namoyon bo'ladi. Bu jamiyatning istalgan sohasini, hoh iqtisod, hoh siyosat va boshqa istalgan sohaga taalluqli. Darhaqiqat, globallashuv unga birinchi qarashda er shari aholisidan yagona insoniyatni shakllantirishga olib keladigan turli mamlakat kishilari, etnoslar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning kuchayishi sifatida namoyon bo'ladi. Misol tariqasida insonlarni butun dunyo bo'ylab kommunikasion bog'laydigan texnologiyalar, barcha mamlakat va millat vakillari ishlaydigan, reklamasi istalgan qit'adagi istalgan irqdagi kishini ta'qib qiladigan transmilliy korporasiyalar faoliyatini keltirishadi. Hamma erda aynan shuni eyishadi, kiyishadi, ichishadi, kuylashadi, hamma joyda Disneylend va Makdonalds.

Biroq "globallashuv" termini ifodalagan jarayonning miqyosi va kuchi aynan uning o'zi qanday bo'lmasin aloqador bo'lgan har narsani yuzaga keltirishga qodirligidadir. Bunda quyidagilar tushunarsiz qolib ketadi: yoki a) globallashuv ijtimoiy munosabatlarning "qashshoqlashishini" va desubstansionallashishini keltirib chiqaradi, yoki b) narsalar chindan ham "silliqlashib ketgan" va globallashuv diskursi buni faqat aks ettiradi va tasvirlaydi. Biroq haqiqat har doimgidek o'rtada, yuqorida keltirilgan dilemmani hal qilish variantlari shunchaki aynan bir jarayonning ikki tomoni xolos.

**Siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi**

Reja:

1. Siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi integratsiya. O'zbekiston va jahon.
2. Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya.
3. Insoniyat ehtiyojlarining o'sib borishi va uning iqtisodiy globallashuvga ko'rsatayotgan ta'siri.

Hozirgi zamon xalqaro munosabatlar tizimining o'ziga xos xususiyatlaridan biri har qaysi mamlakatda sodir bo'layotgan salbiy, ijobiy voqea-hodisalar dunyoning boshqa hududlariga tez orada tarqalishi va, o'z navbatida, xalqaro munosabatlar tizimiga ta'sirda bo'lishidir.

Xalqaro munosabatlarda jadal suratda rivojlanib borayotgan globallashuv va integrasiya jarayonlari esa buning yaqqol misolidir.

Millatlar va milliy manfaatlar, milliy ehtiyojlar mavjud ekan, ularni nazar-pisand qilmaslikka aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bir millatning
manfaatlari boshqa millat va elatlarning manfaatlaridan ajratilmagan holda o'rganilishi lozim. Milliy va umumilliy manfaatlar bir-biri bilan
uzviy bog'liqdir. Shuning uchun ularni bir-biridan ajratib yoki bir-biriga
qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Umumilliy manfaatlar milliy manfaatlarga qaraganda ustuvor turadi.

Milliy manfaat – xalqaro munosabatlarda ikki ma'noda ishlatiladi:

1. Ma'lum bir davlat tashqi siyosatining maqsad va vazifalarini aniqlab beruvchi tadqiqot quroli sifatida.

2. U yoki bu davlat siyosatini oqlash uchun ishlatiladigan keng ma'nodagi siyosiy tafakkur to'g'risidagi tushuncha sifatida.

Har ikkala ma'noda ham milliy manfaat davlat siyosatining tashqi muhit bilan o'zaro munosabati vositasi deb qaraladi. U faqat suveren davlatga xos va asosan tashqi siyosatga taalluqli: ichki rang-baranglik asosan davlat manfaati (jamiyat manfaati) deb hisoblanadi.

Tashqi siyosat masalalarini mustaqil hal qilish tajribasi amalda bo'lmagan bir sharoitda O'zbekiston Prezidenti mamlakat etakchisi sifatida
respublika tashqi siyosiy faoliyatini rivojlantirishning milliy-g'oyaviy negilarini belgilab berdi. Bu negizlar I.A.Karimovning "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida o'z aksini topdi va milliy-ma'naviy davlat konsepsiyasi darajasiga ko'tarildi. Prezidentimiz I.A.Karimov zimmasiga yo'q narsani yaratish mas'uliyati yuklangan edi.

Prezident I.A.Karimovning Germaniyaga safari uning tashqi siyosat borasidagi imkoniyatlari tobora kengayib borayotganini, vaqt o'tgani sari bu fazilat takomillashib, kamolotga etayotganini ko'rsatdi. Yuksak madaniyatga asoslangan diplomatiya, muzokaralarda tenglikni saqlab turish, ayni paytda o'zini erga urmagan holda, suhbatdoshining izzatini joyiga qo'yish, manfaatlar to'qnashganda esa qat'iyat, o'ziga ishonch va o'zgani ishontira olish, xalqaro muammolarni hal etishda donishmandlik bilan yondoshish va asosli fikrlarni o'rtaga tashlash salohiyatini yorqin namoyon etadi.

O'zbekiston rahbarining Germaniyaga borishi haqidagi xabar o'sha paytlarda dunyoga tez tarqaldi va katta shov-shuvlarga, munozaralarga sabab bo'ldi. Jahon siyosatdonlari, sharxlovchilar, voqeatalab muxbirlar Karimov

nemis yurtidek boy va taraqqiy etgan mamlakatga iltijo bilan, moddiy yordam surab keldi, degan xulosada edilar.

SHuning uchun tayyora pillapoyasidayoq Prezident Karimovni savollarga ko‘mib tashlashdi-yu, yosh, hali oyoqqa turib ulgurmagan mamlakat rahbarining g’oyat sokin va bamaylixotir javoblaridan hayratga tushishdi. *“Men O‘zbekistonni nemislarga tanitgani keldim”,*[1] – dedi Prezident. Safar davomida I.A.Karimovning o‘z yurti, millati, uning tarixi, jahon sivilizasiyasiga daxldor madaniyati, rivojlanishning juda kata iqtisodiy, tabiiy va ma’naviy imkoniyatlariga ega ekanligi, shuning uchun ham O‘zbekiston faqat tengma-teng hamkorlikka tayyorligi haqidagi mulohazalari chindan ham dunyo jurnalistlari diqqatini tortdi. Bu ular uchun kutilmagan holat edi.

Aynan milliy g’oya insonlarni milliy g’ururli, or-nomusli, halol-pok, iymonli, e’tiqodli, sadoqatli, vatanparvar etishga chorlaydi. Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “...xalqimizning asriy an’analari, urf-odatlari, tili va ruhiga asoslangan holda milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mushtaraklikda kelajakka ishonch, ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, insonparvarlik, vijdonlilik, mardlik va chidamlilik adolat, bilimga va ma’rifatga intilish tuyg’usini odamlar qalbi va ongiga etkazish uchun xizmat qilmog’i darkor. U davlat fuqarolarining buyuk maqsad yo‘lidagi ruhiy yaqinlashuviga hamkorlik etmog’i lozim”.

Albatta, davlat – jamiyat siyosiy tizimining o‘zagi, mamlakat barqarorligi va izchil taraqqiyoti uchun mas’ul bo‘lgan siyosiy institutdir. SHu ma’noda, u jamiyatning o‘z milliy g’oyalari atrofida mustahkam jipslashuvi, fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi asosida hayotda mafkuraviy jarayonlarning muvofiqlashuvidan manfaatdor. Bosh islohotchi sifatida davlat ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, milliy xavfsizlik, kelajak hayot manfaatlaridan kelib chiqib, jamiyatda milliy istiqlol g’oyalarini keng yoyish borasida faoliyat olib boradi.

Buni xorij tajribasida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Bu mamlakatlarda
yuzaki qaragandagina, g’oyaga, mafkuraga u qadar katta e’tibor berilmaydigandek tuyuladi, xolos. Masalan, AQSHni olaylik. Bu erda har bir inson ongiga “Sen amerikaliksan, ozodsan”, “sening ozodligingga daxl qilishga xech kimning xaqi yo‘q”, degan g’oya bolaligidan singdiriladi. Natijada bu mamlakat fuqarosi, dunyoning qaerida bo‘lmasin, “Men-amerikalikman” deb g’ururlanadi va atrofdagilarni ham shu fikrga bo‘ysindiradi. YOki Angliya va ingliz tili amal qiladigan davlatlardagi maktablarda “men” so‘zini bosh harf bilan, “siz” so‘zini esa, aksincha, kichik harf bilan yozishga o‘rgatiladi[2].

Shuning uchun Ismoil Gaspirali “Ovrupa bir keksa choldir, tajribasi ko‘pdir. Ulug’ yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o‘rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz... Ovrupada nimani ko‘rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli-xushli insonlardek “Bu nimadir? Oqibati nima bo‘ladi?
Vijdon va xaqqoniyatga uyg’unmi?” deya aql tarozisiga tortib olamiz”, – deb ta’kidlagan edi. Bu da’vat bugungi murakkab bir sharoitda o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Chunki ota-bobolarimiz ugitlarida o‘zlikni anglash, dunyoviylikka intilish, bosiqlik va bag’rikenglik bizga meros qolgan. Bular esa o‘z navbatida ajdodlarimiz orzu qilgan mustaqillik, mamlakatda tinchlik-totuvlikni ta’minlashning asosiy omillaridir.

---

[1] Jo’raev N.Q. Agar ogoh sen... – T.: YOzuvchi. 1998. – B. 115.

[2] G’aniev A. G’arb olamidagi axloqiy muammolar. – T.: Voris, 2007, – B. 6.

Insoniyat XXI asr bo‘sag’asida chegara bilmaydigan yangi muammolarga duch keldi. Terrorchilik, narkobiznes, giyohvandlik, ekologik falokatlar, buyuk davlatchilik, shovinizm, diniy ekstremizm, ma’naviy qashshoqlik shular qatoridandir. SHu bilan birga dunyoda globallashuv, axborot tizimining takomillashuvi, universal texnologiyalarni joriy etilishi bilan bog’liq ulkan jarayonlar ham sodir bo‘lmoqda.

Dunyoni termoyadro xavfidan qutqarish, xalqlar va davlatlar o‘rtasida mo’tadil iqlimni vujudga keltirish, diniy ekstremizm, fanatizm, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, narkotik moddalarning tarqalishiga chek qo‘yish singari global muammolarni, mintaqaviy mojarolarni bartaraf etishda yuksak siyosiy madaniyatga erishish XXI asrning dolzarb masalalaridandir. Prezident I.A.Karimovning BMT 48-sessiyasida Ushbu global muammolar echimi yuzasidan bildirgan quyidagi mulohazalari e’tiborga molikdir: “Dunyo mojarolarini hal etishda sharqona munosabatlar ilmini egallash zarur”. Yurtboshimiz shu tariqa buyuk davlatchilik shovinizmi, katta davlatlarning kichik davlatlarga tazyiqi, zo‘ravonlik illatlariga barham berish, dunyo muammolarini hal etishda va jahon ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini yaxshilik sari burishda muzokaralar yo‘lini tanlash, har qanday mojaroli masalalarni aql-idrok, yuksak siyosiy tafakkur va madaniyat orqali hal etish zarurligini o‘qtirgan edi.

Eryuzining turli mintaqalaridagi xalqlarning ongini g’oyalar bilan sinaydigan mafkuraviy poligonlarga aylantirmoqda. Ana shunday mafkura poligonlari sinovdan o‘tayotgan g’ayriinsoniy g’oyalarga qarshi hozir sog’lom mafkuraviy immunitetni yaratishimiz lozim. Buni nazarda tutib, Prezident I.A.Karimov “Siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vakuum- bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Ya’ni, agar o‘z g’oyang bo‘lmasa, sening yurtingga chet g’oya kelib hukmronlik qiladi”, – deb ta’kidlaydi.

Globallashuv jarayonida g’oyaviy kurashning juda katta imkoniyatlaridan o‘zining g’arazli maqsadlari yo‘lida foydalanayotgan guruhlar, tashkiliy va moliyaviy jihatdan to‘la ta’minlangan muassasalar turli niqoblar ostida missionerlik vazifasini bajarayotgan kuchlar ham bor.

## Madaniyat sohasidagi globallashuvning mohiyati

Reja:

1. Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati.
2. Madaniy muammolar va milliy-ma’naviy qadriyatlarning saqlash zaruriyati.
3. Globallashuv sharoitida ta’lim sohasidagi, «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar.

Bugungi davr fenomeniga diqqat bilan nazar tashlaydigan bo‘lsak, u o‘zining barcha xislatlari bilan oldingi davrlardan keskin farq qilishiga, hamda oraliq bosqichlarining nihoyatda qisqa davom etishi va tez o‘zgaruvchanligiga amin bo‘lamiz. Jumladan, sobiq sovet imperiyasi va sosializm lagerining emirilishi natijasida vujudga kelgan ikki qutubli dunyoni barham topishi va ko‘p qutbli dunyoni shakllanishi uchun sharoitlarni ochilishi vaziyati tez orada yangi o‘ta murakkab va qarama-qarshiliklarga nihoyatda boy holat bilan almashdi. Bu davrning eng asosiy o‘ziga xosligi, xalqaro globallashuv jarayonlarining o‘ta ziddiyatli tus olganligi bilan xarakterlidir.

Buning natijasida nafaqat ko‘p qutbli, adolatli dunyoning shakllanishi qiyinlashdi, balki shu paytgacha mavjud bo‘lgan xalqaro barqarorlikning zaminlari zaiflashdi. Globallashuv jarayonlarining yangi xususiyatlarining ta’siri natijasida xalqaro hamjamiyatning ichki siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalaridagi muvozanat buzila boshladi. Natijada global dunyoning strukturasi bugungi kunda o‘ta murakkablashib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida dunyoda yagona hamkorlikka asoslangan tartibotni mustahkam ravishda barpo qilinishiga jiddiy to‘siq bo‘lmoqda.

Ko‘pchilik olimlar siyosiy-ijtimoiy qarashlarida hozirgi davrning hususiyati «modern» bosqichining tugashi va «posmodern» bosqichini boshlanishi bilan belgilanadi, degan fikrlarni bildirmoqdalar. Vaholanki jahon siyosiy, iqtisodiy jarayonlarida liderlik kilayotgan ayrim mamlakatlar amaliyotida «imperiya» g’oyalarining og’ir merosidan xanuzgacha qutula olinmaganlik holatlarini bugungi kunda yaqqol kuzatish mumkin. Jumladan, G’arbning xususan, AQSHning o‘z madaniyati siyosiy-ijtimoiy taraqqiyot modelini universal model sifatida yoyishga qaratilgan messianerlik xatti-harakatlari fikrimizning yorqin dalilidir. Mazkur lider mamlakatlarning ushbu tarzdagi faoliyati tufayli XX asr oxiri va XXI asr boshlariga kelib globallashuv hodisasi o‘zining o‘ta salbiy jihatlarini keskin ravishda namoyon qila boshladi.

Shu munosabat bilan «dunyo - hozirgi vaqtda asta-sekin adolatli, erkin bozor, ochiq jamiyat, yakka g’oyalarning hukmronliklarining butunlay o‘tmishda qolib ketganligi haqidagi hayoliy fikrlardan toboro uzoqlashib protoimperiyaning hukmronligi tomon harakatlanib bormoqda. Ayni paytda bu harakat tufayli jahonda o‘ta yirik transmilliy korporasiyalar, «global hukmdor» bo‘lishga intilayotgan davlatlar (birinchi navbatda Amerika qo‘shma SHtatlarining) hukmronligini qaror topishi tomon bormoqda».[1]

Ushbu holat insoniyat orzu qilgan adolatli, erkin jamiyatning shakllanish jarayonlari oldida ilgari misli ko‘rilmagan yangi muammolar paydo bo‘la boshladi. Uning asosiy jihatlaridan biri shundaki, bunday sharoitda milliy davlatlarning statusi o‘zgarib keta boshladi. Ya’ni suveren davlatlarning mustaqil taraqqiy qilishga bo‘lgan haq-huquqlariga taziyq o‘tqazish holatlari kundalik amaliyotga aylanmoqda.

Demak hozirgi davrni yangi turdagi imperiya g’oyalarini amalga oshirishga qaratilgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, madaniy xatti-harakatlar, tendensiyalar kuchaygan va shu bois ham mustaqil ma’rifiy demokratik tarakqiyot uchun imkonyatlar, shart-sharoitlar jiddiy ravishda qiyinlashgan, insoniyat oldida echilishi lozim bo‘lgan muammolar ko‘lami nihoyatda ko‘payib ketgan davr deb hisoblash mumkin. Ushbu vaziyat o‘zining ko‘pgina jihatlari bilan XX asr o‘rtalaridagi totalitar jamiyatlarning g’oyaviy, siyosiy va ma’naviy muxitini eslatib turadi. Bugungi kunda ham xuddi o‘sha davrlardagidek jahon taraqqiyoti tizginini o‘z qo‘liga olishga harakat qilayotgan mamlakatlar o‘z maqsadlariga erishish uchun boshqa mamlakatlarga nisbatan g’oyaviy xurujlarni keng qamrovli ravishda kuchaytirmoqsalar. Ularning tashqi siyosatlari tufayli turli mafkuraviy o‘yinlar, g’irromliklar borgan sari kuchayib bormokda. Faqat bu xurujlarning oldingi davrlardan farqi shundaki, ular «sivilizasiyani saqlab qolish bo‘yicha tarixiy missiya», «sivilizasiyani saqlab qolish zarurati obyektiv tufayli mas’uliyatni elkaga olish» kabi yangi, balandparvoz so‘zlar bilan niqoblangan.

---

[1] Бузгалин А.В. Постмодернизм устарел...(Закат неолиберализма чреват угрозой «протоимперии»), -Вопрось! философии, - 2004. - №2. - Б.9.

Bunday sharoitda «davr va tahdid» tushunchasining hamda amaliyotining o‘ziga xos ma’no va mazmun kasb etishi tabiiydir. Shu bois ham bunday vaziyatda jamiyatimizning mustaqil demokratik taraqqietining xavfsizligini ta’minlash masalalari obyektiv ravishda oldimizga yangi va yanada murakkabroq vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Ushbu qaltis vaziyatda tanlagan yo‘limizdan sobitqadamlik bilan borishimiz uchun hozirgi davr vujudga keltirgan taxdid omillarini har tomonlama chuqur anglash va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llarini izlab topish, hamda amaliyotda qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tan olish kerak, g’arb olamini chuqur larzaga solib turgan axloqsizliklarning hozircha beozor ko‘ringan, ammo kelgusida millat boshiga ulkan balo sifatida tushishi mumkin bo‘lgan ayrim ko‘rinishlari ildiz otishni boshladi. O‘zi bunday buzuqliklardan qanday qutilishni bilolmay boshi qotgan G’arb bugun o‘zining rasvo «madaniyati»ni yosh, mustaqil mamlakatlarga «eksport» qilishga urinayotgani, bu borada ancha-muncha yutuqlarga erishayotgani hech kimga sir emas. Bu «madaniyat» parabolik antennalar, internet tizimi, turli yo‘llar bilan o‘lkamizga yashirincha olib kirilayotgan shahvatparstlik va buzuqlikni targ’ib qiluvchi gazeta-jurnallar, kompakt disklar, kitoblar va filmlar, klip va boshqa manbalar yordamida hech qanday so‘roqsiz xonadonlarimizga kirib kelyapti. Bir qarashda beozorday ko‘ringan bu «madaniy yurish» aslida uzoqni ko‘zlab, aniq va puxta rejalar asosida amalga oshirilayotgan ulkan qo‘poruvchilik xurujidir. CHunki ilgari o‘zga mamlakatlar katta armiyalar va vahshatli qurol-yarog’lar vositasida bosib olingan bo‘lsa, hozirga kelib mustamlakachilik siyosati millatlarning axloqi va dunyoqarashini o‘zgartirish orqali dunyoni zabt etishga qaratilgan. CHunki asoslaridan uzilgan, o‘zligini yo‘qotgan, milliy g’ururi va nomusini boy bergan manqurt kimsalarni engish, qullikka solish, boshqarish ancha oson kechadi.

«Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi», deydi dono xalqimiz. YAshirib nima qilamiz, hozir G’arbdagi shahvoniy va buzuq «madaniyat»ning ayrim ko‘rinishlari xalqimizning ozchilik bir qismi orasida nish urayotgani, ildiz otayotgani sir emas. Ehtimol, kimlardir kaminani «bo‘yoqni quyuqlashtirib yuborayotganlik»da ayblamoqchi bo‘lar? Lekin masalaga jiddiy qaraydigan bo‘lsak, ahvol o‘sha kimlardir o‘ylayotganidan ham xavotirli, qo‘rqinchli…

Bir vaqtlar nomahram kishi hovli eshigini taqillatsa, ovozimiz tashqariga chiqmasin, deya tomoq qirish bilan javob qilgan momolarning nevara-chevaralari bugun yarim yalang’och, qornilariyu siynalarini ko‘z-ko‘z qilib yurishdan uyalmaydigan ahvolga tushishdi. Bir vaqtlar hatto nikohdagi erlari ko‘ziga qarashga botina olmagan hayoli onalarning farzandlari bugun shaloq so‘zlar bilan so‘kinadigan, erlari bilan tikkasiga aytishadigan, hatto ularga qo‘l ko‘tarishgacha boradigan shallaqilarga aylanayotgani ham bor gap. Ko‘cha-ko‘yda halol erlarining qo‘lidan ushlashga iymangan momolarning zurriyodlari bugun tanfurushlik qilishdan, hatto boshqa o‘lkalarga borib fohishabozlik qilishdan tortinishmayapti. Kelin va qaynotaning o‘pishib ko‘rishishi, singilning aka oldida yarim yalang’och, siynasini ko‘rsatib bemalol yurishi, hali nikohdan o‘tmagan kelinning kuyovjo‘ralar bilan bemalol muloqotga kirishishi, hatto raqsga tushishi, bog’cha bolalarining erkak va ayol jinsi haqida kattalarday fikr yuritishini ham zamonga to‘nkash g’irt johillik va g’ofillikdir.

«Qush uyasida ko‘rganini qiladi», degan maqol bor. Hayo va iffat unutilgan, kattalar bemalol shaloq so‘zlarni tilga oladigan, bolalar huzurida uyatli filmlar yoki qo‘shiq kliplari xotirjam tomosha qilinadigan, ota-onalari balog’atga etgan qizlari bilan

behayo sahnalarni ko‘rishdan uyalmaydigan xonadonlarda o‘sgan bolalarning jinsiy tarbiyasi yaxshi bo‘lishiga hech qanday kafolat yo‘q. Fohishabozlik, buzuqlik yo‘lini tanlagan yigit-qizlarning aksariyati ana shunday hayosizlik ufurgan oilalarda «kamolga etganini»ning o‘ziyoq fojianing butun ko‘lamini aks ettiradi.

Onda-sonda bo‘lsa-da, yoshlar orasida bunday nomussizliklarning turli ko‘rinishlariga duch kelinmoqda. Yaqinda jurnalist do‘stimiz ayanchli bir voqeani so‘zlab berdi: kollejlardan birining muallimi o‘zi dars berayotgan gruppa qizlarining barcha qo‘l telefonlarini yig’ishtirib olib, ichidagilarini tekshirib ko‘ribdi. Natija u kutganidan ham dahshatli chiqibdi: oltmish beshta qo‘l telefonining ellik uchtasida buzuq, uyatsiz filmlardan lavhalar yozib olingan ekan. Qolganlarining egalari hayoli ekan-da, deb o‘zingizni ovutmang, ularning telefonlari bunday narsalarni yozolmaydigan oddiysi ekan.

Yoki boshqa bir voqea: tuppa-tuzuk bir oilaning yolg’izgina qizi kechqurun bir dugonasini uyga boshlab kelibdi. Ota-onasiga «dugonam bilan imtihonga tayyorlanmoqchimiz, bizga halaqit bermanglar», deya tayinlab xonaga kirib ketishibdi. Ularning uzoq vaqt jimib ketganidan ko‘ngliga shubha tushgan ota tashqaridagi derazadan qiya qolgan parda orqali qizining xonasiga qarabdi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, ikki dugona karavotda yalang’och holda ro‘paralaridagi ekranda namoyish etilayotgan buzuq sahnalarni hayotda «ijro etishar» edi. Bunday misollar yozuvchi xayolining mahsuli yoki kamyob va nodir hodisa bo‘lganida edi, bu haqda yozib, muhtaram o‘quvchining qimmatli vaqtini olmagan bo‘lur edik. Ammo, ming afsuski, bular haqiqat va tobora urchib borayotgan illatlardir.

## Globallashuv va axborot texnologiyalari

Reja:

1. Axborot texnologiyalari globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Internet axborot globallashuvining o‘ziga xos vositasi.
3. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo‘llari.
4. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi.

Global axborotlashuv asri nomi bilan tarixga kirgan XXI asrni zamonaviy ommaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari, xususan, radiotelevidenie, Internet tarmog’isiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, internetning imkoniyatlari keng va cheksiz bo‘lib, u gazeta, radio va hatto televideniedan ko‘ra ham kuchliroq ta’sirga ega. Axborot uzatish, almashinish va qabul qilish jarayonida tezkorlik, aniqliq, sifat va tasirchanlikni taminlash, axborotni global miqyosda keng yoyilish imkoniyatlarini ochib berishi “butun jahon o‘rgimchak to‘ri”ning ahamiyatini, undan foydalanish ehtiyojini orttirmoqda. O‘zbekistonga ham Internet shiddatli qadamlar bilan kirib kelmoqda va kundalik hayotimizda o‘zining o‘ringa ega bo‘lmoqda. 2008 yilga kelib O‘zbekistonda Internet foydalanuvchilari soni 2 mln 200 ming kishidan oshib ketdi. Fan-texnikaning yutuqlari insoniyat foydasiga, ezgu maqsadlarga xizmat qilishi ijobiy holat. Lekin, virtual olamdan ayrim kuchlarning g’arazli niyatlarini amalga oshirish uchun foydalanayotganligi ham haqiqatdir.

Afsuski, elektron dunyoni turli siyosiy kuchlar, terroristik, ekstremistik-tashviqotlar va g’oyalarni targ’ib qiluvchi, har-hil jinoiy to‘dalarning faoliyatlarini amalga oshirishlariga va o‘z qarashlarini ommaga targ’ib qilishlariga ham

ko‘maklashmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstrimizmning “Al-Qoida”, “Hizb ut-tahrir”, “Hamas” kabi yirik tashkilotlarining tahdidlari, Internet tarmog’ida ham o‘zlarining mafkuraviy maydonlarini yaratib, umumjahon kompyuter tarmog’ida keng qamrovli axborot terrorini, "muqaddas urush" - "elektron-jihod"ni olib borayotganliklari, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar va yangi muammolar paydo qilayotganliklari, ayni paytda, globallashuv sharoitida, dunyo mamlakatlarining oldida axborot xavfsizligini taminlash muammolarini keltirib chiqarmoqda. Tarmoq ichida insoniyatga qarshi, yoshlarga qarshi tajovuzlar bilan yo‘g’irilgan giyohvand moddalar istemol qilish, sotish, axloqsizlik, zo‘ravonlik, qotillik va millatlararo, dinlararo va irqiy murosasizlik keltirib chiqarishni keng targ’ib qiluvchi, terrorchilik va ekstremistik tashkilotlarga xizmat qilayotgan saytlar faoliyatlarini amalga oshirishda davom etmoqdalar. Ularning terrorchilikka, jinoyatga undovchi resurslar bilan to‘lib-toshib borishi insonlar ongini, ayniqsa yoshlarni tezda o‘ziga jalb qilyapti. Qo‘poruvchilik, harbiylar va tinch aholini qiynoqlarga solish, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan usullar bilan jazolash sahnalari namoyish etish orqali, vahima uyg’otish, tinch hayot tarzini izdan chiqarish, g’oyaviy porokandalik yuzaga keltirish maqsadida, shuningdek manaviyatga zarar etkazadigan, aqidaparastlik ruhida yo‘g’irilgan, o‘z mafkuraviy tasirlarini muttasil tarzda saqlab turishga qaratilgan manbalar tobora xavfli ko‘rinish kasb etib bormoqda. Bu kabi axborotlar nafaqat alohida olingan yagona bir yoki bir necha davlat uchun, balki butun jahon hamjamiyati uchun katta xavf tug’diradi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ushbu muammoni bartaraf etishning ishonchli vositalarini, mukammal dasturlarini ishlab chiqishga xarakat qilinmoqda, katta miqdordagi mablag’lar ajratilmoqda, ko‘plab saytlar filtirlab qo‘yilmoqda. Albatta, xaqli ravishda savol tug’iladi, O‘zbekistonda yuqorida aytib o‘tilgan muammolar tasirlariga tushib qolmaslik uchun, umuminsoniy qadriyatlarga, milliy an’ana va urf-odatlarga, xalqni etiqodiga, ma’naviyati va madaniyatiga, ongi va tafakkuriga zarar etkazadigan yot mafkura va qarashlardan saqlash uchun nimalar qilinyapti va nimalar qilish kerak bo‘ladi? Internet olamini cheklab yoki malumotlar olishni to‘xtatib qo‘yish bilan masala xal bo‘lmaydi. Bu hususida I.A.Karimov quyidagicha to‘xtaladi –“... yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televideniya, matbuot, Internet kabi vositalar orqali xam rang-barang axborot va malumotlarni olmoqdalar. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, buni ko‘rma deb, bir tamonlama tarbiya berish, ularni atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu-maqsad muddaolarimizga ham to‘g’ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz”[16].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 29 sentyabrdagi "O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog’ini tashkil etish to‘g’risida"gi qaroriga muvofiq O‘zbekistonning turli tuzilmalari tomonidan axborotlarni uzatish tarmoqlarida ta’lim va yoshlar bo‘yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona ZiyoNet axborot tarmog’iga birlashtirildi. Tarmoqning asosiy vazifalari: yoshlar uchun milliy axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish, yoshlarning ma’naviy va aqliy jihatdan kamol

[16] Karimov I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. –T.: Manaviyat, 2008. –B.114

topishiga ko‘maklashadigan axborotdan keng ko‘lamda foydalanishlarini ta’minlash, sog’lom turmush tarzini targ’ib etish va jismoniy tarbiya va sport turlarini ommalashtirish, o‘quvchilar va yoshlar uchun masofadan turib ta’lim olish usullarini va boshqa axborot-kommunikasiya xizmatlarini ta’lim tizimiga joriy etishda ko‘maklashishdir.

Malumki, ko‘plab sayt va tarmoqlar katta mablag’lar evaziga filtrlab ko‘yilgan va bu holatni ko‘plab davlatlarda kuzatish mumkin. Albatta taqiqlar yoki filtr vositalari orqali odamlarni Internet olamidagi turli kuchlarning xatarli tahdidlaridan, keraksiz va salbiy axborotlardan saqlash qiyin va faqatgina vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin. I.A.Karimov takidlaganidek “…yoshlarimizning manaviy olamida bo‘shliq yuzaga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog’lom hayot tarzi, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ehtirom tuyg’usini bolalik paytidan boshlab shakllantirishimiz kerak”[17]. Internetdan olinayotgan axborotlarga tanqidiy yondashish va uning foydali manbalari asosida o‘z dunyoqarashini kengaytirish, g’arazli ma’lumotlarni inkor eta bilish idrokini, mafkuraviy immunitetni hosil qilish g’oyat muhim jihatdir. Har bir yosh malum bir ko‘nikma va bilimlarga, diniy va dunyoviy ilmlarni mohiyatini tushuna olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, dunyoda kechayotgan siyosiy va iqtisodiy jaryonlarga befarq bo‘lmasligi lozim. Buni avvalo, o‘zining taqdiri, kelajagi oldidagi masuliyat deb bilsa, ikkinchidan, vatani va xalqi oldidagi burchi sifatida tushunmog’i lozim.

Internet tarmog’i ham, kashf qilingan har qanday fan yutuqlari singari o‘zining ijobiy va salbiy jihatlariga ega. Global tarmoqning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotganligi, insoniyat uchun qay darajada ahamiyatli ekanligini asoslashga hojat yo‘q. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlarni vertual olam orqali o‘z tasirlarini o‘tkazishga harakat qilishlari ham tabiy holat. Qachonki hamma davlatlar terrorizm havfini, xalqaro, xududiy va milliy xavfsizlik va barqarorlikka, umuman insoniyatga fojeali global havfni tushunib, birgalikda harakat qilganlaridagina yaxshiroq natijalarga erishilgan bo‘lardi.

Jamiyatni global axborotlashtirish – axborot resurslarini faol shakllantirish va ulardan keng miqyosda foydalanish global, umumbashariy jarayonidir. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonida ishlab chiqarishning odatdagi texnologik usuli va turmush tarzi kibernetika vositalari va usullaridan foydalanishga asoslanadigan yangicha, postindustrial shakl-shamoyil va mazmun-mohiyat kasb-etadi.

Axborot jamiyati – postindustrial jamiyat konsepsiyasi; sivilizasiya rivojlanishining yangi tarixiy bosqichi bo‘lib, unda axborot va bilim ishlab chiqarishning bosh mahsullari hisoblanadi. Axborot jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlari:

- jamiyat hayotida axborot va bilimlar rolining ortishi;
- yalpi ichki mahsulotda axborot kommunikasiyalari, mahsullari va xizmatlari ulushining ko‘payishi;
- quyidagilarni ta’minlovchi global axborot maydonining yaratilishi: a) odamlar samarali informasion o‘zaro aloqa qilishini; b) ular jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lishini; v) ularning axborot mahsullari va xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini.

[17] Karimov I.A. Yuksak manaviyat - yengilmas kuch. –T.: Manaviyat, 2008. –B.113.

Ma’lumki, davlat va jamiyat qurilishida insonning o‘rni va uning shaxs sifatida kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan olganda shaxs va uning kamoli muammosi ijtimoiy fanlar: sosiologiya, falsafa, psixologiya, insonshunoslik kabi fanlar diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv va modernizasiyalashuv jarayonida shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, aniqlashi identifikasiyasi muammosi dolzarb va muhim ahamiyatga ega. Bu esa shaxs va jamiyatning uzviy aloqada bo‘lishini, xususan, shaxsning yuksak kamol topishidagi o‘ziga xos muhitning, shart-sharoitlar hamda jamiyatdagi tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishi bilan uyg’un holda kechmoqda. Zero, axborotlashgan jamiyatning inson hayotidagi o‘rni va roli hamda shu asosda shaxsning ijtimoiylashuv-siyosiylashuviga bo‘lgan ta’siri bilan belgilanadi. Xususan, axborot oqimining kuchayuvi, uning son va sifat jihatidan xabarning tez va aniq uzatilishi shaxsning onggi va qalbi orqali o‘tmoqda.

Bu esa o‘z-o‘zidan har bir axborot, tarqatilayotgan turli-tuman xabarlarning shaxs ong va tafakkuriga ta’siri bilan o‘lchanadi. Ushbu axborotning shaxsga qanday ta’sir etishi eng avvalo uning bilim darajasi (ommaviy, ilmiy, kundalik ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy), dunyoqarashi hamda dunyoni his etishi idrok etishi bilan belgilanadi. “Bugun biz demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakatimiz siyosiy va ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtiroki haqida so‘z yuritar ekanmiz, albatta, axborot erkinligini ta’minlamasdan, ommaviy axborot vositalarini odamlar o‘z fikr va g’oyalarini, sodir bo‘layotgan voqealarga o‘z munosabati va pozisiyasini erkin ifoda etadigan minbarga aylantirmasdan turib, bu maqsadlarga erishib bo‘lmasligini o‘zimizga yaxshi tasavvur etamiz”[18]. SHaxs dunyoqarashiga axborotning ta’sir kuchi eng avvalo axborotni uzatilishi, qabul qilinishi ongda qayta ishlanishi hamda ma’lum bir xulosa qilinishi bilan amalga oshadi. SHu nuqtai nazardan axborot olish va uni o‘zlashtirish modelini ishlab chiqqan fransiyalik olim J.Dyuran aynan inson omiliga e’tibor qaratadi. Uning fikricha kommunikasiya tizimining asosini tashkil qiluvchi inson axborotni qabul qilib oluvchi obyekt sifatida besh bosqichni boshidan kechiradi. “Birinchi bosqich – axborot bilan ilk to‘qnashuv bosqichi bo‘lib, bu bosqichda resipient individ u yoki bu harakat amalga oshirish yoki amalga oshirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Ikkinchi bosqich – axborotni tushunish bosqichi bo‘lib, bu bosqichda individ qabul qilib olgan axborotini o‘z ongida qayta ishlaydi va uni o‘zicha talqin qiladi.

Uchinchi bosqich – pozisiyani o‘zgartirish bosqichi bo‘lib, bu bosqichda insonga etkazilgan axborotlar insonga ta’sir ko‘rsatib. Uning qarashlari, tuyg’ulari, pozisiyalarini o‘zgartiradi.

To‘rtinchi bosqich – qabul qilingan axborotning inson ongida muhrlanishi hisoblanadi.

Va nihoyat beshinchi bosqich – inson fe’l-atvoridagi o‘zgarishlar bosqichi hisoblanib, bu o‘zgarishlarning asosini qabul qilingan axborotlari, insonning dunyoqarashi va tashqi muhit ta’siri tashkil qiladi”.[19]

Shunday ekan jamiyatni shaxs ongiga ta’sir etishda axborotlashtirish jarayoni bir–biri bilan bog’liq bo‘lgan uch qismdan tarkib topadi: mediatizasiya (lot. mediatus –

[18] Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruza. 2010 yil 12 noyabr’/ I.Karimov. – Toshkent: “O’zbekiston”,2010. –V. 28.

[19] Durand J. Les formes de la Communication. P. 1981.

vositachi) – axborot to‘plash, saqlash va tarqatish vositalarini takomillashtirish jarayoni; kompyuterlashtirish – axborot qidirish va unga ishlov berish vositalarini takomillashtirish jarayoni; intellektuallashuv – axborot yaratish va uni idrok etish qobiliyatini rivojlantirish, ya’ni jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, shu jumladan sun’iy intellektdan foydalanish jarayonidir. Ma’lumki, axborot quyidagicha tushuniladi: axborot tashqi muhitga moslashish jarayonida undan olingan ma’lumot, signalning mazmunini ifodalash (N.Viner); entropiyani inkor etish (Brillyuen); kommunikasiya va aloqa, noaniqlikni yo‘q qilish jarayoni (K.SHennon); rang–baranglikni ifodalash (R.Eshbi); o‘ziga xoslik, yangilik, strukturalarning murakkabligi mezoni (A.Mol); tanlash ehtimolligi (T.YAglom), xilma–xillikni aks etish (A.Ursul); makromolekulalarning xossasi va ularning avtorepduksiya qobiliyatiga ko‘ra baholanishdir (M.Eygen); mavjud va teng variantlarda eslab qolingan bitta variantning tanlovi (G.Kastler) va h.k.larni aytish mumkin.

Umuman olganda, jamiyatni axborotlashtirishni zamonaviy axborot–texnika vositalari yordamida ijtimoiy tuzilmalar va jarayonlarni takomillashtirish deb talqin qilish lozim. Axborotlashtirish ijtimoiy intellektuallashuv jarayonlari bilan uyg’un bog’liq bo‘lishi kerak. Zotan, bu shaxsning va u yashayotgan axborot muhitining ijodiy salohiyatini oshirishga imkoniyat yaratadi. SHu bois, globallashuv jarayonida shaxs ijtimoiy faolligini oshirishda axborotlashgan jamiyat oldingi jamiyatlardan sifat jihatidan farq qiladi. Bu erda moddiy omillar emas, balki ideal omillar – bilim va axborot birinchi o‘rinda turadi. SHuningdek, olingan axborot va bilim olish, ularga ishlov berish, ularni saqlash va berish jarayonida jamiyat a’zolarining aksariyati band bo‘ladi. Axbdorotlashgan jamiyatda axborot ishlab chiqarish moddiy ishlab chiqarishni siqib chiqarmaydi, balki uning ustida quriladi va moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishiga turtki beradi. Tabiiyki, bu jarayon shaxsning ong-shuuriga ta’sir etish barobarida unga o‘zining axborotning mazmun-mohiyatiga bo‘lgan munosabatni ham o‘zgartiradi.

Bugungi kunda demokratiyani shakllantirishning zarur sharti bo‘lgan axborotlashtirish, uning ko‘lami, sur’atlari va yo‘nalishi ayni jamiyatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy–siyosiy va umuman madaniy jarayonlarga, shu jumladan fan, ta’lim, umumiy madaniyatning globallashuv darajasiga uzviy bog’liqdir. Bu esa barcha o‘zgarishlarning negizi, subyekti hisoblangan shaxsning barkam Birinchidan, ijtimoiy–siyosiy munosabatlarni demokratlash-tirish, uning axborot bazasini taqozo qilib, sivilizasiya manfaatlari asosida maqsadga muvofiq baholash mezonlarni ishlab chiqishni talab qiladi; ikkinchidan, jamiyatni demokratlashtirishni xususiyatlari regional va milliy xarakterga ega bo‘lishini hisobga olib, uni axborotlashtirishga ham differensial yondoshmoq lozim; uchinchidan, “ochiq jamiyat” tushunchasining demokratik xarakteri axborotlashtirish jarayoniga nisbatan shartli xarakterga ega, chunki har qanday axborotni “ijobiy” deb baholash nisbiydir; to‘rtinchidan, jamiyatda “axborot erkinligi” tushunchasi “axborot masuliyati”ni istisno qilmaydi. SHunga ko‘ra, “axborot erkinligi”ni demokratiya belgisi, tamoyili, xususiyati deb baholash mutlaqo shartli va nisbiydir.

Axborot terrorizmi globalizasiya maxsuli xisoblanadi. Ekspertlar fikriga ko‘ra, Axborot terrorizmi 2020-2030 yillarga borib o‘z ta’sirini yuqori darajaga ko‘taradi. Bu esa axborot jamiyatidagi isloxotlarni va xalqaro terrorizm faoliyatini rivojlanishini ta’minlab berishi mumkin.

Bundan tashqari, kiberterrorizm kompyuter vositalari orqali turli davlat va shaxsiy tarmoqga zarar keltiruvchi faktor sifatida e’tirof etilmoqda.

Kiberterrorizm – mahsus xaker dasturlari orqali komp'yuter boshqaruvi tarmoqlarini egallab olish va komp'yuter viruslari yordamida internet tarmog'ida terakt sodir etish, internet tarmog'ini ishdan chiqarishni koʻzda tutadi.

Jumladan, Amerika Qoʻshma SHtatlari mudofaa vazirligi Pentagon ma'lumotlariga koʻra, kompyuter tarmoqlari orqali 60 yoʻnalish boʻyicha turli axborotlar qabul qilinadi. SHuningdek, ayrim xakerlar tomonidan Amerika davlat xokimiyati tizimi serverlari orqali YUgoslaviya, Serbiya, Rossiyaga nisbatan aniq bir siyosiy maqsadga yoʻnaltirilgan xujumlar uyushtirilgan. Bundan tashqari, bunday misollardan biri xakerlar tomonidan Xindiston atom tadqiqot markaziga xam ushbu yoʻnalishda kompyuter vositalari orqali xujum qilingan.

SHvesiyada siyosiy xokimiyat tizimida xakerlar tomonidan chap gurux tashabbusi bilan oʻng radikallarning kompyuter tarmog'i yoʻq qilingan.

SHHTga a'zo davlatlar oʻrtasida axborot xavfsizligi soxasida xam samarali faoliyat olib borilmoqda.

2012 yil 27 martda Toshkentda boʻlib oʻtgan SHHTning mintaqaviy aksilterror tuzilmasining yig'ilishida a'zo davlatlar oʻrtasida axborot xavfsizligini ta'minlashda yangi zamonaviy koʻnikmaga ega boʻlish, kompyuter tarmoqlaridan terroristik maqsadlarda foydalanayotgan tashkilotlarni aniqlash, ularga qarshi kurashish toʻg'risida kelishuvga erishilgan.

Axborot xavfsizligini ta'minlash bugungi kunda davlatlar oldida turgan dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda va ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar SHHTning faoliyatini kengaytirish, axborot xavfsizligi yoʻnalishida aniq chora - tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Bugungi kunda internet orqali turli mazmundagi axborotlarning tarqalishi yoshlarga salbiy ta'sir koʻrsatmoqda.

Jumladan, Internetning toʻg'ri maqsadlarda ishlatilishi uning salbiy ta'sirlaridan himoyalanishni ta'minlaydi. Internetda yoshlar ma'naviy tarbiyasiga zarar etkazadigan audio-vizual va kontent ma'lumotlarning tarqatilishi, zoʻravonlik, pornografiya, pedofiliya sahnalarining e'lon qilinishi keskin tanqid qilinmoqda. Internetning axborot maydoni, dezinformasiya, yolg'on va tuhmatlar manbaiga aylangani salbiy xolat hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda Evropa global tarmog'ida buzg'unchi saytlar mavjudligi hamda vertual firibgarlik ta'siriga tushub qolishi mumkinligini inobatga olmagan yoshlar turli saytlarga kirishi tufayli ruxiy va xatto jismoniy salomatligiga ziyon etkazuvchi axborotlarga duch kelmoqda[20].

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda maktab oʻquvchilarining qurollangan xolatda turli jamoat joylari, maktab, savdo doʻkonlariga bostirib kirish xollari tez-tez uchramoqda. Mutaxassislar bolalar oʻrtasida bu kabi xolatlarning koʻpayib borayotganini internet saytlari, jangari filmlar, videolavhalar va boshqa vositalarning ta'siri bilan bog'lamoqdalar. SHu bilan bir qatorda psixologlarning mulohazalariga koʻra, oʻsmirlik shaxsning fiziologik va ijtimoiy rivojlanishidagi oʻziga xos davri boʻlib, bu davrda oʻsmirlar agressiv ruxdagi tomoshalarga, on-layn oʻyinlariga berilsa, bu noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

YUqoridagi ma'lumotlardan xulosa qilib aytish mumkinki, "Axborot terrorizmi" xozirgi kunda zamonaviy terrorizmning bir koʻrinishi sifatida davlatlar oʻrtasida axborot

[20] http://uza.uz/uz/society/10382

urushini keltirib chiqarishi, axborot vositalaridan foydalangan xolda terrroristik tashkilotlar tomonidan terakt sodir etilishi jaxon xamjamiyatini tashvishga solmoqda.

Axborot terrorining ko'rinishlarini Respublikamiz xududida yuz berishi davlat va xususiy kopyuter tarmoqlarini izdan chiqarishi, boshqa davlatlar bilan o'zaro do'stlik va xamkorlik aloqalariga, shuningdek axolini ayniqsa yoshlarning ma'naviy – ruxiy xolatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Globallashuv, axborot sohasi liberallashayotgan bir paytda, uzoq-yaqin mamlakatlardagi turli hil siyosiy, mafkurafiy va boshqa kuchlar (120 ga yaqin davlat axborot xurujlarini uyushtirish ustida ish olib bormoqda) o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida ommaviy kommunikasiya vositalaridan, ayniqsa, Internet tarmog'idan foydalanib, axborot erkinligini suiste'mol qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga axborot tahdidlarini kursatish orqali, hali ongi va hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagan yoshlarni chalg'itish, yoshlarning ongi va qalbini egallash yo'lidagi intilishlari kuchaytirayotgani hech kimga sir emasdir.

Shunday ekan, nosog'lom axborot oqimi va ta'siridan yoshlarni himoyalash uchun qanday huquqiy mexanizmlar mavjud, degan o'rinli savol to'g'iladi?

Ma'lumki, xalqaro amaliyotda "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga etmaganlar uchun xavfsiz Internet va on-layn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Evropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasini, "Yoshlarni himoyalash to'g'risida" Germaniya, "Voyaga etmaganlarni ommaviy axborotning salbiy ta'siridan himoyalash to'g'risida" Litva va "Bolalarni sog'ligi va rivojlanishiga ziyon etkazuvchi axborotdan himoyalash to'g'risida"gi Rossiya Federasiyasi qonunlari mavjud ekanligini tilga olishimiz mumkin bo'ladi.

AQSH tajribasi haqida gapiradigan bo'lsak, shuni aytish lozimki, 2001 yili kuchga kirgan qonunga asosan, davlat dotasiyasini oluvchi ommaviy muassasalarning barchasi kontent filtrasiya tizimini urnatishi majburligi belgilanib (Child Internet Protection Act), 2001 yili 74 foiz maktablar, 43 foiz kutubxonalar, 41 foiz oilalar (qaysikim bolalari Internetga chiqish imkoniyatlari borlari) kontent filtrasiya tizimini, tegishli dasturlarni urnatishdilar..

Evropa mamlakatlari tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak Buyukbritaniyada davlat strukturasi faoliyat yuritib ("Internet Watch Foundation"), u doimiy ravishda Internetdagi xavfli kontentli resurslarni monitoring qilib boradi.

Milliy qonunchiligimizda ham yoshlarni nosog'lom axborotlardan himoyalashning mexanizmlari mavjud bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risidagi Qonunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan zo'ravonlikni, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday hatti-harakatlar man etilishi", Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonunda "Pornografiya, shafqatsizlik va zo'ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta'sir ko'rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'luvchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish taqiqlanishi" belgilab berilgan bo'lsada, bugungi axborot makonidagi tendensiyalar, axborot ekspansiyasi, agressiv axborotlarning kuchayishi milliy qonunchiligimizni va ma'rifiy-tarbiyaviy ishlarimizni yanada kuchaytirishni taqoza etadi desak mubolag'a bo'lmas.

Ma'lumki, muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ma'naviy

hayotimizni yuksaltirish, azaliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, milliy tabiatimiz va urf-odatlarimizga mutlaqo zid bo‘lgan har qanday zararli ta’sirlar, buzg’unchi g’oyalarga qarshi turish, ma’naviy jihatdan etuk, o‘z mustaqil fikriga ega, barkamol avlodni tarbiyalash borasida o‘zining fikr va g’oyalarini bildirib o‘tgan edilar.

Yurtboshimiz quygan ushbu yuksak vazifalarni ruyobga chiqarish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, ota-onalar va pedagoglarni o‘zoq muddatli o‘zliksiz va tizimli hamkorlikka chaqiradi, albatta.

Zamonaviy ommaviy kommunikasiya vositalari bizni global axborot makoni bilan bog’lab, axborotni olish va tarqatish geografiyasini kengaytirib, dunyo mamlakatlari va xalqlarini yaqinlashtirdi. Bu ijobiy holat, albatta. Biroq, axborot makonida taxdidlar bor ekan, milliy axborot makonimizga chegara quyib bo‘lmasligini nazarda tutib, kelajagimiz vorislarini uylab, vayronkorlik va buzg’unchilik mazmunidagi axborot oqimini cheklashimiz, yosh avlodning ma’naviy olamining daxlsizligini asrashimiz kunning dolzarb vazifalaridan biri desak, mubolag’a bo‘lmas.

Virtual reallik, virtuallik (ing. virtual reality, virtual – borligicha, lot. virtus – potensial, ehtimollik, energiya, kuch, shuningdek tasavvurdagi xayol) – kompyuter yordamida modellashtirish asosida foydalanuvchi sun’iy dunyoga cho‘mib, maxsus sensorli moslamalar orqali unda harakat qilish imkonini beradi. Bunda foydalanuvchining ko‘rish, eshitish, sezish va motorli sezgilari kompyuter tomonidan yaratiladigan imitasiyasi bilan almashtiriladi.

Virtual reallikning o‘zi nima, degan masalada asosan ikki yo‘nalish (gipoteza) shakllangan. *Birinchisi* virtual reallikni texnikaviy hodisa deb qarash bo‘lsa, *ikkinchisi* ruhiy xodisa deb xisoblashdir. Umuman, h. davr falsafiy adabiyotlarida ko‘rsatilishicha, virtual reallik tushunchasining fanda, san’atda va amaliyotda keng tarqalishi, “ o‘z-o‘zidan tashkillashuv”, “kooperasiya effektlari”, “tasodifiy tashkillanishlar” va shular kabi boshqa tushunchalar orqali ifodalanadigan yangi ilmiy paradigmaning vujudga kelayotgani haqida gapirish imkoniyati vujudga kelayotganini bildiradi.

Hozirgi davrda virtual reallikni faqat kompyuter texnologiyalari, ya’ni “kibermadaniyat” bilan bog’lash tamoyili ham mavjud. Lekin, bunga qarama- qarshi o‘laroq boshqa olimlar virtual reallikning kompyuterdagi variantlarini undan ancha chuqur kechadigan jarayonlarning yuzadagi qo‘pol namoyon bo‘lishidir, degan fikrlarni oldinga surmoqdalar.

Virtual reallik jamiyat hayotida muhim hodisalardan biri sifatida o‘rin oldi. Bu jarayon tasarrufchini kompyuterda turli manipulyasiyalar (o‘yin yoki boshqa ishlar) qilishi uchun mo‘ljallangan har xil olam modellarini yaratish proektidan boshlangan edi. Ana shu proekt tufayli kimyoviydan tortib to ijtimoiyga qadar bo‘lgan barcha jarayonlarni sun’iy ravishda yaratishning cheksiz imkoniyatlari ochildi. Bu hol fanning barcha sohalari namoyandalarining, ayniqsa faylasuflarning diqqatini o‘ziga tortdi. Hozirgi davrda virtual reallik sistemalarini ishlab chiqish va ulardan amalda foydalanish jarayoni virtualistika muammolarini falsafiy-metodologik nuqtai nazardan anglash bilan parallel ravishda amalga oshmoqda. Bu borada ko‘plab kitoblar, jurnal va gazetalarda maqolalar nashr etilgan.

Virtualistika bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni asosan uch yo‘nalishga ajratish mumkin. *Birinchisi*, sistemalar nazariyasi, modellashtirish, kompyuter grafikasi, multimediya va h.k.da erishilgan yutuqlarni hisobga olishga tayanadigan nazariy ishlar.

*Ikkinchisi*, virtual reallik muammosining falsafiy va psixologik jihatlari hamda uning insonga, odamlar guruhi va butun jamiyatga ta’siri haqidagi ishlar. *Uchinchisi*, virtual reallikka tegishli sistemalarni inson faoliyatining texnik sohalarida, ta’limda, ilmiy tadqiqotlarda, biznesda va h.k.da foydalanish muammolariga bag’ishlangan ishlar. *To‘rtinchisi*, virtual reallikning axloq, siyosat, madaniyatshunoslik bilan bog’liq muammolari bo‘yicha ham ishlar olib borilmoqda.

## Globallashuvda ob’ektivlik va sub’ektivlikning mutanosibligi

Reja:

1. Xulq-atvor strategiyasi va taktikasida sub’ektivlikning namoyon bo‘lishi.
2. Ob’ektivlik umumiy harakat integral natija sifatida.
3. Globallashuv evropa qadriyatlar tizimining bosqichi sifatida.

Inson va insoniyat hayotining har bir davri, yili, kuni, daqiqalari o‘z qadr qimmati, ma’nosi va murakkab muammolariga ega. Lekin bugungi kunda insoniyat boshdan kechirayotgan davr mutloq o‘zgacha , mislsiz murakkab va ziddiyatli. CHunki, ayni shu davrga kelib insoniyat hayotida muayyan bir davr o‘z xotimasiga etib, yangi davr boshlanayotganini ko‘rsatadigan misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda, butun insoniyat taqdiriga bevosita ta’sir etuvchi murakkab va keskin muammolarni echish zarurati vujudga keloqda. Bu davr muammolarining murakkab o‘ziga xosligi shundaki, unda nafaqat ayrim mamlakatlar, davlatlar, mintaqalarning ayrim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va b. muammolari va xatto nafaqat G’arb yoki SHarq sivilizasiyalariga oid umumiy muammolar, balki butun insoniyatga va uning hayotining barcha tomonlariga oid murakkab va umumbashariy muammolar keskin ko‘ndalang bo‘lmoqda. Bugungi kunda butun insoniyat hayoti va mamoti masalasini qamrab olgan global muammolar misli ko‘rilmagan dolzarbligi va keskinligi bilan maydonga chiqarkan, bu vaziyat avvalo G’arb va SHarq sivilizasiyalari ma’anaviy qadriyatlarini davr tarozusiga qo‘yilmoqda.

Masalaning behad keskinligi va dolzarbligi atrof tabiatda sodir bo‘layotgan inqirozli ahvolda (katastrofalarda) ham, siyosiy alg’ov-dalg’ovlarda ham, ijtimoiy va iqtisodiy krizis vaziyatlarida ham, kichik bir oilaning bola tarbiyasi yoki sog’liq bilan bog’liq muammolarida ham har qadamda ochiq-oydin namoyon bo‘lmoqda. Bunday sharoitda harqanday inson oxirzamon haqida, o‘z hayotining ma’no va maqsadi haqida chuqur o‘yga tolishi tabiiy. Bunday sharoitda, kema xalokatga uchrayotgan xolatida bo‘lgani kabi ko‘pchilik taxlikada, o‘zini har yoqqa urmoqda. Kimdir o‘z vatandoshlarni qullikka sotib bo‘lsa ham, jon jahdi bilan boylikka intiladi. Zero nazarida uni faqat boylik qutqaradi. Kimdir zo‘r berib hukmronlik martabalari bo‘ylab tinimsiz yuqoriga ko‘tarilish yo‘lini izlaydi. Go‘yo yuqori martabaning mas’uliyati kamday. Kimdir maishatga intiladi. Kimdir bu sharoitdan qutulish yo‘lini topa olmay, tushkunlikka tushadi, xastalanadi. Lekin mamlakat hayoti uchun jiddiy mas’uliyat hissini tuygan davlat rahbariyatining, chin ma’nodagi ziyolilarning, avvalo, faylasufning boshqalar tutgan yo‘ldan borishga haqi yo‘q. Zero , faylasuf chindan ham faylasuflikka da’vo qilsa, u yashash hikmatini, ya’ni to‘g’ri yo‘lni bilgan va boshqalarga uni ko‘rsata oladigan odam hisoblanadi.

Globallashuv hodisasiga kim qanday (ijobiy yoki salbiy) munosabatda bo‘lishidan qat’iy nazar bu jarayon hozirgi davrda avj olmoqda va ijtimoiy

munosabatlarda o‘z aksini topmoqda. SHunga qaramasdan har qanday ongli inson globallashuvning ma’no va mohiyati nimada, globallashuv inson va insoniyatga nima beradi, bu uning kelajak taqdiriga qanday ta’sir etadi, globallashuvning mevasi bo‘lgan umumbashariy tartibsizlanish (xaos) sharoitida  inson, jamiyat, davlatlar to‘g’ri yo‘lni qanday topishi mumkin kabi savollarga tinimsiz javob izlashiga to‘g’ri kelmoqda. Chunki, bu jarayon ham yaratish, ham vayronkorlik keltiradigan  ziddiyatli jarayon ekani endilikda yuzaki qarashdayoq ko‘rinib turipti. Agar bu  globallashuv dunyoda har biri o‘z qonuniy “men”iga ega bo‘lgan tengxuquqli millatlarlarning hamjihat YAgona Umumiy Fikri , YAgona Umumiy Ezgu tuyg’ulari, YAgona Umumiy Irodasining shaklanishi yo‘lidan ketayotgan bo‘lsa, u holda insoniyat, qanchalar qiyin bo‘lsa hamki, unga shaksiz shubhasiz va tinimsiz intilishi joiz. Zero bu YAgona ilohiy hikmatning idealidir. Lekin, jahon ijtimoiy sahnasida namoyon bo‘layotgan hozirgi hodisalar -  rivojlangan mamlakatlar olib borayotgan globallashuv siyosatining rivojlanayotgan mamlakatlarga etkazayotgan turli zararlari, ularning ikkiyuzlamachiligi, xususan, yordam berish bahonasida ularning tovar va resurs bozorlarini ochishga majbur qilib, o‘z bozorlarini esa yopiq saqlashlari, umuman,  jahon savdo tizimidagi barcha adolatsizliklar hozirgi globallashuv yuqorida nazarda tutilgan yuksak ma’nodagi globallashuv emas, balki buning aksi -  tor manfaatparastlardan tashkil topgan egoelitar guruhning butun dunyo boyligiga ega bo‘lishga intilishi yo‘lida dunyo xalqini eng boylar va eng qashshoqlarga ajralib ketishiga,  qashshoqlarga nisbatan “oltin milliard” genosid siyosatining olib borilishida, milliy o‘zlik o‘rniga xalqaro ziddiyatlar va terrorchilik olovi yondirilayotganida va shu kabi ko‘plab hollarda yuz ochayotgan o‘ta  salbiy jarayon ekanini ko‘rsatmoqda.

Ko‘pchilik olimlar globallashuvning dastlabki paytlarida masalaning asl mohiyatini yaxshi tasavvur  eta olmaganlari uchun globallashuvga erkin savdo yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlaydigan va barcha milliy iqtisodiyotlarni jamul jam qiladigan (integrallaydigan) ijobiy hodisa deb qaragan edilar. Lekin, bugungi kunda bu globallashuv faqat rivojlangan mamlakatlarga foyda keltirib, rivojlanyotgan mamlakatlarga, ayniqsa, juda kambag’al mamlakatlarga inqiroz olib keluvchi hodisa ekani ma’lum bo‘ldi. Bu , rus faylasufi I.I.Belyaevning ta’kidlashicha,   globallashuvning keyingi mamlakatlarga nisbatan genosid quroli bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.[21]

Ushbu fikr va mulohazalar hozirgi globallashuvning mohiyatini falsafiy jihatdan yoritish zaruratini vujudga keltiradi. Bu borada oxirgi o‘n yilliklar mobaynida olib borilgan kuzatish va izlanishlar nihoyatda ziddiyatlidir. Bizningcha, hozir kuzatilayotgan globallashuv va deyarli barcha global krizislar, ko‘pchilik faylasuf va siyosatchilar to‘g’ri xulosaga kelayotganlariday, aslida XX asrning  yillarida yuzaga chiqqan G’arb sivilizasiyasining yalpi krizisi bilan bog’liq. Bu krizisning o‘zi esa XU11 - XU111 asrlardagi Ma’rifatchilik harakatining G’arb industrial jamiyatiga bergan impulsi (ta’sir kuchi) tamom bo‘lganini, uning ta’siri ostida jamiyat katta bir tarixiy davrni bosib o‘tib bo‘lganini va endilikda u o‘z taraqqiyot imkoniyatlarini batamom sarflab bo‘linganini bildiradi.

Yuqorida sanab o‘tilgan global krizislarning fonida ikki jiddiy krizis - asosiy energiya Resurslarining tamom bo‘layotgani va  kapital substansional shaklining funksional-

[21] Беляев М.И.Концепция русского национального государства. - Москва: 2006.

informasion shakl bilan almashgani bilan qo‘shilib, endilikda kapitalistik xo‘jalik mexanizmi avvalgiday qola olmasligini, uning transformasiyalanishi davri kelganini bildiruvchi krizis sodir bo‘lgan edi.

O‘z sivilizasiyaning keyingi taqdiri, kelajagi muammolari bo‘yicha intensiv izlanishlar olib borgan G’arb faylasuflari, madaniyatshunoslari va jamiyatshunoslari endilikda kapitalizmning industrial taraqqiyot sikli tamom bo‘lgani haqidagi xulosaga kelgan edilar. XX asr oxiri va XX1 asr boshlari G’arb ijtimoiy-ma’naviy hayotini xarakterlashda “post” birikmasi qo‘shib ishlatilayotgan tushunchalar rang-barangligi, masalan, postiqtisodiy, postindustrial, postmodern, postkapitalistik, postpozitivistik, posttarixiy va h.k. aslida G’arb sivilizasiyasining so‘nish pallasi, “kuz fasli” kelganini ifodalovchi tushunchalar edi. Zero, G’arb futurologlari endi bu sivilizasiyaning kelajagi qanday bo‘lishini bashorat qila olmay qolgan edilar, - degan edi bu haqida U.Deyzard.[22] Rus faylasufi L.V.Leskovning tushuntirishicha ham kapitalistik formasiya evolyusiyasining dasturi yakun topgan , ya’ni endi u rivojlanish stimullariga ega bo‘lmay qolgan edi. “Kapitalistik formasiya o‘z mavjudligi mobaynida ko‘p krizislarni boshdan kechirgan , - deydi U. - Lekin oxirgi krizisning avvalgilaridan farqi shundaki, avvalgilarini kapitalistik xo‘jalik yuritish ichki strukturasini qayta tashkillash orqali bartaraf etish mumkin bo‘lib kelgan bo‘lsa, keyingisini butun sistemaning o‘ziga taalluqli bo‘lgani uchun, uni (bu yo‘l bilan) bartaraf etib bo‘lmas edi.”[23] Demak, endilikda uning “faqat postindustrial, yoki postiqtisodiy sivilizasiyaga va integrallashgan ijtimoiy-madaniy tizimga o‘tishi imkoniyatigina qolgan edi”-[24] deydi uning fikrini davom ettirganday Yakoves Yu.B.

Kapitalning substansional shaklidan funksional-informasion (kompyuterlashgan) shakliga o‘tish tufayli rivojlangan mamlakatlarda beshinchi, ya’ni informasion-texnologik uklad vujudga keldi. Buning natijasida kapitalistik xo‘jalikni tizim shakliga keltiradigan asosiy ziddiyat nisbatan bartaraf bo‘ldi. Lekin, mutafakkirlar G’arb jamiyatining kompterlashuvi o‘zi bilan birga davlat boshqaruvining yoppasiga byurokratlashuvi va global polisiya hukmronligining qaror topishiga olib kelgan aksil tamoyilni ham keltirib chiqarganini ta’kidladilar. Masalan, J.Ellyul shu jarayonning boshlanishidayoq “Byurokratik hokimiyat bilan chatishib oladigan informatika ijtimoiy hayotni metin kabi qotiradi. Bu yo‘lning boshi berk (tupik) tarixiy yo‘l ekani keyinchalik, uning oxiriga etilganidagina ma’lum bo‘ladi. CHunki, bu yo‘l juda yoqimli, engil, qiziqarli, soxta muvaffaqiyatlarga boy bo‘lib, uni rad etishi qiyin. Lekin bu metin qotib, qattiq “siqqanidan keyin” haqiqat ravshanlashadi, lekin unda kech bo‘ladi.”[25]

Ko‘pchilik mutafakkirlar, xususan, rus faylasuflari va siyosatshunoslari[26] hozirgi davrning aksariyat global muammolari, shu jumladan sosialistik tizimning

---

[22] Дайзард У. Наступление информационного века.// Новая технократическая волна на Западе. - М.: Прогресс. 1986.

[23] Лесков Л.В**.** Философия нестабильности. Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №3, 2001. 40-61 – б.

[24] Яковец Ю.В. Циклы. Кризисы. Прогнозы. М., 1999.

[25] Эллюль Ж.. Другая революция. // Новая технократическая волна на Западе. М.: Прогресс. 1986.

[26] Сергей Батчиков. Глобализация: управляемқй хаос. //Агентство политических новостей. 7 апрел. 2009 й. http://www.apn.ru/publications/article19369.htm; Кузьмич А. Россия и рынок (В свете советского и международного права). // Воскресенье, 1990, N 4, шунингдек, А.Кузьмич. Заговор мирового правительства (Россия и "золотой миллиард"); Лесков Л.В. Философия нестабильности. Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №3, 2001**.**Сергей Кара-Мурза

mag'lubiyati, ya'ni sobiq Ittifoqning parchalanishi ham G'arb peshvolari o'z tizimini krizisidan chiqarish maqsadida tanlagan yo'lning natijasi ekani haqida, bizningcha, to'g'ri fikrlarni oldinga surdilar. Masalan, A.Kuzmich o'zining maqolasida "bizdagi qayta qurish – jahondagi qayta qurishning bir qismi. Xomashyo va energiya tanqisligi bozir iqtisodiyotiga ega bo'lgan rivojlangan mamlakatlarga qanday xavf-xatarlar olib kelishi mumkinligini ko'rstatib bergan 1973 yil krizisi qayta qurishning birinchi bosqichi edi" deb yozgan edi.[27] F.Fukuyamaning shu muammoga maxsus bag'ishlab yozgan kitobida bu fikr yaxshi ochib berilgan.[28] Lekin, biz bu erda sosialistik tizimning mag'lubiyatga uchrashida faqat shu tashqi, G'arb ta'sirigina emas, balki uning o'z ichki krizisi ham katta rol o'ynaganini hisobga olish joiz deb o'ylaymiz. Ammo bu masala maxsus ishlarda yoritilgani, shuningdek yanada maxsus va chuqur yoritilishi taqozo etiladigan masala bo'lgani uchun biz unga boshqa to'xtalmaymiz. Ammo SSSRning parchalanishi olamshumul krizisni boshdan kechirib turgan G'arb tizimining manfaatlariga muvofiq kelgani shubhasiz. Zero, ayni shu davrda G'arb futurologlari u erda sivilizasiya katta xavf ostida ekani haqidagi xulosalarga kelgan edilar. Masalan, postindustrializmga bag'ishlab yozilgan kitoblardan birining muallifi, fransuz sosiologi Alen Turen "Xavf mavjudligi shubhasiz. To'kin-sochin yashashga odatlanib qolgan bizning jamiyatimiz o'zligini saqlab qolish qayg'usida xuddi SHarqiy Rim imperiyasida bo'lgani kabi tobora inqiroz sari cho'kib borayotgani ko'rinib turipti,"[29] - deb yozgan edi.

Mutaxassis olimlarning ko'rsatishlaricha, ayni shu munosabat bilan qirq yilcha avval G'arb tanlagan bu yo'l ilgarigi "yumshoq" keynscha sosial kapitalizmni qayta qurish va uning asosiga yangi fundamentalistik neoliberalizm[30] mafkurani qo'yish strategiyasi ishlab chiqilgan.[31] Bu mafkura "manba'ga qaytish" deb talqin etilgan va D.Xarvining "Neoliberalizmning qisqacha tarixi" nomli kitobida yoritilgan. Ijtimoiy ong uni qabul qila olmagan edi. Zero unda avvalo ilgarigi klassik liberalizm pozisiyasiga ham, yangi Reformasiya g'oyalariga ham, dastlabki xristianlik g'oyalariga ham zid keladigan – universal gumanistik ideallardan voz kechishdan tortib to yangi budparastlikka qadar olib keladigan fundamentalistik konsepsiya o'z ifodasini topgan edi.[32] Ayni shu jarayonni nazarda tutarkan, Amerikaning taniqli faylasufi E.Toffler o'zining "Hokimiyatning siljishi" (1990) nomli kitobida "Er qimirlashidan oldin uning tektonik qatlamlarida siljish bo'lganiday, jahon tarixida juda noyob hodisalardan biri sodir bo'lmoqda – hukmronlikning o'z mohiyati o'zgarmoqda"[33] deb yozgan edi.

---

Концепция "золотого миллиарда" и Новый мировой порядок.// http://www.philos.msu.ru/vestnik/philos/art/2001/leskov/ philos.htm ва бошқалар.

[27] Кузьмич А. Россия и рынок (В свете советского и международного права). // Воскресенье, 1990, N 4. Шунингдек, қаранг: А.Кузьмич. Заговор мирового правительства (Россия и "золотой миллиард"). М.:1992.

[28] Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. Перевод с английского М.Б. Левина. Публикуется по изданию ООО «Издательство АСТ», 2004.

[29] Турен А. От обмена к коммуникации: рождение программированного общества. // Новая технократическая волна на Западе. М.: Прогресс. 1986.

[30] Neoliberalizm - nem. tilida Neoliberalismus. G'arb iqtisodiyot fanida liberalizmning o'rniga kelgan yo'nalish. U iqtisodiy jarayonlarda erkin raqobatni davlat nazorati bilan qo'shib – "raqobat mumkin qadar, reajalashtirish zaruriyat qadar" printsipiga ko'ra amalga oshirilishi kerakligini asoslovchi tamoyil sifatida ta'riflanadi.

[31] Глобализация - управляемый хаос / Сергей Батчиков // Экономические стратегии. - 2008. - N 4. - С.30-36.

[32] Беляев М.И.Концепция руссого национальноо государства. - М.,2006

[33] Тоффлер, Элвин. Третья волна. М.: АСТ, 2004 — 784 с.

Kelgusi jarayonlar bu siljishning mohiyatini yanada aniqroq ko‘rsatmoqda. AQSH rahbarligi[34] ostida amalga oshirilayotgan globallashuv jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro xuquqni, madaniyatni va millat va elatlar statusini tubdan o‘zgartirish orqali taraqqiyot paradigmasini o‘zgartirishga, dunyoda shu yangi mafkuraga muvofiq yangi tartib o‘rnatishga urinishning natijasidir.[35] U tez orada hammaga taalluqli muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki, endilikda barcha madaniyatlar o‘zligini saqlash uchun modernlashishga, ya’ni modernlashgan G’arb institutlari va texnologiyalarini o‘z hayotlariga joriy etishga majbur bo‘lgan edilar.

G’arb mafkurachilari globallashuv barcha mamlakat va xalqlarni jipslashtiradigan progressiv jarayon ekani, agar rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etishni , kambag’allikdan qutulishni istasalar ularning rejalariga amal qilishlari kerakligi, buning uchun hech qanday davlatlar aralashmaydigan erkin umumiy bozorlar tashkil etilishi ko‘p ijobiy oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikrlarni oldinga suradilar.

Lekin bunday bozorlar allaqachon shakllanib bo‘lgan va ularni tovar qiymati o‘rniga uning ekvivalenti amal qiladigan deyarli yagona pul tizimi **boshqara boshlagan** edi. Boshqa tomondan qaraganda , chindan ham bu bozorlar ko‘pchilik mamlakatlarning jadal iqtisodiy rivojlanishiga yordam berdi ham. Lekin, xalqaro savdo-sotiq faqatgina o‘z iqtisodiy taraqqiyotiga foyda keltiradigan mamlakatlar eksportiga yordam berishini va bu endilikda ekologik hamda resurslar krizisi sharoitida kechayotganini hisobga olish zarur. SHuning uchun bunday bozorning yaratilishi istalgan yoqimsiz mamlakatni bir zumda bankrot qila oladi.

Xatto, ba’zi mutafakkirlarning fikrlariga ko‘ra, global hokimiyat (davlat) shakllangan bo‘lmasa hamki, butun dunyoni boshqarayotgan global boshqaruv tizimi shakllanib bo‘lgan va u faoliyat bajarmoqda. Bu tizim asosida kam sonli umumjahon institutlari – Jahon Valyuta Banki, Jahon Banki, Butun jahon savdo tizimi hamda butun dunyo muammolarini echayotgan bir xovuch egoelita yotadi, taqdiri ular tomonidan hal etiladigan juda katta ko‘pchilikning esa bu erda ovozi o‘tmaydi. Bu globallashuv siyosatining ko‘pchilikdan iborat kishilar, tashkilotlar va mamlakatlarni shu ozchilikning qo‘g’irchog’iga aylantirish quroli bo‘lib xizmat qilayotganini ko‘rsatadi. Albatta, bular haqida odatda rasman gapirmaydilar, aksincha, “bizning maqsadimiz – kambag’allikni umuman yo‘q qilish” degan gaplar aytiladi, aslida esa “hamma ekkanini o‘radi”, “bo‘lib tashla va hukmronlik qil” shiorlari ostida amal qilinadi. Zero hozirgi davr voqealar rivoji va mantiqi ayni shunday xulosalarga olib keladi.

Chindan ham neolberalistik fundamentalizm siyosati iqtisodiy globallashuv orqali jahon iqtisodiy tizimini, xalqaro huquq tartibotini hamda millat va xalklarning madaniyati va statusini o‘zgartirish yo‘li bilan butun insoniyatni ikki katta irqqa – o‘ta boylar va o‘ta kambag’allar irqiga ajralib ketishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, buning oqibatida hech bir millat, mamlakat, xalq o‘zligini saqlab qola olmaydigan yangi tartiblashuv vujudga kelmoqda.

Yangi tartiblashuv tufayli transnasional korporasiyalarning (TNK) jahon iqtisodiy tizimi xo‘jayinlari bo‘lib olganlari ham shu xulosani dalillashga xizmat qiladi. Ma’lumki, TNK jahondagi ishlab chiqarish fondlarining asosiy qismini va moliya oqimini,

---

[34] Збигнев Бжезинский. Великая шахматная доска (Господство Америки и его геостратегические императивы). Перевод О. Ю. Уральской. - М.: Междунар. отношения, 1998.

[35] Батчиков С. Глобализация: управляемый хаос. Агентство политич.новостей http://www.apn.ru/publications/article19369.htm 7 апрел. 2009.

shuningdek, amalda butun yuqori texnologiyalar potensialini o‘z nazoratlari ostiga olganlar. Ayni shu sharoitda insoniyat intellektual va tabiiy resurslarini “so‘rib oladigan nasos” ishga tushirilgan, endilikda bu resurslar ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan mamlakatlarga osongina oqib o‘taveradi. Natijada boylarning yanada boyishi, kambag’allarning esa yanada qashshoqlashishi kuzatiladi. TNK esa o‘z iqtisodiy manfaatlarini cheklashni aslo istamaydilar.[36]

Ayni shu jarayonlar, bizningcha, hozirgi **iqtisodiy**, ayniqsa **moliyaviy (finans) krizislarda** va ular bilan uzviy bo‘lgan turli siyosiy kuchlar orasida nizolarning keskinlashuvida, ayrim xalqlar o‘rtasidagi qon to‘kilishlarda o‘z ifodasini topayotgan **siyosiy krizislarda ham** namoyon bo‘lmoqda. Xatto keyingilarining keskinligi ekologik krizisnikidan kam bo‘lmayapti. G’arb olimlari mazkur holatni ayrim davlatlar, ularning siyosiy rahbarlari, yoki diplomatlarning xatolari deb ko‘rsatmoqdalar. Lekin bugungi kunda ko‘pchilik olimlar, siyosatchilar, diplomatlar, tadbirkor-biznesmenlar va h.k larning butun e’tibori masalaning tub mohiyatiga emas, uning tashqi shakliga qaratilgan. Ular mazkur xaosdan (tartibsizlikdan, sirli qorong’ulik qa’ridan) qanday tartiblanish kelib chiqishini anglashga harakat qilmoqdalar. Vaholanki, poydevoriga yuksak ma’naviyat qo‘yilmagan tartiblanishdan ijobiy natija chiqmasligi aniqroq. SHunday vaziyatda 2008 yilda jahon miqyosida boshlangan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning O‘zbekistonga ta’sirini bartaraf etish yo‘llari va choralari bo‘yicha o‘z vaqtida ishlab chiqilgan dasturning ahamiyati kattaligiga alohida e’tibor berish[37] va ayni paytda siyosiy xushyorlikni ham esdan chiqarmaslik joiz.

Zero, G’arb sivilizasiyasi peshvolarining, ayniqsa AQSHning o‘z krizislaridan chiqish uchun tanlagan yo‘li nafaqat ijtimoiy hayotning byurokratlashtirilgani, polisiyalashtirilgani, jahon bozorining o‘zlariga bo‘ysundirilgani, globallashuvni o‘zlaridan boshqa jamiyatlarni iqtisodiy va ma’naviy zaiflashtirish quroliga aylantirilgani bilan, balki jahon miqyosida buzg’unchi g’oyalarni oshkora tarqatilgani, va, ayniqsa, halqaro terrorchilik urug’ini sochilgani bilan ham ayanchlidir. G’arbning Derrida, Bodriyar, Jijek, Bak-Mors, Groys kabi taniqli mutafakkirlari xulosalariga ko‘ra globallashayotgan dunyo terrorizmdan mustaqil emas, aksincha, terrorchilik aynan uning maxsulidir. Endilikda xalqaro terrorchilik hozirgi davr “ilg’or” insoniyati **ma’naviy qiyofasini** boricha, oshkor ko‘rsatmoqda. “Terrorchilik ham ekzotik hodisa bo‘lmay qoldi, - deb yozadi bu haqida Subbotin Aleksandr Alekseevich va Subbotin Aleksey Savelevich, - u ijtimoiy ongning hamisha bezovtalikda yashash muhitga aylandi.”[38] Bodriyarning ta’kidlashicha esa, AQSH ko‘pdan buyon “butun dunyoga terrorcha tasavvurlarni singdirib kelmoqda”.

Shularni nazarda tutarkan, “Mohiyatan terrorcha tizim bo‘lgani uchun o‘rnatilayotgan bu yangi tartibot uzoq vaqtdan buyon muvaffaqiyat bilan zo‘ravonlikni dunyoga eksport qilish bilan shug’ullanib keldi, -“[39] deb yozadi rus faylasufi M.Rыklin. - 11 sentyabr veqeasi esa globallashayotgan dunyoda bu siyosat bumerang qonuniga ko‘ra

---

[36] Лесков Л.В. Вестник Московского университета. Серия 7.Философия. №3, 2001.42-б.

[37] Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari. T.- O’zbekiston – 2009.

[38] Субботин Александр Алексеевич, Субботин Алексей Савельевич. Следует ли дожидаться конца истории? Калининград. 2007.// http://spkurdyumov.narod.ru/Philos.htm Mail to: succeder@list.ru

[39] Рыклин М. Деконструкция и деструкция. Беседы с философами. М.: Логос. 2002.

o'z xo'jayiniga, ya'ni AQSHning o'ziga qarshi ham ishlashi mumkinligini ko'rsatib berdi.[40] Rus siyosatshunosi Sergey Batchikov esa "YAngi terrorcha tartibotga qarshi qaratilgan bu terrorni globallashuv tufayli repressiya qilingan va kamsitilganlar nafratining ifodasi,"-[41] deb xarakterladi. YUqoridagilar globallashuv siyosati millatlararo, mamlakatlararo, xalqlararo ziddiyatlarni keskinlashtirish yo'li ekanini ko'rsatadi.

Bu esa G'arb, xususan, AQSH rahbarligi ostida amalga oshayotgan globallashuv xaosni vujudga keltirsa hamki, ammo uni o'zi istagan tartibga solib bera oladigan attraktorlarni yaratish qo'lidan kelmasligini ko'rsatib berdi. SHuning uchun bu tizim, J.-P.Kantenning[42] to'g'ri ta'kidlashicha, sodir bo'layotgan hodisalarga to'g'ri diagnoz qo'yishga qodir emas. Vaholanki bu, ko'pchilik faylasuflar va siyosatshunoslar to'g'ri ko'rsatayotganlaridek, butun dunyoda G'arbni qanoatlantiradigan yangi tartibotni o'rnatishdangina iborat bo'lgan oddiy bir strategiyaning amalga oshirilishi ham emas, balki butun G'arb sivilizasiyasi endi misli ko'rilmagan axloqiy inqirozga ham uchraganining ifodalovchi jarayonning ifodasi hamdir. Zero, G'arb peshvolari va mafkurachilari o'z sivilizasiyalariga tegishli evolyusion ziddiyatlarini qisman bo'lsa ham bartaraf etish va o'z tuzumlarining umrini uzaytirish maqsadida **"oltin milliard"** deb nomlangan fashistona dasturni[43] ham ishlab chiqqani ham ma'lum bo'ldi. Bu dastur asosiga demografik krizis muammosi qo'yilgan bo'lib, unda faqat shu "oltin milliard"ga kiradigan tanlangan, sara odamlarnigina saqlab qolishga harakat qilish, boshqalarning esa "biologik klon"larga aylanishi, yoki o'z-o'zidan yo ataylab qirilishi nazarda tutiladi.[44]

Albatta "oltin milliard" degan tushuncha hech qaysi rasmiy xujjatlarda uchramaydi, u bir majoziy tushuncha xolos. Lekin, hozirgi davr ko'pchilik rus olim, siyosatchi va mutafakkirlari, masalan S.G.Kara-Murza, M.I.Belyaev, Sergey Batchikov, P.Xomyakov va boshqa ko'pchilikning mutaxassis olimlar, faylasuf va siyosatchilar fikrlariga ko'ra bu tushunchaning ishlatilishida asos yo'q emas. Masalan, turli ijtimoiy tizimlar tarixini maxsus o'rganish bo'yicha ixtisoslashgan S.G.Kara-Murzaning tushuntirishicha, keyingi vaqtlarda bu tushunchaning juda keng tarqalayotgani va u Evropa hamda dunyoning boshqa rivojlanayotgan "birinchi mamlakatlari"ning "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot" tashkilotiga kirgan 24 mamlakat xalqi nazarda tutilayotgani hisobga olinsa, shunday konsepsiya mavjudligi haqidagi fikrlarda asos mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. "Ushbu konsepsiyani qabul qilish yo qilmaslik axloloqiy va xatto diniy nuqtai nazarga bog'liq, - deydi U. – Lekin bu g'oya xristianlikka (shu jumladan, islomga va ayniqsa buddizmga) mutlaqo ziddir."[45] Bir so'z bilan aytganda, XX1 asr bo'sag'asida G'arbda radikal maltuschilik konsepsiyasi qayta tug'ildi.

Rossiya siyosatchilaridan va ziyolilaridan bir qismi 90 yillarda yangi liberalizm va evropamarkazchilik mafkurasi ta'sirida ushbu utopiyani qabul qilgan va uning targ'ibotchilariga ham aylangan edi." Rossiya siyosiy agentligi yangiliklarida o'z izlanish

---

[41] Батчиков С. Глобализация: управляемый хаос. Агентство политич.новостей http://www.apn.ru/publications/article19369.htm 7 апрел. 2009.

[42] Кантен Ж.-П. Мутация-2000. // Новая технократическая волна на Западе. М.: Прогресс. 1986.

[43] Кузьмич.А. Россия и рынок (В свете советского и международного права). // Воскресенье, 1990, N 4, а также в книге А.Кузьмич. Заговор мирового правительства (Россия и "золотой миллиард"). М. 2000.

[44] Беляев М.И.Концепция русского национального государства. - М.,2006.

[45] Кара-Мурза С. Концепция "золотого миллиарда" и Новый мировой порядок.// http://burkina-faso.narod.ru/kara/oro 2.htm

natijalarini e'lon qilgan S.Batchikov ham "90 yillarda neoliberal globallashtirish tashviqotiga berilgan rus siyosatchilar va ziyolilarining bir qismi etakchi G'arb sosiologlarining bu boradagi faktlarni aytmay kelishganida ayblaydi."[46] Lekin, umuman olganda, BMT ma'lumotlariga ko'ra ham Erda bor xomashyo miqdori va energiya resurslari (optimal ishlatilsa) faqat 1 mlrd kishi uchun etarli. Vaholanki, 2000 yil va undan keyin aholi soni 8 mlrd. dan oshishi kutiladi. Bundan tabiiy ravishda o'sha "oltin milliard"ning AQSH, Yaponiya, IHMlariga kiruvchilardan tashkil topishi, asosiy xomashyo va energiya manbalarining egalari bo'lgan qolgan mamlakatlarning aholisi esa yuqoridagilarning koloniyalariga aylanishi haqidagi xulosa kelib chiqadi.

G'arb mutaxassis olimlari shularni nazarda tutib va qolgan 7 mlrd. aholini tizginda tutib turish mumkin emasligini hisobga olib, XX asrning 90 yillarida davlatlarni "internasionallashtirish va ularni bir biri bilan bog'lash" deb nomlangan yangi nazariyani ishlab chiqdilar. Bu nazariya mohiyatan kapitalni, tovarlarni va ishchi kuchini, oxir oqibatda esa butun xomashyoni ham yagona markaz tomonidan taqsimlanishi yo'lga qo'yiladigan va bu ishda TNKning xalqaro qurolli kuchlari "tartib va barqarorlik" o'rnatadigan jahon markazini yaratishni ko'zda tutadi. Uning amaliy dasturi esa Erning tabiiy va energetik resurslari ustidan nazorat qilishni jahonning sanoat-moliyaviy elitasi qo'liga topshirishni ko'zda tutadi, davlatlarning o'z tabiiy boyliklariga bo'lgan suverenitetini bekor qiladi, ya'ni diplomatlar xomashyolarning milliy "uylar"ga tarqalib ketishi xavfini olish maqsadini oldinga suradi.

"Oltin milliard" dasturining asosiga qo'yilgan demografik krizis muammosi akademik S.P.Kapisa[47] tomonidan ham nazariy jihatdan o'rganilgandi. Uning insoniyat populyasiyasining o'sishi qonunini tadqiq etib, chiqargan xulosasiga ko'ra 2030 yilga qadar planeta aholisi yo o'sishdan to'xtashi kerak, yoki uning depopulyasiyasi (populyasiya sifatida xalok bo'lishi) muqarrar.[48] Vaholanki, bular, o'z navbatida, ocharchilik, pandemiyalar (keng ko'lamli epidemiyalar), urushga olib keluvchi konfliktlarga va sh.k. olib kelishi kutiladi. SHuning uchun Rim klubi yordamida "oltin milliard" dasturi ishlab chiqilgani haqidagi fikrlarda asos bor.

Albatta, bu yangi strategiya, garchi, xatto u chetlab o'tilishi mumkin bo'lmagan zarurat ekani ilmiy asoslab berilgan taqdirda ham, u "oltin milliard" doirasiga kirmaydiganlar tomonidan qabul qilinishini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Uzoqni ko'ra biladigan ko'pchilik G'arb siyosatchilari bu katta ko'pchilikning reaksiyasi boshqacha bo'lishini – jahon sivilizasiyasining parchalanishi, xalok bo'lishi ehtimoli juda katta bo'lishini bashorat qilmoqdalar.[49] Bu esa global sivilizasion xalokat davri kelganini bildiradi. Aslida bu so'nggi xulosa yangilik emas. Zero barcha dinlarda bunday davr kelishi bashorat qilingan va u "oxir zamon" haqidagi esxatologik ta'limotlarda o'z ifodasini topgan. SHuning uchun bunda asl muammo kim saqlanish huquqi va imkoniyatlariga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi kerakligida emas, balki oxiratga qanday ma'naviy qiyofa bilan borishda ekanini kimlardir hamon fahmlay olmay turganidadir. Lekin, endilikda G'arb faylasuflari va ruhshunoslari orasida ham mazkur krizisdan qutulish yo'li sifatida yoshlarning ongida revolyusiya sodir

---

[46] Батчиков С. Глобализация: управляемый хаос. // http://www.apn.ru/publications/article19369.htm.

[47] Теоретическая демография как основа математической истории. http://www.keldysh.ru/papers/2000/prep73/prep2000_73.html

[48] Лесков Л.В. Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №3, 2001.40-61 - б.

[49] Hantington S. The Clash of Civilizations and the emaking of New World Order. N. Y., 1996.

etish, ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish zarurligi yo‘lini ko‘rsatayotganlar ham bor. Masalan, ushbu muammoga turli tomondan yondoshuvlar Timoti Liri, Robert Uilson, Stanislav Grof kabilar tomonidan oldinga surilgan.[50] Biz ham ayni shu xulosa tarafdorimiz. Ammo bu niyatlar qachon va qanday amalga oshishi  hozircha noma’lum. CHunki, XU11 asrlardan buyon shakllanib, rivojlanib, amaliyotda qo‘llanib kelingan dunyoqarashning tub o‘zgarishi qiyin.

## Dinlar o‘zaro ta’sirining globallashuvi

Reja:

1. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o‘ziga xos xususiyatlari.
2. Dinlarning rivojiga globallashuvning ta’siri. Din globallashuvining mezonlari.
3. Islom dinida globallashuvning talqini.
4.Globallashuvning a’anaviy dinlarga ta’siri.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov BMTning 2010 yil 20 sentyabrda bo‘lib o‘tgan “Mingyillikning rivojlanish maqsadlari” sammitining plenar majlisida so‘zlagan nutqida “Jahonning turli nuqtalarida hamon davom etayotgan urushlar va qarama-qarshiliklar, saqlanib qolayotgan davlatlararo, millatlararo va dinlararo ziddiyatlar, Mingyillik rivojlanish deklarasiyasida ta’kidlanganidek, qashshoqlik, ochlik, onalar va bolalar o‘limi, epidemiyalar va insoniyatning boshqa muammolariga qarshi kurash borasidagi eng jiddiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda”, – deb ta’kidladi. SHundan so‘ng davlatimiz rahbari “asosiy muammo va ziddiyatlar bo‘yicha o‘zaro murosa asosidagi echimlarni topish” zarurligini va bu murakkab, chigal, ziddiyatli vaziyatlardan chiqishning asosiy yo‘llaridan biri ekanligini qayd etib o‘tdi. SHu munosabat bilan tolerantlikni va uning odamlar ongiga ta’siri darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi paytlarda dunyoda murosasizlik, zo‘ravonlik, terrorchilik, tajovuzkor millatchilik, xalqlarning bir-biridan uzoqlashuvi, kam sonli milliy, etnik guruhlarni kamsitish holatlarining tez-tez yuz berayotganligi mintaqaviy va xalqaro miqyosda barqarorlikka va xavfsizlikka tahdid solmoqda va ijtimoiy rivojlanish yo‘lidagi to‘siqlardan biri bo‘lib qolmoqda. YUNESKOning1995 yil 16 noyabrda bo‘lib o‘tgan Bosh konferensiyasi tolerantlik tamoyillari Deklarasiyasini qabul qildi, zero tolerantlik tinchlikni saqlashning, insoniyatning har tomonlama rivojlanishining eng muhim tamoyili bo‘libgina qolmay, balki uning zarur sharti hamdir.

Ijtimoiy rivojlanishda yuz berayotgan o‘zgarishlar va ularning tendensiyalarini tahlil qilish global ijtimoiy ongda va muayyan inson hayoti va taqdirida tolerantlik muammosi naqadar dolzarb ekanligini ko‘rsatadi. Tolerantlik bugungi kunda zaruratga va madaniy me’yorga aylanib, atrofimizni o‘rab turgan dunyo bilan munosabatlarimizning zarur sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ma’lumki, globallashuv ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tizimlar va ijtimoiy birliklarning intensiv integrasiyasi, kommunikasiyaning innovasion usul va vositalariga tayangan holda kechayotgan, kompleks xarakterga ega obektiv voqea va hodisalarda o‘z aksini topmoqda.

[50] Журнал «Политический класс», № 9, сентябрь, 2006 .

Shuningdek, mazkur sharoit mavjud huquqiy normalarning qayta koʻrib chiqilishi, mintaqa va hududlardagi iqtisodiy tizim xarakterining oʻzgarishi, mamlakatlar siyosiy hayotiga xalqaro omil ta'sirining kuchayishi, turli madaniy tizimlar, xususan, dinlar oʻrtasidagi muloqot intensivligining kuchayishini keltirib chiqarmoqda..

Globallashuv jarayoning hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganining asosiy sabablari xususida gapirganda Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek " ... shuni obyektiv tan olish kerak – bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qoʻshnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas"[51].

Mutaxassislar zamonaviy global rivojlanish jarayonidagi ba'zi tendensiyalarning tahlili asosida bu borada koʻp hollarda aksiomadek qabul qilinadigan ayrim xulosalarga tanqidiy yondashish zarurligini ta'kidlashayotganini alohida qayd etish lozim. Jumladan, ular globallashuv sharoitida dunyodagi yirik kompaniyalar olayotgan foyda oʻsish emas, balki pasayish tomon ketayotgani, hukumatlar hali hamon gigant korporasiyalar faoliyatiga ta'sir koʻrsatish imkoniyatini saqlab turgani va koʻp hollarda ularni oʻz rejalarini oʻzgartirishga majbur qila olayotgani haqida yozmoqdalar[52]. Bu esa, davlat chegaralari ahamiyatining keskin darajada pasayib ketayotgani haqida gapirayotgan mutaxassislarning qarashlarini bir yoqlama ekanidan dalolat beradi.

Global diniy makonda roʻy berayotgan oʻzgarishlardan biri bu muayyan din yoki konfessiyaning konkret hudud bilan shartlanishidagi oʻzgarishlar bilan bog'liq. CHunki hozirda diniy hayotda sodir boʻlayotgan oʻzgarish ularning an'anaviy konfessional, siyosiy, madaniy va sivilizasiyaviy chegaralar doirasidagina emas, balki transmilliy, transetnik darajalarda ham kechmoqda. Xususan, neopyatidesyatniklar, bahoiylar faoliyati bu yoʻnalishdagi jarayonlarga misol boʻla oladi. Diniy hayotdagi global dinamik oʻzgarishlarning yana bir xususiyati, iqtisodiy jarayonlar va ijtimoiy sohaning bir qator jabhalarida global kommunikasiya maydonida yuzaga kelgan tarmoq modellari kabi "tarmoq dinlari" fenomenining vujudga kelgani bilan ham xarakterlidir.

Mutaxassislarning fikricha "tarmoq dinlari" an'anaviy konfessiyalardagi ierarxik strukturadan yagona markaz va an'analar ortodoksalligi bilan ajralib turadi va beqaror aloqalar va nochiziqli avtoritet hamda boʻysunish tizimiga ega qator avtonom birliklar orqali shakllanadi. Oʻz navbatida, ushbu birliklar bir-biridan kurtaklanib, eski siyosiy, madaniy va konfessional yurisdiksiya chegaralarini kesib oʻtish xususiyatiga ega. Xarizmatik protestant cherkovlari, buddaviylik va hinduiylikdagi ayrim "tarmoq" tashkilotlari faoliyati bunga yaqqol misol boʻla oladi[53]. SHu bilan birga, diniy hayotda oʻziga xos aksilgloballashuv jarayonlari kechayotganini ham ta'kidlash joiz. Gap shundaki, ayrim mutaxassislar tomonidan zamonaviy voqelikning radikal sekulyar qadriyatlar asosida shakllanayotgani haqidagi qarashlar ham ilgari surilmoqda. "Bunga

---

[51] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.

[52] Лапкин В.В., Пантин В.И. Геоэкономическая политика и глобальная политическая история. – М.: Изд-во: Олита, 2004. – 280 с.

[53] Нуруллаев А.А. Проблемы диалога религий в эпоху глобализации. // Вестник Российского университета дружбы народов. - Серия: Политология. - 2001. - № 3. - С. 28-35.; Мещеряков Д.А. Глобализация в религиозной сфере общественного бытия: Автореф. дисс... канд. филос. наук. Омск: ГОУ ВПО «Омский государственный аграрный университет», 2007. – 25 с.

ko'ra ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda din asosiy emas, balki marginal o'ringa ega bo'ladi"[54]. Ayni paytda, o'zgacha nuqtai nazar ham mavjud bo'lib, u dinning barcha yo'nalishlardagi jarayonlar rivojida qadriyatli - normativ asoslardan biri sifatida chiqishini ifodalaydi. Xususan, "Hozirda din global tartibga institut, anklav, muayyan birlik emas, balki o'ziga xos "jamoaviy va individual mansublik janri" sifatida kirmoqda", - deb yozadi atoqli olim Ronald Robertson[55].

Albatta, insoniyat istiqbolida dinning qandaydir ikkilamchi, noasosiy o'rin tutishiga doir gipotetik xarakterdagi ushbu fikr-mulohazalar o'ta bahsli bo'lib, ularga diniy hayotda kechayotgan o'zgarishlar dinamikasini har tomonlama tahlil etish orqaligina asosli munosabat bildirish mumkin.

"Shu o'rinda ta'kidlash muhimki, zamonaviy voqelik diniy qadriyatlar buzilishi va faqatgina sekulyarlashuv asoslarining rivojlanishi bilan kechayotgani yo'q. Balki, demokratik davlat va jamiyat qurish asoslarining mustahkamlanib borishi, diniy e'tiqod erkinligining keng joriy etishishi natijasida, diniy hayotda o'ziga xos ixtiyoriylik muhiti vujudga kelmoqda"[56]. Aytish mumkinki, bu diniy sohadagi globallashuv jarayonining asosiy xususiyatlaridan biridir.

E'tiqod va vijdon erkinligining keng tarqalishi, o'z navbatida, diniy hayot shakllarining transformasiyalashuviga olib kelmoqda. Demokratiya, erkin raqobat va inson huquqlari tamoyillari diniy qoidalar tizimiga integrasiyalashmoqda. Turdi din vakillari esa, aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda sekulyar madaniyat tizimiga munosabat bildirmoqda. Boshqacha aytganda, globallashuv davri boshqa ijtimoiy institutlar hayotida bo'lgani kabi dinlar hayotida ham muhim tarixiy bosqich hisoblanadi. Chunki turli ijobiy va salbiy oqibatlarga ega globallashuv jarayoni e'tiqod va vijdon, iroda va so'z erkinligi tamoyillari ustuvorlashib borayotgan demokratik sharoitlarda kechmoqda. Bu esa, o'z navbatida, asrlar mobaynida o'zaro bir-biriga nisbatan antagonizm, nigilizm, radikalizm kayfiyatida yashab kelgan turli diniy tizimlar oldiga sifat jihatdan yangi bo'lgan sharoit talablariga moslashish, fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib olgan xalqlar hayotida o'zining o'rni va ahamiyatini saqlab qolish va rivojlantirishning innovasion yo'llari va mexanizmlarini ishlab chiqishdek murakkab vazifalarni hal etishni zarur qilib qo'ymoqda.

Bu yo'nalishdagi birlamchi vazifalardan biri shubhasiz, dinlararo, konfessiyalararo muloqot hisoblanadi. Zero, o'zaro hurmat, tenglik, ishonch va hamjihatlikka asoslangan sog'lom muloqot har qanday din yoki konfessiyaning globallashuv sharoitida o'z o'rni va mavqeini saqlab qolishning eng maqbul vositasidir.

Umuman olganda, "globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi..."[57] ekani haqidagi fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, hozirda dinlarning bir-biri bilan yaqindan hamkorlik qilishi obyektiv zaruriyatdir. Global

[54] Еремеев С.Г. Вызовы глобализации: этнический и религиозный экстремизм в современном мире. - http://anthropology.ru/ru/texts/eremeev/terror.html.
[55] Қаранг: Новая социальная реальность глобального мира. /Отв. ред. В.И. Иванов. – Красноярск: Изд-во "ЛИТЕРА-принт", 2008. – 214 с.
[56] Орлов М. Место и роль религии в глобальных процессах современности. // Власть, 2008. № 1. – С 46.
[57] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 111 b.
.

ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayot barqarorligi ko‘p jihatdan ana shu hamkorlikning samarali rivojlantirilishiga bog’liqdir.

Globallashuv atamasi garchi keyingi vaqtlarda ommaviy tarzda qo‘llanilayotgan bo‘lsada, u chuqur nazariy asoslarga ega tushunchadir. Qaysidir ma’noda bu tushuncha insoniyatni birlikka intilishining faollashuvini bildiradi, odamlardagi begonalashuvni yo‘qotadi, kommunikativ aloqalarni tezlashtiradi. Insoniyatning tarixan birligini madaniyatlarning o‘zaro almashinuvida, monoteistik dinlarni tarqalishi, umumiy til yaratishga bo‘lgan urinishlarda ko‘rishimiz mumkin. Lekin, hozir gap bu haqda ketayotgani yo‘q. Globallashuvning zamonaviy tendensiyasi ma’naviy doiradan chiqib iqtisodni, siyosatni, axborot jarayonlarini va inson faoliyatining boshqa ko‘plab jabhalarini qamrab olmoqda. SHu tarzda ko‘p qirrali aloqalar bilan bog’liq bo‘lgan megajamiyat shakllanmoqda. SHu ma’noda aytish mumkinki, globalizasiya — jahon iqtisodiy, texnologik, siyosiy, informasion integrasiyasining o‘lchamidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 12-moddasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas, deyilgan. SHunga binoan, har bir diniy konfessiya o‘z mafkurasiga ega bo‘lishi mumkin. Lekin bu mafkura xalqqa tazyiq bilan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Jamiyatimizda diniy tashkilotlar faoliyati xalqimizda milliy g’urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik, komil insonni shakllantirishga qaratilgan.

O‘zbekistonda e’tiqod erkinligi va diniy bag’rikenglikni mustahkamlashda qonunchilik ham takomillashib bordi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g’risida»gi qonun 1991 yilda qabul qilingan bo‘lib, 1993 yilda kiritilgan ba’zi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo‘lib keldi. So‘nggi yillar davomida mazkur qonunni davr talablari asosida tubdan o‘zgartirish zarur bo‘lib qoldi va 1998 yilning 1 may oyida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

2000 yil 13-15 sentyabrda Toshkentda o‘tgan dinlararo muloqot YUNESKO Kongressi Markaziy Osiyodagi madaniy, diniy va etnik xilma-xilligini muhokama qildi. Unda 40ga yaqin davlatdan 80dan ortiq turli din va konfessiyalarga mansub vakillar, yirik mutaxassislar ishtirok etdilar. Kongressdan so‘ng 18 sentyabr kuni Buxoro shahrida «Tasavvuf va dinlararo muloqot» mavzusida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda «tasavvuf»ga bag’rikenglikni targ’ib etuvchi, tinchlikka chaqiruvchi Islom dinining noyob, o‘ziga xos ko‘rinishi degan ta’rif berildi. Aynan 2000 yil sentyabrida Toshkent islom universitetida dinlarni qiyosiy o‘rganish bo‘yicha YUNESKO kafedrasi ochildi. YUNESKO rahbariyati bu tashabbusni qo‘llab-quvvatladi. Fan, ta’lim va madaniyat sohasidagi eng nufuzli xalqaro tashkilot rahbari shaxsan o‘zi kelib kafedrani ochishi fikrimiz isbotidir. Kafedraning asosiy vazifasi dinlararo muloqot va diniy bag’rikenglikni yanada mustahkamlashga ko‘maklashishdir. SHuningdek, 2001 yil sentyabrida Toshkentda o‘tgan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi YUNESKO «bag’rikenglik tarmog’i»ning ikkinchi yig’ilishida bag’rikenglik tamoyillari o‘zbek xalqining urf – odatlari bilan chambarchas bog’liqligi ta’kidlandi.

O‘zbekistonning an’anaviy diniy bag’rikenglik o‘lkasi ekani, islom fani va madaniyatiga qo‘shgan ulkan hissasini e’tirof etib, nufuzli xalqaro tashkilot – Islom konferensiyasi tashkiloti (O‘zbekiston unga 1996 yildan a’zo)ning ta’lim, fan va

madaniyat bo‘yicha Boshqarmasi (ISESCO) Toshkent shahrini 2007 yilda islom madaniyati poytaxti deb e’lon qildi.

Xalqaro hamjihatlik yo‘lida har bir inson, jamoa va millatlar bashariyatning turli-tuman madaniyatlardan iborat ekanini anglashi va hurmat qilishi juda muhimdir. Bag’rikengliksiz demokratiya asoslari va inson huquqlarini mustahkamlab bo‘lmaydi. Tinchliksiz taraqqiyot va demokratiya bo‘lmagani kabi, bag’rikengliksiz tinchlik bo‘lmaydi.

Globallashuv jarayoni g’oyaviy, mafkuraviy jarayonlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, xozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nixoyatda kuchli vositasiga aylanib, jahondagi xar xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilmoqda. Xozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, ahborot kommunikasiya manzarasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, – deb ta’kidlaydi Prezident I.A.Karimov, – fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muxim ahamiyat kasb etmoqda.

## Globallashuv va lokallashuv

Reja:

1. Globallashuvning lokal madaniyatning shakllanishiga global ta’siri.
2. Glokalizatsiya global integratsiya va global strukturalarga lokal javob orasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida.
3. Lokal madaniyatning globallikka ziddiyatli xarakteri.
4. Globallashuv va lokallashuvning o‘zaro ta’siri.

Geosiyosiy o‘zgarishlar jahon siyosatchilari va davlat arboblarini sobiq Ittifoq hududida, ayniqsa, Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga yangicha nigoh bilan qarashga undamoqda. Masalan, amerikalik taniqli olim va davlat arbobi Z.Bzejinskiy ushbu mintaqada kechayotgan voqea-hodisalarga va ularning AQSH manfaatlari uchun ahamiyatiga e’tibor qaratib kelmoqda. Uning nazarida, Evroosiyo jahonning eng yirik va geosiyosiy jihatdan g’oyat muhim mintaqasi bo‘lgani bois bu hududni nazorat ostiga olgan davlat dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan uchdan ikki qismida hukmronlik qilishi mumkin. Zero sayyoramiz aholisining taxminan 75 foizi shu hududda istiqomat qiladi, jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 60 foizi va aniqlangan energetika zaxiralarining taxminan to‘rtdan uch qismi ham shu qit’a ulushiga to‘g’ri keladi. AQSHdan keyin iqtisodiy va harbiy jihatdan eng qudratli davlatlar ham Evroosiyoda joylashgan. Mintaqada etakchilik qilishga va global ta’sir ko‘rsatishga intilayotgan, eng ko‘p aholiga ega davlat ham shu qit’ada joylashgan. Evroosiyo umumiy kuch-qudrati va iqtisodiy salohiyati jihatidan hatto AQSHni ortda qoldirayotgani bu mintaqa imkoniyatlaridan dalolat beradi. SHu bois iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlatlar, jumladan, AQSH siyosatida bu hudud ustuvor ahamiyat kasb etayotgani bejiz emas. Ya’ni, AQSH bu qit’ada o‘z manfaatlariga putur etkazishi mumkin bo‘lgan har qanday voqea yoki hodisaga nisbatan zudlik va qat’iyatlik bilan munosabat bildiradi. Xususan, so‘nggi besh yil ichida Afg’oniston va Iroqda amalga oshirilgan va hozirgi vaqtda ham davom etayotgan harbiy harakatlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi. SHu bilan birga, bu masalada Rossiya ham o‘z manfaatlarini qat’iy himoya qilishi (ayniqsa, so‘ngi yillarda) tabiiy holdir.

Mutaxassislar Markaziy Osiyo hududida sodir bo‘layotgan voqealar sur’atining jadallashayotganini ta’kidlamoqda. Darhaqiqat, bugungi siyosiy voqe-likni sobiq Ittifoq parchalangan 90-yillardagi vaziyat bilan qiyoslab bo‘l-maydi. Gap shundaki, mazkur mintaqa ko‘pgina yirik qudratli davlatlar man -faatlari to‘qnashayotgan hududga aylanib borayotgani bundagi geosiyosiy vaziyatni chigallashtirishni, uning Farb va SHarq o‘rtasidagi notinch “bufer zona”ga aylanib qolish xavfini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, Fors ko‘rfazidagi yoqilg’i zaxirasining kamayib, mintaqadagi vaziyat keskinlashib borayotgani beqiyos tabiiy boylik, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari geostrategik o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Keyingi yillarda Vashington ma’muriyatining milliy xavfsizlik strategiyasi Kavkaz va Markaziy Osiyoga ustuvor ahamiyat qaratilishi, birinchi navbatda, iqtisodiy manfaatlar, xususan, energoresurslarga egalik qilish va Farbga tashib ketishni nazarda tutadi.

Masalaning yangi bir jihati shundan iboratki, ayrim yirik davlatlar-ning xalqaro munosabatlarni boshqarish va tartibga solish borasida hech kim bilan hisoblashmasdan, hech kimning manfaatini hisobga olmasdan o‘zboshimcha siyosat yuritishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu siyosat go‘yo butun dunyoda yagona, faqat bitta kuch markazi bo‘lishi kerak degan aqidaga tayanadi. Bu markaz Dunyo-dagi barcha jarayonlarni qat’iy nazorat qilish va unga itoat etmaganlarni jazolashga intilmoqda. Bu o‘ta xatarli siyosiy, ya’ni dunyo xaritasini yangidan bo‘lib olib boshqarish, xalqlar va davlatlar ustidan hukmronlik qilishga in-tilishni YUgoslaviyaning parchalab yuborilishi, Iroqdagi harbiy harakatlar, Kavkazorti davlatlarida amalga oshirilayotgan xunrezliklarda kuzatish mumkin.

Bir vaqtlar AQSH quruqlik qo‘shinlari rezervining psixologik amaliyot-lar bo‘linmasi rahbari bo‘lgan, hozir esa vise-prezident CHeynining ishonchli tashviqotchilaridan biri sifatida tanilgan general Pol Velleli 80-yil-larning oxirida yana bir olim bilan hammualliflikda “Psixologik amaliyot-lardan psixologik urushga: psixologiyaning g’alabasi” deb nomlangan maqola e’lon qilgandi. Agressiv, quyushqonga sig’maydigan fikirlarga to‘la bu maqolada muallif raqib mamlakatni ruhiy bosim va xurujlar orqali engish mumkinligi va zarurligini ta’kidlaydi. “Strategik jihatdan – deb yozgandi Velleli, - mazkur qurol do‘stlar, dushman -lar va betaraflardan qat’iy nazar, dunyodagi barchaga qaratilmog’i hamda har joyga tashlab ketiladigan oddiy varaqalar, maxsus tashviqot otryadlarining karnaylari, psixotronika-ning zaif, noaniq va tor yo‘nalishlari orqali emas, balki AQSH ega bo‘lgan va Er sayyorasidagi istalgan odamga etib bora oladigan vositalar yordamida qo‘llanilishi kerak. Albatta, bu vosita – elektron OAV, matbuot, televidenie va radiodir. Sputnik orqali aloqa, video-yozuvlar va boshqa texnologiyalarning bugungi rivoji insonlar ongiga biz ilgari tasavvur ham qila olmaydigan darajada kirib borish imkonini berdi. Biz mo’jizaviy Ekskalibur (qirol Arturning qilichi) – ni qo‘lga olsak kifoya va u bizga butun dunyoni bo‘ysun-dirib beradi. Faqat bizda hamma mamlakatlarni shunday vositalarga ko‘mib tashlash uchun etarlicha jur’at va qat’iyat bo‘lsa bas. Ushbu qilichsiz bizning ahloqiy normalarimizni boshqa madaniyatlarga singdirish qiyin kechadi”.

Amerikaning gegemonlikka intilishi dastlab Ikkinchi jahon urushi yakun topganidan so‘ng toboro yaqqolroq ko‘ga tashlana boshladi. Buning uchun etarli omillar bor edi, albatta. Avvalo, urushda qatnashayotgan o‘nlab davlatlarning harbiy buyurtmalari evaziga AQSH dunyoning boshqa barcha mamlakatlaridan farqli o‘laroq, Jahon urushida juda katta foyda ko‘rdi. Urush tugagandan keyin tuzilgan Evropani qayta

tiklash rejasida ham birinchi navbatda Amerika manfaatlari ko‘zda tutilgan edi. O‘tgan asrning ikkinchi yarmiga kelib, Qo‘shma SHtatlar G’arbiy Evropa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hamda Atlantika okeani havzasida turli yo‘llar o‘z yakka ustunligini o‘rnatish uchun faol harakatlarni boshla yuborgandi. Va bu harakatlar o‘z natijasini berdi ham. AQSHni aksariyat hollarda harbiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sohalarida yakkahokimlik o‘rnatishga ochiqdan-ochiq intilishi uchun tanqid qilishadi. qayd etish lozimki, bugungi kunga kelib butun dunyoda “antiamerikanizm” deb ataluvchi harakat yuzaga kelgan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab 30 yil davomida AQSH iqtisodiyoti katta sur’atlar bilan muttasil o‘sib bordi va bu davlat shubhasiz dunyoning eng qudratli mamlakatlaridan biriga aylandi. Dunyo aholisining 4,5 foizi istiqomat qiladigan davlatga jahon bo‘yicha bir yilda yalpi ishlab chiqarilgan mahsulotning 21 foizi va butun xalqaro bozor aylanmasining deyarli yarmi to‘g’ri keladi. Amerika ilm-fan, ayniqsa, yuqori axborot texnologiyalari soha -sida boshqa davlatlardan ancha o‘zib ketdi. Jahon axborot texnologiyalari va xizmatlari bozorining 40 foizini qo‘shma SHtatlar ta’minlaydi. harbiy sohada, xususan, qurollanish borasida ham u dunyoda eng oldingi o‘ringa chiqib olgan. 2000 yilgacha Amerikaning harbiy byudjeti yiliga 300 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Shuni unutmaslik lozimki, AQSH bu darajadagi taraqqiyotga, masalan, YAponiya singari sof ilmiy-texnikaviy salohiyat orqaligi na erishmagan. Garchi rasmiy doiralarda ochiq tilga olinmasa-da, ko‘plab siyosatshunoslar, diplomatlar, tahlilchilarning tadqiqotla rida, kitoblari va maqolalarida bot-bot ta’kidlanganidek, bunday rivojlanish darajasiga etish uchun ikki xil standartli tashqi siyosat, milliy manfaatlar yo‘lida o‘z ittifoqchilarini ham chetlab o‘tish, bosim o‘tkazish singari usullar ham xizmat qilgan. O‘tgan asr davomida AQSH “dunyoga sosializmning tarqalishiga qarshi turish” niqobi ostida, 1991 yilda Sovet Ittifoqi tanazzulga yuz tutganidan so‘ng esa “demokratik qadriyatlarni tarqatish”, “tashqi kuchlarga, xalqaro terrorizmga qarshi kurashish” bahonasi bilan yuqori darajadagi qurollanish sur’atlarini saqlab turibdi.

So‘nggi yillarda Amerikaning gegemonlik siyosati sayyoramizning barcha qit’alarida va xalqaro munosabatlarning har bir soxasida ko‘zga tashlanmoqda.

E’tiborga molik jihati shundaki, barcha amerikaliklar – davlatni boshqarayotganlardan tortib, oddiy fuqarolargacha bunday siyosat to‘g’ri ekan-ligiga qattiq ishonadi va boshqalar ham shunday o‘ylashga majbur degan e’ti-qod bilan yashaydi. Bunga juda ko‘p misol keltirish mumkin. Oddiy amerika-liklar, siyosatshunoslar, olimlar, biznesmenlar yoki amerikalik jurnalist-larni qo‘yib turaylik-da, zamonaviy tashqi siyosatda chuqkr iz qoldirgan dip-lomatlardan biri, AQSHning sobiq davlat kotibi Genri Kissenjerning “Ame -rikaga tashqi siyosat kerakmi?” deb nomlangan kitobidan bir parcha keltira -miz: “YAngi ming yillik bo‘sag’asida Amerika o‘tmishdagi barcha imperiyalarni ham ortda qoldirib, o‘z kuch-qudratining samarasini ko‘rmoqda. Harbiy sohadan to biznesgacha, ilm-fandan, to texnologiyalargacha, oliy ta’limdan ommaviy madaniyatgacha Amerika butun dunyoda cheksiz miqyoslarda ustun kelmoqda. XX asrning so‘ngi 10 yilligida har jihatdan ustun pozisiyaga ko‘tarilish natijasida Amerika xalqaro barqarorlikni asrashning yagona kafolatiga aylandi”. Muallifning fikricha, jahonning istalgan nuqtasidagi har qanday ziddiyatni hal etishda AQSHga teng keladigani yo‘q. Mamlakatning bunday gegemonlik siyosatiga qarshi bo‘lgan har qanday harakat Kissinjerning ta’kidlashicha, “milliy manfaatlarga tahdid”dir. Xo‘sh, Prezident

G.Trumen davridayoq mukammal tarzda yo‘lga qo‘yilgan, bugun esa yanada shiddatli va andishasiz ko‘rinish kasb etayotgan bu gegemonizm nimalarda namoyon bo‘ladi?

Avvalo, siyosiy **soha**da.

Bu borada amerikalik siyosatdonlar amalga oshirishga ulgurgan ishlarga o‘nlab misollar keltirish mumkin. AQSH o‘z yo‘rig’iga yurishni istamagan davlatlarga birinchi navbatda siyosiy jihatdan bosim o‘tkazadi. Sanksiyalar qo‘l-lash bilan tahdid qilish, axborot xuruji, siyosiy jihatdan yakkalash va mamla -katning xalqaro maydondagi obro‘sini tushirish kabilar shunday vositalar- dandir. qolaversa, BMT, Xalqaro Valyuta Jamg’armasi, Jahon Savdo Tashkilo -ti, Jahon banki singari dunyoning eng yirik xalqaro tashkilotlaridagi etakchi rol ham bosim o‘tkazishda katta imkoniyat beradi. Suriya, Sudan, SHimo -liy Koreya, Venesuela kabi davlatlarga nisbatan olib borilgan siyosat bunga misol bo‘la oladi.

Boshqa mamlakatlardan xalqaro huquq normalariga so‘zsiz amal qilishni talab qiladigan AQSHning o‘zi bu normalarni ko‘p marotaba buzgan yoki ularga umuman qo‘shilmagan. Biologik qurollarni tarqatmaslik haqidagi bitim, Kioto protokoli singari xalqaro shartnomalar shular jumlasidandir. Dar-voqe, Kioto protokoli haqida bir narsani aytib o‘tish joiz. hozirga kelib, har yili iyundan noyabrga qadar amerikaning tropik mintaqalarida davom etadigan to‘fonlar mavsumi AQSH sanoat korxonalari tomonidan tabiatga etkazilgan cheksiz zararning, aniqrog’i, ana shu xalqaro shartnomaga qo‘shil-maslikning oqibatidir.Bu haqda olimlar amerika hukumatini bundan 35 yil oldin ogohlantirgan edilar va bugun ham bu chaqiriqlar tingani yo‘q. Ammo protokolga qo‘shilish, bu – juda katta xarajat, deganidir. Ortiqcha xara-jatlar esa qo‘shma SHtatlarga kerak emas.

1972 yilda imzolangan, dunyo xavfsizligi va barqarorligining o‘ziga xos garovi sifatida qaralgan Raketaga qarshi mudofaa tizimlari haqidagi xalqaro SHartnomadan ham qo‘shma shtatlar bir tomonlama chiqib ketdi. Bu harakat eng muhim siyosiy masalalarda o‘z manfaatini ochiqdan-ochiq ustun qo‘yishning yaqqol namoyishidir. YUgoslaviyaga (1990-yillar), Iroqqa (1990-2003) berilgan havo zarbalari, Koreya (1950-yillar), Vetnam (1963-1965) da olib bor -ilgan harbiy harakatlar, ko‘plab mamlakatlarning ichki va tashqi siyosatiga bo -sim o‘tkazishga urinish bilan Amerika eng muhim xalqaro shartnomalar(BMT Nizomi, Xelsinki shartnomasi kabilar)da ko‘zda tutilgan davlatlarning suve –reniteti, ichki ishlarga aralashmaslik, chegaralarning daxlsizligi, kuch ishla tmaslik singari xalqaro huquqning asosiy tamoyillarini qo‘pol ravishda buzgan.

AQSH tomonidan gegemonizm siyosati iqtisodiy siyosatda ham faol qo‘llani -ladi. Hech ko‘zingiz tushganmi, “Maykrosoft” korporasiyasining Mashhur kom-pyuter dasturlarini o‘rnatayotganingizda dastavval ekranda “Lisenziya kelishu -vi” degan oyna paydo bo‘ladi. Uning bandlaridan birida shunday yozuv bor: “Siz ushbu kompyuter dasturini AQSH tomonidan cheklovlar joriy etilgan davlatlar, jumladan, Kuba, Eron, Iroq, Liviya, SHimoliy Koreya, Sudan va Suriyaga olib kirmaslik, bu davlatlar fuqarolariga vaqtinchalik foydalanish uchun bermaslik majburiyatini olasiz”. Bunday cheklov AQSH Savdo vazirligi-ning Eksport nazorati byurosi tomonidan Amerikada ishlab chiqariladigan bar -cha mahsulotlarga belgilanadi. Ushbu taqiqning demokratiya talabalariga qay darajada mos kelishi masalasini inson huquqlari himoyachilariga qoldirgan holda aytmoqchimizki, bu iqtisodiy bosim o‘tkazish yo‘llaridan biri xolos.

AQSH iqisodiy siyosatining eng ko‘p norozilik uyg’otadigan yana bir jihati – barchani dollarga xalqaro valyuta sifatida qarashga majburlash. Prezidenlik saylovlarida

kurash olib boradigan har qanday nomzod – u xoh demokratlardan, xoh respublikachilardan bo‘lsin, ana shu “xalqaro maqom”ni ta’minlash yuzasidan o‘z reja-sini taqdim qilishi qoidaga aylangan. Dollarning xalqaro valyuta sifatida muomalada bo‘lishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu holatni soddaroq qilib shunday tushunib olish mumkin. Masalan, Sizning 1 million so‘m pulingiz bor va uni amaldagi kurs bo‘yicha 1 000 dollarga almashtirdingiz, deylik. Agar AQSH hukumati 10 foizlik devalvasiya (davlat tomonidan milliy valyutaning qadrini pasaytirish yo‘li bilan qayta baholash)ni amalga oshirsa, o‘sha 1 000 dollarni endi 900 ming so‘mga almashtirasiz. Bunday devalvasiyalar esa AQSH iqtisodiy siyosatida bir necha bor kuzatilgan. Ushbu holatda ming emas, milliardlab dollarni o‘z markaziy banklarida majburan saqlayotgan davlatlarning ko‘radigan zararini tasavvur qilish qiyin emas. Ko‘rib turganimizdek, dollarning qattiq valyuta ekanligi Amerikaga dunyo bo‘yicha o‘z so‘zini o‘tkazish uchun juda katta imkoniyatlarni ochib beradi.

Gegemonizmning uchinchi asosiy ko‘rinishi madaniy siyosatda namoyon bo‘ladi. YUqorida tilga olingan kitobida Kissinjer yozadi: “Biz bu millatni insonlarni ozod qilish uchun yaratdik, biz o‘z konsepsiyamiz va maqsadlarimiz nuqtai-nazaridan olib qaraganda, Amerika bilan cheklanmaymiz va endi barcha insonlarning ozod bo‘lishi uchun harakat qilamiz. Agar bunday qilsasak, Amerikaning shon-shavkati barbod bo‘ladi, uning qudrati esa havogo uchib keta- di”. Amerikanizmning mohiyatini mana shu so‘zlardan yanada mufassalroq anglab etish mumkin. Bunday siyosat odatda “madaniyatlarni boyitish”, “demo-kratiya an’anlarini joriy etish” yo‘llari bilan amalga oshiriladi. O‘z qadriyatlarini saqlashga urinib, bunday “madaniy uyg’unlik”ni, “demokratiya talablari”ni qabul qilmaydigan davlatlar oldida esa ikki yo‘l turadi: yo bo‘ysunish, yo qoloqlik, xalqaro siyosatda yakkalanish, obro‘sizlanishga duchor bo‘lish. Bu va yuqorida sanab o‘tilgan boshqa holatlar AQSH tomonidan qo‘llani-ladigan bosimlardan ayrim misollar xolos. Amerikaning bunday tashqi siyosa -tidan ko‘zlangan bosh maqsad – insoniyatning eng muhim tabiiy, moliyaviy, in -tellektual va informasion resurslari ustidan qo‘z nazoratini o‘rnatishdir.

Sovet Ittifoqi parchalangach, qo‘shma SHtatlar mazkur hududda ham o‘z hukmronligini o‘rnatishga jahd bilan kirishdi. Rasmiy Vashingtonning butun diqqat e’tibori, sobiq davlat kotibi M. Olbrayt xonimning ta’biri bilan aytganda, “postsovet hududidagi ajralishlarni boshqarish” jarayoniga qaratildi. har tomonlama puxta ishlab chiqilgan loyihalar, dasturlar; barcha sohalarni qamrab olgan xalqaro, nodavlat notijorat tashkilotlar; ta’sirli kuchga ega bo‘lgan OAV yordamida bu hududda mustahkam baza yaratildi. 10 yildan ortiqroq muttasil, izchil harakatlar natijasi o‘laroq, Gruziya, Ukraina, Qirg’izistonda birin ketin rangli inqiloblar yuz brdi. Biz ushbu mavzuga batafsil to‘xtamoqchi emasmiz, balki e’tiboringizni boshqa masalaga - AQSHning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy maqsadlariga qaratmoqchimiz.

Bush ma’muriyati “Katta Yaqin Sharq” degan yangi geografik atamani o‘ylab topdi. 2003 yil 19 oktyabrda NATO Kengashi yig’ilishida chiqish qilar ekan, AQSHning NATOdagi domiy vakili Nikolas Barnes “Biz butun diqqat e’tiborimizni aynan Katta YAqin SHarqqa qaratishimiz lozim”, degan so‘zlarni aytgandi. Bu atama o‘z ichiga Markaziy Osiyo, SHimoliy Afrika va SHarqiy Arab davlatlarini olgan juda katta hududni anglatadi. SHubhasiz, jami aholisi 67 mln.dan ziyod, yillik yalpi ichki mahsulot 60 mlrd. dollardan ortadigan, eng zarur tabiiy zahiralarga juda boy Maar kaziy Osiyo hududi, shu jumladan, O‘zbekiston qit’adagi joylashgan o‘rni (shimolda–Rossiya; janubda–Pokiston,

Hindiston, Eron; SHarqda–Xitoy, Koreya, YAponiya; g’arbda–Kaspiy dengizi, Turkiya, YAq -in SHarq mamlakatlari)ni ham inobatga olsak, katta ahamiyat kasb etadi. SHu tariqa, mo‘ljal bir vaqtlar qadrdon strategik hamkor deb atalgan, 2001 yil sentyabrdagi terrorchilik harakatlaridan so‘ng hatto harbiy aerodromigacha bo‘shatib bergan O‘zbekistonga qaratildi.

2005 yil Andijonda amalga oshirilgan terrorchilik harakatlaridan so‘ng, mana bir yilki, mamlakatimizga nisbatan o‘tkazilayot- gan bosimlar hamon tinmayapti. Bu ssenariy (baolki endi, serial deb atash maqsadga muvofiqdir) davomida bosimning barcha usul-lari qo‘llanildi: Bi-Bi-Si, “Ozodlik” radiosi, Nyu-York Tayms kabi gazetalar Assoshieyted Press, Reyter axborot agentliklari singari turli OAV orqali axborot xuruji; BMT, Human Rights Watch, IWPR, Xalqaro Amnistiya qo‘mitasi singari xalqaro tashkilotlar orqali siyosiy bosim o‘tkazilmoqda.

Ammo, bir savol tug’iladi: AQSH nima uchun bizdan norozi? 13 may kuni Andijonda og’ir jinoyatlar sodir etgan terrorchilarga qarshi qat’iy pozisiyada turganimiz, chegaradan noqonuniy o‘tib ketgan “qochqinlar”ni qonuniy talab qilayotganimiz yoki “Katta YAqin SHarqda” katta ishtiyoq va muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotgan rejalarga o‘zi “kichkinagina” bir davlat bo‘la turib, “tap tortmay” xalaqit berayotganimiz uchundir balki?! Mamlakatimizning eng yuqori sud instansiyasida, xorijiy diplomatlar va jurnalistlar qarshisida ko‘rsatma bergan ayblanuvchilar Andijon fojealarida tashqi kuchlarning, xususan, AQSHning qo‘li borligi haqidagi ma’lumotlarni aytdi. Agar, ushbu ko‘rsatma isbotlanadigan bo‘lsa, AQSH o‘z siyosatida yana bir g’irrom tamoyil, ya’ni “Sening dushmaning – mening do‘stim” degan qoidaga amal qilishi o‘z tasdig’ini topmoqda. YOdingizda bo‘lsa, sobiq Ittifoqqa nisbatan Afg’oniston maslasida shunday siyosat amalga oshirilgan va bu keyin AQSHning o‘ziga ham, boshqalarga ham katta balo keltirgan “Tolibon” harakatining yuzaga kelishiga zamin yaratgandi.
AQSH tomonidan olib borilayotgan bu siyosat, yuqorida keltirilgan misol-lardan so‘ng, “zamona zo‘rniki ekanda”, deb, umidsizlikka tushmaslik kerak. Aslo!

Chunki, jinsi shim kiygan, doim “kola” ichib, CNN yangilik-larini ko‘radigan odam amerikalik bo‘lib qolavermaydi. Oliy millat va dunyo egasi bo‘lishga da’vogarlar tarixda ko‘p kuzatilgan va ularning hammasi inqirozga yuz tutgan.

Albatta, biz uchun Nyu-Yorkdagi 140 qavatli osmono‘par bino Bibixonim madrasasidagi bitta koshinning, eng zo‘r qo‘shig’i “Munojot” ning bitta nolasi, xot-dog va pissa bitta obi-nonning o‘rnini bosa olmaydi.

MDH davlatlariga nisbatan bu borada yangicha taktika qo‘llanilmoqda. Ushbu mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan foydalanib jamiyat va davlatga qarshi kuchlarni har tomonlama qo‘llab, kerak bo‘lsa, buzg’unchi-terrorchilarni ham rag’batlantirgan holda (Andijon voqealarida xuddi shunday yo‘l tutildi) qonuniy hokimiyatni ag’darib tashlashga harakatlar ko‘zga tashlanmoqda. Gruziya, Ukraina va Qirg’izistonda bu borada ma’lum natijalarga ham erishildi. Biroq, ushbu mamlakatlarda “yakka gegemoniya” uchun xizmat qiladigan rejimlar o‘rnatildi. Bu taktika O‘zbekistonga nisbatan qo‘llanganda kutilgan natija bermaganidan keyin mamlakatimizga qarshi axborot huruji boshlab yuborildi, davlatimiz obro‘ini to‘kishga harakatlar boshlandi. Ammo bu sa’y-harakatlar ham natija bermagach, ayrim kuchlar O‘zbekistonni xalqaro hamjamiyatdan ajratib qo‘yishga intilmoqda. Ammo O‘zbekistonning mustaqil tashqi siyosatini obro‘sizlantirmoqchi bo‘lganlar yanglishadi. CHunki O‘zbekiston yuksak davlatchilik an’analari, buyuk tarix, bebaho madaniy-

ma'naviy merosi, xalqining ulkan aqliy salohiyati, bunyodkorligiga tayanib taraqqiyot sari intilayotgan va bu borada salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritgan mamlakat. Uni do'q-po'pisa, turli tazyiqlar bilan taraqqiyot yo'lidan qaytarib bo'lmaydi.

Shunday merosga ega xalq hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. O'zini himoya qilishga qodir. SHuning uchun ham O'zbekiston rahbariyati mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni e'tiborga olib mamlakat mustaqilligi va istiqboliga tah-did solayotgan xavf-xatarga qarshi turish uchun barcha imkoniyatlarni ishga sol-moqda. SHu ma'noda, O'zbekiston-Rossiya ittifoqchilik munosabatlarining ahamiyati beqiyosdir. Bu munosabatlar O'zbekiston mustaqilligi, tanlagan yo'li, mustaqil tashqi siyosatini himoya qilish, ko'zlagan maqsadlarimizga erishishga xizmat qiladi.

Mikromintaqaviy nuqtai nazardan asosiy geosiyosiy obyekt sanalgan Markaziy Osiyo Rossiyaning strategik muhim qo'shnisigina emas, balki Evroosiyo va umuman, jahon siyosati jumboqlarining o'ziga xos «kaliti»dir. SHu bois Markaziy Osiyo hududida ro'y berayotgan va bu mintaqa davlatlariga tahdidlar nafaqat shu hududda joylashgan mamlakatlar xavfsizligi va barqarorligi, balki Rossiya Federasiyasining milliy xavfsizlik muammolariga ham bevosita daxldordir.

Markaziy Osiyo tarixan G'arb-Sharq Shimol-Janub yo'nalishlari chorrahasidagi transport-kommunikasiya bo'g'ini, g'oyat muhim resurslar oqimi-ning markazi, sharqiy (musulmon) va g'arbiy (nasroniy) sivilizasiyalar o'rta-sidagi barcha jarayonlarda «filtr» va «bo'g'in» sifatida hozirgi zamon xalq-aro tartibotning shakllanishida O'zbekiston va Rossiya manfaatlari himoya-sini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda manfaatdor hukmron doiralarning mablag'i evaziga beqarorlik keltirib chiqarishni ko'zlayotgan turli nodavlat tashkilotlarining faoliyatidan tortib, dunyoni yakka qutb-lilik asosida boshqarishga qaratilgan barcha geosiyosiy harakatlargacha nazorat qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Bunday xulosa chiqarishga etarli asoslar bor. Ko'pgina tahlilchilarning ta'kidlashicha, so'nggi 20–30 yilda jahon bo'yicha energiya iste'moli ancha ko'paygan. AQSH energetika vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 1993 va 2015 yillar oralig'ida yoqilg'ining energiya zaxiralariga ehtiyoj kamida 50 foizga ortadi. Bzejinskiy ta'kidlaganidek, "Osiyodagi iqtisodiy taraqqiyotga beril-gan turtki yangi energiya zaxiralarini izlab topish va ulardan foydalanishga katta ta'sir ko'rsatilishini anglatadi. Ma'lumki, Markaziy Osiyo va Kaspiy mintaqasi hududlarida tabiiy gaz va neft zaxiralari joylashgan". Energiya mahsulotlariga bo'lgan bunday katta ehtiyoj va ko'pgina davlatlarda ularning tanqisligi iqtisodiyotini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlash harakatidagi davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qanday bo'lishini tasavvur etish qiyin emas.

Ikkinchidan, xalqaro munosabatlarda kuchlar mutanosibligida jiddiy o'zgarishlar yuz berganini ta'kidlash joiz. Endilikda bitta yoki bir necha yirik davlatlar guruhining ustunligini o'rnatib bo'lmaydi. Bunda dunyoning barcha nuqtalaridagi kuch markazlari, jumladan, EvroAzES davlatlari kuch-qudrati, salohiyati bilan hisoblashishga to'g'ri keladi. Davlatlararo munosabatlar amaliyoti shundan dalolat beradiki, kuchlar mutanosibligi tamoyilini tushunmaslik, uni tan olmaslik yohud davlatning tashqi siyosatida e'tiborga olmaslik va og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Kuchlar mutanosibligi va undagi jiddiy o'zgarishlarni inobatga olish nafaqat siyosatning ustuvor yo'nalishlari, maqsad va vositalarini ishlab chiqishda balki xalqaro munosabatlar rivojining istiqbolini bashorat qilishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlatlarning o‘zaro aloqadorligi ortayotgan, xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm xavfi kuchayayotgan hozirgi davrda bu ayniqsa muhimdir. Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina hududlarida o‘ziga xos mintaqaviy kuchlar mutanosibligi tizimi qaror topgan. Bunday tizim Markaziy Osiyoda ham shakllangan. U ko‘pgina davlatlarning, jumladan, AQSH va Rossiya ekspertlari va tahlilchilarining e’tiborini jalb etmoqda. Mintaqaviy kuchlar mutanosibligida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, avvalo, uning ishtirokchilari, ya’ni Markaziy Osiyo respublikalari uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning bu tizimga moslashishi, harakatlari, siyosat yuritishi nafaqat o‘zining, balki butun mintaqa hududida xavfsizlikni belgilab beradi. Zero bu erdagi kuchlar mutanosibligi ko‘plab yirik davlatlar ta’siri bilan belgilanadi. Bu o‘rinda O‘zbekiston Prezidenti I. Karimov tomonidan ilgari surilgan “globalizmga regionalizm orqali” g’oyasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizningcha, unda jahon siyosatining asosiy yo‘nalishlari jumladan, geosiyosiy vaziyat, milliy manfaatlar, global va mintaqaviy kuchlar mutano-sibligining uzviy bog’liqligi o‘z ifodasini topgan. Qolaversa, bu g’oya globallashuv jarayoni keltirib chiqarayotgan muammolar hal etish, turli tahdidlarni mintaqaviy jipslik va hamkorlikni kuchaytirish orqali bartaraf etish, demakki, mamlakatimizning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallash, har jihatdan taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

XX asrning so‘nggi choragida jahon miqyosida yangi dunyoviy tartibning qaror topishi, avvalo, turli mamlakatlar iqtisodiyotining integrasiyalashuvi “geoiqtisodiyot»ning shakllanishi bilan uzviy bog’liqdir.

Bu jarayonning quyidagi belgilovchi omillarini ajratib ko‘rsatish mumkin: “sovuq urush”da g’olib chiqqan davlatlarning harbiy qudratining kuchayishi; SHimoliy Amerika, G’arbiy Evropa va SHarqiy Osiyoda iqtiso-diyotning jadal o‘sishi; Transmilliy korporasiyalar va nodavlat tashkilotlar mavqei va ta’sirining oshishi rivojlangan va “Uchinchi dunyo” mamlakatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning keskinlashuvi; rivojlangan davlatlarning rivoj-lanayotgan davlatlar tabiiy boyliklarini egallash, ishchi kuchi va intellek-tual zaxiralarini jalb etish va hokazo.

Globallashuv jarayoni ayniqsa moliyaviy va iqtisodiy sohada jadal sur’atlar bilan kechmoqda. U avvalo, tabiiy boyliklar va savdo bozorlari ustidan nazorat o‘rnatish borasida raqobatning keskinlashuvida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda davlatlar bilan bir qatorda transmilliy korporasiyalar (TMK) ham etakchi o‘rin tutadi.

Transmilliy korporasiyalar — industrial rivojlangan davlatlarning global ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p funksiyali milliy trest va konsernlari, xalqaro firma, kompaniya va korpora-siyalari.

Ular faoliyati asosan ikkinchi jahon urushidan keyin rivojlana boshlab, hozirgi davrda yirik TMKlar keng tashqi iqtisodiy ekspansiya siyosatini yuritmoqda. Masalan, jahon miqyosidagi savdo hajmining qariyb uchdan ikki qismi TMK ulushiga to‘g’ri keladi, dunyodagi patentlar, lisenziya va nou-xaular - ning beshdan to‘rt qismi ham ularga tegishli. Mutaxassislarning fikricha, 2004 yilda er yuzida 64 ming atrofida TMKlar mavjud bo‘lib, ularning dunyo bo‘yicha 830 mingta filiallari faoliyat olib borgan. (Taqqoslash uchun raqamlarga murojaat etsak, 1939 yilda dunyo miqyosida 30 ta TMK bo‘lgan bo‘lsa, 19 yilda 7 mingtaga, 1976 yilda 11 mingtaga etgan). Dunyo miqyosida etakchi mavqega ega 100 ta eng yirik TMKlar xalqaro savdoning umumiy hajmidan 16%ni nazorat qiladi va bu TMKlarning uchdan bir qismi AQSHga to‘g’ri keladi. XX asr so‘ngida etakchi 100 ta TMKlarning chet ellardagi aktivlari 1,4 trln. doll. tashkil etdi.

Ta'kidlash lozimki, zamonaviy TMKlarga xos bo'lgan xususiyat, bu "ikki andozalik" yondoshuvidir. Bir tomondan ular dunyo iqtisodiy makonining liberallashuvi va demokratlashuvidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomondan TMK ichida dunyoda mavjud erkin bozor qonuniyatlari ishlamaydi (bozor asosida emas, balki korporasiya strategiyasidan kelib chiqib narxlar belgilanadi). Umuman, TMKlar faoliyati o'zlari joylashgan (ro'yxatdan o'tgan) davlat manfaatlari bilan mustahkam bog'langan bo'ladi.

Yirik TMKlar ko'pgina mamlakatlarda faoliyat yuritib, ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta'sir etishga intiladi. Ayrimlari esa muayyan davlatlarning iqtisodiy va siyosiy nazoratidan butunlay xalos bo'lishga va birinchi galda, qanday yo'llar bilan bo'lmasin, o'z moddiy manfaatlarini himoya qilishga harakat qiladi. TMKlar va muayyan mamlakat hukumati o'rtasida ziddiyatlar vujudga kelgan hollarda ular mazkur mamlakatni tark etishib boshqasiga borib joylashadi.

TMKlar faoliyatidan tashvishga tushgan jahon hamjamiyatini tinchlantirish uchun -80 yillar mobaynida BMT darajasida TMKlar faoliyatini izga solish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'ziga xos ahloq kodeksini ishlab chiqishga urinishlar ko'p bo'lgan. Biroq, bu urinishlar TMK vakillarining qattiq zarbasiga duch keladi va 1992 yilda bu borada olib borilayotgan muzokaralar to'xtatiladi.

Vaholanki, TMKlar faoliyatida ko'pgina, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida quyidagi salbiy holatlar namoyon buladi:

- mamlakatning eskirgan va ekologik jihatdan xavfli texnologiyalar axlatxonasiga aylanib qolish extimoli;
- mamlakat sanoat ishlab chiqarishining eng rivojlangan segmentlari va ilmiy-tadqiqot tuzilmalari, istiqbolli mahalliy korxona va firmalarni egallab olinishi xavfi;
- mahalliy kompaniyalarga nisbatan TMK manfaatlariga mos istiqbolli yo'nalishlarni tiqishtirilishi mumkinligi;
- iqtisodiy yoki moliyaviy inqiroz yuz bergan hollarda korxonalarning yopilishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, ishsizlikning kuchayishi; Bunday hollarda TMKlar sarmoyasini mamlakatdan olib chiqib ketishga harakat qiladi;

Ma'lum bo'ladiki, TMKlar jahon iqtisodiyotining integrasiyalashuvi, zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojiga hissa qo'shsada, milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga salbiy ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jahon xo'jaliklararo aloqalarida TMKlar ancha murakkab va jadal rivojlanib kelayotgan hodisadir. Urushdan keyingi g'arbiy Evropa, YAponiya va "yangi industrial mamlakatlar"ning bosib o'tgan yo'li shuni ko'rsatadiki, TMKlar bilan raqobatga dosh berish uchun milliy kapital faol tashqi iqtisodiy siyosat olib bora oladigan baquvvat moliyaviy va sanoat tuzilmalariga birlashmog'i lozim.

## Globallashuv va modernizatsiya

Reja:

1. Globallashuv va modernizatsiya ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida.
2. Modernizatsiya – ijtimoiy transformatsiyaning lokal jarayoni.
3. Globallashuv postindustrial texnologik ishlab chiqarish vositasiga o'tishning sharoiti sifatida.
4. Migratsiya jarayonlarida globallashuv va modernizatsiyaning namoyon bo'lishi

Har qanday o‘zgarish va rivojlanishlarni tadqiq etish uchun turli xil nazariy-metodologik yondashuvlar mavjud. Hozirgi davrda modernizasiya paradigmasi ular orasida (formasion, sivilizasion va b.) alohida ahamiyatga ega. Modernizasiya – o‘ta murakkab jarayon. Modernizasiya jarayonida o‘zgarishlar inson va jamiyat faoliyatining barcha sohalarida ro‘y beradi. O‘zgarishlar natijasida yangi tushunchalar, tamoyillar, yondashuvlar shakllanadi. Ular esa milliy g’oya qamrovini yanada kengaytiradi va yoshlarning ongi va qalbiga singdirishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Milliy g’oya murakkab tizim sifatida yoshlarning ma’naviy dunyosini shakllanishi, yuksalishi, vatanimizning barcha millatlarini o‘z atrofida birlashtirish kabi muammolarni qamrab oladi.

Mamlakatimizni rivojlanish yo‘li «O‘zbek modeli»da o‘z ifodasini topgan. Milliy g’oyani ham rivojlanish modeli ham maqsadi xalqimizning kelajagiga qaratilgan: rivojlanishning yuqori pog’onalariga intilish, ma’naviyatimizni yuksaltirishdir.

Modernizasiya qilishning maqsadi yangilanish, an’anaviylikdan zamonaviylikka o‘tish, rivojlanishda yuqoriroq bosqichlarga erishishdir.

Milliy g’oya va rivojlanishimizning modelini integrasiyasi modernizasiya jarayoni uchun nazariy-metodologik, amaliy va regulyativ vazifani bajaradi. Pirovard natijada mamlakatimizning rivojlanishi yanada yuksak pog’onalarga ko‘tarilishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. SHuning uchun hozirgi kunda «mamlakatimizni modernizasiya qilish» [58] eng muhim ustuvor vazifadir.

Lug’aviy ma’noda modernizasiya (fran. moderisatio, modere – eng yangi) zamonaviy talablarga muvofiq o‘zgarish hamda takomillashtirishlarni bildiradi. Gap nafaqat sanoat-texnika progressida, balki insonning dunyoqarashi, uning metodologik yondoshuvi, tafakkur uslublari o‘zgarishidadir. Bularning o‘zgarishi esa inson tomonidan qo‘llanilayotgan tushunchalar, konsepsiyalarning o‘zgarishiga olib keladi. Modernizasiya jarayoni XVIII asrda boshlangan. Inson faoliyatiga ilmiy hamda muhandislik bilimlarning kirib kelishi va ulardan keng miqyosda foydalanish mahsulidir.

Modernizasiya paradigmasi XX asrning o‘rtalarida shakllandi. Uning asosiy vazifasi insoniyat faoliyatining barcha sohalarida an’analikdan zamonaviylikka o‘tishidir. Modernizasiya paradigmasi rivojlanishini bir nechta pog’onaga ajratish mumkin. SHuni ta’kidlash mumkinki, nazariy-metodologik yondashuvlar rivojlanishi real jarayonlar bilan uzviy bog’liqlikda shakllangan va ularning ta’sirida nazariyalarga o‘zgartirishlar kiritilgan.

Modernizasiya paradigmasi doirasida ko‘pdan-ko‘p nazariy-metodologik va xususiy fanlarga asoslangan yondashuvlar yaratilgan. Ilk bor paydo bo‘lgan modernizasiya paradigmasi – linear modeli (1950-1960 yy.), qisman ko‘p chiziqli aktorli (ba’zan etib oluvchi deb ataladi) (19-1990 yy.), tuzilmaviy modellar mavjud. Hozirgi paytda modernizasiya paradigmasi rivojlanib bormoqda, yangicha yondashuvlar asosida nazariyalar vujudga kelmoqda. YA’ni, an’anaviy va zamonaviy yondashuvlar orasida katta farq bor.

Rivojlanish jarayoni modernizasiya paradigmasi doirasida turli xil nuqtai nazar asosida tahlil qilingan. Umuman olganda, keyingi yillarda shakllangan yondashuvlarda qat’iy determinizmdan voz kechilgan, masalan g’arb demokratiyasiga chiziqli model

---

[58] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi / «Xalq so’zi», 2009 yil 14 fevral.

asosida emas, balki ko‘p chiziqli model, ya’ni mamlakatlar rivojlanish yo‘lida tanlov imkoniyatiga egaligi tan olingan. Ilk bor modernizasiya paradigmalarining asosini tashkil qilgan evolyusionizm va fundamentalizm yondashuvlarini cheklash hisobidan makroijtimoiy tizimlar tahlilidan mikroijtimoiy jarayonlarni tadqiq qilish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda modernizasiya jarayonidagi o‘zgarishlar turli xil ichki va tashqi (endogen va ekzogen) ta’sirlar natijasida paydo bo‘ladi, degan fikr hukm suradi. Bular esa real borliqning keng qamrovli yondoshuvlar yordamida aks ettirilishi va reallikka tadbiq etish doirasi tobora kengayganligini bildiradi. Bu jarayonda ba’zi bir tushunchalardan voz kechish, yangilaridan foydalanish yo‘lidan borilmoqda.

Modernizasiya paradigmasi ilmiy bilimning insoniyat hayotiga jadal sur’atda kirib kelishi bilan bog’liq. Har qanday davrda hokimiyatning asosiy manbalaridan biri «bilim» bo‘lib kelgan. Bizning davrimizda esa bilimning mavqei birinchi darajali bo‘ldi. Bu ayniqsa, moliyaviy-iqtisodiy inqirozda o‘z ahamiyatini ko‘rsatdi. *«Tijorat banklari va ularning tegishli bo‘linmalari rahbarlarini attestasiyadan o‘tkazish shuni ko‘rsatdiki, ularning aksariyati amaldagi qonunchiligimizni va investisiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini etarli darajada bilmaydi. SHu sababli ham banklar hali beri investisiya jarayonlarining faol ishtirokchilariga, investisiya loyihalari hamda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlarini joriy etishda korxonalar va kichik biznes subyektlarining haqiqiy hamkorlariga aylana olmayotganini afsuslanib ta’kidlash kerak»*[59], deb qayd qilgan edi Prezidentimiz.

Shuning uchun ushbu monografiyada jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asosini va unga katta ta’sir ko‘rsatayotgan bilim va ta’limning ilmiy salohiyat muammolari tadqiq qilingan. Bilim, ta’lim insoniyatni birlashtiruvchi omil bo‘lib, har qanday modernizasiya yondashuvining zarur komponentidir. Bilim va ta’lim mafkuraviy, iqtisodiy, diniy, madaniy farqlanishidan qa’tiy nazar insoniyat uchun umumiy qadriyatdir.

Modernizasiya jarayoni I.Karimov ta’kidlaganidek, «innovasion texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo‘lgan yangi turdagi tovarlar ishlab chiqarish...»[60]ni amalga oshirishda integrasion jarayonlar bilan bog’liqdir. Mamlakatimizda integrasiyalashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotganini nafaqat Evropa mamlakatlari, balki Osiyo qit’asi bozorlari bilan ham aloqalar kengayib borayotganini ta’kidlash mumkin.

Bizning boy milliy merosimizda insonning ma’naviy, siyosiy va diniy faoliyatlarida bilimning qadri yuqori darajada baholangan va bu an’anani, ayniqsa hozirgi modernizasiya jarayonida davom ettirsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Umuman olganda, IX-XIV asrlarda islom sivilizasiyasida, ayniqsa Markaziy Osiyoda intellektual-ma’rifiy, diniy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy muhitda ilmiy, dunyoviy bilimlarining qadrlanishi aqlning etakchi roliga asoslangan. Bu hol esa tabiiy-ilmiy fanlarning yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Bilim – shaxsning zaruriy tarkibiy qismi. Inson o‘qish va ta’lim olish yordamida mukammalikka intiladi, bilim esa bu jarayonda vosita vazifasini o‘zida mujassamlashtiradi. Bilimli bo‘lish yuksak baxt, yuksak barkamollik va qadr-qimmat, e’tiborga loyiqlik bilan

[59] Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi // «Xalq so’zi», 2009 yil 14 fevral.
[60] O’sha joyda.

tenglashtiriladi. Insonning jamiyatdagi mavqei bilimiga bog'liq. Uning boyligi, nasl-nasabi va boshqa xususiyatlari e'tiborga olinmasligi kerak, bu xususiyatlar bilim bilan o'lchanishi shart. Ushbu ijtimoiy muhitda «odob-axloq, taqvodorlik, faoliyatlilik, ijtimoiy qadriyatlardan hech qaysi «bilim»dek e'tiborga ega emas»[61]. Bu davrda barcha ijtimoiy qadriyatlar orasida bilimga bo'lgan munosabat yuksak edi.

Islom sivilizasiyasida bilimga markaziy o'rin ajratilgan edi. SHuning uchun ham yuksak yutuqlarga erishib insoniyat tarixiga o'z hissasini qo'shgan. ««Bilim» markaz sifatida sivilizasiyani mustahkamlaydi. O'sha davrdagi g'arb an'analarining bilimga bo'lgan munosabati boshqacha edi. Bilim mushohadaga (o'y-xayolga) asoslangan va doimo faoliyatga, harakatga majburlovchi dalil sifatida ko'rilmagan»[62]. Ushbu davrda bilim va faoliyatning, intellektual va ma'naviy qadriyatlarning o'zaro bog'liqligi jamiyat rivojlanishini ta'minlaydi.

Hozirgi paydta jamiyatning turli sohalarida tub islohotlar, fan va bilish sohasida esa paradigmal yangilanishlar sodir bo'layotgan tarixiy davrning guvohi bo'lib turibmiz. Bunday yangilanishlar iqtisodiy, siyosiy, texnologik madaniy o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu o'zgarishlar ko'p qirrali bo'lib, ular natijasida ijtimoiy makonning mikro, mezo, makro darajalarida ekologik, iqtisodiy. ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-psixologik va boshqa o'zgarishlar turli tezlik, miqyos, murakkablik yo'nalishlarida sodir bo'ladi. Respublikamizda olib borilayotgan yangilanish va modernizasiya jarayonlari milliy istiqlol g'oyasi va boy madaniyatimizga, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi.

Modernizasiya jarayonlarining juda ko'plab ta'riflari va unga turli yondashuvlar mavjuddir. Modernizasiya klassik nazariyalarida dastlab ishlab chiqarishni industrializasiya asosida rivojlanishi bilan bog'liq jarayon sifatida ta'riflandi.SHu ma'noda modernizasiyani dastlab ko'proq an'anaviy jamiyatdan sivilizasiya davriga o'tishga qiyoslashadi. Bunda "an'anaviy jamiyat quyidagi belgilari bilan xarakterlanadi: hayotni tashkil etish ko'p hollarda diniy tasavvurlarga asoslanadi; rivojlanish sikllidir; individualizmning mavjud emasligi; avtoritar hokimiyatning mavjudligi; shaxslarning faoliyatsizligi, innovasiyalardan an'analarning ustunligi va h.k". Bu modernizasiya jarayonlarni adabiyotlarda innovasiyalar asosida tahlil etish ham kuzatiladi. SHtompkaning "Sosiologiya sosialnыx izmenenii" kitobida: "Jahon tarixiy jarayonlarining nuqtai nazariga ko'ra, modernizasiya insoniyat yashash sharoitlarining yaxshilanishiga hissa qo'shuvchi ahloqiy, texnologik va ijtimoiy qadriyatlardagi innovasiyalarga daxldor" ekanligi ta'kidlanadi.[63]

Zamonaviy jamiyatda esa innovasiyalar an'analardan ustivorlik qiladi; ijtimoiy hayot dunyoviy xarakterga bo'ladi; rivojlanish izchil; liberal demokratik hokimiyat; individualizm, insonlar faolligi va h.k. asosiy belgilar hisoblanadi. Modernizasiyaning keyingi bosqichlarini kuzatar ekanmiz, uning tobora jamiyatni barcha jabhalarini qamrab oluvchi kopleks xarakterga ega bo'lib boganligini ko'ramiz. Masalan, Xantington modernizasiya jarayonlarini tahlil etar ekan, u ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini o'z ichiga olishini ta'kidlaydi. Olim modernizasiya jarayonlarining an'anaviy jamiyatning inqirozi va industrial jamiyat bag'rida vujudga kelishini ta'kidlab, uning to'qqizta

---

[61] Роузенталь Ф. Торжество знания. М., 1978. –235 б.

[62] Пихтин В.Г. Философия и социокультурные основания познания. – Философия и её место в культуре. - Новосибирск, 1990. –149 b.

[63] С Штомпка П.С оциология социальных изменений/Пер, с англ, под ред. В.А.Ядова.-М.: Аспект Пресс, 1996. -173.с.-

belgisini ko‘rsatib o‘tadi. Bu belgilar quyidagilardan iboratdir: Inqilobiylik, komplekslik, tizimlilik, globallik, davomiylik, bosqichlilik, gomogenlik, qaytarilmaslik, progressivlik.

*Iqtisodiy sohada* modernizasiya chuqur iqtisodiy o‘zgarishlar, mehnat taqsimotining o‘sishi, texnologiyalarning takomillashuvi, erkin raqobat, tijorat uchun qulay imkoniyatlarning yaratilishidir.

Modernizasiya ijtimoiy sohada aholi savodxonligining o‘sishi, yangilanishlarning barchasi aholi farovonligining o‘sishiga xizmat qiladi. Masalan, madaniyat sohasida modernizasiya madaniyatning asosiy elementlari bo‘lgan din, falsafa, fanda differensasiya, ta’limning keng tarqalishi, murakkab va intellektual maxsus kasb institutlarining shakllanishi, ommaviy kommunikasiyaning rivojlanishi, rivojlanish, samaradorlik, muvafaqqiyat, o‘z imkoniyat va hissiyotlarini tabiiy namoyon etishga asoslangan yangi madaniy qadriyat paradigmasi va individualizmning rivojlanishi; yangi kengayib borayotgan ijtimoiy makonga moslashib boruvchi yangi individual odat, xususiyat va qiziqishlar sohasining kengayishi; fan va texnikaga ishonchning ortishi, moslashuvchanlik va karera qilishning o‘sishi; inson qadr- qimmatiga munosabatning o‘zgarishidir[64].

Siyosiy modernizasiya siyosiy partiyalar, parlament, saylov huquqi, yashirin ovoz berish demokratik tamoyillarning qaror topishi hisoblanadi.

Demak, modernizasiya jarayonlari bugungi kunda jamiyatda zamonaviy siyosiy (demokratiya, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlatni barpo etish), iqtisodiy (bozor, xususiy mulk, rivojlanganlik darajasiga ko‘ra ba’zi davlatlarda axborotlashagaan iqtisodiyot), ijtimoiy (individualizm, differensiasiyaashgan jamiyat), madaniiy (madaniyatning differensasiyasi, ijtimoiy ongdagi sekulyarizasiya, savodxonlikning ortishi va keng tarqalishi, fan va texnikaning asosiy qadriyatga aylanishi) tizimlarni vujudga keltirishdan iborat kompleks jarayondir. U jamiyat taraqqiyotining jamiyatning murakkab tizim sifatida o‘zini-o‘zi tashkil etish qobiliyatidir.

Modernizasiya jarayonlarining tahlilida uning transformasiya tushunchasiga nisbati muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarada transformasiya jarayoni “tizimning o‘zini saqlash, qayta ishlab chiqarish jarayoni sifatida e’tirof etiladi. Bu tizimning beqaror, tizim boshqa metatizimga o‘tadi yoki ichki strukturasini o‘zgartiradi”[65]. Transformasiya jarayoni ijtimoiy tizimning immanent umumiy sifatiy xususiyati bo‘lib, uning natijasida tizim bir strukturaviy tuzilmadan nisbatan rivojlanganrog’iga almashadi.[66] Izlanishlarda transformasiya jarayoni universal kategoriya va tizimning butun mazmun mohiyatidagi o‘zgarish, ijtimoiy subyektlarning- insonlar va institutlarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari asosida maqsadga yo‘nalgan faoliyati natijasida amalna oshishi ta’kidlanadi. SHuningdek, muallif bu jarayonni tizimning o‘tish holati sifatida tasniflanadi.[67].

Transformasiya jarayoni ko‘p vektorlik va o‘zgarishlarning amalga oshish sur’atlarining jadalligi, hamda bu o‘zgarishlarda subyektiv omillar ta’sirining yuqoriligi bilan ajraladi. Transformasiya jarayonlarini bir tizim ikkinchisiga almashayotgandagi

---

[64] Побережников И.В. Модернизация: теоретические и методологические проблемы Экономическая история. Обозрение / Под ред. Л.И.Бородкина. Вып. 7. М., 2001.С 152.

[65] Марарица В.Ф.Социально- философский анализ трансформации социальных систем. Вестник МГТУ, Т9, №1. 2006. С 76

[66] Карасев В.И. Социальная трансформация как предмет философского анализа.Авт. реф. На соискание док..фил наук.М., 2000. С.10

[67] Там же. С.15.

holat sifatida ham ta’riflaydilar[68]. Aytishimiz mumkinki, bu davr jamiyatning salbiy xarakterga ega bo‘lgan, taraqqiyotni to‘htatadigan o‘tmishidan voz kechib, yangi maqsad va g’oyalar sari intilishidir.SHu bois ijtimoiy transformasiya jarayonlari davrida ijtimoiy to‘qnashuvlarning kuchayishi va keskinlashuvi kuzatilishi mumkin. Bu jarayon o‘zida destruktiv va konstruktiv imkoniyatlarni jamlaydi, destruktiv va konstruktiv yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Konstruktiv transformasiya jarayoni natijasida jamiyatda butunlay yoki uning ayrim sohalarining progressiv rivojlanishi ta’minlanadi.

Ijtimoiy transformasiyaning mazmuni shundan iboratki, jamiyada sifatiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ijtimoiy transformasiya ijtimoiy tizimning ma’lum darajadagi boshqa ijtimoiy sifatdagi ijtimoiy tizimga o‘tishi hisoblanadi. Kibernetik yondoshuvga ko‘ra, ijtimoiy transformasiya tizimdagi tuzilma, tuzilishi, strkturasi, ijtimoiy ongidagi o‘zgarishdir. Unda tizim elementlari( odamlar, mashinalar va boshqalar o‘zgarmasdan qolishi, ular iorasidagi munosabatlar tizimi, usul va strukturasi o‘zgaradi.

Tabiatshunoslikda transformasiyani fazoviy o‘tish, sinergetikada bifurkasiya nuqtasi sifatida ta’riflash mumkin. Kastels "informasional jamiyat", "informasional iqtisodiyot", “genetik inqilob” atamalarini zamonaviy transformasiya jarayonlarini ifodalash uchun qo‘llaydi. Zamonaviy transformasiya jarayonlarining asosi ilmiy texnologiyalar tashkil etadi.

Toffler esa zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarni uchta to‘lqin sifatida ta’riflaydi.

Modernizasiya jarayonlarini tadqiq etuvchi izlanishlarga asoslanib aytish mumkinki, endilikda uning mohiyati o‘zgarib, “modernizasiyaviy transformasiya”ga aylanib borayotganligini ta’kidamoqdalar. Bunga sabab zamonaviy modernizasiya jarayonlarining tobora kompleks xarakterga ega bo‘lib borayotganligidir. SHu cababli ko‘p ilmiy adabiyotlarda modernizasiya va transformasiya tushunchalarining bir ma’noda qo‘llanilayotganini ko‘rish mumkin.Ammo yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib aytish mumkinki, transformasiya jarayoni modernizasiya jarayonlariga qarananda kengroq tushuncha. Chunki modernizasiyada tio‘zimning ayrim elementolariga qaratilishi mumkin. Masalan , bugungi kunda jahon iqtisodiy inqirozi tufayli mamlakatimizda bank tizimini modernizasiya qilish chora-tadbirlari belgilandi.

Modernizasiya jarayonning asosini bilim tashkil etishini ko‘rish mumkin. CHunki bilim subyekt faoliyati uchun imkoniyat yaratadi. Bilim – o‘qish, ta’lim orqali kamol topishga intilishni ifodalovchi shaxs tarkibining zaruriy qismidir[69]. Bu haqda Toffler o‘zining “Inqilobiy boylik” asarida “yangi boyliklar tizimi vujudga kelayotganligini[70], bu boyliklar tizimining asosini bilim tashkil etishini ta’kidlaydi. Inqilob atamasini muallif zamonaviy deb atash mumkin bo‘lgan yangi hayot tarzi yoki yangi sivilizasiyaning vujudga kelishini ifodalash uchun qo‘llaydi[71]. Olim bilim barcha davrlarda boylik asosi bo‘lib kelgan, ammo bugunga kelib u inqilobiy boylik asosiga aylanganligini e’tirof etadi. Bunga sabab olim fikricha, bilimning boshqa resurslardan farq qiluvchi xususiyatlari hisoblanadi.

---

[68] Марарица В.Ф.Социально- философский анализ трансформации социальных систем. Вестник МГТУ, Т9, №1. 2006. С 70-76

[69] Abdullaeva M.N,, Tulenova K.J., G’affarova G.G’,, Niyazimbetov M.K. Milliy g’oya va fanning metodologik muammolari. T, 2009. 24-b

[70] Тоффлер Э, Тоффлер Х. Революционное богатство. М. 2007.Политиздат С.149

[71] Там. же.С 7.

Zamonaviy modernizasiya jarayonlarida bilim muammosiga, uning jamiyatdagi maqomiga turlicha yondoshuvlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.Buni postmodernizm yo‘nalishining epistemologik muammolarga keng o‘rin berilishida ham ko‘rish mumkin. Ularda bilim predmeti, uning tipologiyasi, obyekt va subyektidagi o‘zgarishlar, bilimning tijoratlashuv jarayonlari e’tirof etiladi. Postmodernizm ilmiy bilishni yuqori standartlar, oliy nufuzidan voz kechadilar. Postmodernizm g’oyalarida borliqdagi yagonalik, yaxlitlik, barqarorlik yo‘qoladi, ularning o‘rnini ko‘plik, ko‘pxillilik egallaydi. Postmodernizm vakillari olamni bilishning eng samarali yo‘li sifatida o‘yinni tan oladilar. Oldingi tafakkur uslubidagi bilish usullari, taraqqiyoti, bosqichlari va darajalari, bir butunligi ifodalangan “bilish daraxti” inkor etiladi. Postmodernizm bilish paradigmasida “rizoma”g’oyasi ustivorlik qiladi. Rizoma so‘zi botanikadan olingan bo‘lib, unda bu so‘z ko‘p yillik o‘simliklarni, masalan gulsapsarni o‘ziga xos yashash usulini ifodalaydi. Rizoma tipidagi o‘simliklarning yagona ildizi bo‘lmaydi, u har tomonga qarab o‘sadi, bir – biri bilan chatishib ketgan novdalarga ega bo‘ladi. Bunday o‘simliklarda yagona tana, asos bo‘lmaydi. Rizoma ramzi yordamida fanda hech qanday shakl yo‘qligi, uning doimiy xaosda ekanligi ta’kidlanadi. Bunga sabab postmodernizm hayot, ijtimoiy borliqning o‘zini xaosda ko‘rishidir. Ularning fikricha, hayotdagi xaosni yagona shakl va biron ilmiy sxema bilan tasvirlashning mumkin emasligidir. Postmodernizm har qanday chegaralanishni cheklashlarni inkor etib, parchalash, bo‘laklarga bo‘lish va ko‘p fikrlilik va nisbiylikka urg’u beradi. Postmodernizm paradigmasining ijobiy tomonlari unda olamning ko‘pxilligi, olam doimo ochiq, nobarqaror ekanligini e’tirof etilishidir.

Postmodernizmning vakillaridan bo‘lgan Liotar asarlarida postmodernizm yo‘nalishining o‘ziga xos jihatlarini ko‘rish mumkin. Liotar rivojlangan davlatlardagi bilim holatini tahlil etadi va madaniyatdagi zamonaviy holatni “postmodern” deb tavsiflaydi. Uning ta’limoti “til o‘yin” lariga asoslangan. Uningcha, bilim o‘zida til o‘yinlarini mujassam etadi. Liotar zamonaviy fan holatini inqirozli deb hisoblaydi.Uning fikriga ko‘ra, zamonaviy fan falsafiy maqsad va funksiyalarini lingvistik elementga aylantirdi. Liotar zamonaviy jamiyatda bilim erozziyasi sodir bo‘layotganligin ta’kidlaydi. Bunga sabab ilmiy kashfiyotlar, yangi ilmiy bilimlarning sotiladigan tovarga aylanishi va ularning tor doiradagi kishilar qo‘lida hukmronlik quroliga aylanib qolishidir. Postmodernizm davrida olim fanning ensiklopedik strukturasi tarqalib ketishini, ilmiy bilimning asosiy xususiyati immanentligini ta’kidlaydi. Olim fikriga ko‘ra postmodernizm davrida fan lingvistikaga asoslanishini, til o‘yinlari asosida rivojlanishi ta’kidlanib, uning ijtimoiy-madaniy mohiyati inkor etiladi.

Liotar bilim evolyusiyasini tadqiq etar ekan, axborotlar va ilmiy bilimni diskurs, narrativ sifatida tavsiflaydi. Muallif bilimlarning tafakkur va shaxsdan ajralishini, postmodernizm davrida bilim ham ishlab chiqaruvchi va iste’molchining munosabatini ifodalab, ishlab chiqarish munosabatlariga daxldor bo‘lishini ta’riflab o‘tadi. Uning fiikricha, bilim almashish, sotish uchun ishlab chiqariladi. Legimizasiya-olim fikricha, jamiyatning ilmiy bilimlarni tan olishidir.Fanni Liotar ishlab chiqarish legimizasiya qilishini ta’kidlaydi[72].

[72] Лиотар. Жан Франсуа. Состояние постмодерна. М., Алтейя. 1998.

Har bir jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanishi  ilmiy bilimlar bilan bog’liq, ammo hech qachon jamiyat, insoniyatning kelajakdagi taraqqiyot yo‘li bugungidek ilmiy bilimlarga bog’liq bo‘lmagan.

Adabiyotlarda axborotlashagan jamiyat, bilim jamiyati, postindustrial jamiyat, globallashib borayotgan jamiyat  sifatida ta’riflanayotgan zamonaviy jamiyat texnologiyalar asosida modernizasiyalashib bormoqda. Axborot va bilim XX asrning oxirlaridan boshlab texnologiyalarning (informatika, elektronika, biotexnologiya, nanotexnologiya va h.k.) fundamenti hisoblanadi[73].

Zamonaviy globallashuv va axborotlashuv jarayonlari insoniyat tarixidagi modernizasiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonlar insoniyat tarixining butunlay yangi sifatiy o‘zgarishlar, transformasiyalar davrini boshlab berdi  deyish mumkin. Mazkur o‘zgarishlarning ijobiy natijasi har bir mamlakat, har bir davlat, jahon mifqyosida ilm-fanning rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. Natijada fan rolining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning roli o‘zgardi. Bugungi kunda fan sifat jihatidan yangi funksiyalarni bajaradi ularning asoiylari sifatida ekomuvozanatni saqlash, tabiat va jamiyatni boshqarish funksiyalarini ko‘rsatish mumkin. Tadqiqot faoliyatining maqsadida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda faqat ilmiy maqsadlarni ko‘zlamasdan, boshqaruv, axborot, loyihalashtirish, texnik-ishlab chiqarishni ham nazarda tutadi; yangi bilimlarni ishlab chiqaruvchi ilmiy tadqiqot birlashmalari yangi bilimlarni yaratibgina qolmay, moddiy-ishlab chiqarish funksiyalarini ham bajaradilar. Bir so‘z bilan aytganda zamonaviy globallashuv davrida bilim asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi.

Bilimlar taraqqiyoti kelajakda qanday bo‘ladi? Globallashuv jarayonlari fan taraqqiyotiga qanday ta’sir qilishi mumkin? Mutaxassislarning fikriga qaraganda, globallashuv jarayonlari fanda ham global o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bular eng avvalo fanning mohiyati, strukturasi, funksiyalaridagi – transformasiya jarayonlari, ya’ni chuqur, yangi sifatiy o‘zgarishlar  bilan xarakterlanadi. Bularni eng avvalo fanning tobora global, internasional mazmun kasb etib, globallashib borayotganida ko‘ramiz. Bu jarayon ikki yo‘nalishda rivojlanayotganligi ta’kidlanmoqda. Bulardan birinchisi,  fanning notijorat globallashuv yo‘nalishi bo‘lib, unda olimlar va turli o‘quv yurtlari birgalikda ilmiy tadqiqot olib boradilar,  o‘zaro bilim almashish sodir bo‘ladi. Ikkinchisi tijorat yo‘nalishidagi fandagi globallashuv hisoblanadi. Bu yo‘nalish asosan XX asrdan boshlandi va keyingi o‘n yillarda dadil o‘sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bu yo‘nalishdagi fan globallashuvi obyektiv asosga ega bo‘lib, uning omillari bo‘lib global moliyaviy va fond bozorlarining vujudga kelishi;  halqaro raqobatning kuchayib global tus olishi; transmilliy korporasiyalarning iqtisodiy faoliyat ko‘lamining o‘sishi; aloqa vositalari, shuningdek global “INTERNET” tarmog’ining rivojlanishi, erning maxsus sun’iy yo‘ldoshlarining uchirilishi hizmat qiladi.

Tijorat yo‘nalishidagi fan globallashuvida transmilliy korporasiyalar va davlatlar chet eldagi ilmiy ishlanmalarni moliyalaydi. va bu holat bugungi kunda o‘sib bormoqda.

SHuni ham aytib o‘tish kerakki, bunday fandagi globallashuv jarayonlari ijobiy tomonlari bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. YA’ni halqaro alyanslarning faoliyatida faqatgina iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlab, ilmiy tadqiqotlarni olib

---

[73] Абдуллаева М.Н. Покачалов Г. Философские проблемы методологии науки. - Т., Фалсафа ва ҳуқуқ .2006. С.37.

borish keng tus oladi, bu esa fundamental bilimlar taraqqiyotini susaytiradi. SHuningdek, halqaro alyanslar mahaliy ilmiy xodimlar o‘rtasidagi qo‘nimsizlik, ilmiy salohiyatning pasayishi, axborotlarning qo‘ldan boy berilishi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin. SHunga qaramasdan, fandagi globallashuv ham obyektiv jarayon bo‘lib, uning salbiy tomonlarini bartaraf etish uchun ilm - fan va har bir davlat o‘rtasida mustahkam hamkorlik talab etiladi.

Demak, aytish mumkinki, globalashuv jamiyat hayotining barcha sohalariga o‘z ta’sirini o‘tkazuvchi jarayondir. Global jarayonlar insoniyat oldidagi global muammolarni global – evolyusionizm, sinergetik paradigmaga asoslangan fanni yanada rivojlantirish, bilim va texnologiyalarni innovasion ishlab chiqarishga joriy etish asosidagina hal qilish mumkinligini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy globallashuv postnoklassik fannining mazmuni, funksiya, strukturasi, obyektiga ta’sir etdi. Murakkab, o‘z-o‘zini tashkil etadigan, sinergetik xarakterga ega bo‘lgan tizimlar zamonaviy jahon fanninig obyektiga aylandi. Fanda integrasiya, differensiasiya, globallashuv jarayonlari kuchaydi. Fanning borgan sari qadriyatlar bilan uzviy holda rivojlanishi, uning gumanizasiyalashuvi, uning ekologik muvozanatni saqlashdagi roli ortdi. SHuningdek, globallashuv paradigmasida “moddiy” resurslar emas, “nomoddiy” resurslar, ya’ni bilim, nou-xau, axborot tizimi va patentlarni,ilmiy axborotni boshqarish ahamiyatli bo‘lib borayotganligi sababli kelgusida ham jamiyat taraqqiyoti fan, bilimlar bilan uzviy bog’liqlikda rivojlanishi e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, jamiyatning kelajagi asosan genetika, materialshunoslik, energetika, sun’iy intellekt, inson miyasini o‘rganish, bilimlar dinamikasi, bilimlarni boshqarish, globallashuv davrida qanday bilimlarni translyasiya qilish, ekologiya sohalaridagi yutuqlarning amaliyotga qo‘llanish darajasiga bog’liq bo‘ladi. Natijada olimlarning halqaro ilmiy hamkorligiga talab yanada kuchayadi.

Shu bois, globallashuv davrida ilmiy bilim va fan taraqqiyotining hal qiluvchi ahamiyati har bir davlat doirasida ilmiy siyosat tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan va Evropa hamkorligiga a’zo davlatlar va O‘zbekiston ilmiy siyosatiining asosini butun dunyo ilmiy imkoniyat va salohiyatini integrasiya qilish tashkil etadi. Chunki globallashuv davrida yuzaga kelgan global muammolar faqatgina butun jahon olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlari natijasidagina o‘z echimini topishi mumkin.

Bu o‘z navbatida ilm-fanning yanada taraqqiy etishini taqozo etadi. “Globallashuv sharoitida mamlakatning innovasion rivojlantirish salohiyati raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omillaridan biriga aylangan bir paytda aholining yuqori bilim darajasi mamlakatga o‘zini jamiyatga daxldor deb hisoblash imkonini beradigan obro‘ emas, balki yashovchanlik va iqtisodiy ta’minot, pirovardida siysiy mustaqillik omiliga aylanadi”[74]. Ma’lumki globallashuvning fundamental omillaridan biri axborotlashuv jarayonlari hisoblanadi[75]. SHu bois globallashuv davrida fanning, madaniyat sohasida ham axborotlashuv jarayonlari sodir bo‘ladi va bu o‘z navbatida fanning ham axbortlashuvini talab etadi.

---

[74] Inson taraqqiyoti ma’ruza.O’zbekistonda ta’lim: talab va taklif mutanosibligi. O’zbekiston. T., 2007-2008.32-b.

[75] Ракитов А.И. Наука в эпоху глобальных трансформаций (российская перспектива). Наука в России: состояние и перспективы. М.; 1997. С. 13.

Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni boʻlgani singari, globallashuv jarayonlari ham bundan mustasno emas. Uning keng qamrovli va g'oyat oʻtkir ta'siri natijasida u mafkuraviy ta'sir oʻtkazishning quroliga ham aylanib bormoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek "bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham koʻproq kuchga ega.".[76] Bunday vaziyat odamning oʻz mustaqil fikriga, bilimga, keng dunyoqarash va boy ma'naviyatga ega boʻlishini talab etadi. Biz istiqbolimizni ma'rifatli dunyo, rivojlangan mamlakat qurmoqchi ekanmiz, xalqimiz, avvalambor yosh avlodimiz ma'naviy olamining daxlsizligini asrash uchun biz nimalarga tayanib-suyanib ish olib borishimiz kerakligi muhimdir. Buning uchun mamlakatimizda fan va bilimlarni translyasiya qilish vositasi boʻlgan ta'lim tizimini jahon fani va ta'lim tizimi bilan integrasiyasini ta'minlash, globallashuv davrida sodir boʻlayotgan fan va ta'limdagi global tendensiyalarni falsafiy-metodologik tahlil qilish oʻzbekiston olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Shu sababli zamonaviy modernizasiya jarayonlarining muvafaqqiyatini ta'lim tizimini modernizasiya qilmasdan amalga oshirib boʻlmaydi. Ijtimoiy subyektlarning faol faoliyatining zamirida bilim yotadi. Ta'lim shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor ijtimoiy taraqqiyot sohasi deb e'tirof etilgan.[77] Ta'lim bu tizimlashgan bilim, mahorat, va malakalarni shaxs tomonidan oʻzlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanar edi. Bugungi kunda ta'lim ijtimoiy institut sifatida sivilizasiyaviy (iqtisodiy, gumanitar, madaniy) funksiyani bajaradi va insoniyat toʻplagan ilmiy bilimlarni, malaka, koʻnikmalarni oʻzlashtirish va ijodiy shaxsni tarbiyalashi lozim.[78] Ma'lumki bilimlarni uzatishning sinxron (kommunikasiya) va diaxron (ta'lim) turlari farqlanadi. Ta'lim tizimi bilimlarni diaxron uzatish turi boʻlib, eng avvalo bilimlarni avdloddan avlodga uzatish vositasi hisoblanadi. Ta'lim tizimi insonni savodxonlik-ta'lim-kasbiy malaka-madaniyat-mentalitet bilan ta'minlaydi[79].

Buni falsafiy izohlaydigan boʻlsak, jamiyat murakkab tizim sifatida yangilanar ekan, oʻzini –oʻzi tashkil etuvchi tizimning asosiy omili-inson ham yangi muhitga moslashishi, uning talablariga javob berishi uchun majburiy funksiyalarni bajara olishi lozim.Jamiyatning rivojlanishiga qarab bilim olish usullari va bilmni uzatish vositalari oʻzgarib boradi. Adabiyotlarda ta'limning mifologik, sxolastik, dunyoviy va zamonaviy turlari farqlanadi.

Mifologik ta'lim turi ertak, mif va qoʻshiqlar asosida olib borilgan. Sxolastik ta'limda matnlarni oʻrganish, ritorika, gramatika, inson mohiyatini anglashga qaratilgan. Dunyoviy ta'lim turi XX asr boshlarida vujudga keldi.Zamonaviy ta'lim insonda nafaqat bilim, balki sifatli bilim va ta'lim, ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, bilim olishning agrar, industrial, axborot jamiyatidagi hisoblash texnikasini qoʻllashga asoslangan bilim olish turlarini tasniflash mumkin[80]. Rivojlanishning agrar usulida kuzatuv bilim manbai hisoblangan va u asosida mehnatga oid samarali hatti-harakatlar va tabiiy resurslarning oʻsishi ta'minlangan. Industrial rivojlanish usulida esa kuzatuv,

[76] Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat. 2008. 113 - b.
[77] O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. T., 1997. 3-band.
[78] Основы открытого образования. Отв. Ред. Солдаткин В.И. – Т.1. Российский гос. инс. открытого образования. М.: 2002.С 69-70.
[79] Мухамедова З. М, Парадигма гуманизации образования Т., 2004.С.12
[80] Abdullaeva M.N,, Tulenova K.J., G'affarova G.G',, Niyazimbetov M.K. Milliy g'oya va fanning metodologik muammolari. T, 2009. 82-b.

eksperiment, nazariyalar bilim manbai edi. Axborotlashgan jamiyatda yangi bilimni olish usuli hisoblash texnikasini qo‘llashga asoslanadi. Har bir fan taraqqiyotining ma’lum davrida yangi ta’lim paradigmasi vujudga keladi. Masalan, klassik fanda ta’lim insonning hayot va mehnatga zarur bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarni o‘zlashtirish jarayoni va natijasi sifatida e’tirof etilgan edi. Bu davrda ta’lim klassik rasionalizmga asoslangan bo‘lib, ta’lim natijasida shaxsda mexanistik va deteterministik olam manzarasi shakllanar edi.Ta’lim jarayonida bilimlar va muammolarni echish usullari to‘g’ridan - to‘g’ri uzatilar edi.Murakkab tizimlarni o‘rganish, o‘zini-o‘zi tashkil etuvchi, o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi tabiatni o‘rganishga o‘tilishi tizimlarning yopiqligi to‘g’risidagi mexanistik tasavvurlarning radikal transformasiyasiga olib keldi.[81] Postnoklassik fanning vujudga kelishi natijasida ta’lim tizimida ham modernizasiya jarayonlari yuz bermoqda.

Ta’limdagi modernizasiya jarayonlari serqirra jarayondir. U taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tayotgan mamlakatimiz ijtimoiy o‘zgarishlarning tarkibiy qismi, mustabid tuzum mafkuraviy asoratlaridan xalos bo‘lish jarayoni hamdir. SHu sababli XXI asrda jahon hamjamiyati ta’lim roli va ahamiyatini qayta ko‘rib chiqa boshladi. Dastlab ta’limni isloh qilish ilmiy texnik inqilobning “ijtimoiy natijalari”dan biri sifatida ko‘rila boshlandi. Ammo keyinchalik ta’lim iqtisodiy va ilmiy –texnik taraqqiyotning hal qiluvchi omili va muhim sharti jamiyat ijtimoiy tuzilmalarini shakllantirishning, unda ijtimoiy maqomlarni taqsimlash mexanizmi sifatida tan olindi. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, ta’lim-tarbiya tizimidagi islohotlarni «muvafaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma’nodagi «portlash effekti»ga, ya’ni yangi ta’lim modelining kuchli samarasiga erishamiz …»[82]. Respublikamizda ham ta’limni modernizasiya qilish maqsadida “Ta’lim to‘g’risidagi Qonun”, “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi” qabul qilindi va ular asosida taa’lim tizimida tub islohotlar olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag’asida: Havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarraqqiyot kafolatlari” asarida inson salohiyatini eng faol, eng bunyodkor, mamlakatimizdagi islohot va tub o‘zgarishlarning muvafaqqiyatini ta’minlovchi muhim omil sifatida e’tirof etgan edi[83].

Bilimlardagi transformasiya jarayonlariga ijtimoiy-madaniy omillar katta ta’sir etadi. Buni islohotlar natijasida respublikamiz fani va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarda ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillikka qadar O‘zbekiston ta’lim tizimi qat’iy markazlashtirilgan dasturlar, darsliklar, o‘qitish uslublari asosida faoliyat olib borar edi.

Ta’lim jarayoni bilim darajasi o‘rtacha bo‘lganlarga mo‘ljallangan bo‘lib, qobiliyatli va iste’dodli bolalar uchun mo‘ljallangan individual ta’lim dasturlari bo‘yicha o‘qitish mexanizmlaridan etarlicha foydalanilmas CHunki bunday tafakkur uslubi tizimda bo‘ladigan beqarorlik va xaotik holatlarni inkor etadi. Vaholanki bilim ilmiy ijod mahsuli bo‘lib, u o‘zida rasional va irrasional holatlarni mujassam etadi. Ta’lim jarayoni asosan monoloka asoslangan edi. Ta’limdagi chiziqli tafakkurning ustunligi postnoklassik fan asoslariga muvofiq kelmay qoldi. Natijada bilimlarni uzatish jarayoni, bilimlarni

---

[81] Хакен Г. Информация и самоорганизация: макроскопический подход к сложным системам. М.1991.С.145.
[82] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: O’zbekiston, 2008. – 63-b.
[83] Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: Havsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. T.: “O’zbekiston”.1997. 252 –bet.

generasiya qilish samaradorligi, bilish subyektlari ijodkorligining susayishiga sodir bo‘ldi.Bu ta’lim falsafasida “ta’limning inqirozi” sifatida baholandi.

1997 yili qabul qilingan va sobitqadamlik bilan amalga oshirilatgan Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi, “Ta’lim to‘g’risidagi” Qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirish, jahon andozalariga javob bera oladigan mutaxassis – kadrlar tayyorlash vazifasini qo‘ydi.

“Hozirda respublikamiz aholisining yalpi savodxonlik muammosi to‘la hal qilingan.Zero, aholining savodxonligi 1991 yildagi 97,7 % dan 2003 yilda 99,3% ga etdi. O‘rta maxsus, kasb – hunar yoki oliy ma’lumotga ega katta yoshli aholi hissasi 75% dan oshadi. Boshlang’ich va o‘rta ta’lim darajasida qamrab olingan qiz va o‘g’il bolalar soni orasida amalda farq yo‘q.”[84] SHuningdek, O‘zbekiston umumiy boshlang’ich ta’limni ta’minlab, global Mingyillik Rivojlanish Maqsadlaridan birini muvaffaqiyat bilan ro‘yobga chiqarganini qayd etish lozim. Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq nisbatan qisqa davr ichida o‘rta kasb – hunar o‘quv yurtlarining yangi tiplari tarmog’i yaratildi, ta’lim dasturlarining rang – barangligini ta’minlashga, ta’lim tizimini moliyalashtirish ko‘p tomonlama bo‘lishiga erishildi. 2004 yil may oyida Prezident Farmoni bilan maktablar moddiy – texnika bazasini rivojlantirish va uzluksiz ta’limning yagona yaxlit tizimini shakllantirish bilan bog’liq maktab ta’limini rivojlantirishning davlat umummilliy dasturi qabul qilindi. Mustaqillik tufayli xalqimizning ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan ma’naviy – intellektual merosini o‘rganish imkoniyati yaratildi.Mamlakatimiz ta’lim tizimida jahon ta’lim tizimining ilg’or tajribasini qo‘llash, ta’limni axborotlashtirish, gumanizasiyalashtirish, elektron darsliklar bilan ta’minlash, masofaviy ta’limni rivojlantirish keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Respublikamizda aalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar xalq ma’naviyatining yuksalishi, asrlar davomida yaratilgan qadriyatlarni tiklash, asrab – avaylash, kelajak avlodga etkazish, umuminsoniy merosdan bahramand bo‘lish, global o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan jamiyatda faol, ma’naviy etuk insonlarni shakllantirishning asosidir.

Ta’lim tizimining ijtimoiy taraqqiyotdagi, jamiyatni modernizasiya qilishdagi roli mutaxassislar tomonidan keng yoritilmoqda. Masalan, Fukuyama o‘zining “Velikiy razrыv” asarida zamonaviy jamiyatlarda ijtimoiy kapitalning asosiy manbalaridan biri – ijtimoiy qadriyat sifatida ta’minlanadigan – ta’lim tizimidir”[85]-deb yozadi. Subetto[86] esa jamiyat progressiv evolyusiyasining assosiy omili “tizim intelektinining” sifati, moslashuvchanligi, kelajakni yaratuvchanligi va kelajakni boshqara olish qobiliyatlarining o‘sishida deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, har qanday progressiv evolyusiya doirasida bu qonun amal qiladi. Har qanday ijtimoiy taraqqiyot, umumjahon tarixiy qonuniyati ijtimoiy intellekt bilan bog’liq. bo‘lib, olim fikriga ko‘ra u quyidagi funksiyalarni bajaradi: ijod, loyihalashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlash. Olim XX va XXI asrda insoniyatning Ulkan Portlash davriga qadam qo‘yganligini, bu davr noosfera evolyusiyasidagi sakrash bo‘lib, bu jamiyat intellekt va ta’lim jamiyati asosida boshqarilishini e’tirof etadi. Olim ijtimoiy intellekning substansiyasi bilim, ta’lim esa – ijtimoiy va individual intellektni qayta ishlab chiqarishning asosiy mexanizmi deb

[84] Мингйиллик Ривожланиш Мақсадларининг Маърузаси.Ўзбекистон. Т.2006. 23 – бет.
[85] Фукуяма Ф. «Великый разрыв” М.ООО.Изд.АСТ.2003. С. 19
[86] Субетто А.И. Интеллектуализация образования как проблема XXI века // «Академия Тринитаризма», М., Эл № 77-6567, публ.10257, 06.03.2003 http://www.trinitas.ru/rus/doc/

hisoblaydi.Ammo bu jarayonlarning amalga oshishi uchun ta'lim tizimini intellektuallashtirish lozimligini ta'kidlaydi. Zamonaviy ta'limni modernizasiya qilish butun XXI asrni o'z ichiga olishini va ta'limni fundamentallashtirish, noosferizasiyalash, gumanizasiyalashtirish, kreativlashtirish, intellektullashtirish, axborotlashtirish, ta'lim va tadqiqot jarayonlarini birlashtirishni nazarda tutadi.

Bugungi kundagi modernizasiya jarayonlari davrida ta'limni modernizasiya qilish jamiyatdagi integrativ mexanizm bo'lib, modernizasiya jarayonlarining kuchaytirishga olib keladi. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati tomonidan ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar belgilandi. Ularning birinchisi - ta'limni tubdan demokratlashtirishdir. Ikkinchisi - uzluksiz ta'lim g'oyasi, so'ngra esa "ta'lim bir umrga"g'oyasini "ta'lim butun umr davomida" g'oyasiga almashtirishdir. Uchinchisi - bu nafaqat mutaxassislarni tayyorlash vositasi, balki balki jamiyatga ongli, insonlarni etkazib berishdir. Uchinchisi ta'limni globallashuviga erishish.To'rtinchisi-ta'limni axborotlashtirish. Ta'limni modernizasiya qilishni ta'lim zamonaviy jamiyatda asosiy ishlab chiqarish va rivojlanish, raqobatbardoshlik asosi va jahon hamjamiyatining rivojlanish kabi omillar ta'qazo etadi.

Zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarning murakkabligi ta'limga ham sinergetik yondoshuv zarurligini talab etadi. Bunda zamonaviy ta'lim paradigmasi yopiq tizimlarni o'rganishdan, evolyusion ochiq tizimlarni o'rganishga o'tish zarurligini e'tirof etadi.[87] Ta'lim tizimi ochiq tizim sifatida tasniflanmoqda. Ochiq ta'lim[88] – bu o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim bo'lib, ijodiy shaxsni rivojlantirish jarayonidir.Bu zamonaviy axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimi falsafasining asosiy jihatidir. Sinergetik yondoshuvda o'qitish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat - bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri uzatish emas, balki bilimlarni uzatishdagi ochiq dialog, hamkorlikdagi ta'lim maydoniga asoslanadi. Ochiq ta'lim tizimi uzluksiz, innovasion, masofaviy o'qitish orqali moslashuvchan, faol, ijodiy shaxsni tarbiyalashga qaratilgandir.Bunda bilimlar subyekt keyinchalik ulardan yangi bilimlarni hosil qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun uzatiladi.Bunda o'quvchidagi yashirin qobiliyatlarni uyg'otish, o'zini namoyon etishga, imkon yaratiladi. Bilish yangi mazmun kasb etadi. Bilish subyekti faol bo'lib, ta'limda uzatilayotgan bilimlar absolyut haqiqat sifatida e'tirof etilmaydi. Ta'lim jarayonining nochiziqli tafakkurga asoslanishi e'tirof etiladi. Nochiziqli tafakkur rivojlanishning ko'p variantliligini, bilish jarayonida tizim tabiatini yagona qonunlarda aks ettirib bo'lmasligini. e'tirof etadi. Nochiziqli tafakkur tadrijiy (evolyusion) yo'nalishlarning ko'p variantliligi va muqobilliligi g'oyasi hamda bu muqobillardan birining tanlanishi, muhitdagi jarayonlarning taraqqiyot (darajasida) sur'ati, tadrijiylikning orqaga qaytarilmasligi g'oyalari sifatida tushuniladi[89]. Bunday tafakkur tamoyillariga ko'ra ta'lim rivojlanishining ko'p variantliligini tan olinmoqda. Bu ta'lim jarayonida bir yoqlama yo'nalganlik, tafakkur jarayonining inersiyasiga barham beradi. Bilish jarayonida "subyekt-subyekt" munosabatlari amal qiladi. Bilish jarayonining beqaror, xaotik holatlarga ega ekanligi e'tirof etiladi. Natijada shaxs faolligining o'sishiga, bilimlar generasiyasining samaradorligining ortishiga erishiladi.

---

[87] Мухамедова З. М, Парадигма гуманизации образования Т., 2004.С 132.
[88]Основы открытого образования. Отв. Ред. Солдаткин В.И. – Т.1. Российский гос. Инс. Открытого образования. М.:Нии Црао, 2002.
[89] Князева Е.Н. Одиссея научного разума. Синергетическое видение научного прогресса. -М.: Наука, 1995. -С.238.

**Ijtimoiy ong shakllarida globallashuvning namoyon bo'lishi**

Reja:

1. Axloq va madaniyatning globallashuvi.
2. Fan va ta'limning globallashuvi.
3. San'at va sportning globallashuvi.

Axloq, bu – ezgulik va yomonlikni ajrata oluvchi mezon hisoblanadi. Inson qalbining asosiy vazifalaridan biri hayot va umumbashariy axloqiy qarashlarni shakllantiruvchi bvrometrdir. CHunki alohida inson axloqi umuminsoniy ong va uning aksiomalari asosida shakllanadi. SHuning uchun inson axloqi axloqiy tartib va butun dunyodagi axloq o'rtasidagi ko'prik hisoblanadi. Barcha axloqiy harakatlarning yagona maqsadi – insonga ezgulik yo'lini ko'rsatishdir. Agar axloqiy tubanlashsa, inson erkinlikdan yiroqlashadi. Bizning nazarimizda, axloqqa rostlik, sotilmaslik, to'g'rilik va qalbning axloqiy darajasidagi aniqlik xosdir. Ammo inson tabiati gumrohlikka moyil bo'lib, bu sifatlarni to'laligicha qabul qila olmaydi. Ishonch bilan tasdiqlanib turadigan, muhabbat bilan oziqlantiriladigan axloq sof, ezgulikka, poklikka evrila boradi[90].

Inson xatti-harakatlarining sifati axloqiy darajasini ko'rsatadi. Axloq qo'rquv orqali bilinadi. Axloqni saqlashning o'zi katta qadriyatdir, vijdonni, soflikni ziyoniz, manfaatsizlikdir. Inson ongli ravishda tanlagan yo'li orqali boradi, ichki niyatlarni baholash qobiliyatini o'zlashtirib, chunki aynan u qaror qabul qilish asosida yotadi. Axloqsizlik, g'azab, boylikka o'chlik, hasad, shuhratparastlik, g'urur bilan bir qatorda baholanadi. Va buning teskarisi bo'lgan axloq esa insonning shohona kuchi va qobiliyatidir. O'z davrida Epikur "YOqimli yashash aqlli yashashsiz bo'lmaydi, axloqiy va adolatli hayot, va teskarisi, aqlli yashash mumkin emas, axloqiy va adolatli, yoqimli yashashsiz"[91] degan edi.

O'zining "Axloqi Kabir" ya'ni "Katta axloq kitobi" asarida Arastu axloqning mazmun-mohiyati haqida quyidagilarni yozadi: "Gapning lo'ndasini aytsak, axloq siyosatning tarkibiy qismidir. CHindan ham muayyan axloqiy fazilatlarga ega bo'lmagan, ya'ni munosib bo'lmagan odam (taniqli jamoat arbobi sifatida) faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Munosib odam bo'lmoq – fazilatlar egasi – fozil bo'lmoq, demakdir"[92]. Bu fikrlardan ma'lum bo'ladiki, axloq o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'u va tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Chunki, axloq aynan ana shu ruhiy-ijtimoiy hodisalar orqali oydinlashadi, umuminsoniy qadriyatlarning tarixiy bir bo'lagiga aylanadi. Ayni shu ma'noda, Arastu "Axloqiy fazilat lazzatlanish va azoblarda aks etadi: zero lazzatlanish uchun yomonlik qilsak, unda azoblanmaslik uchun go'zal ishlardan bosh tortamiz"[93], - deb yozadi.

---

[90] Геффдинг Г. Этика, или наука о нравственности: Изложение этических принципов и их применение к различным житейским отношениям. – М.: Изд.3 Издательство ЛКИ, 2012. - 400 с.

[91] Ахелис Т. Этика. История этики и критика ее систем. Явления нравственности. Принципы нравственности. Этика Либроком 2011. - 112 с.

[92] Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 130 b.

[93] Ахелис Т. Этика. История этики и критика ее систем. Явления нравственности. Принципы нравственности. Этика Либроком 2011. - 112 с.

Arastudan keyin SHarqda Forobiychalik ulkan zot maydonga chiqmagan. Forobiy o‘z bilimi, ma’naviyati, fikr doirasining kengligi bilan SHarqda katta shuhrat qozongan va unga Arastudan keyingi yirik mutafakkir – “muallim as-soniy” – “ikkinchi muallim” degan unvon berilgan. Forobiy “Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob”, “Siyosat al-madaniya” (“Shaharlar ustidan siyosat yurgizish”) va boshqa asarlarida axloqiy fazilatlar haqida o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilgan. Jumladan, baxt-saodat tushunchasi haqida fikr yuritib, u “faol aqlga eng yaqin turgan narsadir”[94], va: “uning ma’no-mohiyati faol aql bilan qo‘shiluvida yashiringandir”[95], - deb ta’kidlaydi. SHuning barobarida Forobiy baxt-saodat fazilatga tashqaridan yopishtirilgan yoki yuklangan amal bo‘lmasdan, balki uning o‘z jinsidan va zotning umumiyligidan chiqqan sifatiy holati ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Zero, baxt – insonning o‘z ichki borligidan qoniqish hissi, hayotdan zavqlanishi va insoniyligidan mamnun bo‘lishdir[96]. Bundan ko‘rinadiki, inson o‘zini qanchalik o‘rgansa, idrok qilsa, shunchalik axloqan poklanib boradi. Darhaqiqat, axloqiylik bilan uzviy bo‘lmagan bilim qancha kuchli bo‘lsa, shuncha zararlidir. CHunki axloqsiz inson o‘z bilimidan boshqalar va jamiyat zarariga foydalanishi mumkin va bu zarar bilimsiz kishinikidan ko‘p marta ortiq bo‘ladi. Buni eng kamida oddiy kissavur o‘g’ri bilan kompyuterni yaxshi bilish orqali bankni o‘maradigan odamning jinoyatlari darajalari orasidagi farq misolida ko‘rish mumkin. Mashhur yunon donishmandi Arastu aytganiday, “Kimki bilimda ilgarilab, axloqda oqsaydigan bo‘lsa, bilingki u oldinga emas katta tezlik bilan tubanlik sari ketipti”[97]. Axloqning bu yuksak vazifasi nemis klassik falsafasining taniqli namoyandasi I.Kant oldinga surgan “kategorial imperativ” g’oyasida o‘z ifodasini topgan edi. Dinlarda esa bu imperativ g’oya hurofiy qarashlarda aks etadi.

Axloqiy fazilatlarni tarbiyalash barcha fazilatlarning sarchashmasidir. Axloqning amaliy ko‘rinishi axloqiy madaniyat hisoblanadi. Axloqiy madaniyat shaxsning olamga, voqea va hodisalarga, o‘zgalarga va ularning faoliyatiga, o‘z umri va uning mazmun-mohiyati kabi ko‘pdan-ko‘p tushunchalarga munosabati bo‘lib, ularni anglashi, tushunishi va qadrlashi oqibatida o‘z faolligini oshirishga e’tibor sifatida qarash nazariy jihatdan uning mazmun-mohiyatini yanada rivojlantirib boyitib borishda muhim ahamiyatga egadir. SHuning uchun, axloqiy madaniyat va shaxs faolligini mustaqillik bergan imkoniyat va sharoitlarni e’tiborga olib, o‘rganib chiqish kelajagi buyuk davlatning etuk insonlarini tarbiyalashda alohida o‘rin tutadi.

Sivilizasiyaning axloqiy mezonlari tegishli ijtimoiy munosabatlar bilan bog’liq ekani ta’kidlanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi dunyoqarash prinsiplari ham, u bilan bog’liq axloqiy mezonlarning o‘zgarishiga olib keladi deb uqtiriladi. Masalan, sivilizasiya shakllanishining ilk davrlarida ruhoniylardan tashkil topgan ierarxiya qatlamidan, ehromlar, muqaddas davlatchilik urflari, jamiyatni bu dunyodan, tabiatdan yuqori turuvchi olam tomonidan boshqarilishi haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadigan tashkillanish strukturalari intizomi kabilar. Sivilizasiyaning keyingi yuqoriroq

---

[94] Форобий. Рисолат фи ал-ақл (“Ақл ҳақида рисола”), –Байрут, 1939. –Б.31. (араб тилида)

[95] Qarang: Forobiy. Falsafatu Aristotelis va ajzoi falsafata va marotib ajzoiho (“Arastu falsafasi va falsafaning qism va bosqichlari”). Muxsin Mahdi tahriri ostida “Matnlar silsilasi”. –Bayrut, 1-jild, 1961. –B.128. (arab tilida).

[96] Abulla SHer. Axloqshunoslik. O’quv qo’llanma . – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003. – 208-214 b.

[97] Иодль Ф. История этики в новой философии: Кант и этика в девятнадцатом столетии. Пер. с нем. Либроком 2011. 528 с.

bosqichlarida esa ma'lumotli yuqori qatlam tomonidan maxsus tartibga solingan axloqiy meyorlar ishlab chiqiladi. Jamiyat strukturasida sodir bo'lgan yangi o'zgarishlar natijastda yangi axloqiy qadriyatlar yaratiladi.

"Madaniyat"[98] tushunchasining SHarq va G'arbdagi talqinlariga kirishar ekanmiz, avvalo madaniyatshunoslikka bag'ishlangan maxsus ishlarda lotincha lug'aviy ma'nosi "ishlov berish"ni anglatuvchi bu tushunchaning 1000 ga yaqin ta'rifi mavjudligini ta'kiblab o'tishimiz joiz.

Shuningdek, postsovet Rossiyasida ham endilikda madaniyatga G'arbnikidan mutlaqo boshqacha yondoshuv mavjudligi diqqaga sazovor. Masalan, V.Porus madaniyatga quyidagicha ta'rif beradi. "Madaniyat - deydi U,- inson xulqu atvori, ijodi, har qanday faoliyatining bosh qoidalariga (prinsiplariga) aylangan o'zini-o'zi ichdan (ruhiy, ma'naviy) tiyib (jilovlab) turishning poydevoriy tizimidir. Madaniyatli inson shunchaki qizil gap uchun emas, balki jiddiy ravishda "Men hech qachon, hech qanday sharoitda bunday (yomon, noto'g'ri) ish qila olmayman. CHunki, agar shunday ish qilsam, men odam bo'lmayman" deb ayta oladigan insondir."[99] (Bu erda va ishimizning butun keyingi mazmunida "madaniyat" deyilganida asosan ma'naviy madaniyatni nazarda tutamiz.)

Bu erdagi "Men hech qachon, hech qanday sharoitda bunday (yomon, noto'g'ri) ish qila olmayman. CHunki, agar shunday ish qilsam, men odam bo'lmayman" degan ibora SHarq ma'naviyatidagi "vijdon" tushunchasiga (rus tilida esa "sovest"ga ) to'g'ri keladi. Nemis mumtoz faylasufi I.Kant ta'limotida esa bu tushunchalar o'rniga "kategorial imperativ" degan maxsus atama ishlatilgan. Bu atama islom diniy falsafasida "shariat", xristian diniy falsafasida "qonun", yunon falsafasida "etika", Xitoy falsafasida "dao" deb atalgan ta'limotlar mazmuniga kirgan asosiy tushunchalardan (kategoriyalardan) biridir.

Porus tomonidan berilgan ta'rif, bizningcha, ancha tolerant va, ayni paytda, konkretroqdir. SHuningdek, bunda inson xatti-harakatlarini yo'naltiruvchi faktor ham mavjudligi diqqatga sazovor. Bu faktor V.Porusda "vijdon"ga, I.Kantda esa "qalb (yurak) qonuni"ga to'g'ri keladi. Mashhur nemis faylasufi yurakdan chiqarib aytgan "Qancha ko'p va uzoq o'ylasam, har safar qalbimni shuncha ko'p va avvalgidan kuchliroq hayrat va ehtirom bilan to'ldiruvchi ikki narsa bor: biri boshim uzra yulduzli osmon, ikkinchisi qalbimdagi axloq qonuni"[100] degan gapi ayni shu haqidadir. U o'z qalbidagi shu axloq qonunini lotincha "imperativ" tushunchasi bilan ifodalagan edi. "Imperativ" tushunchasi "hukmronlik qiluvchi" degan ma'noni anglatadi. Bu bilan faylasuf o'z qalbidagi vijdon uning hukmdori, hatti-harakatlarini yo'naltiruvchi kuch ekanini ta'kidlaydi. Kantning "yulduzli osmon" dan hayratlanishi esa uning bu olam naqadar buyukligidan, uning yaralishi hikmatidan hamisha lol qolishini ifodalaydi. SHunday qilib, I.Kantning "kategorial imperativi", har bir inson xulqu atvorini ichdan

---

[98] Biz bu erda moddiy madaniyat haqida emas, ma'naviy madaniyat haqida fikr yuritamiz. Zero moddiy madaniyat ma'naviy madaniyatning maxsuli bo'lgani uchun va , qolaversa, u ma'naviy madaniyatning konkretlashgan, ayrimlikdagi ifodasi bo'lgani uchun, bizning tahlilimizda shu ma'naviy asosini tahlil etish etarlidir.

[99] Порус В.Н. Обжить катастрофу. Своевременныее заметки о духовной культуре России// Вопросы фмлософии. 2005, № 11 . 27- b.

[100] Кант И. Сочинения. - М., 1965.Т.4.Ч.1. 499- b.

(yurakdan) yo‘naltirib, belgilab, nazorat qilib turadigan qonun sifatida namoyon bo‘ladi va u individ madaniyatining asosini tashkil etadi.

Biz madaniyatning yuqoridagi ikki (Kant va Porus) ta’rifi ham to‘g’riligini tan olganimiz holda oldimizda turgan maqsadni amalga oshirish uchun uni yanada ham to‘liqroq, kengroq va tushunarliroq qilish mumkin va kerak deb o‘ylaymiz. Bizningcha, **madaniyat inson va insoniyat hayotining ma’no va maqsadini to‘g’ri ko‘rsatib bera oladigan hamda uning faoliyatini shunga muvofiq yo‘naltira oladigan g’oyalar, tasavvurlar va his-tuyg’ularning organik birligidan iboratdir**. Ushbu ta’rifning afzalligi shundaki, unda avvalo hayotning ma’nosini belgilab beradigan faktor nimalardan iboratligi konkret ko‘rsatadi.[101] To‘liqroqligi shundaki, unda madaniyatning boshqa odatiy ta’riflarida hisobga olinmaydigan muhim faktor - his-tuyg’ularga ham e’tibor qaratildi. Bunda biz insoniyat dunyoqarashning eng teran asosi bo‘lgan ezoterik ta’limotlarda his-tuyg’ular, ayniqsa fidoyi (beminnat, pok) muhabbat (ishq) tuyg’usi harqanday bilim yoki g’oyadan muhimroq o‘rin egallashini hisobga oldik. Ta’rifning kengligi esa shundaki, u nafaqat individga, balki butun insoniyatga nisbatan keltirildi. Ta’rifning kengligi esa biz tahlil etmoqchi bo‘lgan asosiy mavzu, ya’ni “globallashuv davri insoniyat hayotining ma’nosi muammosi”ni yoritish ehtiyojidan kelib chiqdi.

Lekin shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi davr SHarq falsafasida biz bergan ta’rifdan chuqurroq va konkretroq yondoshuv ham mavjud. Bu yondoshuv Hind ezoterik faylasufi Aurobindo Gxoshga[102] tegishli bo‘lib, uning uqtirishicha, **“Madaniyat ruh, intellekt va vujud (tana) orasida uyg’unlikka erishuv demakdir**.”[103] Bunda madaniyat insonni tashkil etuvchi uch asosiy jihat - vujud, aql va ruh - uyg’unlashuvining mezoni (kriteriysi) sifatida maydonga chiqadi.

Ushbu ta’rifning biznikidan ustunligi shundaki, unda inson ma’naviy evolyusiyasining uch asosiy parametri - ruh, intellekt va vujud – konkretlikda qamrab olingan va ular orasidagi uyg’unlik sharti alohida uqtirilgan . SHuning uchun ta’rif mutloq to‘liqlik va konkretlik kasb etgan. Bu ta’rif ruhiy jihatga e’tibor qaratilgani bilan madaniyatga G’arbcha yondoshuvlardan farqlanadi. Ayni shunga ko‘ra bu ta’rif umuman SHarq madaniyati bilan va, xususan, o‘zimizning teran va buyuk milliy ma’naviy qadriyatlarimiz bo‘lgan tasavvuf ta’limoti bilan uzviy va uyg’un.

Ammo bizning evropalashgan (g’arblashgan, moddiyunlashgan) hozirgi (postsovet davridagi) ongimiz umuman olganda uni teran qabul qilishga xali yaxshi tayyor emas. Zero unda biz bilmagan “ruh” tushunchasi fundamental kategoriyalardan biri sifatida qatnashmoqda. SHuning uchun madaniyatni tushunishning **dastlabki** bosqichida biz keltirgan ta’rifdan foydalanish qulayroq. Lekin bu ikki ta’rif uchun umumiy bo‘lgan bir g’oya bor. Bu ularning ikkisida ham madaniyatning teran ildizi, inson hayotining qandaydir oliy ma’no-mohiyati mavjudligi haqidagi g’oyadir.

---

[101] Albatta, inson hayotining ma’nosi masalasining o’zi ham hali jiddiy izlanishni talab qiladi va biz ishimizning navbatdagi qismida bu masalaga iloji boricha chuqur to’xtalishga harakat qilib ko’ramiz.

[102] Aurobindo Gxosh (1872-1950) – hind mistiki va faylasufi. Anglyada o’qigan. Hindistonga qaytgach, Hindiston ozodligi uchun kurashga rahbarlik qilgan. O’z asarlarida Platon, Bredli va Bergson g’oyalariga hamfikrlik bildirgan. Hindistonning beshinchi Vedasi deb sharafoanayotgan “Integral yoga” ta’limotining asoschisi. G’arbda J.Gerber uning shogirdi va izdoshi bo’lgan. Romen Rollan uni “Davrimizning juda buyuk mutafakkiri” deb hisoblagan. Robindranat Tagor esa Uni “Hind qalbining ovozi” deb ulug’lagan. Hindistonda uni “SHri Aurobindo”deb ulug’lashadi. “SHri” qo’shimchasi o’zbek tilidagi “hazrat” tushunchasiga mos keladi.

[103] Шри Ауробиндо. Основы индийской культуры. Санкт-Петербург. 1998. – Б.136.

Lekin, agar biz “ruh” nimaligini tasavvur eta olsak , u holda A.Gxoshning ta’rifi biznikidan ancha teran, to‘liq va konkretligi ma’lum bo‘ladi. SHuning uchun mazkur ishimizning navbatdagi boblarida “ruh” tushunchasiga oydinlik kiritishga urinib ko‘ramiz. SHunda o‘z ta’rifimizni A.Gxoshniki bilan almashtirishimiz ham mumkin bo‘ladi. Hozircha biz “ruh” madaniyatning abadiyatga dahldor aspekti ekanini ta’kidlab o‘tish va ayni shuning uchun ham ruhiyatga tayangan madaniyat va sivilizasiya vayron bo‘lmasligini ta’kidlash bilangina cheklanamiz.

To‘g’ri, G’arb mutafakkirlari orasida ham madaniyatning tub asosini ruh, ruhiyat tashkil etishi haqidagi fikrlarni oldinga surganlar bo‘lgan. Masalan, nemis faylasufi V.fon-Gumboldt madaniyatni tarixda amal qiluvchi xalq “ruhi” deb qaragan, uni xalqni organik bir butun sifatida tashkillaydigan jihat sifatida talqin etgan. Uning “Tarixiy bilish” nazariyasiga ko‘ra jahon tarixi inson bilimlaridan yuqori turuvchi ruhiy kuch faoliyatining natijasidir, shuning uchun bu kuchni sababiylik nuqtai nazaridan tushunish mumkin emas. “Men o‘z qalbimda tug’iladigan har bir hodisa yagona bir kuchning nuzuloti bo‘lib, bir butunlik tashkil etishini va har bir ayrim deb qaraladigan narsa ayni shu kuch bilan yo‘g’rilgan kabi shu kuchning belgilariga ega bo‘lishi kerakligini chuqur his etaman”, - degan edi Gumboldt.[104] Vaholanki, bu fikrlar tasavvuf ta’limotining “Vahdati vujud” haqidagi ta’limoti bilan uyg’un.

Nemis falsafasida Gyote, SHelling kabilar ham Gumboldtniki kabi g’oyalarni oldinga surganlar. Lekin, G’arb falsafiy tafakkurida bu g’oyalar, tasavvuf yoki boshqa SHarq ta’limotlaridagi kabi ommalashgan emas, balki juda noyob hodisalar edi. SHuning uchun ham G’arbda tez orada rasionalizm tamoyili g’alaba qildi va uning asosida fan va texnologiya gurkirab rivojlandi. Xatto Gegelning “Mutloq ruh”ni ulug’lagan idealistik falsafasi ham rasionalistik xarakterdagi falsafa edi. Buning uchun uning ta’limoti keyinchalik, XX asr o‘rtalarida “panlogizm” deya talqin etildi. SHuning uchun XX asr G’arb falsafasida ham “ruh” tushunchasi xatto butkul iste’moldan ham chiqib ketishga ulgurgan edi. Shuning uchun ham bu davr qomusiy lug’atlarida ruh, jon, qalb kabi tushunchalar xatto uchramaydi.

Buning asosiy sababi shundaki, bu davrga kelib dunyoni ilmiy manzarasida ham, butun insoniyat borlig’ida ham juda katta, global o‘zgarishlar sodir bo‘ldi va global muammolar yuzaga chiqdi. Fan mikroolam va makroolamni bilishda katta marralarga erishdi va bu uning tabiat ustidan behad hukmronligini ta’minlaydigan texnologiyalarni yaratishiga olib keldi. Buning natijasida insoniyat makondagi cheklanish doirasidan ancha tashqariga chiqdi, global makonda harakatlanish imkoniyatini qo‘lga kiritdi. Ikkinchi tomondan, jahon miqyosidagi iqtisodiy tizimlar (jahon bozori, xalqaro banklar, transkontinental monopoliyalar) tashkil topdi; ayrim mamlakatlarda bo‘layotgan ishlardan butun dunyoni xabardor qiladigan global informasiya (axborot) tarmog’i vujudga keldi (informasion cheklanish barham topdi); ko‘p mamlakatlar birgalikda echishi mumkin bo‘lgan ekologik muammolar yuzaga chiqdi; bir emas, bir necha o‘nlab xalqlar va davlatlarni qamrab oladigan, odamlarni mislsiz qirilishiga olib kela oladigan jahon urushlari chiqishi xavfi tug’ildi va h.k. Fan va texnika taraqqiyoti avvallari inson jismoniy quvvatlarini kuchaytigan vositalarni ishlab chiqqan bo‘lsa, endilikda uning **intellektual** qobiliyatlarini kuchaytiradigan vositalar ishlab chiqildi.

---

[104] Грицанов А.А. В.фон-Гумбольдт.// Новейший философский словарь: 3-е изд. М.: Книжный Дом. 2003.

SHu jarayonning oqibati o‘laroq endilikda G’arb falsafasida madaniyatning ikki tipi – ommaviy va elitar madaniyat bir-biridan keskin ajratiladi. Ammo ommaviy va elitar madaniyatni xalq madaniyatidan va milliy madaniyatdan farqlash zarur.

Halq madaniyati (ingliz tilida “folklor”) deyilganida odatda madaniyatning o‘z ildizlari bilan xalq o‘tmish tarixi bilan tutashib ketadigan, o‘tmishda shakllangan qadriyatlarga tayanadigan, milliy xarakterni aks ettiradigan jihati nazarda tutiladi. Xalq madaniyatining o‘ziga xosligi uni yaratgan konkret mualliflarning yo‘qligida, ularning rivoyat (mif), asotir, afsona, epos, ertak, ashuvla, raqslar, xatto latifalar, ommaviy bayram va urf odatlar tarzida namoyon bo‘ladi. Xalq madaniyati an’anaviyligi (tradisiyaviyligi), jamoaviyligi, teran ildiz otgani va barqarorligi bilan xarakterlidir.

Milliy madaniyat tushunchasining falsafaga kiritilishi esa barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan yagona madaniyat mavjud bo‘la olmasligi, har bir millatning faqat o‘zigagina xos madaniyati mavjud ekanini ta’kidlovchi, masalan, N.YA. Danilevskiy, O. SHpengler, A. Toynbi konsepsiyalar shakllanishi bilan bog’liq.

Har ikki tushunchaning ham madaniyatni xarakterlashda o‘z o‘rni bor. Birinchisida (“xalq madaniyati” tushunchasida) madaniyatning eng umumiy, muallifsiz tarixiy ildizi mavjudligi nazarda tutilayotgan bo‘lsa, ikkinchisida uning xalqlar millatlarga ajralganidan keyingi differensiallashgan, o‘ziga xoslik kasb etgan tarixiy shakllari vujudga kelgani hisobga olinmoqda. SHu ma’noda bularning ikkisi ham madaniyatning umumiy ta’riflari emas, balki uni evolyusiya jarayonida tushunishga xizmat qiluvchi muhim tushunchalardir. Va milliy madaniyatlarda internasional tomonlarning mavjudligi, bir tomondan, barcha millatlarning bir vaqtlar hali millatlarga ajralmagan tarixiy davrdagi yalpi umumiy, differensiallashmagan , muallifsiz tarixiy ildizi mavjudligi tufayli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, millatlar madaniyati taraqqiyoti mobaynida ularning o‘zaro bog’lanib, aloqa qilganlari natijasida shakllangan yangi umumiyatlarning yuzaga kelishi tufaylidir.

Sobiq ittifoq mafkurasi madaniy aloqalar kuchaytirilsa, keyinchalik millatlar madaniyati bir-birini boyitadi, millatlar orasida tafovut qolmaydi, degan g’oyani oldinga surgan va ayni shu ishni amalga oshirish niyatida bo‘lgan edi. Agar, g’araz aralashmagan bo‘lsa, bu niyat o‘z holicha yaxshi. Lekin, barcha millatlar o‘z tarixiy ildizlari bilan qayta bog’lanmaguncha bu uning amalga oshmasligi ravshan. Vaholanki, markscha mafkura bu ildizni inkor etib kelgan edi. Umuman, hozirgi davrda butun insoniyat bu ildizdan mutlaqo uzoqlashib ketgan. SHuning uchun endilikda milliylikni bartaraf etadigan har qanday ongli yoki ongsiz jarayonlar millatni o‘ldirish bilan tengkuchlidir. SHu ma’noda globallashuv jarayoni millat hayoti uchun juda xavfli va mamlakatimiz rahbarining milliy o‘zlikni shakllantirish va rivojlantirish yo‘lidagi chaqiriqlari quruq shior emas, badki endilikda hayot-mamot masalasidir. Millatning o‘limi esa uning o‘z ma’naviyati, madaniyatining yo‘qolishidadir.

Elitar madaniyat deyilganda G’arb falsafasida, xususan, elitar madaniyat mafkurchisi bo‘lgan X.Ortega-i-Gasset jamiyatning ijodiy daholari, sara insonlar (elita[105]) tomonidan yaratiladigan yangi, noyob, individual, hech qachon takror yaratib bo‘lmaydigan san’at, adabiyot, musiqa asarlarini tushunadi. Ushbu madaniyat keng

[105] Elita deganda bu erda jamiyatning yuqori, hukmdorlar qatlami, aslzodalar emas, balki ruhan, axloqan va estetik jihatdan yuksak, buyuk iste’dodga ega bo’lgan insonlar tushuniladi. Bunday shaxslar jamiyatning barcha qatlami orasidan chiqishi mumkin va ular jamiyatni ham boshqarishga qodir hisoblanadi. Ular ruhiy aslzodalar deb qaraladi.

omma tomonidan tushunilmaydigan va hammaga tushunarli bo‘lish maqsadini ham ko‘zlamaydigan madaniyatdir. U faqat san’atning o‘zigagina xizmat qiladi va faqat elita tomonidan tushunilishi mumkin bo‘lgan madaniyat hisoblanadi. Bu asarlarni tushunish omma bilmaydigan maxsus san’at tilini bilishni taqozo etadi. SHu ma’noda elitar madaniyatni oliy (yuqori) madaniyat deb ham ataladi. Masalan, Kafka asarlari, Pikasso rasmlari G’arbda shunday asarlar hisoblanadi. Lekin oliy madaniyat xalq va millat madaniyati ildizlaridan ozuqlanadi va unda millat madaniyati taraqqiyoti akslanadi. Bu asarlar asrlar o‘tgach, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, masalan, CHaykovskiyning “Kichik oqqushlar raqsi” yoki Vivaldining “Yil fasllari” asari kabi hamma uchun tushunarli bo‘ladigan vaqt kelishi mumkin. Unda bu madaniyat barchaning umumiy madaniyatiga aylanadi.

Elitar madaniyat tushunchasi aslida yangi emas. Bu madaniyatning ko‘pqatlamli xodisa ekanini ifodalaydigan qarash bo‘lib, bu hamma davrlar madaniyatiga xos bo‘lgan. “Madaniyat, - deydi, masalan, N.A. Berdyaev, - ierarxiya tashkil etadi. Uning ichki mazmunida bu qadriyatlarning aniq pog’onaviy tartiblashuvi mavjud...”[106]

CHindan ham, qadimdan madaniyat turli qatlamlarni tashkil etgan. Masalan, ilohiy bitiklar, muqaddas kitoblarga jo bo‘lgan mazmun payg’ambarlar, kohinlar, avliyolargagina tushunarli bo‘lgan. Ular o‘z madaniyatlarining sirini (mistik mazmunni) saralab olingan izdoshlargagina etkazganlar, omma esa “rivoyatlar” bilan qanoatlanishiga to‘g’ri kelgan. O‘rta asrlarning boshlarida Injilning savodi yo‘q kishilar uchun mo‘ljallangan, ko‘p rasmlardan iborat soddalashtirilgan varantlari mavjud bo‘lgan. Hamma savodxon bo‘lgan davrlar kelgach, madaniyatning ommabop (saviyasi yuzaki, oldi-qochdi, qaltis ishqiy va boshqa sargushatlardan tashkil topgan, keng omma ko‘ngilxushligiga mo‘ljallangan) mazmuni ham shakllandi, kengaydi va rivojlandi. Quyida madaniyatning ayni shu mazmuni haqida gap ketadi.

Ommaviy madaniyat elitar madaniyatdan farqli o‘laroq har kim tushuna oladigan, lekin bahosi oliy bo‘lmagan madaniyat hisoblanadi. U jamiyat ko‘pchilik a’zolarining (ommaning) oliy (elitar, yuqori) qatlam madaniyatidan orqada ekanining ko‘rsatkichi bo‘ladi. Ommaviy madaniyat elitar madaniyatga nisbatan juda tez o‘zgaruvchan, harqanday yangilik, moda orqasidan ergashuvchi , har bitta yangi hodisaga javob berishga hozir ekani bilan ham xarakterli. Elitar madaniyat namoyandalari uchun eng muhimi o‘z g’oyalarini, tuyg’ularini o‘z asarlarida ifodalashdan iborat bo‘lsa, ommaviy madaniyat uchun eng muhimi bu asarlar tufayli keladigan daromad hisoblanadi.

Ko‘pchilik G’arb faylasuflari (F. Nisshe,O.SHpengler, M. Veber, N. Berdyaev, Z. Freyd, E. Fromm, K. YUng, Dj. Bentam, D. Rismen, F. Livis, D. Tompson, R. Vilyams, R. Xoggart) ommaviy madaniyatni negativ baholaganlar, uni xalq madaniyatlari an’anaviy shakllarining o‘rniga kelgan maxsus madaniyat tipi deb qaraganlar. Ularning asarlarida “ommaviy madaniyat” ruhiy erksizlikning to‘liq ifodasi, inson shaxsini bir-biridan beganolashtiruvchi va ezuvchi ijtimoiy mexanizm deb talqin etiladi. Xatto O.SHpengler ommaviy madaniyatning kelib chiqishini sivilizasiyaning inqirozi belgisi sifatida baholagan edi. A.B.Gofmanning tushuntirishicha, ommaviy madaniyat bu krizisga uchragan jamiyat madaniyati mazmunidagi qatlamlar parchalana boshlagan davr kelganini ko‘rsatuvchi o‘ziga xos holat deb tushuntiradilar. SHuning uchun

---

[106] Бердяев Н.А. Воля к жизни и воля к культуре.// Слово. 1990. №1.

ommaviy madaniyat odatda formal (rasmiy) xarakter kasb etadi, uning faoliyatida mohiyatga oid mazmun, xususan, an'anaviy axloqiylik yo'q.

Ommaviy madaniyat haqida gap ketarkan, bu borada kuchli tanqidiy konsepsiyani oldinga surgan taniqli ispan faylasufi Xose Ortega-i-Gasset qarashlariga to'xtalmaslik mumkin emas. Uning fikriga ko'ra jamiyat o'ziga xos, noyob fazilat egalari bo'lgan sara kishilardan iborat ozchilikka va bir-biridan deyarli farq qilmaydigan, shaxsiy qiyofasi va iqtidori ko'rinmaydigan ko'pchilikka, ya'ni ommaga ajratiladi. SHaharlarda aholi sonining tez ortishi va tor ixtisoslashuv "ommaviy insonni" vujudga keltirdi, madaniyat imkoniyatlarini kuchsizlantirdi va sivilizasiyani ruhan barbod qildi. Vaholanki, bu xulosada ispan faylasufi yolg'iz emas. Uning bu fikrlari avvalo O.SHpenglerning sivilizasiya inqirozining belgilari sifatida sanab o'tgan "industriya taraqqiyoti, ulkan shaharlarning vujudga kelishi, jamiyatning inqirozga uchrashi, odamlarning qiyofasi yo'q "omma" ga aylanishi" haqida g'oyalari bilan juda uyg'undir.

Ana ana shu qiyofasiz, agressiv omma tufayli, X1X da demografik portlash sodir bo'ldi. Bu demografik portlash liberal demokratiya, eksperimental fan va texnika asosida dunyoni yangitdan qurish jarayoni bilan birga kechdi. YAngi jamiyat - siviliasiya vujudga kelgach, inson qulay yashash shart-sharoitlariga ega bo'ldi, tirikchilik uchun tinimsiz kurashdan ozod bo'lgan, hamma narsani tayyor qo'lga kiritadigan bo'ldi. "Ommaviy inson" ayni shu sharoitning natijasi o'laroq shakllandi.

X.Ortega-i-Gassetning tushuntirishicha, ommaviylik tushunchasi kishining qaysi ijtimoiy qatlamga tegishliligi bilan bog'liq emas, balki XX asr jamiyatining barcha qatlamlarida insonning shunday tipi hukmron mavqega ega bo'lib bordi. YA'ni bunday inson tipi jamiyatning yuqori qatlamidan quyigacha barcha qatlamlarida mavjud. O'z axloqi, didi, tafakkuriga ko'ra boshqalardan farq qilmaydigan ommaviy odam yuksak estetik g'oyalarga, falsafiy va siyosiy qarashlarga ega emas. SHuning uchun o'ziga mos madaniyatnigina vujudga keltira oladi. SHuning uchun endilikda ommaviy madaniyat nafaqat oliy madaniyat bilan bir vaqtda mavjud bo'lib kelmoqda, balki uni ijtimoiy hayotda uning o'rnini egallashga va olamni boshqarishga intilmoqda.

Ispan mutafakkirining bu g'oyalari Frankfurt maktabi vakillarining "ommaviy jamiyat" nazariyalari , shuningdek, K. Mangeym, X. Arendt kabi faylasuflarning qarashlari bilan hamohang. Ushbu maktab vakillari, ayniqsa, T. Adorno, M. Xorkxeymera, V. Benyamina va G. Markuzening nuqtai-nazarlariga ko'ra ommaviy madaniyatning shakllanishiga ijtimoiy munosabatlarning savdo-cotiq bilan ham uzviylashuvi, ya'ni "madaniyat industriyasining" (kino, radio) kelib chiqishi ta'sir etgan. Kanadalik sosiolog G.M. Maklyuen ham ommaviy madaniyatning bunday keng ko'lam kasb etishi va qaror topishini OAVning rivojlanishi va mukammalashuvi bilan bog'laydi.

Avstriya ruhshunosi Z.Freyd va boshqa ko'pchilik tadqiqotchilarning kuzatishlariga ko'ra ham "ommaviy madaniyat"da iste'molchini qanday qilib bo'lmasin "ishontirish, unga o'z g'oyalarini yuqtirish", uning ong ostiga ta'sir etish mexanizmlari amal qiladi. U katta zalda pop muzika eshitarkan yoki kino ko'rarkan, uyida o'tirib televizor ko'rarkan, "ommaviy kayfiyatini" o'ziga singdiradi. Natijada inson o'zligini saqlay olmay qoladi, ommaga singib, qorishib ketadi, uning elementlaridan biriga aylanadi. Ayni shu ma'noda Nisshe bu madaniyat mazmunini "demokratik mazmun" deb atagan bo'lsa kerak.

Avvalo omma diqqatini jalb etishga intilishdan iborat bu jarayon madaniyat asarlarini sanoat ishlab chiqarish jarayoniga aylanadi. SHuningdek, ilgarilari avvalo

san'at asari bo'lib, keyin sotuvga chiqqan narsalar ommaviy madaniyatda faqat tovarga aylandi. SHu ma'noda "Ommaviy madaniyat" asoschilari Gollivud (AQSH) biznesmenlari bo'lganlari bejiz emas. Har qanday boshqa tovarlar kabi bu tovarlar ham o'z bozoriga ega bo'lishga va uni tobora kengaytirishga intiladi. Barcha tovarlar kabi ommaviy madaniyat tovarlari ham xaridorgir bo'lishga intiladi. Buning uchun u avvalo ko'pchilik omma kundalik qiziqish ehtiyojlarini hisobga oladi.

Bu yo'lda u SPID, narkotiklar, tabiatdagi kataklizmalar, yirik texnogen katastrofalar, terrorizm, agressiya, daxshat, seks kabi o'tkir mavzulardan keng foydalanadi, shuningdek, ur-sur (boevik), daxshat mavzularidagi trillerlar ham xaridorgir hisoblanadi. Bu mavzudagi asarlar odatda tamoshabin uchun o'ziga xos narkotikka aylana boradi. Oxir oqibatda ommaviy madaniyat insonni diydasi qattiq, atrofida sodir bo'layotgan og'ir ahvolga, zo'ravonliklarga befarq jonsiz, hissiz biorobotga aylantiradi.

Ommaviy madaniyatning syujetlari esa, ular qaysi janrda (detektiv, ishqiy roman, sarguzasht) ekanidan qatiy nazar, odatda deyarli bir xil formula asosida yaratiladi: "asar" qahramoni qiyin vaziyatga tushib qoladi, keyin bir amallab bu vaziyatdan chiqib ketadi. Va, aksincha, ommaviy madaniyat xili qancha mustahkam qaror topsa, ya'ni ommalashsa, uning ta'sir kuchi, obro'si ham shunchalik ortadi. Natijada u inson ma'naviy dunyosini o'zi xohlagancha boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. OAV yordamida u yoki bu mafkurani o'tkazmoqchi bo'lgan siyosatchilar ham, tovarlarini reklama qilish orqali o'z bozorini kengaytirish maqsadini ko'zlagan ishlab chiqaruvchilar ham uning shu jihatidan foydalanadilar.

Ommaviy madaniyat, yuqorida tilga olingan G'arb mutafakkirlarining tushuntirishlaricha, real obrazlarga emas, balki odamlarning vaqtini chog' qilishga, xordiq chiqarishiga, ular diqqatini tortishga mo'ljallanganligi va industriya egalarining bir-biri bilan raqobatiga asoslangani uchun iste'molchida konformizmni (sharoitga passiv moslashuvchanlikni) shakllantiradi (chunki, ommaviy madaniyat asarlarida individ yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhitda sodir bo'ladigan barcha hodisalarga tayyor engilgina "javoblar" bor), uni bachkanalashtiradi, uning ma'naviy rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi, uning qadriyatlari tizimini o'zgartirib yuboradi. Bir so'z bilan aytganda, ayni shu xolat hozirgi G'arb madaniyatida sodir bo'lgan kuchli ma'naviy inqiroz manzarasini ochib beradi.

Bizning bu erda ommaviy madaniyat tahliliga chuqurroq to'xtalishimizning sababi shundaki, birinchidan, G'arb ma'naviy inqirozining infeksiyasi hozirgi informasion ochiqlik sharoitida ayni shu madaniyat orqali bizga ham oqib kirmoqda. Ikkinchidan, ayni shu madaniyat bizga o'z mafkurasini singdirishga urinmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimov yoshlarni ochiq axborot olish davrida hukm surayotgan umumbashariy ma'naviy krizisdan asrash muammosiga alohida e'tibor qaratgani ham ushbu masalaning naqadar jiddiyligi va dolzarbligini ko'rsatadi: "...keyingi yillarda ko'plab namoyish etilayotgan *jangarilik filmlarini* olaylik, - deydi U. - Bu filmlarni ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar maroq bilan ko'radi, chunki odamzot tabiatan mana shunday to'polonlarni tomosha qilishga moyil… Afsus bilan ta'kidlashimiz lozim: tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, inson tabiatidagi insoniylikdan ko'ra vaxshiylik, *ur-yiqit instinkglari, ya'ni xatti-harakatlarini qo'zg'atib yuborish osonroq*. Ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan ko'pincha turli yovuzlik, yirtqichlik, shafqatsizliklarni o'rganadi, xolos. Natijada ularning diydasi qotadi, qalbidan toshbag'irlik, zo'ravonlik, axloqsizlik kabi illatlar joy olganini o'zi ham sezmay

qoladi. Hatto shunday tomosha va filmlarning qahramonlariga ko‘r-ko‘rona taqlid qilishni istaydigan yigit-qizlar ham topiladi. CHunki ular bunday uydirma talqinlar ta’sirida qo‘l urayotgan ishi qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishini tushunib etmaydi.”[107]

Shu ma’noda amerikalik ruhshunos M. Bell uni tavsif etib, “Bu demokratik madaniyat. U sinfingiz, millatingiz, kambag’al yoki boy ekaningizdan qatiy nazar siz odamlarga atalgandir. Bundan tashqari, hozirgi ommaviy kommunikasiya vositalari tufayli yuqori badiiy qimmatga ega bo‘lgan juda ko‘p asarlar kishi hayotiga kirib keldi” deganida bu madaniyatni biryoqlama, mutaassiblarcha baholagani ko‘rinadi.

Vaholanki, endilikda ommaviy madaniyatning hamma yoqqa erkin kirib kelishi imkoniyatlari juda ortib bormoqda. Bu madaniyatga qarshi tura olish, kurash olib borish uchun bu imkoniyatlarni yaxshi tasavvur etishning zarurati katta. Ular avvalo inson onging xususiyatlaridan foydalanishga tayangan bo‘lib, asosan quyidagilardan iborat:

- Individning ruhan va aqlan ijtimoiy jayonda faol ishtirok etishni istamasligi. Boshqacha aytganda, jamiyat a’zolarining ko‘pchiligiga xos bo‘lgan inertlik (loqaydlik, passivlik, dangasalik).
- Kundalik muammolardan, doimo takrorlanishdan iborat bo‘lib qolgan zerikarli, odatiy va mutaasiblik kayfiyatidan chetlashish hoxishi.

- O‘z muammolarining boshqa insonlar va jamiyat tomonidan ham tushunilishi va his etilish istagi.

Ommaviy madaniyat inson ongining shu xususiyatlaridan foydalanadi. U odatda avvalo o‘z bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazishni bilmaydiganlar diqqatini o‘ziga tortadi. U engil qabul qilinadigan, inson ko‘nglini xushlaydigan hayollar, go‘zal manzaralar va sarob dunyosiga olib kiradi, unga dam beradigan, unga shaxsan yo‘naltirilgan jihatlari bilan kishiga yoqadi. Boz ustiga kundalik muammolarga original va juda engil hozirjavobligi bilan hali chiniqmagan katta ko‘pchilik ongini zabt etadi. “Ommaviy madaniyat”ning “vaqtichog’lik qilish san’ati”, “charchoqqa qarshi” san’at yoki yarim madaniyat kabi nomlarni olgani ham shuning tufaylidir.

Ta’riflardan birida globallashuv Er kurrasi bo‘ylab yoyilayotgan kommunikasiya va ayirboshlash tarmoqlar orqali va ular tufayli mintaqaviy xo‘jaliklar, jamiyatlar va madaniyatlar bir biri bilan yaqinlashib, bir biriga singib ketganligini ifoda etadi, deyiladi. F.Tolipovning “global taraqqiyot deganda biz kishilar hamjamiyatlarining hayotiy faoliyati natijasida jahon miqyosida sodir bo‘layotgan va butun insoniyat taraqqiyoti uchun tizimiy ahamiyatga ega siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, psixologik o‘zgarishlar majmuini tushunamiz”[108], degan ta’rifi globallashuvning asosiy jihatlarini qamrab oladi, deb hisoblaymiz.

Globallashuv alomatlari qadim zamonlardan beri kuzatiladi. Qadimgi va o‘rta asrlar imperiyalari tarix qatlarida qolib qetgan bo‘lsa-da, o‘sha davrlardagi globallashuv

---

[107] Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-jild, – Toshkent: O’zbekiston, 2001. – B.74-75.

[108] Толипов Ф. Стратегическая роль Центральной Азии в глобализирующемся мире // Caucasus and Central Asia in the Globalization Process. International Conference/ 12-13 May, 2003, Baku. C. 169. Ravshanroq bo’lishi uchun iqtisodiy globallashuv jihatlari sifatida texnikaviy globallashuvni, ijtimoiy globallashuv doirasida huquqiy/axloqiy va diniy va mazkur barcha sohalarga taalluqli informatsion globallashuvni ko’rsatish joiz bo’lur.

tamoniga bo‘lgan siljishlar saqlanib qoldi. Bunga bir misol Ipak yo‘li bo‘lsa, boshqa misol sifatida Chingizxon imperiyasida barpo etgan pochta xizmatini ko‘rsatish mumkin. Ammo xususiy, tor ma’noda globallashuv, deb eng oxirgi davr yuritiladi.

Globalizasiya 19-asrining 60-yilaridan boshlab yonqin namoyon bo‘ldi. Boshqa fikrlarga ko‘ra globalizasiya 19-asrning oxirida boshlanib, o‘tgan asrning oxirgi choragida jadallashdi.[109] Globallashuv transmamlakat korporasiyalarining tez sur’atlar bilan kengayishi ortidan xo‘jaliklarning “o‘sish-yo-o‘lish” dinamikasini ifoda etuvchi sistemik tendensiyaning natijasidir, degan fikr bildirilgan.[110] O‘z navbatida bu tendensiya trasmamlakat korporasiyalarning jadal o‘sib borishi bilan bog’liqdir. Iqtisodiy kontekstda globallashuv tovarlar, sarmoya, xizmatlar va ishchi kuchi oqimini osonlashritish maqsadida davlatlar chegaralaridagi to‘siqlarni bartaraf qilish yoki sezilarli darajada pasaytirishni anglatadi. Tor ma’nodagi globallashuv savdo-sodiq, bevosita chet el investisiyalari, kapital oqimi, migrasiya orqali mamlakatlar xo‘jaligining bir internasional xo‘jalikka intregrallashuvni anglatadi. Keng ma’nodagi globallashuvga g’oyalar, tillar va ommabop madaniyatning mamlakatlararo almashinuvi hamroh bo‘ladi.

O‘zbekiston globallashuv jarayonidan chetda qolmadi. Ipak yo‘lining bir necha marshruti hozirgi O‘zbekiston eridan o‘tgan, Samarqand va Buxoro Ipak yo‘lidagi yirik savdo markazlari sifatida jahonga tanildi. Hozirgi O‘zbekiston eri xalqaro tijorat yo‘llarining chorrahasi sifatida o‘z ahamiyatini kech o‘rta aslargacha saqlab keldi. Ushbu globallashuv natijasi o‘laroq Markaziy Osiyo erlarida ma’naviy sohada diniy tolerantlik, ilm-fanga charqoqlik vujudga kelgan, islom diniy tafakkuri va grek falsafasi kirib kelgan bo‘lsa, xo‘jalikda ipakchilik va paxtachilik rivojlandi, muayyan mahsulot ekport qilindi. Salbiy oqibatlar ham yo‘q emas edi – “miyalar sizib ketishining” ilk ko‘rinishlari, yalpi ichki mahsulotning bir qismi markazga to‘lov sifatida olib ketilishi, masalan.

Rossiya istilosi bilan globallashuv jadallalashdi va boshqa yo‘nalish oldi. Turkiston oykumenasi deformasiyaga uchradi. Iqtisodda paxtachilik va ipakchilik ko‘lami oshgan, temir yo‘llar va shular asosida paxtaga dastlabki ishlov berish, mexanik ishlab chiqarish paydo bo‘lgan bo‘lsa, turmush tarziga evropacha unsurlar kira boshladi va ko‘payib bordi. Ma’naviy sohada ta’lim tizimini isloh qilish g’oyalari, yangi usul maktablari, dramaturgiya janri, teatr yuzaga keldi. Siyosiy sohada konstitusiyaviy monarxiya, imperiya tabaalarining millati, dinidan qat’i nazar tenghuquqligi g’oyalari muhokama qilina boshladi.[111] Mustaqillik O‘zbekiston uchun oykumenani kengaytirib xalqaro munosabatlarning to‘laqonli qatnashchisiga aylanishga imkon yaratdi, respublika BMTga, ko‘pchilik xalqaro shartnoma, konvensiya, ularga qo‘shimcha protokollar va hokazolarga a’zo bo‘ldi.

Barcha globallashuv jarayonlarida iqtisodiy globallashuv etakchi ahamiyatga ega. U ta’lim sohasidagi globallashuvni ham belgilaydi. Bir tomondan ishlab chiqarish va boshqaruv sohalarida bir xil bilim, qo‘nikma va usullar talab qilinadi. Boshqa tomondan ta’lim sohasining o‘zi ham global bozor va raqobat sharoitida faoliyat ko‘rsatishi kerak.

---

[109] Summary of the Annual Review of Developments in Globalization and Regional Integration in the Countries of the ESCWA Region by the United Nations Economic and Social Commission for Western Asia

[110] “Globalisation, the reformist Left and the Anti-Globalisation ‘Movement’”, Takis Fotopoulos, DEMOCRACY & NATURE: The International Journal of INCLUSIVE DEMOCRACY, Vol.7, No.2, (July 2001)

YUzaga kelgan muammolarga javoban masofadan ta'lim, umr davomida ta'lim va Bolonya jarayoni, deb yuritiladigan choralar vujudga keldi. Globallashgan xo'jalik va transmamlakat korporasiyalar bir mamlakatda ta'lim olib boshqa mamlakatda, undan yana uchinchisiga o'tib ishlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi. YUqoridagilarda axborot kommunikasiya texnologiyalari turli miqyosda bo'lsa-da, katta ahamiyat qasb etadi.[112]

Bolonya jarayoni bir tomondan yaqinlashuv va muvofiqlashtiruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo'lsa, boshqa tomondan Evropa madaniyati va ma'naviyatini asrab qolishga qaratilgan. Bular Bolonya bayonotining asosiy tamoyillarida aks ettirilgan: ishga joylashish imkoniyati bilan grajdanlar mobilligining asosiy yo'nalishi sifatida oliy ta'lim Evropa zonasini qo'rish; Evropaning intellektual, madaniy, ijtimoiy va ilmiy va texnikaviy salohiyatini mustahkamlash, Evropa oliy ta'limining dunyodagi obro'ini oshirish; talabalar, mablag', ta'sir borasidagi Evropa oliy o'quv yurtlarining raqobatbardoshligini ta'minlash; universitetlar Evropa ongining tashuvchilari sifatida qaraladigan Evropa madaniy qadriyatlarini rivojlantirishda universitetlarning markaziy o'rnini oshirish; oliy ta'limda Evropacha qarashlarga ko'maklashish, ta'lim va tadqiqot sohalarida hamkorlikni rag'batlantirish.[113] Bolonya tamoyillari metodologik ahamiyat kasb etadi: Mamlakatlar orasidagi tavofutlarga qaramay, Evropa tashki dunyo qarshisida yagonalikka intiladi.

Globallashuv, ta'bir joiz bo'lsa, davr talabi bilan uzluksiz ta'lim, masofadan ta'lim g'oyalari Markaziy Osiyo, xususan O'zbekistonda ham rivojlana boshladi. Davlat tomonidan AKT rivojiga e'tibor berilib huquqiy zamin yaratildi. Boshqa tomondan Evropa Ittifoqi dasturlari asosida Markaziy Osiyoda oliy ta'lim sohasida AKTni qo'llash ko'lami oshirib borildi.[114] Bunday rivojlanish natijasida, umuman olganda, O'zbekiston grajdanlari masofadan ta'lim orqali chet el universitetlarida tahsil olishlari mumkin.

Shu o'rinda muayyan masalalarni ko'rib chiqish kerak bo'lur. Birinchidan, ta'lim tili masalasi. Bolonya jarayonida til masalalari ochiq ko'rib chiqilmagan. Implisit ravishda jarayon G'arbiy Evropaning yirik millatlari tili foydasiga amal qiladi. Markaziy Osiyolik talabalar shunda asosan ingliz tili orqari ta'lim oladilar. CHet el universitetlar ta'lim mundarijasida Markaziy Osiyo xalqlari qadriyatlari aks ettirilmagan. YA'ni, milliy qadriyatlarga zarar etadi.

Taqiq yo'li bilan bu imkoniyatni bekor qilib bo'lmaydi. Ta'lim globallashuvining salbiy oqibatlariga qarish turish uchun Markaziy Osiyo "bolonya" jarayonini yo'lga qo'yish lozim, Markaziy Osiyo ongini shakllantirish va rivojlantirish kerak. Universitetlar esa bu jarayonda, Evropada mo'ljallangandek, markaziy o'rinda turishi kerak. Ta'lim sifati orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin.

---

[112] Джон Х.Найт. Мировой образовательный рынок XXI века. // Информационные технологии в высшем образовании. Международный научно-практический журнал. Том 1.- №2.- 2004.- с. 12-14.

[113] Bolonya jarayoniga tanqidiy qarashlar ham yo'q emas. Masalan ta'lim sifati pasayib borishi haqida fikrlar bor, ammo bu mavzuimizga kirmaydi.

[114]Каримходжаев А., Норбоев Т., Акрамов С., Опыт создания электронной среды обечения в НУУз. // Информационные технологии в высшем образовании. Международный научно-практический журнал. Том 3.- №1.- 2006.- с. 48-53; S.Akramov, A.Karimkhodjaev, G. van Zantvoort. E-resource management as part of E-learning environment // Improvement of the university Quality Management System through the Development of E-Resource Management Techniques. Tashkent, 2009. p.p.5-20,

Paradoksdek tuyulsa ham, yuqoridagi maqsadga erishish uchun axborot kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish va elektron o‘quv muhitini Markaziy Osiyo miqyosida rivojlantirib, ta’lim tizimlarini yaqinlashtirib borish zarur. Elektron o‘quv muhitini to‘la ko‘lamda rivojlantirish kerak. YA’ni Internetdan referatlar izlash, elektron shakldagi darsliklardan foydalanish va shu kabilardan to‘la ko‘lamli interaktiv usullar va bilimni tekshishish tizimiga o‘tish lozim.

Globallashuv atamasi o‘tgan asrning 80 yillaridan keng qo‘llanila boshlandi. Ammo, uning salohiyati, mazmuni, oqibatlari to‘g’risida xilma- xil fikrlar shunchalik ko‘pki, natijada har bir muallif o‘zining mafkuraviy qarashlariga ko‘ra va o‘z fanining predmetidan kelib chiqib, o‘z qarashini, tushunchasini ifoda qiladi. Globallashuv tushunchasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirib, muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatsak uning, qonuniy, obektiv jarayon ekanligi hozirgi davrda sifat jihatidan yangi belgilar kasb etganligi, yangi transport, kommunikasiya, axborot vositalari va texnologiyalarini qo‘llash natijasida mamlakatlarning u yoki bu faoliyatlarini, ma’lum maqsadlarini amalga oshirish uchun jug’rofiy makonning minimal darajaga qisqarganligini, ijtimoiy vaqtning kechishini esa benixoyat tezlashganligini qayd qilish zarur. Globallashuv jarayonining afzalliklari bilan bir qatorda insoniyatga tahdidlari ham mavjudligi umum e’tirof etilgan fikrdir. Bu tahdidlar iqtisodiy va siyosiy munosabatlar sohasida keskin, yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ammo iqtisodiy globallashuvning tahdidlari va uni xal qilish yo‘llari to‘g’risida o‘zaro tafovutli, hatto qarama-qarshi fikrlar talaygina.

Texnikaviy, texnologik kommunikasiya axborot va boshqa sohalardagi global jarayonlardan rivojlangan mamlakatlar asosan o‘z iqtisodiy manfaatlari yo‘lida foydalanmoqdalar. Hozirgi davrda jahon miqyosida qaror topgan iqtisodiy tartibot rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni, nomutanosiblikni kuchaytirib bormoqda. SHu munosabat bilan istiqbolda jamiyatni, sivilizasiyalarni nima kutayotganligi xaqida turli farazlar aytilmoqda. Sivilizasiyalar to‘qnashuvi, iqtisodiy, texnologik va axborot neokolonealizmi, diniy va etnik konfliktlar xaqidagi taxminlar shular jumlasidandir.

## Jinoyat va siyosiy institutlarning globallashuvi

Reja:

1. Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari.
2. Giyohvandlik moddalarni tarqatish va iste’mol qilish, qurol savdosi, nolegal migratsiya va odam savdosi – trafikaning globallashuvi.
3. Iqtisodiy, ekologik xavfsizlik masalalarini hal qilishda siyosiy qarorlarni qabul qilish global tizimi yaratilishining ahamiyati.

O‘zbekiston mustaqillikka erishib, dunyo xaritasidan o‘rin egalladi. Bu davr ichida O‘zbekistonda huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo‘lida dadil qadamlar qo‘yildi. O‘zbekistonda mustaqillikni mustahkamlash, davlat va jamiyatni demokratlashtirish hamda erkinlashtirish borasida erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarni dunyodagi eng rivojlangan davlatlar ham e’tirof etmoqda. Mustaqillik yoshlarning huquqiy savdxonligi va huquqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, ularga qonun doirasida ish tutishga o‘rgatmoqda. Respublikamiz oldida turgan g’oyat muhim vazifalardan biri jinoyatchilikka qarshi kurash olib borishdir. Bu muommani hal etish

davlat va fuqarolar tomonidan doimo kuch g'ayrat sarflashni, ijtimoiy-iqtisodiy, tarbiyaviy va huquqiy tadbirlarni og'ishmay amalga oshirishni taqozo etadi. Qaysi qilmishlar jinoyat hisoblanadi, mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslarga qanday jazo berilishi lozimligini belgilab beradigan huquqiy me'yorlar katta ahamiyatga ega. CHunki inson huquqlari va manfaatlarini kafolatlash va ta'minlash har qanday davlatning birinchi darajali vazifasidir. Respublikamiz Konstitutsiyasining 26-moddasiga ko'ra, hech kim sud hukmisiz va qonunga nomuvofiq holda jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi hamda jinoiy jazoga tortilishi mumkin emas.

Jinoyat qonunchiligining prinsiplari. *Qonuniylik prinsipi.* Sodir etilgan qilmishning jinoiyligi, jazoga sazovorligi va boshqa huquqiy oqibatlari faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi. Hech kim sudning hukmi bo'lmay turib jinoyat sodir qilishda aybli deb topilishi va qonunga xilof ravishdaa jazoga tortilishi mumkin emas. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarni bajaradi. *Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi* - jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo'lib, qonun oldida tengdirlar. *Demokratizim prinsipi.* Jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari yoki jamoalari jinoyat sodir etgan shaxslar axloqini tuzatish ishiga qonunda nazarda tutilgan hollarda jalb qilinishlari mumkin. *Insonparvarlik prinsipi.* Jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan uning axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda etarli bo'ladigan jazo tayinlashi yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishi kerak. Jazolashdan ko'zlangan maqsadga ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan engilroq choralarni qo'llash orqali erishib bo'lmaydigan taqdirdagina og'irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin. *Odillik prinsipi.* Jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, ya'ni jinoyatning og'ir-engilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy havflilik darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Hech kim aynan bitta jinoyat uchun ikki marta javobgarlikka tortilishi mumkin emas. *Ayb uchun javobgarlik prinsipi.* SHaxs qonunda belgilangan tartibda aybi isbotlangan ijtimoiy havfli qilmishlari uchungina javobgar bo'ladi. *Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi.* Qilmishda jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart.

Jinoyat – axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor bo'lgan fuqarolik jamiyatida ushbu me'yorlarga mensimasdan munosabatda bo'lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o'zgalar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan qodisa. Falsafiy kategoriya sifatida jinoyat tushunchasi kishilarning muayyan nopok maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi amaliy xatti-harakatlari majmuasini aks ettiradi. bashariyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba'zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir etilib keladi. Bu hodisalar jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmaydi, balki uni tanazzulga etaklaydi. shu bois jamiyat a'zolari hamda turli ijtimoiy tashkilotlar, sosial in-tlar tomonidan jinoyat hodisasi qoralanib keladi va unga qarshi kurash olib boriladi. Bu yo'lda dastavval jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni aniqlash muhim. Zero, har qanday jinoyat, avvalo, ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro'y bermaydi. hattoki, ba'zan

ehtiyotsizlik oqibatida tasodifan ro‘y bergan jinoyat deya talqin etiladigan hodisa ham, aslida muayyan ijtimoiy ildizlarga bog’liq bo‘ladi. SHuning uchun bu hodisaning shart-sharoitlarga bog’liq sabablarini aniqlamasdan, unga qarshi kurash ko‘zlangan samarani bermaydi. Faqat shundan so‘nggina turli usul va vositalar yordamida unga qarshi kurashish lozim bo‘ladi. agar jinoyatga qarshi kurash olib borilmasa, bir jinoyatning ikkinchi jinoyat ni keltirib chiqarishi xavfi ortib boradi. bu esa, jamiyat hayotida jinoyatchilik deb atalmish hodisaning ildiz otishiga olib keladi. Bu holda jamiyatning ma’naviy hayotiga katta putur etadi. jinoyatchilik tufayli davlat va jamiyatga katta moddiy va ma’naviy zarar etishi, kishilarning tinch-osoyishta turmushi izdan chiqishi, davlat boshqaruvidagi barqarorlik o‘rniga beqaror tartibsizliklar ro‘y berishi mumkin. binobarin, jinoyat amaldagi axloqiy, ma’naviy, huquqiy tamoyillar hukmron bo‘lgan jamiyat hayotiga yot hodisadir.

Kompyuter jinoyatchiligi – axborot-telekommunikasiyasi tarmoqlari orqali axborotdan foydalanishning yangi imkoniyat-larini ishlatish, hamda kompyuter tizimlari faoliyatini buzish b-n bog’liq huquqbuzarlik harakatlari. Kompyuter tobora rivojlanib borishi b-n, u b-n bog’liq jinoyatlarning turlari ham ko‘payib bormoqda. Ularga ma’lumotlarga bevosita ishlov berish tizimi yoki kompyuter tarmog’i yordamida qilingan jinoyatlar; apparat, dasturiy vositalarni va ma’lumotlarni ishlatish, turlash yoki qo‘porish yo‘li b-n sodir etiladigan jinoyatlar; axborot-telekom-munikasiya tarmoqlari orqali axborotdan erkin foydalanishning yangi imkoniyatlarini ishlatish, hamda kompyuter tizimlarini buzish b-n bog’liq huquqbuzarlik harakatlari va boshq.alar kiradi.

Interpol tashkiloti Bosh kotibiyatining ishchi guruhi tomonidan 1991 yilda ishlab chiqilgan kompyuter jinoyatchilari tasniflagichi kompyuter jinoyatlarini asosiy oltita turga bo‘lib chiqqan:

- ruhsat etilmagan erkin foydalanish yoki tutib olish (QA guruhi);
- kompyuter ma’lumotlarini o‘g’irlash (QD guruhi);
- kompyuter qallobligi (QF guruhi);
- noqonuniy nus’ha olish (QR guruhi);
- kompyuter ish tashlashi (QS guruhi);
- boshqa kompyuter jinoyatlari (QZ guruhi).

Kiberterrorizm – kompyuter sistemasiga hujum. Kiberterrorizmning maqsadi kompyuterdan foydalanuvchilarni faoliyatida uzilishni keltirib chiqarish, kompyuter sistemasidagi davturlarni izdan chiqaradigan “virus”larni tarqatish, muhim, zaruriy axborotlarni yo‘qotish, insoniyatning intellektual salohiyatini o‘zlarining ideologik qobiliyatlariga olish va uni nazorat qilish.

Terrorizm va uning turli shakllari masshtablari jihatidan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy muammolar oqimini yuzaga keltirdi. Terrorizm va ekstremizm oqimlarining turli ko‘rinishlari kundan-kun mamlakatlar va ularning fuqarolarini xavfsizligiga tobora tahdid solib bormoqda. Terror natijasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy bosim yuzaga keltirilmoqda. Va shuningdek, insonlarning ruxiyatida kurkuvni shakllantirishi natijasida, psixologik xavfsizlikka ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Zamonvaiy terrorizmning mojoroli manbai XX asrning 60-yillaridan boshlab o‘sib kelmoqda. O‘sha vaqtdagi butun mamlakat hududlarida terrorizmning dunyo miqyosida tarqalishiga faol maydon va o‘choqlari paydo bo‘lishi sabab bo‘lgan edi. Hozirda 500 ga yaqin noqonuniy terroristik tashkilotlar maxsus organlar tomonidan qayd etilgan. Birgina 1968-1980 yillar oralig’ida 60 ta terroristik akt sodir etilgan bo‘lib, uning natijasida 3368 kishi halok bo‘lgan bo‘lsa,

7474 kishi jarhatlangan.1980-85 yillar oraligida 500-800tagacha 1990-yil arafasida esa 900 va undan oshikrok terroristik xuruj sodir etilgan. Hozirda terroristik faoliyatning avj olayotganligi jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, maxsus tayyorlangan shaxs guruh va tashkilotlar faoliyatida terror xarakterining murakkablashib, vaxshiylik asosida va insoniylikdan tashqari bo'lgan me'yorlar orqali o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Bir qator Rossiya olimlari va xorij tadqiqot markazlari ma'lumotlariga qaraganda umuman terror sohasi bo'yicha tashkil etgan byudjet 5-20 milliard dollargacha etgan.

Terrorizm xalqaro va global muammo darajasiga chiqqanligini uni bartaraf etish borasida jahon hamjamiyatini hamkorlikka intilayotganligi bilan belgilash mumkin. Bizga ma'lumki, yaqindagina terrorizm haqida gap borganda uni lokal hodisa sifatida qayd etish ustuvor ahamiyat kasb etgan edi. Lekin u XX asrning 80-90 yillaridan boshlab u universal fenomenga aylandi. Terrorizmning globallashuvi va keng miqyosda integrallashuvi buning yorqin dalilidir. Bu fenomen turli sohalarda xalqaro aloqalar va hamkorlikni kengayishi hamda globallashuvini o'sib borishi bilan ham belgilanadi. Zamonaviy terrorizmni kuchayib borishi ko'p sonli terror tashkilotlar guruhlar bilan bir qatorda ularni qo'llab quvvatlovchi turli strukturalardan tortib butun boshli homiy mamlakatlarning faoliyati bilan ham bog'liq. Bugun terroristik tashkilotlarni moddiy tarafdan ko'llab quvvatlash asosida arab neft ishlab chiqarish soxasidagi daromadni nojoiz ishlatish xolatlarini kuzatilayotganligi va rivojlangan G'arb davlatlari tomonidan amalga oshirilayotgan strategik maqsad va vazifalarni amalga oshirishning hosilasidir degan yondoshuvlar ham mavjud.

Ularning birinchilarida ortiqcha pul bor. SHuning uchun o'zining moliyaviy zahirasini Rassiya, Afg'oniston yoki Kosova va boshqa shu kabi bir qator mamlakatlarda nizolarni keltirib chiqarish va ularni fukorolarini xavfsizligiga putur etkazish asosiy maqsad qilib olingan. Rivojlangan mamlakatlar xududida turli diniy va etnik oqim hamda diasporalar mavjudki ular o'zga ijtimoiy-madaniy muhitdan qoniqmayotganliklari oqibatida boshqa mamlakatlardagi "akalari" ularni qo'llab quvvatlashiga olib kelmoqda. Umuman olganda zamonaviy terrorizmning ijtimoiy-iqtisodiy va moliyaviy manbai shunday omillar bilan belgilanadi.

Dunyodagi odamlarni terroristik hurujni avj olishdan xavfsirashi uning qurbonlari soni ko'pligi va yangi texnologiyalar orqali etkazilayotgan zararlarni ko'rinayotganligi va binolarni vayronalarga aylanayotgani bilan ham asoslash mumkin. Terror davlatning siyosiy tartiboti bilan bir qatorda davlat qurilishining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot strategiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishini har bir ongli odam esdan chiqarmasligi kerak. Bu yaqin vaqt oralig'ida terroristik hurujlar asosida SHimoliy Irlandiya, AQSH, Rossiya, Keniya, Tanzaniya, YAponiya, Argentina, Hindiston, pokiston, Jazoir, Isroil, Misr, Turkiya, Albaniya, YUgaslaviya, Kolumbiya, Eron, Tojikiston va O'zbekistonimizda ham bir qancha insonlarni qurbon berilishi va moddiy zararlarni qayd etilishini ko'rishimiz mumkin.

Zamonaviy terrorizmning asosiy xarakterli jihati shundan iboratki, unda ma'lum bir xududda paydo bo'lgan yovuz g'oya yoki harakat zamonaviy texnika, texnologiya va axborotlar oqimi orqali dunyo miqyosida keng tarqalmoqda. Zamonaviy terrorizmni yana milliy, diniy, etnik nizolar, separatistik harakatlar bilan ham izohlash mumkin.

Zamonaviy terrorizmni qo‘llb quvvatlayotgan tashkilotlarning maqsadli faoliyati asosida mafkuraviy, harbiy, tijoriy va siyosiy masalalar yotganligini ko‘rish qiyin emas albatta.

Zamonaviy terrorizm faqatgina dunyo aholisi ruhiyatiga qo‘rquv solib qo‘ymasdan balki inson hayotini barbod qiluvchi narkotik va harbiy qurol-yaroq savdosini turli yo‘nalishlarda tarqatayotganligi bilan ajralib turadi. SHuningdek zamonviy terrorizm informasion jamiyatda axborotlar sohasida ham hukmronlikka erishishga harakat qilmoqda. SHuning uchun ham hozirda kiberterrorizm tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomalada keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy terrorizmning bu shakli davlatlar va uning fuqarolariga o‘zining tez tarqalishi va ta’sir doirasi bilan juda katta miqdorda moddiy va ma’naviy zarar etkazayotganini ko‘rish qiyin emas albatta. Masalan, 1996 yil AQSH universitetining matematika bo‘yicha professori qo‘lga olindi. U T.Kazinskiy bo‘lib 18 yil mobaynida butun amerika aholisini qo‘rquvda yashashga majbur qilgan. Uning yovuz maqsadini amalga oshiruvchi obyekti va diqqat e’tibori universitetlar, aviakompaniyalar, kompyuter bo‘yicha malakali mutaxassislar hamda shu kompyuter sohasida oldi-sotdi tijoratchilar bo‘lgan. Bu terrorchining maqsadi ilmiy-texnika taraqqiyotini falokatga olib borishi va urbanizasiyani insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini isbotlashdan iborat bo‘lgan. Buning uchun u eng avvalo o‘zining terroristik hurujini amalga oshirish maqsadida amerikaning mashhur gazetalarida o‘zining qarashlari ifodalangan manfestini targ’ib qilishga harakat qilib bunday yondoshuvni qo‘llab quvvatlashga ularni majbur qilgan.

Zamonaviy terrorizm o‘zining murakkat ta’sir ko‘rsatish usullari, vositalari va texnologiyalariga ega. SHuning uchun ham unga qarshi kurashda zamonaviy fan va texnika hamda ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlardan foydalanish nafaqat jahon afkor ommasi uchun balki, mustaqil O‘zbekistonimiz uchun ham strategik ahamiyatga ega bo‘lgan maqsad va vazifalardan hisoblanadi. Bugun dunyoning barcha mamlakatlari ijtimoiy, siyosiy hayotida xilma-xil ommaviy axborot vositalarida eng katta tashvish bilan o‘z ifodasini topayotgan muammo-xalqaro terrorizm va ekstremizm ekanligiga hech qanday shubha yo‘q.

Bugun insoniyat yangi ming yillikka qadam qo‘ygan, o‘z taraqqiyotining misli ko‘rilmagan cho‘qqilariga ko‘tarilgan bir davrga kelib shunday muammoga ro‘baro‘ bo‘ldiki, uning halokatli nafasini butun dunyo yaqindan sezmoqda. Hozirgi vaqtda terrorizmning tajovuzidan o‘zini xoli his qiladigan birorta qit’a yoki davlatning o‘zi yo‘q. Xuddi vabo kabi er yuzining ko‘plab mamlakatlariga yoyilib borayotgan bu balo-qazo ertaga kimni nishonga olishini ham oldindan aytish qiyin.

Terrorizmning ko‘lami kengayib, barcha qit’alar va mamlakatlarni qamrab olayotganligi uchun XX asr 2-yarmidan «Xalqaro terrorizm» deb atala boshlandi.

Terrorizm o‘tmishda bir yoki bir necha shaxsning g’arazli manfaati yo‘lida xizmat qilgan bo‘lsa, XIX asr oxirida va XX asr boshlaridan boshlab, xalqaro miqyosda ish boshlab butun er yuzida qotil, aqidaparast, johil guruh oqimlarini hukmronlik qilishi uchun vosita sifatida foydalanildi. Bunga bolshevizm, fashizm, diniy ekstremizm misol bo‘la oladi.

Bugun biz terrorchilik misolida xalqaro miqyosda uyushgan, bir necha qudratli markazlar tomonidan siyosiylashgan xalqaro jinoiy guruhlarni ko‘ramiz. Eng dahshatlisi, terrorizmni qo‘llab-quvvatlovchi, uni moliyaviy ta’minlovchi g’oyaviy rahnamolik ma’suliyatini o‘z zimmasiga oluvchi guruhlar, markazlar, hatto davlatlar paydo bo‘ldi.

Xalqaro terrorizmning iqtisodiy bazasini – noqonuniy ravishda amalga oshirilayotgan narkotik moddalar savdosi, qurol-yarog’ savdosi, qimmatbaho metallar savdosi, neft savdosidan tushadigan mablag’lar tashkil etadi. Masalan: BMT ning ma’lumotlariga ko‘ra, jahondagi giyohvand moddalarning 75 % birgina Afg’onistonda etishtirilmoqda. Undan ishlab chiqarilayotgan narkotik moddalar savdosidan tushgan sarmoya milliardlab AQSH dollarini tashkil (etadi) etishi hech kimga sir emas. Ma’lumotlarga qaraganda undan tushgan foydaning ko‘p qismi qurol-yarog’ sotib olish va terrorchilik maqsadlari uchun qilinayapti. Demak, dunyoning tinchliksevar davlatlari ana shu moliyaviy kanallarni qonuniy ta’qiqlash haqida bosh qotirishlari kerak.

Zamonaviy xalqaro terrorizmning eng xatarli xususiyatlaridan biri uning takomillashgan qurol-aslaha va harbiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati va ko‘lamining oshib borayotganidir. Dunyo hamjamiyati terrorist-larning an’anaviy qurollar bilan birgalikda, biologik va kimyoviy moddalardan ham foydalanishga urinishlarining guvohi bo‘lib turibdi. Bunga misol hozirda AQSH va boshqa mamlakatlarga qarshi biologik hujum uyushtirish bilan bog’liq do‘q-po‘pisalarning kuchayib borayotganidir.

Bundan tashqari, terrorchilar yadroviy xatarning tarqatuvchilari qatoriga kirishlarini ham esdan chiqarmaslik kerak. SHu bilan birga, terrorchilar AQSH shaharlarida va Evropaning ko‘pchilik davlatlarida sodir etilgan mudhish jinoyatlaridan o‘zlarining boshqa qora maqsadlari yo‘lida ham foydalanishga intilmoqdalar. Masalan: ulardan go‘yoki rivojlanayotgan mamlakatlar xalqlarining qashshoqligi sababi bo‘lmish G’arbdan qasos olish, unga qarshi diniy ekstremistik tuyg’ularini avj oldirish. G’arbona qadriyatlarga nisbatan omma nafratini kuchaytirish yo‘lida foydalanilmoq-daki, bu G’arb dunyosi hayotida izsiz qolmayotir. Terrorchilik harakatlari oqibatida aynan olingan u yoki bu davlatga etkazilgan ma’naviy va moddiy talofatlar salmog’ining adog’iga etib bo‘lmaydi. Terrorchilik degan illat tag-tomiri bilan sug’urib tashlanmas ekan, bu achchiq qismat har bir davlat, xalq, millatning boshiga tushishi mumkin. Bu haqiqatni hozirgi kunda butun jahon ahli teran anglamoqda.

Umuman – terrorizm bir guruhning hokimiyatni qo‘lga kiritish maqsadida qurol ishlatib qo‘rqitish yo‘li bilan olib boradigan siyosatidir

Keyingi yillarda jahonning qator mamlakatlarida AQSHda, Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Rossiya, Kavkaz orti mamlakatlarida va boshqa mamlakatlarda sodir etilgan terrorchilik xurujlari terrorizmni qachonlardir bir mamlakat doirasidan chiqib xalqaro terrorizmga aylanganini tasdiqlaydi.

Keyingi yillarda bizning yurtimizda ro‘y bergan 1999 yil fevral voqealari, 2004 yil 29-30 aprel va 1 aprel kunlari Toshkent viloyatidagi, Buxoroning Romitan tumanidagi, o‘tgan yili may oyida Andijon shahrida sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlari[115] va qo‘poruvchilik holatlari ham ana shu xalqaro terrorchilik harakatlari bilan bevosita bog’liq deb aytishga barcha asoslar bor.

Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib bosh ko‘tarayotgan, o‘ta makkor va yovuz uslublarni qo‘llayotgan bugungi murakkab vaziyatda hayotning o‘zi xalqaro hamjamiyat, jumladan, mintaqamizda joylashgan barcha davlatlardan bu baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirishni, bir yoqadan bosh chiqarib, bunday urunishlarga

[115] I.Karimov. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o’z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog’liq. T., «O’zbekiston» - 2004. b. 67.

keskin zarba berishni, harqanday tajovuz va terrorchilik xurujlarini oldini olish ularning mafkuraviy zaminini yo‘qotish va avvalo yoshlarimizning qalbi va ongi, sog’lom tafakkuri uchun kurashni taqazo etmoqda.

Xalqaro terrorizm biz uchun yangilik ham, ayni paytda tasodifiy ham emas. Biroq, kamdan-kam kishilargina yovuzlikni tug’ilgan zahotiyoq anglaydi, tushunadi, o‘z vaqtida baho beradi va unga o‘z munosabatini bildiradi. Dunyodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini oldindan anglash, payqash, oldindan bera olish qudrati O‘zbekistonga, uning rahbariga nasib etgan.

Prezident I.Karimov jahon siyosatdonlari orasida birinchi bo‘lib jahon ahli e’tiborini diniy ekstrimizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro, siyosiy, huquqiy asoslarini yaratishga qaratdi.

O‘zbekiston rahbari 1995 yilning 24 oktyabrida BMT ning 50-yilligi munosabati bilan Bosh Assambleyaning maxsus tantanali yig’ilishida, 1999 yilning 18 noyabrida Evropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT) ning Istanbul Sammitida so‘zlagan nutqlarida, 2000 yilning 8 sentyabrida BMT Bosh Assambleyasining «Mingyillik sammiti»da so‘zlagan nutqlarida diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi birgalikda kurashishga da’vat etdi va qator prinsipial chora va tadbirlarni taklif qildi.

Jumladan: «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo‘yish maqsadga muvofiq deb hisobladi. Mazkur markazning vazifasi – faqat terrorizmning o‘zi bilan emas, balki uni qo‘llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog’ va mablag’ bilan ta’minlayotgan, joylarga jo‘natayotgan markazlarga qarshi kurashni muvofiqlashtirishdan iborat bo‘lishi darkor»,- deya uqtirdi O‘zbekiston rahbari.[116]

Dunyo davlatlari o‘rtasidagi madaniy, ma’naviy, iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kuchaytirish o‘rniga insoniyat zotiga qiron keltiradigan giyohvand moddalarning umumjahon bozorining noyob moliga aylantirish va shu yo‘l bilan jahon xalqlarini tanazzulga keltirishdan dahshatliroq narsa yo‘q.

Terrorizm, jumladan, xalqaro terrorizm 5-10 yillik emas, dunyo siyosatdonlarining aytishicha butun XXI asr mobaynida davom etishi mumkin ekan. Bas, shunday ekan unga qarshi chora-tadbirlarni ham birgalikda ishlab chiqish kerak.

Barchamiz bir jon bo‘lib terrorizm va ekstremizm havfiga qarshi kurash olib borishimiz, «O‘z uyingni o‘zing asra» degan shiorning ma’nosini keng va chuqur anglab Vatanimizning tinchligini, xalqimiz osoyishtaligini ko‘z qorachig’idek saqlashimiz zarur.

Bugun dunyo turli qarashlar, g’oyalar, nuqtai-nazarlarning tamomila yangicha rivojlanish pallasiga kirib, bu unda yashovchi xalqlarning turmush tarzi, g’oya va mafkuralariga ham birdek katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Aslida, turli jamiyat a’zolari munosabatlarining o‘zaro integrasiyasi sifatida tanilgan globallashuv jarayoni vaqt o‘tishi bilan, uning faoliyat yo‘nalishi “traektoriya” si ham o‘zgarib bormoqda. Atoqli siyosatchi Karl Yaspersning “har bir davr o‘zicha bir tahdiddir” degan so‘zlari bugun yana bir bor isbotini topayotgandek go‘yo. Inson oliy mavjudot ammo bu-uni xatolardan holi ekanligini bildirmaydi. Jamiyatda insonlarning hatti- harakatlari va xulq-atvorlarini tartibga solish, ularning o‘zaro aloqalarga asoslangan munosabatlarini shakllantirish- insonlarning o‘zlari tomonidan turli institutlar, ya’ni, tom ma’nodagi “tartibga solish qurilmalari” tashkil etilgan.

[116] I.Karimov. Tinchlik uchun kurashmoq kerak. T., O’zbekiston - 2001.

Jamiyatda siyosiy institutlarining globallashuvning aynan “xavfi” sharoitida qanday muhim ahamiyat kasb etadi?

Globallashuv jarayonining XX asrning oxiri ayniqsa, XXI boshlaridagi umumiy manzarasi-“asr vabosi” sifatida baholanayotgan terrorizm, narkobiznes va giyohvandlik, shuningdek, zamonaviy “manqurtlar”ni tarbiyalash va shu yordamida davlatlar siyosiy tuzumini ag’darish kabi maqsadlar sari yo‘g’rilgan latent, ya’ni, yashirin yohud bunyodkor shiorlar ostidagi g’oyalar va mafkuralar xilma-xilligi asosida kechmoqda.

Globallashuvning yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan “ko‘rinishlari” turli davlatlarga turlicha ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Ammo, an’anaviy mamlakatlarning zamonaviylashtirish qonuniyatlari bilan moslasha olmasligi, yoinki umuman qabul qilmasligi globallashuvning “salbiy” xususiyatlari uchun ayni muddaolik kasb etmoqda. Ma’lumki, har bir jamiyat xoh u totalitar, xoh u demokratik yoki monarxiya boshqaruvi bo‘lsin, shu siyosiy tuzumning manfaatlarini ifoda etishga xizmat qiluvchi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy institutlariga ega bo‘ladi. Bu institutlar jamiyatning ma’lum qatlamlarini o‘zida birlashtirgan holda, shu jamiyat taraqqiyoti va albatta xavfsizligi uchun xizmat qiladi.

Odatda, siyosiy institutlar deyilganda, insonlarning siyosat doirasida manfaatlarini ifoda etuvchi institutlar yoki davlatni o‘zini tushuniladi xolos. Ammo siyosiy institutlar bugun hayotning turli jabhalarini tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi, xavfsizligi uchun ham javobgarlik ma’suliyatini ham o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, XVII asrning eng qudratli Usmonlilar sulolasining birdaniga tanazzuli sabablarini Turkiyada birinchi matbuot asoschisi, Ibrohim Mutafarrika o‘zining “Ummatlarni boshqarishda aql-zakovat bilan ish yuritish” asarida institutlarni, xususan siyosiy va harbiy institutlarni eskirib qolganligi, shuningdek, har qanday yangiliklarga qarshilik harakatlari bilan ifodalangan institutlarining jamiyat butun taraqqiyotiga g’ov ekanligini ko‘rsatib bergan edi[117]. Globallashuv aslida salbiy tushuncha emas. Balki, bu jarayon ishtirokchilari va uni amalga oshirish g’oyalarining umuminsoniy tamoyillardan ortga chekinishi va “yakka” ya’ni, ma’lum bir guruh maqsadlariga tayanishi oqibatida salbiy xususiyatlar kasb etadi xolos.

Siyosiy institutlarning asosiy vazifasi sifatida individlarni siyosiy jarayonlarda manfaatlarini ifoda etish, siyosiy tuzumning barqarorlligini ta’minlash bilan bir qatorda, o‘ziga xos ravishda yangi elitalarni, xususan, yosh avlod tarbiyasida etakchi mazmun kasb etadi. Bugun “tamaddunlar to‘qnashuvi” (S.Xantington) muqarrar ko‘zga tashlanayotgan bir davrda, globallashuvning salbiy sahna ko‘rinishining asosiy “aktyorlari” sifatida yoshlarni tanlab olinayotganligida ham o‘ziga xos maqsadlar yotadi. Birinchidan, keksa aholi passiv va introspeksiya- ya’ni o‘z-o‘zini kuzatishga, o‘zi haqida qayg’urishga, yoshlar esa serg’ayrat va milliy-siyosiy qat’iyatlilikni qo‘llab-quvvatlashga moyil bo‘lishadi. Bu esa o‘z navbatida, ijobiy maqsadlar bilan bir qatorda, buzg’unchi, yot g’oyalar “natijaviyligi” uchun katta kuchni taqdim etadi. Masalan, Gitler siyosiy tuzumining 12 yil davomidagi (1933-1945) nufuzi “Gitleryugend” yoshlar tashkilotining, YAponiyada zamonaviy “manqurtlar” tayyorlash markazi “Aum Senrikyo” yoki Xitoydagi “Stalini” Mao Szedun tuzumi “himoyachilari” sifatida tuzilgan “Xunveybinlar” harakati a’zolari ham aynan yoshlar ekanligi fikrimizning yaqqol

[117] Timoti J. Uinter. XXI asrda islom. Postmodern dunyoda qiblani topish. - T., 2005. B.10.

isbotidir.Jamiyatdagi siyosiy institutlarning taraqqiyoti avvalo, jalb etish g'oyasi va mafkurasi bilan bevosita bog'liqdir va mafkuraning kuchliligi, ma'lum manfaatlarga ifodalanishi, a'zolarni ortishiga ham olib keladi. Siyosiy institutlarning davlat, parlament, partiya, konservatizm, neokonservatizm, lobbizm va hatto ommaviy axborot vositalari kabi ko'rinishlari aholi turli qatlamlarini o'zida mujassamlashtirgan holda, katta siyosiy boshqaruv mexanizmlari sifatida namoyon bo'lmoqda.Globallashuv jarayoni o'z navbatida salbiy ahamiyat kasb etishi va buni tamaddunlar taraqqiyotiga ta'sirini hisobga olib, bu jarayonda siyosiy institutlarning faoliyati darajasi bizning fikrimizcha, quyidagi asosiy omillar asosida isloh qilinishi maqsadga muvofiq:

- Siyosiy institutlarning eng asosiysi sifatida davlat namoyon bo'lar ekan, avvalo, u rahnomoligida aholi turli qatlamlari va guruhlarining jamoviy va shaxsiy manfaatlarini aniqlash, hisobga olish-davlatning barqarorligini asosiy shartidir. Zero, yagona maqsad asosida birlashgan guruh bilan turli mazmundagi xavf-xatarlarni oldini olish oson kechadi.
- Ikkinchidan, siyosiy institutlarning sosiolizasiya, ya'ni, ijtimoiylashtirish, ishontirish tamoyillari asosida aholi turli qatlamlari siyosiy ongi va madaniyatini oshirishi-har qanday ko'rinishdagi g'oyalarga qarshi kuchli bunyodkor g'oya asosida javob qaytarish xususiyatini shaklantirib berishi ularning o'ziga xos va asosiy belgisi hisoblanadi.
- Uchinchidan, siyosiy institutlar jamiyatning asosiy barqarorligi sharti ham hisoblanib, bugungi kunda davlat siyosiy tuzumining asosiy "saqlovchisi" vazifasini bajarishi, o'z navbatida turli ijodkor, g'ayratli, shijoatkor qatlami, ya'ni, yoshlarni o'zida birlashtirishi yuqoridagi omillarni amaliyligi va albatta davomiyligini ta'minlab beradi. Zero, yosh avlod, keyingi avlodga etkazib berish kuchlari hamdir.
- Siyosiy institutlarning globallashuv jarayonidagi eng muhim ahamiyatga ega tomoni ham mavjud bo'lib, aynan u yoki bu turdagi siyosiy institut o'z g'oyasi orqali ma'lum bir aholi qatlamini o'zida birlashtirar ekan, globallashuv "soyasi" da kirib kelayotgan turli yot g'oyalarga qarshi kurashish kuchiga ega ekanligini alohida eslatib o'tish lozim.
- Siyosiy institutlar har qanday jamiyat modernizasiyalashuv jarayoni uchun asosiy tayanch sifatida namoyon bo'lishi va bu omilni mustahkamlashda aholi siyosiy madaniyati va ongini oshirish jarayoni bilan chambarchas bog'lashda asosiy nuqtadir.Taniqli siyosatshunos S.Xantington "tartibotsiz (bu erda siyosiy tuzum nazarda tutilmoqda) ozodlik bo'lishi mumkin, ammo ozodlik tartibotsiz bo'lishi mumkin emas"[118]. Bu erda ko'rinib turganidek, siyosiy institutlar avvalo ichki munosabatlarni tartibga solish, aholi siyosiy ongi va madaniyatini oshirish yo'li bilan shu davlatga xavfi mavjud bo'lgan turli jarayonlarga fikrlarni shakllantirish vazifasini ham bajarib berar ekan. Fikrlar xilma–xilligi, mafkuralar, g'oyalar turli-tumanligi muhiti aslida jamiyatlar va davlatlar manfaati uchun o'ta zararli emas. Ammo shu g'oyalar va mafkuralardan "niqob" sifatida foydalanayotgan ayrim kuchlar "demokratiya posponlari" yohud "demokratiya fabrikalari" vakillari sifatida aholi kayfiyatini manipulasiya qilishda va shu orqali davlatlar siyosiy boshqaruviga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar va hatto bu

[118] Хантингтон С. Политический порядок в меняющихся обществах.-М.:Прогресс-Традиция, 2004.С.11

kuchlar turli “ranglar inqiloblari” (Ukraina, Qirg’iziston va Gruziya)ni ham yasashga erishdilar.

Jamiyat ijtimoiy institutlari ichida eng muhim ahamiyatga ega boʻlgani bu aynan siyosiy institutlar ekani, bugun jamiyatda taraqqiyotga ega mamlakatlar misolida koʻrishimiz mumkin. Siyosiy institutlar faqatgina siyosiy manfaatlar va kuchlarni birlashtirib qolmasdan, avvalo, oʻz a’zolarini boshqarish va shuningdek, oʻz obekti boʻlgan davlatning yagona birligi, xavfsizligiga doir barcha masalalarda ma’sul, etakchi boshqaruv tizimlari birligi sifatida namoyon boʻladi. Jamiyat davlat munosabatlari integrasiyasi mavjud ekan, demak, globallashuv ham toʻxtovsiz jarayon. Bu munosabatlarning davriy holati esa u yoki bu davlat aholisi manfaatlari asosi, ya’ni, etakchi siyosiy institutlari belgilab beradi. B.Juvenel “Jamiyatning ichida oʻzaro ishonch munosabatlarini shakllantirilganligi davlat, jamiyat olg’a intilishi uchun mezon va bu siyosiy institutlar tomonidan shakllantiriladi”[119] degan edi.

Siyosiy fandagi modernizasiya, vesternizasiya, universalizasiya kabi globalizasiya ham universal definisiyaga ega emas. Bu fenomen olimlar va fan arboblari tomonidan turlicha talqin etiladi. SHunga qaramasdan ular mohiyatan yagona mazmunni anglatadi, ya’ni globallashuv fransuzcha «umumiy» degan ma’noni anglatib, butun insoniyat hamjamiyatining oʻzaro iqtisodiy, siyosiy, ijtimoy va madaniy aloqalarini qamrovchi jarayon sifatida talqin etiladi.

Ilmiy adabiyotda globalizasiya jarayoni haqida dastlab amerikalik olimlar fikr yuritishgan deb qabul qilingan. «Globalizasiya» terminini birinchi boʻlib T.Livettu oʻzining 1983 yilda nashr etilgan «Garvard biznes revyu» maqolasida qoʻllagan boʻlib, unda globallashuv yirik transmilliy korporasiyalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qoʻshilish fenomeni sifatida qaralgan.

Garvard biznes maktabi maslahatchisi yapon Kenichi Omae oʻzining 1990 yilda nashr etilgan «CHegarasiz dunyo» asarida ushbu terminga kengroq ta’rif beradi. Uning fikricha, kishilar, firmalar va bozorlarning ahamiyati tobora oshib, davlatning nufuzi qisqarib boradi. Globallashuv erasida barcha xalqlar va jarayonlar global bozorning ta’siriga tushadi, an’anaviy davlat esa oʻzining tabiiyligini yoʻqotib biznesdagi hamkor sifatida yaroqsiz boʻlib qoladi. Xalqaro iqtisodiy sahnada asosiy harakatlanuvchi subyektlar sifatida global firmalar qoladi.

M.YU.CHernavskiyning fikricha, ushbu fenomen uch xil ma’noda tushunilishi mumkin. Birinchidan, kishilar, davlatlar va madaniyatlar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalar hududining kengayib borishi sifatidagi tarixiy jarayon sifatida. Ikkinchidan, dunyoning siyosiy-iqtisodiy va madaniy bir xillikka tomon harakati sifatidagi umumiylik va gomogenizasiya jarayonlarining kuchayishi natijasida roʻy beradigan dunyoning universallashuvi sifatida. Uchinchidan, oʻzaro iqtisodiy munosabatlar sohasida milliy chegaralarning shaffoflashib borishi sifatida.[120]

SHuningdek, M.YU.CHernavskiy globalizasiya hodisasini modernizasiya mahsuli sifatida qaraydi. Uning fikricha, Sovet Ittifoqining «amerikanizasiya» loyihasiga qarshi qoʻllagan modernizasiya loyihasi keyinchalik globalizasiya nomini oldi.

[119] Jouvenel deBertrand. Sovereignty. Chicago, Univercity of Press, 1963.p.123.

[120] Чернавский М.Ю. кандидат философских наук, доцент кафедры философии Российского заочного института текстильной и легкой промышленности. Модернизация и глобализация.

Boshqacha aytganda, globalizasiya sosialistik modernizasiya loyihasi inqirozining qonuniy oqibatidir.

YAna bir rus olimi Rossiya strategik tadqiqotlar markazi rahbari oʻrinbosari, tarix fanlari doktori Mixail Muntyanning fikricha, globalizasiya hodisasiga ilmiy jihatdan aniq va mazmunli qarash asosan globallashuv jarayonini fan texnika inqilobining informasion bosqichi va uning dunyo iqtisodiy, moliyaviy, telekommunikasion, transport tizimlari rivojiga real ta'siri bilan bog'lovchi olimlarning ishlarida uchraydi.

Ular globallashuv tushunchasini jamiyatning informasion bosqichdagi xalqaro rivojlanishning asosiy yoʻnalishi sifatida taqdim etadilar. Ularning fikricha, Internet va butun dunyoni qamrab olgan turli xil transmilliy tashkilotlar, korporasiyalar va harakatlar globallashuv jarayonining ramziy timsollari hisoblanadi.

Yana bir oʻrinda globallashuvning quyidagi ta'rifi keltiriladi: «Globallashuv-mavjud global jarayonlarni boshqarish maqsadida davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning keng qamrovli aloqalari va hamkorliklari tizimidir».

SHu oʻrinda ta'kidlash lozimki, globallashuv va global rivojlanish tushunchalari bir-biridan farq qiladi, zero global rivojlanish butun dunyo miqyosida sodir boʻlayotgan, inson faoliyati natijasida roʻy berayotgan va insoniyat taraqqiyoti uchun tizimli ahamiyatga ega boʻlgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik, informasion, psixologik oʻzgarishlar majmuasidir.

Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki, globallashuv jarayoni koʻp qirrali va xilma-xil ta'rifli hodisadir.

Bizga ma'lumki, XX asr oxiri va XXI asr boshida dunyo bir-biriga bog'liq elementlardan iborat boʻlgan yaxlit tizimga aylanib bordi. Bu esa globallashuv jarayonini jahon siyosati va xalqaro munosabatlarda asosiy omilga aylantirdi hamda ushbu fenomen jahon siyosati fanida bosh paradigma sifatida qabul qilindi. Demak, yuqorida qayd etilgan davrlarda globallashuv har qanday rivojlanishning asosiy omili va tendensiyasiga aylandi. Sababi har bir davrning rivojlanish qonuniyatlari va asosiy tendensiyalari boʻlgani singari biz yashayotgan informasion jamiyatning ham rivojlanish qonuniyati globallashuv hodisasidir.

Buning mohiyati shundaki, bugungi kunda hech bir davlat biqiq holatda avtarkiya sharoitida tashqi dunyodan uzilgan holatda yashay olmaydi, ya'ni bunday davlat progressga erishishi mumkin emas. SHuningdek ayrim dolzarb muammolar borki, ularni bir yoki ikkta davlat miqyosida hal etib boʻlmaydi. U jahon hamjamiyati e'tiboriga muhtoj. Bu esa davlatlarning tabiiy ravishda globallashuv jarayoniga tortilishiga olib keladi. Koʻrinib turibdiki qonuniyatni oʻzgartirish mumkin emas.

Globallashuv erkin xalqaro savdo gimnining «muallifi» hisoblanadi. Globallashgan iqtisod butun dunyoda farovonlik darajasini oshirish, shuningdek, ijtimoiy sohadagi muammolarni likvidasiya etishda eng samaralidir. Xattoki, atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham erkin savdo tufayli ijobiy natijalarga erishish mumkin, chunki kuchli raqobat bosimi resurslarga ehtiyotkorona munosabatni shakllantiradi va tabiat bilan munosabatda oqilonalikka majbur etadi. Eng asosiysi bu jarayon shaxs rivojlanishiga olib keladi. Sababi texnologiya yangi turlarining kirib kelishi, ishlab chiqarish usul va vositalarining takomillashishi intellektual jihatdan salohiyatli kadrlarga ehtiyojni vujudga keltiradi. Natijada kishilarda yangiliklarni oʻzlashtirish va intellektual salohiyatni oshirishga etarlicha impuls beriladi. Kuchli raqobat ularni oʻz-oʻzlarini

takomillashtirishga va mavjud sharoitga moslashishga majbur etadi. Nihoyat bu butun jamiyatda intelektning yuksalishiga olib keladi.

Bundan tashqari globallashuvning demokratizasiya, informatizasiya kabi jarayonlari jamiyat rivojida alohida ahamiyatga ega. Jumladan, demokratizasiya jarayonida sosiumning elementlari ierarxiyasida jiddiy oʻzgarishlar roʻy beradi. Ushbu ierarxiya quyidagicha strukturaga ega boʻladi: shaxs-jamiyat-davlat. Bunda davlat shaxs va jamiyat manfaatlarini ta'minlovchi instrument vazifasini oʻtaydi. Jahon arenasida oʻz nufuziga ega boʻlishni istagan har qanday davlat ushbu ierarxiyaga amal qilishi lozim.

Informatizasiya jarayoni ham shaxs rivojida muhim ahamiyatga ega. Bunda shaxs oʻzining axborotga boʻlgan ehtiyojini etarli darajada qondiradi. SHuningdek u ham informasiya resursiga ega boʻladi, ham dunyoqarashini zamonaviy talab darajasida shakllantiradi.

Ammo yuqoridagi ijobiy xususiyatlariga qaramasdan globallashuv hodisasi uchinchi dunyoda negativ qabul qilinadi. Jumladan, AQSH professori (asli afrikalik) Dennis Brutusning fikricha, globalizasiya «profits before people», ya'ni «foyda insondan muhim» prinsipi asosida harakat qilmoqda. Uning bahosiga koʻra, globalizasiyaning tarqalishi bilan ijtimoiy hayotda inson qadri yoʻqoldi, pul axloq ustidan hukmronlik oʻrnatdi[121]

Professor Mbeki globalizasiya jarayonini antidemokratiya maqsadidagi biznes deb ataydi. Uning fikricha globalizasiya kelishi bilan biznesning moliyaviy shaffofligi toʻliq yoʻqoldi va oylik maoshlar qisqardi. U oʻzi bilan g'arb qulchiligining yangi shaklini olib keldi. Bunday qulchilikning xarakterli xususiyati shundaki, unda «xoʻjayin» shaxssizlashadi.[122]

YAna bir antiglobalist, Kairdagi Amerika universiteti professori Arui Mafele globallashuvni «Butun dunyo kapitalistlari birlashing!» shiori ostida roʻy berayotganligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, globallashuv tabiiy jarayon emas, balki u siyosiy boshqariladi. Globallashuvning asosiy raqibi- bu milliy oppozisiyadir.[123]

Albatta globallashuv jarayonining salbiy oqibatlaridan koʻz yumib boʻlmaydi. Ayniqsa uning madaniy standartizasiya, informatizasiya va qadriyatiy universalizasiya jarayonlari milliy identifikasiya krizisini keltirib chiqaradi. Ammo bunday salbiy holatlarni oldini olishning samarali yoʻli bu- ushbu jarayonning faqatgina ta'sir obyekti emas, balki subyektti ham boʻlishdir. Bugungi kunda ayrim davlatlarni hisobga olmaganda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari globallashuvning obyekti hisoblanadi. Masalan, Yaponiya ushbu jarayonning ham obyekti, ham subyekti. U globallashuvning obyekti sifatida G'arb qadriyatlarini oʻzlashtirib, subyekt sifatida ularni adaptasiyalashgan koʻrinishda Osiyoning boshqa mamlakatlariga taqdim etmoqda.[124] Globallashuv davr taqazosi, rivojlanishning ayni damdagi tabiiy qonuniyati. Undan voz kechish yoki boshqacha yoʻldan rivojlanish mumkin emas.

---

[121] В.Култыгин. Незападные концепции глобализации. http://www.perspektivy.info/print.php
[122] Там же.
[123] Там же.
[124] Кортунов С.В.. Глобализация и национальная идентичность.

**Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari**

Reja:

1. Globallashuvning millat xayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari.
2. Ommaviy madaniyat va milliy o‘zlikni anglash
3. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o‘zlikning anglash masalalari.

Kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko‘rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o‘rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham “Axborot asri” – deb nom olgani bejiz emas. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog‘liqligini ta’kidlashmoqda. Shu o‘rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, axborot tizimlariga buzg‘unchilik maqsadida ta’sir etishni ko‘zda tutuvchi yangi “axborot quroli”ning ta’siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o‘tish joiz. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko‘rish va ularning benuqson faoliyatini ta’minlashga da’vat etmoqda.

Globallashuvning avj olishi millat “chegaralarini” yo‘q qilib yubormoqda, ommaviy ma’naviyatni shakllantirishga olib kelmoqda. Buning natijasida har bir millatga xos bo‘lgan urf-odat, an’ana, qadriyatlar o‘z ahamiyatini “yo‘qota” borish xavfi yuzaga kelmoqda. Bu millatning ma’naviy qashshoqlashuvi sodir bo‘lishga, ularning o‘zligini anglamaydigan manqurtlariga olib keluvchi tahdidlarni yuzaga keltirmoqda.

Umuminsoniy ma’naviyat turli-tuman millatlarning o‘ziga xos boshqa millatlar uchun ham ma’naviy oziqa bera oladigan qirralarini o‘zida mujassamlashtirganligi bois, tabiiy ravishda keng yoyilib boradi hamda jahonda yashayotgan turli millatlarning ma’naviyati rivojlanishiga yordam beradi.

Shuning bilan birga umuminsoniy ma’naviyatning shakllantirish jarayonining o‘zi ham milliy ma’naviyatlar rivojlanishiga yordam beradi. Chunki bu jarayonda turli millat va elatlar teng huquq imkoniyatga ega bo‘lib, ularning har biri o‘z ma’naviyatining boshqalar uchun ham zavq – shavq va ilhom bera oladigan jihatlarini rivojlantirishga harakat qiladi hamda uni ommaviylashtirishda o‘zi faol ishtirok etadi. Uning zaminida zo‘ravonlik yo‘li bilan o‘zga millat va elatlar ongi, qalbini egallash maqsadi turmaydi, balki ma’naviy tenglik, samimiylik, o‘zaro do‘stlik, qardoshlik va bir-birini ulug‘lash kabi umuminsoniy qadriyatlar turadi. Shuning uchun ham turli millatlarni o‘zaro boyitib boradi, ularni yaqinlashtiradi va ma’naviyatlarning yuksalishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi tashki siyosatida xalkaro munosabatlarda muxim rol o‘ynovchi Rossiya, AQSH va Evropa Ittifoki bilan xamkorlik munosabatlari aloxida e’tibor talab etadi. Aynan ana shu siyosiy birliklar jaxon siyosatini belgilashda xam muxim urin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi Rossiya bilan Ittifokchilik shartnomasi imzolagan bulgsa, AQSH bilan strategik sheriklik va xamkorlik shartnomasini imzolagan. Evropa Ittifoki bilan esa 1996 yilda keng mikyosdagi xamkorlikni ko‘zda tutuvchi SHeriklik va xamkorlik bitimini tuzgan. Bundan tashkari Evropa Ittifoki va

mamlakatimiz o‘rtasida 20 ga yakin boshka turdagi shartnomalar mavjud. Ikki tomonlama munosabatlar xam iktisodiy, xam siyosiy, xam madaniy soxalarda rivojlanib bormokda. CHunonchi 2001 yilga kelib, Evropa Ittifoki va respublikamiz o‘rtasidagi savdo aylanmasi 1 mlrd. 57 mln. AKSH dollarini tashkil etdi1. Bularning barchasi Evropa Ittifokining O‘zbekiston Respublikasi tashki siyosatida aloxida o‘rin tutishidan darak beradi.

Uzbekiston Respublikasi va Rossiya urtasidagi ikki tomonlama xamkorlik xususida gapirganda, avvalo, 2005 yilning kuzida imzolangan Ittifokchilik shartnomasini kayd etish lozim. Bu xujjat xar ikki mamlakat uchun keng siyosiy va iktisodiy imkoniyatlar ochib beradi. Ittifokchilik shartnomasi deganda ikki davlat urtasidagi munosabatlarning eng yakinlashgan shakli tushuniladi. Xalkaro munosabatlarning bu shakli strategik sherikchilikdan xam yakin xamkorlik munosabatlaridir.

Keyingi 15 yildagi uzaro munosabatlar tarixiga nazar tashlasak Uzbekiston Respublikasi Rossiya Federasiyasi bilan davlatlararo teng xukukli munosabatlar urnatish va rivojlantirishga aloxida axamiyat berib kelmokda. 1991 yildan 2006 yilga kadar ikki davlat raxbarlari muntazam uchrashib, muzokaralar olib borishmokda va Rossiya Uzbekistonning eng yirik savdo xamkori bulib kolmokda.

Markaziy Osiyodagi strategik vaziyat Evroosiyoda muvozanatni ta’minlash borasida muxim axamiyatga ega. Markaziy Osiyoda O‘zbekistonning oltin, uran, energiya xom ashyolariga boyligi; Xitoy, xristian (rus pravoslav va garb katolik) va islom madaniyatlari kesishgan joydaligi; Rossiya, Eron, Xitoy, Pokiston va xindiston kabi mamlakatlarga xam salbiy, xam ijobiy ma’noda ko‘shni ekanligi; mintaka siyosatiga xamda shundan kelib chikkan xolda, jaxon siyosatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardir.

Tashki omillar moxiyatini anglash uchun "Sovuk urush" davrini o‘rganish joiz. Zero, bu xol O‘zbekiston Respublikasining bugungi kundagi geosiyosiy xolatiga to‘lik baxo berishda, shuningdek, Markaziy Osiyo mintakasiga jaxon va mintakaga tutash davlatlar siyosatining tub moxiyatini yanada chukurrok tushunishga ko‘mak beradi. "Sovuk urush" davrida geosiyosiy dualizm o‘zining yukori cho‘kkisiga etdi. Bu davrda AKSH va sobik Sovetlar davlati talassokratiya va tellurokratiyani ifoda etgan xolda uzaro geosiyosiy kurash olib bordilar[76].

O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarning yangi boskichga ko‘tarilishi ikkala mamlakat uchun xam xamkorlikni rivojlantirishning istikbolli imkoniyatlarini beradi. SHuni aloxida kayd kilish kerakki, ushbu xamkorlik xozirgi kunda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarildi. Avvalam bor, ikkala mamlakatda iktisodiy, siyosiy, ijtimoiy jixatdan xamkorlik extiyoji paydo bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ikki davlat manfaatlarini xalkaro terrorizmga karshi kurash yakinlashtirdi.

O‘zbekistonda Rossiya azaldan yirik iktisodiy xamkorlardan biri ekanligi xech kachon unutilmagan. Rossiyaning iktisodiy inkirozdan chikish darajasiga ko‘ra, uning O‘zbekiston tashki savdo aylanmasidagi ulushi 1999 yildagi 13 foizdan 2003 yilda 17 foizga o‘sdi. Fakat 2003 yilning o‘zida ikki mamlakat o‘rtasidagi tashki savdo aylanmasi xajmi 26 foiz, 2004 yilning birinchi choragida esa 43 foizga o‘sdi va yanada jadal yuksalishi uchun katta imkoniyatlar mavjudligi kuzatilmokda..

Savdo aylanmasi tarkibi yanada rasionallashib, ikki mamlakat iktisodiyotidagi tuzilmaviy o‘zgarishlar unda o‘z aksini topa boshladi. Masalan, 2003 yilda O‘zbekistondan Rossiyaga eksport xajmida asosiy ulushni mashina va uskunalar (23

foiz), paxta tolasi (7 foiz) tashkil kildi, vaxolanki 1994 yilda bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 11 va 64 foizdan iborat edi.

Rossiyadan O‘zbekistonga eksport xajmida xam asosiy ulush mashina va uskunalar (38 foiz), kimyo maxsulotlari (20 fomz), kogoz, karton, mebel (24 foiz)dan iborat. 1994 yilda esa Rossiyadan O‘zbekistonga asosan energiya manbalari (39 foiz), ozik-ovkat maxsulotlari (15 foiz), kora metall (14 foiz) eksport kilingan edi.

O‘zbekistonning Rossiya bilan aviasozlik soxasidagi xamkorligi xam sezilarli darajada faollashdi. «V.P.CHkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chikarish birlashmasi» davlat aksionerlik jamiyati bazasida yuk va yo‘lovchi tashuvchi zamonaviy xavo kemalarini xamkorlikda ishlab chikarish rivojlanmokda. E’tiborli tomoni shundaki, Toshkent aviazavodi tomonidan tuzilgan shartnomalarga muvofik 2004 yilda Rossiya va boshka mamlakatlarga 15 ta samolyot etkazib berdi va bu isloxotlar boshlangan davrdagidan ancha ko‘p demakdir. •

«O‘zDEUavto» ko‘shma korxonasining xam rossiyalik sheriklar bilan xamkorligi yanada faollashmokda. Bir tomondan uning Rossiyaga eksport salmogi ortmoksa. Taxminlarga ko‘ra, eksport xajmi 2004 yilda 25 ming avtomobilni tashkil etgan. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po‘lat kuyuvchilar maxsuloti sifatining ortib borayotganligi O‘zbekiston avtomobillari uchun xarid kilinadigan issik va sovuk usulda kuyilgan po‘latning 90 foizini Rossiyadan olish imkonini beradi. SHunisi axamiyatga molikki, O‘zbekistonning aviasiya va avtomobil zavodlari Rossiya Federasiyasining 957 korxonasiga extiyot kismlar uchun buyurtma bergan.

Iktisodiy rivojlanishning barkaror sur’ati, u bilan boglik savdo va to‘lov balansining ijobiy saldosi, axoli real daromadlarining muttasil o‘sayotgani shundan dalolat beradiki, Rossiya tobora kulay, xududiy jixatdan yakin, to‘lovga layokatli bozorga aylanmokda. Bu bozorga o‘zbek tovar ishlab chikaruvchilari o‘zlarining xilma-xil maxsulotlarini etkazib berishlari mumkin.

Rossiya sarmoyadorlarining O‘zbekiston ikgisodiyotiga keng mikyosda investisiya kiritishga kizikishi tobora ortib bormokda Bu avvalo, neft va gaz kazib olish, ularni kayta ishlash, telekommunikasiya, tog-kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, anik asbobsozlik, elektrotexnik maxsulotlar ishlab chikarish, kurilish materiallari, kishlok xo‘jaligi maxsulotlarini kayta ishlash kabi eksportga yo‘naltirilgan soxalar va boshka istikbolli tarmoklarda o‘z ifodasini topmokda.

Jumladan, 2004 yilning aprelida Rossiyaning Gazprom» kompaniyasi bilan «SHoxpaxta» gaz konida gaz kazib olish va undan foydalanishdagi ishtiroki bo‘yicha maxsulot taksimoti to‘grisida bitim imzolandi. Ayni paytda «Gazprom» bilan Ustyurt nefggaz konlarida tabiiy gaz geologorazvedkasi, kazib olish va yiliga 10 mlrd. kub metr xajmida sotish mo‘ljallangan loyixaga 1,4 mlrd. AKSH dollari mikdorida sarmoya kiritilishini ko‘zda tutuvchi bitim ishlab chikilmokda.

«Lukoyl» kompaniyasi bilan maxsulot taksimoti asosida, SHodi gaz konlarida tabiiy gaz kazib olish va birgalikda sotish bo‘yicha yirik bitim loyixasi tayyorlanmokda. Bunda «Lukoyl» kompaniyasi 1 mlrd. AKSH dollari mikdorida investisiya kiritadi va loyixaninng amalga oshirilishi 200 mlrd.kub metrga yakin tabiiy gaz kazib olish imkonini beradi.

SHuningdek, mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnika sanoatidagi texnologik kooperasiyaga asoslangan samarali alokalar tiklanmokda. Kabel maxsulotlari, elektrotexnik mashinalar, jixozlar va apparatura ishlab chikarish soxalarida 19 ta

O‘zbekiston-Rossiya ko‘shma korxonasi faoliyat yuritmoksa. 33 ta ko‘shma korxona sanoat va maishiy turdagi asbob-uskunalar ishlab chikarishga ixtisoslashgan. Mashinasozlik, mashina va jixozlarni ta’mirlaydigan 68 ta ko‘shma korxona tuzilgan.

Kishlok xo‘jaligi maxsulotlarini kayta ishlash soxasi buyicha integrasiya chukurlashmokda. Bu soxada to‘kkizta O‘zbekiston-Rossiya ko‘shma korxonasi faoliyat yuritmokda.

«Vimm Bill Dan» kompaniyasi Toshkentning yirik «Toshkentsut» birlashmasi aksiyalarining 77 foizini xarid kilish xakidagi shartnomani imzoladi. Ushbu xujjatda sut maxsulotlarini kayta ishlash va meva sharbatlari ishlab chikaruvchi ko‘shma korxona tuzish uchun 20 mln. dollar sarmoya kiritish ko‘zda tutilgan.

So‘nggi paytlarda Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iktisodiy va investisiyaviy xamkorlikning kengayishi o‘zaro manafaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi.

Bunday xamkorlikning asosini iktisodiyotning oyokka turishi, xar ikki mamlakat iktisodiyotining barkaror rivojlanishi va bir-birini to‘ldirishi, xududiy yakinlik, transport infratuzilmasi xamkorligining yo‘lga ko‘yilganligi, sheriklarning bir-birini yaxshi bilishi, ularning xalklarimiz umumiy madaniyatidan, fe’l-atvoridan xabardorligi tashkil etadi.

Rossiya bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iktisodiy va investisiyaviy alokalarning kengayishi Markaziy Osiyoning boshka davlatlariga xam ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ilgari surayotgan Markaziy Osiyoda umumiy bozorni yaratish tashabbusi va bunyodkorlik yo‘lidagi jiddiy kadam bulib, u o‘z navbatida jaxon iktisodiyotida mintakaning investisiyaviy jozibadorligi va rakobatbardoshligini oshiradi.

Rossiyaning Markaziy Osiyodagi manfaatlari xakida gapirganda shuni e’tirof etish kerakki, u nafakat geosiyosiy, balki jiddiy iktisodiy asosga xam ega. O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarga kelganda shuni aloxida ta’kidlash joizki, munosabatlarning yangi boskichga ko‘tarilishi ikkala mamlakat uchun xam xamkorlikni rivojlantirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. xozirgi kunda Rossiya-Uzbekiston munosabatlari strategik sheriklik (2004) darajasidan Ittifokchilik (2005) darajasiga ko‘tarildi.

So‘nggi paytlarda Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iktisodiy va investisiyaviy xamkorlikning kengayishi iktisodiy sharoit va o‘zaro manafaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi.

Ammo bu O‘zbekistonning Rossiya bilan xamkorlikni rivojlantirishi istiklol yillaridagi xamkorlar, birinchi galda Amerika Ko‘shma SHtatlari, Evroittifok mamlakatlari va YAponiya bilan an’anaga aylangan iktisodiy xamkorlikni susaytirish yoki kiskartirish xisobiga amalga oshiriladi, degani emas albatta.

Birok, Rossiyaning oxirgi tashki siyosiy faoliyati, jumladan, Kirgizistonda o‘z xarbiy bazasini tashkil kilishi, Markaziy Osiyoni o‘z ta’sir doirasiga tortish uchun kurash davom etib kelayotganligini, bu kurashda Markaziy Osiyo mintakasi xam o‘z o‘rniga egaligini to‘la isbotlaydi.

Uzbekiston uchun, Rossiyaning munosabati aloxida o‘rin tutadi. 2000 yilgacha, ya’ni V.Putin prezidentligiga kadar Rossiyaning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan munosabati mavxum va noaniklikdan iborat edi. Rossiyalik tadkikotchilarning fikrlari turlicha, ko‘p xollarda karama-karshiliklarga boy edi. Buning sabablaridan biri Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro iktisodiy yakinlashuvi va Rossiya ta’sirining kamayishi yoki

Markaziy Osiyo davlatlarini ularning fikricha, boshka davlatlarning ta'siriga tushib kolishdan xavfsirash edi. Ayrim rossiyalik ekspertlarning fikricha Markaziy Osiyo davlatlarini Rossiya geosiyosiy ta'sir xududidan chikishi, Rossiya xavfsizligi uchun taxdid xisoblanadi.

Rossiya tabiiy fanlar akademiyasi muxbir a'zosi L.I.Medvedko shunday fikrga kelgan edi: «Tojikistondagi dramatik xodisalar, O'rta Osiyoda islom fundamentalizmi yoyilishiga shart-sharoitlar yaratib berishi mumkinligini eslatdi. Bunga ko'p xolda Erondagi islom revolyusiyasini va Afgonistonda mujoxidlarning galaba kozonishiga turtki bo'ldi.... O'rta Osiyoning ayrim respublikalari va viloyatlarida, Kavkaz va Volga bo'yida islomiy xarakat uchun kulay zamin yaratilishi, bu erdagi usiz xam xozirdagi omonat xokimiyatni o'rniga avtoritar-teokratik tuzumni o'rnatilishiga olib kelish mumkin. Ular kelajakda extimol Eron, Pokiston va Afgoniston bilan Rossiya uchun xavfli bulgan dushmanlik ruxidagi xarbiy-siyosiy alyans tuzishlari mumkin[77]».

YUkoridagi fikrlarga nisbatan esa Prezidentimiz o'z vaktida shunday degan edi: «Keyingi vaktlarda Rossiyaning ochik matbuotida bu mavzuda uzundan uzok taxliliy materiallar va boshka makolalar kayta-kayta bosilib chikmokda. Ularning oxangi va mazmuniga karasangiz, jurnalistlarning kalamini emas, balki maxsus tazyiklar va ayrim siyosatchilarning tajribali ko'lini ko'rasiz. Bu makolalar shovinizm xavfi va uning sobik sovet makonida paydo bo'lib, «yakin xorij» deb atalayotgan yangi mustakil davlatlarga nisbatan ko'rinishlari o'ylab chikarilgan muammo emas, balki Rossiyaning o'zi uchun xam birday xavfli taxdiddir, degan xulosani juda yaxshi ko'rsatib va asoslab beradi».2

1999 yil 16 fevral va 2001 yil 11 sentyabr vokealari xalkaro terrorizmga karshi kurash dasturi doirasida keng kulamda xarbiy xarakatlarning boshlanishiga olib keldi. Bu xarakatlar aynan Osiyo mamlakatlari, xususan Afgoniston xududida olib borildi. Bunga dunyodagi deyarli barcha etkachi davlatlar uz xarbiy kismlari bilan, Markaziy Osiyo respublikalari esa uz xududidan foydalanishga ruxsat berish bilan ishtirok etishdi. SHuni ta'kidlash kerakki kupchilik davlatlar bu urush xarakatlariga ayrim garbdagi davlatlarning nayrangi ostida kushildilar. Urush natijasida golib va maglub tomonlar aniklanmadi. Afgonistonda 25 yildan beri davom etayotgan urush yakun topmadi, tinchlik urnatilmadi, Irokdan yadro bombasi topilmadi. AKSH kushinlarida xanuzgacha yukotishlar davom etmokda. "Xalkaro terrorizmga karshi kurash" nomini olgan uziga xos bu kurashda Al-koida singari anik, ammo karorgoxiyu-kushinlarini xech kim xech kachon topa olmaydigan rakibning bulishi bu urushning ortida xar ikki tarafning xam rejissyori bitta emasmikan, degan fikrga olib keladi. Bugungi kunda nafakat Markaziy Osiyo davlatlari, balki Rossiya xukumati xam xalkaro terrorizmga karshi kurashning asl maksadlarini tugri anglab etdi va Rossiya Markaziy Osiyoga nisbatan okilona siyosat olib borishmokda.

Evroosiyoda tinchlik va barkarorlikni saklash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bir yokadan bosh chikarishlari, ayniksa bu xududda Rossiya ishtirokida yagona iktisodiy tizim barpo etishlari lozim buladi. Rossiya Uzbekiston urtasida imzolangan Ittifokchilik shartnomasi Markaziy Osiyoda strategik muvozanatni belgilab berdi. Ushbu Ittifokchilik shartnomasi, Evroosiyo Iktisodiy xamjamiyatining tulik faoliyatga kirishi va SHXTning samarali faoliyati barkarorlikni saklash va tarakkiyotni ta'minlashda samarali siyosiy va iktisodiy mexanizm bulishi mumkin.

Uzbekiston tashki siyosatining Evropa yunalishi kat’iyatlik bilan rivojlantirilmokda. Uzbekiston Prezidentining Germaniyada 1993 yil 28 aprel kuni boshlangan va besh kun davom etgan rasmiy tashrifi Uzbekiston bilan Germaniya urtasidagi munosabatlarni yulga kuyishda muxim axamiyatga egadir. Ayni paytda bu safar natijasida respublikamiz uchun Evropa sari katta yul ochildi.

I. Karimov GFR Federal kansleri Gelmug Kol bilan samimiy, uzaro tenglik asosida, ishonch va kat’iyat bilan suxbatlashdi. Ikki davlat urtasida madaniy xamkorlik tugrisida, sarmoyalar kuyishni amalga oshirish va uzaro ximoya kilishga kumaklashish tugrisida, ilmiy tadkikotlar va mutaxassislar fondini tashkil etish tugrisida bitimlar imzolandi.

Uzbekiston delegasiyasi Germaniya sanoatini urganishga katta e’tibor berdi. "Doyche bank", "Mersedes-Bens" va "Simens" kompaniyalarining raxbarlari bilan uchrashuvlar buldi, ular bilan xamkorlik kilish xakida kelishib olindi. Jumladan, Xorazmda "Mersedes-Bens" kompaniyasi ishtirokida yuk mashinalari yigadigan zavod kurish xakida axdlashildi. Safar natijalariga kura uzbek-nemis xamkorligi masalalari buyicha xukumatlararo komissiya tuzildi. Toshkentda ikki-tomonlama savdo-iktisodiy palata tashkil etildi, GFRning elchixonasi ochildi. "Toshkent-Frankfurt" xavo yulida samolyotlar katnay boshladi. "Doyche bank"ning bulimi faoliyat kursatmokda.

1994 yil 9-12 iyun kunlari Uzbekiston davlat delegasiyasi Niderlandiya (Gollandiya)da buldi, kirolicha Veatriks va xukumat boshligi - Bosh vazir Rudolf Lyubbers bilan ikki tomonlama xamkorlik tugrisida suxbat buldi. Safar natajasida Uzbekiston va Gollandiya urtasida davlatlararo munosabatlar prinsiplari xakida bayonot va savdo-iktisodiy xamkorlik xakida protokol imzolandi. Gollandiya agrar xujaligining texnologiyasi, urug va nasllari, mexnat usullaridan Uzbekistonda foydalanishga kelishildi. Bugungi kunda Uzbekistonda Gollandiya kartoshka uruglari ekilib mul xosil etishtirilmokda.

Uzbekiston bilan Fransiya urtasidagi munosabatlarni urnatish va rivojlantirish muxim axamiyatga ega. 1993 yil 28-30 oktyabr kunlari Uzbekiston delegasiyasining Fransiyaga rasmiy tashrifi ikki davlat urtasidagi xamkorlikka asos soldi. Prezident I.Karimov Fransiya Prezidenti F.Mitteran, Fransiyanint boshka raxbarlari xamda jamoatchilik vakillari bilan dustona suxbat va samarali muzokaralar yuritdi. Safar natijasida Parijda Uzbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi urtasida dustlik va xamkorlik tugrisida shartnoma, madaniyat, ilmiy-texnikaviy va maorif soxasida xamkorlik kilish tugrisida bitim, sarmoyalarni uzaro ragbatlantirish va ximoyalash tugrisida bitim imzolandi.

Uzbekiston bilan Fransiya urtasida iktisodiy, ilmiy, madaniy alokalar kengayib bormokda. Kishlok xujalik maxsulotlarini kayta ishlash, ozik-ovkat, neft va gaz sanoati, kurilish va boshka soxalarda xamkorlik kilinmokda.

Uzbekiston xalkaro ishlarda katta tajriba va nufuzga ega bulgan Buyuk Britaniya bilan xam xamkorlik kilmokda. 1993 yil 17-19 iyun kunlari Buyuk Britaniya kirolichasining kizi malika Anna Uzbekistonda bulib, mamlakatimiz bilan, xalkimizning turmush tarzi bilan tanishib, Samarkand shaxrining ulmas tarixiy yodgorliklarini ziyorat kilib ketdi. 1993 yil 15 oktyabr kuni Buyuk Britaniya tashki ishlar va xamdustlik ishlari buyicha davlat vaziri Daglas Xognint Uzbekistonga safari chogida ikki davlat urtasida madaniyat va ta’lim soxasidagi xamkorlik bitimi, ikki yoklama solik solmaslik tugrisida bitimlar imzolandi.

Uzbekiston Finlyandiya, Avstriya, Belgiya, SHveysariya, Italiya, Ispaniya, Gresiya, Polsha, Vengriya, CHexiya, Slovakiya, Xorvatiya, Bolgariya kabi Evropa mamlakatlari bilan siyosiy, diplomatik, iktisodiy va madaniy alokalar urnatdi va kengayib bormokda.

Xulosa kilib aytganda, Uzbekistonda tarixiy jixatdan kiska bir davrda xalkaro munosabatlarni yulga kuyish va rivojlantirish bobida bir necha un yilliklarga arziydigan ishlar amalga oshirildi. Uzbekiston uzining tinchliksevar, yaxshi kushnichilik, uzaro foydali xamkorlikka karatilgan siyosati va faoliyati bilan butun dunyoga tanildi, jaxon xamjamiyatida uzining munosib urnini egalladi, uning mavkei yildan-yilga mustaxkamlanib bormokda.

YUkori keltirilgan ma’lumotlar bir tarafdan albatta yangi respublika uchun kiska vaktda erishgan katta yutuklardir. Lekin, masalaning ikkinchi tomoni urnatilgan bu xamkorliklarning xozirda rivoji va yurtimiz uchun foydasi kanday darajada ekanligidir. Asosan tuzilgan shartnomalar uz faoliyatini yaxshi olib bormokda, lekin, shu bilan bir katorda muammolar xam yuk emas. Muammolar albatta asosan tashki iktisod bilan, xususan mamlakat eksport saloxiyatini oshirish bilan boglikdir. Boshkacha aytganda, tashki iktisodiy alokalarimizda import ulushini kamaytirish va eksportni kengaytirish tomon burilish yasalishi muxim axamiyatga ega.

Prezident I.Karimov uzining "Uzbekistonning etti zafarli yili" asarida «Uzbekiston tarixdan kiska bir davrda jaxon xamjamiyatiga kushildi, uning teng xukukli subyektiga aylandi. Nufuzli xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, iktisodiy, madaniy-ma’rifiy alokalarni yulga kuydi. Bu jonajon Vatanimiz xavfsizligining muxim sharti va tarakkiyotimizning kafolatidir", - deb yozadi. Darxakikat, Uzbekiston xalkaro munosabatlarning tulakonli subyektiga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarga egadir. SHu bilan birga dunyo xujalik va siyosiy tizimida uziga xos mavkega ega bulish uchun xalkaro jarayonlarda faol ishtirok etish va Osiyo, Evropa va Amerikaning etakchi davlatlari bilan xushyorlik bilan munosabatlar olib borish talab etiladi. Buning uchun esa uzokni kura biladigan, bilimli kadrlarni tarbiyalash zaruriyati xamisha saklanib koladi.

2001 yil 11 sentyabr vokealaridan keyin Evropa Ittifoki davlatlari xam xalkaro terrorizmga karshi tuzilgan xalkaro koalisiyaga kushilgan xolda uz kushinlarini Afgonistonga yuborishdi. Ayrim davlatlar, shu jumladan, Germaniya uz xarbiy kontingentini Afgonistonning shimolida, bir kismini esa Uzbekiston janubida Termez shaxrida joylashtirdi. Uzbekistonning Evropa Ittifoki bilan alokalari iktisodiyot soxasida xam yildan-yilga kengayib bormokda. Evropa Ittifokining faol a’zolaridan bulgan Germaniya Uzbekistonning Evropa Ittifokidagi eng yakin xamkori xisoblanadi. Germaniya Markaziy Osiyoda ruy berayotgan uzgarishlarga doimo nemislarga xos xolislik bilan yondoshgan va doimo kullab-kuvvatlagan. 2005 yil Andijonda ruy bergan may vokealaridan keyin Uzbekistonga karshi olib borilgan axborot xuruji davrida, Evropa Ittifoki tarafidan kullanilgan jazo choralari davrida Germaniya bizni doimo kullab-kuvvatlab keldi. 2006 yilda Germaniya rasmiy doiralari Uzbekiston vakillari bilan bir necha marta uchrashdilar va EIning bugungi kundagi raisi Germaniya 2007 yilda ushbu jazo choralarini bekor kilishga aloxida axamiyat bermokda.

Evropa Ittifoki davlatlari Bilan rivojlanayotgan xamkorlik singari AKSH bilan alokalarini urnatish kupgina davlatlarda bulgani kabi Uzbekiston uchun xam aloxida axamiyatga ega.

O‘zbekiston - AKSH munosabatlari boskichma-boskich rivojlanib kelmoksa. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil yozida AKSHga kilgan birinchi va muxim safari davomida iktisodiy xamkorlikdan tortib xavfsizlikkacha bo‘lgan turli soxalarni kamrab olgan muzokaralar, O‘zbekiston va AKSH raxbarlarining keyingi uchrashuvlari, Amerika parlameni yukori martabali vakillarining tashriflari O‘zbekiston – AKSH munosabatlarini yangi boskichga olib chiksi.

Ikki davlat xukumatlari o‘rtasida 2001 yil oktyabrda xalkaro terrorchilikka karshi kurashish masalalari bo‘yicha ko‘shma bayonot imzolanishi, xukumatlar o‘rtasida ikki tomonlama xamkorlikni yanada rivojlantirish va O‘zbekistondagi iktisodiy isloxotlarni ko‘llab-kuvvatlash borasida o‘zaro anglashuv xakida memorandum kabul kilindi. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2002 yil mart oyida AKSHga ikkinchi rasmiy tashrifi O‘zbekiston va AKSH o‘rtasida Strategik sheriklik va xamkorlik asoslari to‘grisida deklarasiya, shuningdek, ilmiy-texnikaviy tadkikotlar, yadro tarkatilishiga yo‘l ko‘ymaslik borasida xamkorlik kilish to‘grisida xamda O‘zbekiston Tashki iktisodiy faoliyat banki bilan AKSH Eksport-import banki o‘rtasidagi xamkorlik to‘grisida bitimlar imzolanishi O‘zbekiston - AKSH munosabatlarida ko‘yilgan muxim kadamlardan biri bo‘ldi.

O‘zbekiston va AKSH o‘rtasidagi o‘zaro xamkorlikni turt boskichga bo‘lish mumkin.

Birinchi boskich mustakillikka erishgunimizgacha bo‘lgan davr va mustakillikning dastlabki uch yilini o‘z ichiga oladi. Bu davr O‘zbekiston va AKSH o‘rtasidagi alokalarning xali rivojlanmaganligi va xamkorlikning dastlabki kurtaklari paydo bo‘la boshlaganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu boskich Amerika Ko‘shma SHtatlari O‘zbekiston Respublikasini mustakilligini tan olganligi va ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatilganligi bilan muximdir.

Ikkinchi boskich 1993 yilga to‘gri keladi va 2001 yil sentyabrida AKSHda terroristik akt sodir etilgan davrga kadar davom etadi.

Bu davr mobaynida O‘zbekiston bilan AKSH munosabatlari eng muxim yo‘nalishlar bo‘yicha faol rivojlanganligi, umumbashariy va mintakaviy xavfsizlikning eng dolzarb muammolarini xal etishga bo‘lgan yondashuvlarning o‘xshash jixatlarini namoyon kilganligining guvoxi bo‘lish mumkin. Boshkacha aytganda, bu davrda AKSH O‘zbekistonni kaytadan kashf etgan bo‘lsa, O‘zbekiston xam AKSHni kashf etdi.

Xamkorlikning yangi sifatdagi strategik sheriklikka asoslangan uchinchi boskichi 11 sentyabr vokealaridan keyin boshlandi. Bu boskich O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning AKSHga kilgan safari chogida O‘zbekiston va AKSH o‘rtasida Strategik sheriklik va xamkorlik asoslari to‘grisidagi deklarasiyaning imzolanganligi bilan axamiyatlidir. Bu boskichning eng rivojlangan davri Afgonistonda xalkaro terrorizmga karshi kurashning dastlabki boskichida xalkaro koalisiyaga kushilgan Uzbekiston AKSH mudofaa vazirligiga Karshi-Xonobod xarbiy bazasini berganligida namoyon buldi. Ushbu bazani Uzbekiston tinchlik maksadlarida foydalanish uchun berganligini xam aloxida kayd etish lozim.

Ikki davlat urtasidagi munosabatlarning turtinchi boskichi 2005 yil 13 may Andijon vokealaridan keyin boshlandi. Fikrimizcha bu davrni ayrim xorijiy mutaxassislar tomonidan e’tirof kilingan sovuklashish davri emas, balki munosabatlarni sarxisob kilish davri, deyilsa tugri buladi. Uzbekiston uz tashki siyosatida, shu jumladan AKSH bilan munosabatlarda xam xech kachon uz zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarmasdan

kolmagan, ammo Ayni vaktda biror bir davlatning siyosiy ta'siriga tobe xam bulib kolmagan. Prezident I.Karimov bu xakda shunday yozadi:? «…Uzbekiston xamma vakt - AKSHga Karshi shaxri yakinidagi Xonobod aerodromidan foydalanishga ruxsat etilgan 2001 yilda xam, bugun xam uzining mustakil siyosatini olib bormokda. Biz xech kachon, takror aytaman, xech kachon, kanchalik buyuk bulmasin, biror-bir mamlakatning siyosiy ta'siriga berilmaganmiz»[78].

Andijon vokealariga kelganda, albatta Uzbekiston raxbariyati AKSHning Andijon vokealariga nisbatan bildirgan munosabati va xalkaro komissiya kiritish tugrisidagi tashabbusini milliy manfaatlarimizga zid ekanligini ta'kidladi. SHu nuktai-nazardan ikki davlat urtasidagi rasmiy munosabatlarda tanaffus davri boshlandi. Buning ikkinchi tarafi Uzbekistonning bu vokealar ortida garbiy kuchlar borligini tez orada paykaganligi va isbotlaganligiga borib takaladi. Mazkur tanaffus boskichning eng yukori nuktasi Amerika xarbiylarining Karshi-Xonobod bazasidan chikib ketish davriga tugri keladi. Bu jarayon kupchilik tomonidan Uzbekistonning Andijon vokealari uchun AKSHga bildirgan javobi tarzida baxolangan bulsa-da, aslida bu tugri emas. Afgonistondagi xarbiy xarakatlarning eng jadal pallasi yakunlangan 2002 yildan boshlab Uzbekiston AKSHdan Xonobod bazasini bushatishni talab etayotgan edi.

2006 yil xar ikki davlat uchun munosabatlarning yangi boskichini boshlash oldidan sokinlik yoki tanaffus davri bulganligini ta'kidlash mumkin. Ammo bu davrda AKSH davlat departamentining yukori lavozimli vakillaridan R.Baucher va E.Feygenbaumlarning Uzbekistonga kilgan tashrifi AKSH uzining Markaziy Osiyoda olib borgan siyosatida yul kuygan xatolarini tan olganligini namoyon etdi. Ayniksa, 2007 yilning mart oyida Uzbekistonga tashrif buyurgan AKSH davlat kotibining Markaziy va Janubiy Osiyo buyicha departamenti boshligining urinbosari E.Feygenbaum, bu xatoni ochikdan ochik tan olgan xolda shunday uzadi: «…Turli kurinishlarda tashkaridan amalga oshirilgan kuchli tazyiklarga karamasdan, Markaziy Osiyo davlatlari uz suverenitetini saklab kolishda misli kurilmagan jasorat kursatdilar.

## Global inqirozlar davrida yuksak ma'naviyatning dolzarbligi

Reja:

1. Yuksak ma'naviyat ma'naviy inqirozning oldini oluvchi vosita.
2. Milliy taraqqiyotning ma'naviy-axloqiy negizlari.
3. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi.

Manaviyat masalasi vatanimiz mustaqillikka erishgan birinchi kunlaridanoq mamlakatimiz raxbariyati tomonidan halqimiz diqqat markaziga qo'yib kelinayotgan eng jiddiy muammolardan biridir. Zero "biron-bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"[1].

Darhaqiqat ma'naviyat millatning, halqning, jamiyat va davlatning kuch qudratidir.

Muayyan millatning tabiiy, tazixiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklari, u yashayotgan hudud, madaniy meros, milliy madaniyat,

[1] Karimov I.A. O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997, 524-b.

til, milliy ong, millat tarixi, turmush tarzi va yashashi bilan bog’liq xususiyatlar milliy ma’naviyat tushunchasida ifodalanadi.

Millat – xar qanday milliy ma’naviyatning egasi, qadriyatlarning yaratuvchisi, asrab avaylovchi va kelajakka etkazuvchidir. Millatning o‘ziga xosligi, betakrorligi, rang-barangligi va ijtimoiy jarayonda o‘zgarib borishi bilan bog’liq eng asosiy qadriyati genofondidir. SHuning uchun biror halq millat, elatni yo‘qotish uchun qilingan tajovuz “Genosid” deb ataladi.

Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari xayotiy qadriyatlaridan ayri xolda tasavvur etib bo‘lmaydi.... biz miliy ma’naviyatni har tomonlama yuksaltirishni o‘z oldimizga asosiy vazifa qilib qo‘yamiz[1] deb yurtboshimiz milliy ma’naviyatning hayotbaxsh mohiyatini va dolzarbligini ko‘rsatib berdi.

Ma’naviyat masalasining benihoya dolzarbligi yashayotgan davrimizning o‘ziga xosligi bilan ham uzviydir. Zero biz endilikda globallashuv deb atalayotgan jarayonlar sodir bo‘layotgan zamonda yashamoqdamiz. SHunday ekan, ma’naviyat masalasi ham endilikda nafaqat milliylik, balki globallik xususiyatini kasb etadi.

Xozirgi davrda sodir bo‘lib turgan global sivilizasiya krizisi uning ma’naviy madaniyati asosida g’oyalar va tuyg’ular krizisidir, ya’ni inson hayotining ma’no va maqsadini yoritishda shu vaqtga qadar oldinga surib kelingan paradigmalari krizisidir, aniqrog’i, inson o‘zligini, o‘z teran mohiyatini hamon bila olmaganinig krizisidir.

Globallashuvda “mening millatim”, “mening xalqim”, “mening mamlakatim”, “mening vatanim” kabi tushunchalarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rniga A.Toynbining ta’biri bilan aytganda “umumiy uy”, “umumiy taqdir” va “umumiy tashvishi” degan tushunchalar egallaydi va oqibatda har qanday millatni o‘zlikdan judo qilib, uni ommoviy podaga aylantirish havfi bor.

Eng xatarlisi, g’arb mamlakatlari o‘z dunyoqarashi, andozalari va hayot tarzini turli-tuman vositalar, hususan, g’oyaviy-mafkuraviy ta’sir etish, o‘zga millat va halqlar turmushiga tiqishtirish, ma’naviy buzg’unchilikka qaratilgan yovuz xatti-xarakatlarni amalga oshirishga urinmoqdalar. Prezident I.A.Karimov masalaning anashu jixatiga ham e’tibor qaratib, “....jamiyatda paydo bo‘lgan g’oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutloqo yot bo‘lgan, ma’naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan” ommoviy madaniyat “yopirilib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak”[2], deb ogoxlantiradi.

Binobarin, tabiatda ham jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qaerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi xech shubhasiz, uni albatta kimdir to‘ldirishga xarakat qiladi.

Xozirgi kunda nima ko‘p – ona shunday ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirishga urinadigan, shuning xisobidan o‘zining g’arazli maqsadlarini amalga oshirishni o‘ylab yurganlar ko‘p. Bu kuchlarning asl qiyofasi, maqsad-muddoolari imkoniyatlarini to‘la va aniq – ravshan tasavvur qilish oson emas. Chunki, ular ko‘pincha turli niqoblar, jozibali shior va g’oyalar pardasi ostida ish ko‘radi. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularning puxta o‘ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga xizmat qilmoqda.

---

1 Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. T.Ma’naviyat 2008, 29-b

2 O’sha asar. 117-b.

Bugungi kunda dunyoning ayrim xudud va mintaqalarida xuddi shunday urinishlar natijasida ulkan ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatlarning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, ahloq-odob, ongli yashash tarxi jiddiy xavf ostida qolayotganini tuzatish mumkin.

Eng yomoni, bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tanishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishiga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilganida namoyon bo'lmoqda.

Shuning uchun ham – bu SHarq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi-jaxonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan xar bir ongli inson, xar bir xalqni tashvishga solish tabiiy. Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki halq haqida fikr yoritishi masalani juda tor ma'noda tushunish bo'lar edi. SHu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tojovuzlar haqida azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ona shunday xujumlardan asrash xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir.

YUrtboshimiz shu hususida fikr bildirar ekan: "Ma'naviy taxdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qatiy nazar, xar qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruxiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutgan mafkuraviy, g'oyaviy va informasion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman"[1], - deydi.

**Ma'naviy taxdid – muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitusion tuzimini zayiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, shaxs va jamiyat xavfsizligi ma'naviy, ruhiy dunyosiga taxdid soluvchi g'oyaviy, nazariy qarashlar va shunga asoslangan amaliyot majmuidir.**

Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan xar qanday tajovuz, taxdid o'z-o'zidan mamlakat xovfsizligi uning milliy manfaatlari, jismonan va ma'nan sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir – oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

Rang barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhob va sektolar o'rtasidagi fikr almashuvlari goho baxs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommoviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda. Bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad-inson, avvalombor, yoshlar qalbini egallash, muayan mamlakat yoki mintaqadagi yoki mintaqadagi biror mamlakat yoki halqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysindirish, ma'naviy jixatdan zaif va bobe qilishdir.

Ma'naviy tahdidning katta muammoga aylanayotganining asosiy sababi shundaki, bu tahdidlar ko'rinishdan "bezor", qandaydir "yangilik", bir xillikdan bezib, to'qlikni sho'xlikka, aylantirgan insonlarga, ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yoshlarga "zavq", "shavq", "ma'naviy ozuqa", ruhiy "ko'tarinkilik" va ilhom bag'ishlaganday bo'lib ko'rinadi. SHu bois ham mazkur tahdidlarning milliy ma'naviyatga bo'lgan salbiy

---

[1] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.:, Ma'naviyat, 2008, 14-b.

ta'sirini aniqlash murakkab kechadi. Ma'naviy tahdidlar vayronakor kuchlarning o'z moddiy, siyosiy manfaatlarini ko'zlagan holda xar xil markazlar tomonidan biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladi. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun xar qanday usullardan, odamlarning ma'naviy, ruxiyxissiyotlari, milliy tuyg'ulari, xar qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy muammolardan, shuningdek zamonaviy texnologiya, telekomunikasiya, OAB, Internetdan ustalik, g'irromlik, noxolislik bilan foydalanishga xarakat qiladi.

Xozirgi davrda dunyoning ayrim xududlarida ana shunday xarakatlar natijasida millatlarning axloqiy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqmoqda, axloq-odob, oila va jamiyat xayoti, ongli yashash tarzi jiddiy havf ostida qolmoqda. Ma'naviy xurujlarning pirovord maqsadi odamni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilgan. SHuni alohida ta'kidlash lozimki bu taxdidlar, birinchi navbatda, milliy ma'naviyatga qarshi qaratilgan. S.Otamurotov o'zining maqolalarining birida taxtidlarning ilmiy ma'naviyatga qarshi qaratilishining ikkita sababini ko'rsatgan: birinchisi, butun dunyo mamlakatlari ko'p millatli bo'lib, ularda ma'naviyatning turli-tumanligi amal qilmoqda. Ana shunday sharoitda ularning tashqaridan bo'ladigan yangilikka moyilligi ham kuchli bo'ladi. Bu esa tumanlikni yagona o'zanga yo'naltirish uslubidan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi; ikkinchisi, mamlakatlarni egallash uchun ularga qarshi ochiqdan-ochiq qurol bilan kurashishdan ko'ra, ularning avval ma'naviyatini egallash, shu yo'l bilan "ichidan emirish" osonroqdir[1].

Bu o'rinda prezident I.A.Karimovning xalqimizga xos bo'lgan va "Necha asrlardan buyon uni ne-ne balo-qazolardan sog'-omon olib o'tgan"[2] yuksak sharqona ma'naviy qadriyatlarimizning ahamiyati beqiyosligi haqidagi fikri alohida e'tiborga sazovor. Zero umumjaxon ma'naviyati xasta ekani, globallashuv sharoitida bu xastalik infeksiyasi keng tarqalishining katta imkoniyatga egaligi xisobga olinsa, bu yuksak qadriyatlarimizni o'zimizga ximoya quroli qilib olishimiz naqadar zarurligi ko'rinadi. "Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish zarur"[3]

Bundan 20 yil muqaddam xitoy faylasufi Konfusiy o'z-imperatoriga shunday degan edi: "Hoqonim agar biror mamlakatni bosib olib u erda uzoq xukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha erda yashayotgan xalqning o'z tarixiy madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy bo'hronni kuchaytiring. O'z madaniyatidan bebaxra bo'lib ma'naviy qashshoqlik xolatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi. Sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday xolga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish qiyin bo'lmaydi[4].

Milliy ma'naviyatga taxdidlar xar doim ham mavjud bo'lgan. Ammo tarixiy taraqqiyot jarayonlaridan ma'lumki, zo'ravon mamlakatlar boshqa xalqlarni avval qurol kuchi, qudrati bilan o'zlariga qarash qilganlar, keyin esa ularning ma'naviy hayotini egallashga kirishgan. SHuning uchun ham ular o'z – hukmronligini abadiy saqlab qolishga erisha olmaganlar. Bunga markaziy osiyo, Xindiston va boshqa xududlarning

---

[1] Otamurotov.S. Milliy ma'naviy xavfsizlik. // Jamiyat va boshqaruv; 2009, 4son, 24-25-b.

[2] Karimov I.A. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. 3-jild, T.: O'zbekiston, 177-b.

[3] Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch T.: Ma'naviyat, 2008, 78-b.

[4] Toshboev B. Milliy xarakter shakllanishi muammosining ma'naviy-axloqiy taxlili // Falsafa va huquq, 2009 2- son 8-9, b.

bosib olinishi va keyinchalik ularda yashayotgan xalqlar ma’naviyatiga nisbatan olib borilgan zo‘ravonlik o‘tkazishi jarayonini misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, CHorizm mustamlakachilari Turkiston halqlarining ma’naviy jixatdan Rossiyoga nisbatan ustun turishini yaxshi anglagan holda, ularni savodsizlik, bilimsizlik xolatida ushlab turishga intildilar. CHunki g’aflat uyqusida bo‘lgan, fan, texnika, madaniyat yutuqlaridan bebaxra qolgan, milliy ongi past xalqni talash anchagina osondir. Bu xaqda general Kaufman ochiqdan-ochiq shunday deb yozgan edi: “Bu xalqda iloji boricha ko‘proq paxta ektirish, ko‘proq ishlashga majbur etish kerakki, toki bir zum ham o‘ylashga, kundalik voqealarni anglashga urinishga vaqti ham, hoxishi xam qolmasin. Mabodo bularda dardu xasratlarini to‘kib solishga moyillik tug’ilsa, faqat dindan najot topsin”.

Ayniqsa “Oktyabr inqilobi” deb ataluvchi temir panjaralar davrida xalqimizning faqat qo‘llariga emas, tillariga ham kishan solindi.

Halqning ming-ming yillik tarixi oyoq-osti qilindi. O‘zgalar madaniyati, tarixi, yozuvi, tili urf odati majburan olib kirildi. Ayniqsa, milliy madaniyatimizning zayiflashishi natijasida birlik birdamlik hamdo‘stlik, milliy g’urur an’analari unutildi. Natijada o‘tmish bilan bugun o‘rtasida keskin uzilish paydo bo‘ldi. SHarqning byuk allomalari, xalqimiz tarixi va fani osmonini yoritgan o‘z quyoshlarimizning nomlarini bilganda, ular qoldirgan ilmiy va madaniy me’roslardan yiroqlashtirildik. Bularni hammasi millatimiz ravnaqi va istiqboliga, o‘zligini anglab olishga, milliy tilimiz va madaniyatimiz rivojiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. YUrtboshimiz ta’kidlaganidek “Qariyb 150 yil davom etgan, tariximizning tom ma’noda qora kunlari bo‘lish o‘sha zamonda bir paytlar o‘zining qudratli davlatchiligi, byuk farzandlari, yuksak ilmu madaniyati, obod shaxar va qishloqlari bilan dunyoni xayratda qoldirgan El – yurtimiz qanday og’ir mashaqatlarga duchor bo‘lganini yaxshi bilamiz”

Darxaqiqat, uch ming yillikdan ziyod o‘zbek davlatchiligi tarixi shundan dalolat beradiki, xarqanday zo‘ravon bosqinchilar va hukmronlik qilmioqchi bo‘lgan kuchlar yovuz niyatlariga erishish uchun, avvalo, milliy manfaatlarga tajovvuz qilib, madaniyat va an’analarni yo‘q qilishi, shu yo‘l bilan ma’naviy jixatdan zayiflashtirishga xarakat qilib kelgan. Eng achinarlisi shundaki, ma’naviy qashshoqlashtirish, ayniqsa, yoshlar orasida kundan kunga kuchaytirilib borildi, millatimizning muomila madaniyatiga hos bo‘lgan o‘zbekona samimiylik, o‘zaro xurmat, bir-birini xurmatlash, qadr-qimmat, insof-diyonat, mexr-oqibat rishtalarida buzilishlar yuzaga keldi, qo‘rslik, serzordalik arzimagan narsaga janjal ko‘tarish kabi illatlar kishilar orasida ko‘payib bordi. Istiqlol bo‘lmaganida bu hol xaddan tashqari kuchayib, milliy qadriyatlar rivojlanishi to‘xtab, manqurtlashish jarayoni avj olgan bo‘ladi. XX-asr oxiri – XXI-asr boshlariga kelib, yuksak taraqqiyotga erishgan zo‘ravon mamlakatlar o‘zga xalqlarni o‘zlariga bo‘ysundirish, qaram qilishda qurol kuchi bilan emas balki ruxiy-ma’naviy ta’sir o‘tkazish, ularning ongi, qalbi va ruxiyatini egallash uslubidan foydalanishini amalga oshirishga kirishdilar. Gegemon davlatlar o‘z g’oyalarini tiqishtirish dunyo xalqlarini o‘z ta’siriga olish maqsadida manikulyasiya (odam ongini jilovlash, qul qilishi) usulidan ham foydalana boshladi. Manikulasiya jarayonlari bir qancha yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi. SHulardan eng asosiylari quyidagilar:

1).Xayriya tashkilotlari faoliyati.

2).Badiiy va video filmlarini namoyish etish.

3).Ko‘ngil ochar dasturlar.

4).Boshqa xalqlarga o‘z turmish tarzini singdirish va namoyish qilish.

Kuch orqali maqsadga erishishning o‘zini oqlamayotganining sababi unga qanchadan –qancha qurol – aslaxalar, qimmatbaho texnika minglab askarlar va ancha muncha vaqt ham talab qilinadi. Buning yana bir sababi shuki kuch orqali maqsadga erishish insoniyat tomonidan birday qoralanadi, chunki bunda insonga jismoniy og’riq, shikast, moddiy zarar etkaziladi.

Ishontirish vositasida xarakat qilayotganlarni esa biror narsada ayblash qiyin, zero, ular targ’ib qiloyatgan g’oyalari ortida qanday manfaatlar yashiringanini bilish oson emas. Vaxolanki, so‘z, fikr, axborot orqali inson tafakkurini zabt etish ham xalq, mamlakat, xududni bosib olishning biroz madaniylashgan ko‘rinishi xisoblanadi, biroq bunda istilochining kim ekani noma’lum bo‘ladi, xatto aholi o‘zini bosib olish uchun kim kurash olib borayotganini anglamaydi ham. Bu kurash yashirin ravishda, zimdan amalga oshirilgani bois, unga uyushqoq holda qarshilik ko‘rsatib bo‘lmaydi, aynan shu omil bunday kurashlarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Ayrim mutaxassislar mazkur ma’naviy –axboriy xurujlarning xaqiqiy urushdan kam emasligini ta’kidlab, “var far sonsciousness”, ya’ni “ong uchun jang” deya atashmoqda. Odamlarda “sovuq urush” tarixda qolib ketgan, ma’nodagi aqida shakillanib qolgan. Aslida undan-da xunukroq oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan kurashning yangicha shakli borgan sari keskinlashib bormoqda.

SHak-shubxasiz biz yashayotgan davrning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri, axborot oqimlarini cheksiz ko‘payishi bo‘ldi. Uzoq davrlardan buyon insoniyatga zamon va makon omillarini cheklab o‘tib, axborot tashuvchi qog’oz vositalar, ikki asrlik tarixga ega radio, va XX asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bo‘lgan va eng ko‘p auditoriyani o‘ziga jalb qilgan televideniya safiga 1960 yillarning boshlarida kompyuterlar kirib kela boshladi. Aksariyat tadqiqotchilar va keng jamoatchilik tomonidan “informasionalizm deb nomlangan bu fenomen keng qamrovli gobalizm (globalizm) fenomenining tarkibiy qisimlaridan biriga aylandi. SHuni alohida qayd etish joyizki, dunyoda iqtisodiy globallashuv jarayonidan ham, ma’naviy globallashuv jarayonidan ham chetda turgan birorta mamlakat yo‘q. Xattoki, Afrika va Janubiy Amerika changalzorlarida yashayotgan qabilalar ham bu jarayondan ortda qolmayapti[1]. Er sharida axborot va komunikativ bog’liqlikning kuchayishi hamda ayrim millatlarga hos belgilarning globallashuv davri ta’sirida o‘z qadrini yo‘qotayotganligini boshqacha ma’noda talqin, etadiganlar ham topiladi. Ularning fikricha mazkur hayot o‘z xolini, o‘z to‘niga berkitib o‘tganlarni tashqariga chiqishga majbur qilar ekan.

Ayni paytda, globallashuv jarayonini turli mamlakatlarga turlicha ta’sir o‘tkazmoqda. Ba’zi mamlakatlarga u iqtisodiy ham, ma’naviy sohada ham, katta foyda keltirsa, boshqalariga unchalik foyda keltirmayapti, uchinchilariga esa, ko‘proq zarar keltirmoqda.

Ana shu bois ayniqsa, ma’naviy sohada globallashuv jarayoni keltiradigan qulaylik va imkoniyatlar, shu bilan birga uning zararli oqibatlarini ham e’tibordan qochirmaslik lozim. Globallashuv xaqiqatda insonning kafolat moddiy hayot tarziga shu bilan birga ma’naviyati, ruxiy olamiga ham ta’sir o‘tkazmoqda. Har kuni virtual makonda bir necha milliondan ziyod axborot rezurslarining paydo bo‘lishi, ta’siri xar daqiqa sayin o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Bugun dunyoni to‘r singari o‘rab olgan internet tizimi

[1] Ochilova B. Milliy ma’naviy yuksalishda me’ros qadriyatlar va vorisiylik. T. Istiqlol, 2009 112-113-b.

orqali istagan odam xar qanday ma’lumotni qabul qilishi yoki uzatishi mumkin. Albatta, uning kishilar dunyoqarashi, bilimi va saviyasining kengayishidagi ahamiyatini inkor etmagan holda, xuddi shu tizm orqali oddiy axloqiy me’yorlarga zid saytlar o‘rin olgani, ushbu zamonaviy axborot texnologiyasi maxsulidan transmilliy jinoyatchi guruxlar, terorist va aqidaparastlar ham bemalol foydalanishini unitib bo‘lmaydi. SHu nuqtai nazardan,globollashuv dunyoni birlashtira turib, ayni paytda uni emirayapti, degan xavotirlar jiddiy asosga ega bo‘lib qoldi. Bu jarayonni sharxlashda G’arbdagi qudratli davlatlar jaxon xamjamiyatining integrasiyalashuvi ahamiyati bo‘rttirilib, dunyoning rang-barangligini asrash muammosi atayin xospo‘shlanmoqda.

Ularning asl niyatlari globollashuv shiori ostida millatlarninng o‘ziga xosligini “tekislab” yo‘qotib yuborish, dunyodagi madaniy xilma-xillikka barham berish, ma’naviyatni konseplashtirishdan iborat.

Bunda G’arb taqlid uchun andoza sifatida dunyoga o‘zini taklif etmoqda. G’arb madaniyatini umuminsoniy madaniyat, universal madaniyat sifatida joriy etishga urinish mavjudligini 2004 yil Berlinda bo‘lib o‘tgan “Evropalashtirish, amerinlashtirish va globallashuv sharoitida milliy davlatlar” mavzuyidagi ilmiy anjuman ham tasdiqlaydi[1]. bugungi kunga kelib, shunday kuchlar paydo bo‘lmoqdaki, millatga xos bolishlarning yo‘qolishi ong va aqlning o‘tmaslashishidan manfaatdor. Dunyodagi taraqqiy topgan davlatlar rivojlanayotganlar uchun ideal namuna sifatida namoyon bo‘lmoqda. SHu o‘rinda biror tomonning yutug’ini ko‘r-ko‘rona o‘zlashtirishdan ko‘ra, muvaffaqiyat sirlari va uning tub mohiyatini o‘rganish maqsadga muvofiqligini aytib o‘tish joiz. Xozirda xayrli maqsadlarda zimdan olib borilayotgan ishlar biror-bir millatning o‘zligini yo‘qotishga qaratilayotganini sezish mumkin. Bu yo‘ldagi maqsadni amalga oshirish uchun katta mablag’ kerak bo‘lsa-da, u keltiradigan daromad sarf-xarajatlarni ortig’i bilan qoplaydi. Masalan. AQSH ning ichki va tashqi qarzlari juda ko‘p bo‘lsa-da mamlakat xar yili 2,5 mlrd dollor foyda ko‘radi qarz bergan davlatlar Amerikadan o‘z pullarini talab qilishi kerak, aslida. Biroq amaliyotda xammasi teskarisiga aylanib ketgan dunyoning aksariyat axolisi o‘z mablag’larini AQSH da saqlash daromad keltirish va boyib ketish uchun zamin yaratishga ishonadi nega qarzlari bunchalik ko‘p davlatga nisbatan ishonch xanuzgacha kuchli? Quyidagi fikr muloxozalar uning sababini tushunib etishimizda yordam berishi mumkin. Bu borada AQSH da ishlab chiqarilgan maxsus mexanizmning o‘rni katta. U sayyoramiz xalqlarining ongi, ruxiyat, e’tiqodiga, ma’naviy-madaniy jixatdan ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy va siyosiy sohada katta foyda keltiradi.

SHuning uchun Hristofor Kolumb kashf etgan kit’adagi ushbu davlatda nima sodir bo‘lishidan qat’iy nazar horijliklarning ong kompasining kafgiri o‘sha tarafga burilaverib, go‘yoki tayanch nuqtasini topadi. Aslida mazkur kompos maxsus institutlar tomonidan boshqarilayotganini ko‘pchilik anglab etmaydi. SHu yo‘nalishda bir qator tashkilotlar- OAV san’at va madaniyat markazlari, milliy korporasiyalar, diniy ikkita va jamiyatlar ish olib boradi. Ular Amerikacha xayotni ustalik bilan yuqorida aytib o‘tilgan axborot va g’oyalar yordamida targ’ib qiladi. SHu orqali etakchilikka intiladi. Bu borada AQSH da maxsus dastur ishlab chiqilgan bo‘lib, dasturda ko‘zlangan vazifalardan biri maxsus divershan (qo‘poruvchilik) topshiriq olgan jeday jangchilar (mashxur “YUlduzlar jangi”

[1] Umarova N. Madaniy vasvasa yohud ahloqning globallashuvi. // Jamiyat va boshqaruv, 2007, № 2, 33-35-b.

kino turkimidagi jang va ruxiyat sirlarini o‘rgatuvchi ustoz nomidan kelib chiqqan) dan iborat soxta guruxlar tuzishdir. Ular turli guruxlar tarkibiga turli yo‘llar bilan kirib olishga xarakat qilishadi. U kabi maxsus tayyorgarlik bosqichidan o‘tgan mutaxassislar guruxining ish faoliyati o‘z muqobillariga ham ega ularning eng mashxuri reyder tayyorlashdir.

Unga ko‘ra dushman taraf ishonchini qozonishga kirib olishga erishgan kadr u erda o‘zini ko‘rsatishga to‘g’ri keladi. Bu kabi shaxslar muxitga tez moslashib ketishga va do‘stona aloqalarni avval o‘rnatib so‘ngra o‘sha erdagi axillikni buzishga kirishadilar. Dushman guruxiga kirib olgan reyder o‘zini xissiyotga beriluvchan qilib ko‘rsatib, doim raxbarlar diqqat markazida bo‘lishga intiladi. SHu orqali jamoaning e’tiborini chalg’itib, u erdagi munosabatlarni birma-bir izdan chiqaradi. Bu – ongni buzish yo‘lida ancha takomillashtirilgan urish metodlaridan biridir.

Dasturdan ko‘zlangan maqsadning navbatdagisini amalga oshirishda manfaatdor guruxlar zamonaviy axborot va aloqa tizimlaridan maksimal foydalanadilar. Ongni buzish, oqimni o‘z yo‘nalishiga solib yuborishda televideniedagi maxsus modellashtirilgan soxta tok-shou, reoliti-shou, norno-shou va boshqa ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarning tashkilotchilari, kino sanoitidagi ayrim rejisyor-prodyuserlar ommoviy madaniyat targ’ibotchilari ma’lum ma’noda rederlar sirasiga kiradi. “Ushbu televizon tasvirlarda mashxur bir odam chiqib, shunday aqlga sig’maydigan, behayo xatti xarakatlarni amalga oshiradiki, uni tamosha qilayotgan oddiy kishi, ayniqsa yosh, dunyoqarashi mort tamoshabinda, demak, boshqalarda ham shunday xolat mavjud ekan, degan aldamchi taasurot paydo bo‘ladi”, deb yozadi Amerikalik taniqli jurnalist Jeffri Stenynberg.

Ongning buzulishi odamni qolibdan, demakki, chegaradan chiqaradi-oldinlar uyat, or-nomus yo‘l bermagan shularga ko‘p o‘rib, axloqsizlashadi, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlardan uzoqlashadi. Bunday odamlarning keyinchalik manqurtdan farqi qolmaydi. Ma’naviyat terrorchilari uchun aynan shu kerak.

XXI asr ijtimoiy ongni boshqarish borasida burilish asri bo‘ldi. Milyonlab kishilarni bir vaqtning o‘zida jadal targ’ibot bilan qamrab olish imkonini beradigan yangi texnologik vositalar paydo bo‘ldi. Ilgari tasavvur etib bo‘lmaydigan ko‘lamda siyosiy tamoolar qo‘yishga qodir rejisyor-tashkilotlar bo‘y ko‘rsatdi. Ba’zan beozordek ko‘ringan reklamma ham madaniy o‘zakni qo‘porishning kuchli vositasiga aylanayotganini e’tiborga oladigan bo‘lsak. “g’oyaga qarshi g’oya bilan kurashish zarurligi” haqidagi fikrning ahamiyatini yanada chuqurroq anglaymiz.

SHunday ekan, o‘zligimizdan maxrum qilishga intilishlarning poyini qirqishimiz, ongimizni boshqarishga bo‘lgan urunishlarga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Prezidentimiz “YUksak ma’naviyat –engilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek, hozirgi vaqtda ko‘z o‘ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot – komunikasiya ma’ruzasida chuqur o‘zgarishlar ro‘y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g’oyaga qarshi g’oya, jaxolatga qarshi ma’rifat bilan kurashish xar qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2.2.2. LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINING ISHLANMALARI, TARQATMA MATERIALLAR, ULARNI O'TKAZISH VA QO'LLASH BO'YICHA METODIK TAVSIYANOMALAR

### "GLOBALLASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI"
MASALASIGA DOIR

### KEYS-STADI

### PEDAGOGIK ANNOTASIYA

**O'quv predmeti:** "**Globallashuv asoslari**" fani

**Mavzu: Globallashuv va axborot texnologiyalari**.

**Keysning asosiy maqsadi:** Axborot globallashuvi va yoshlar ma'naviyati, axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, Axborot globallashuvi masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini; bu mavzuda so'z yuritish avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanishi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi – yoshlar ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir.

**O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:**

- Axborotlar olamida ijtimoiy begonalashuvning kuchayib borishi va yoshlar hayotiga kirib borayotgan internetning salbiy ta'sirlari va u bilan bog'liq muammolarning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib berish;
- Jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarning ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashini nazorat qiluvchi institutlar oldida turgan dolzarb vazifalarni ko'rsatib berish;
- Komp'yuter o'yinlari va virtual muloqatning deviant xulq- atvor ko'rinishi sifatida namoyon bo'layotganligini tahlil qilib berish;
- muammoli vazifalarni echishda nazariy bilimlarini qo'llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda echim topish.

**Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmoqlari zarur:**

*Talaba bilishi kerak:*

Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari. Internet axborot globallashuvining o'ziga xos vositasi. Jamiyat axborotlashuvining global tendentsiyalari. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo'llari. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi.

*Talaba amalga oshirishi kerak:*

- talaba zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalarni to'g'ri tavsiflay olishi; turli ijtimoiy-madaniy xususiyatda kechayotgan hodisalarni xolis qiyosiy taqqoslay olish; zamonaviy jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolardan ustuvorlarini aniqlash va ularni ob'ektiv tahlil qila olishi; mavzuni mustaqil o'rganadi; muammoning mohiyatini aniqlashtiradi; g'oyalarni ilgari suradi; ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi; o'z nuqtai nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi; o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi; ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

*Talaba ega bo'lmog'i kerak:*

- kommunikativ ko'nikmalarga; taqdimot ko'nikmalariga; hamkorlikdagi ishlar ko'nikmalariga; muammoli holatlar tahlil qilish ko'nikmalariga.

**Manbalardan foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
2. Latipova N. Yoshlar va din. XXI asrda barkamol shaxs rivojlanishi muammolari. / Barkamol avlod yiliga bag'ishlangan Respublika ilmiy-uslubiy konferentsiyasi materiallari. – Toshkent. 2010. 197-201-b.
3. Axborot asrida ta'lim-tarbiya.– Toshkent: Akademnashr, 2012. – 6 b.


**Texnologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda keysning tavsifnomasi:**

Ushbu keysning asosiy manbai ***kabinetli, lavhali*** bo'lib, hayotiy vaziyatlar asosida bayon etilgan. Keysning asosiy ob'ekti ***shaxsga yo'naltirilgandir.*** Bu ***tashkiliy institutsional keys*** bo'lib, ma'lumotlar, vaziyatlar va savollar asosida tuzilgan. Materialni taqdim etish usuli ***tahliliy ma'lumot va jurnalistik taftishga*** asoslangan. ***Hajmi o'rtacha, tizimlashtirilgan*** bo'lib, treningga mo'ljallangan o'quv mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan. ***Didaktik maqsadlarga ko'ra*** keys muammolarni taqdim qilishga, ularni hal etishga, tahlil qilish va baholashga qaratilgan.

Ushbu keysdan "Globallashuv asoslari" "Sotsiologiyaa", "Siyosatshunoslik va O'ZDJQN va amaliyoti", "Ma'naviyat asoslari" fanlarida hamda murabbiylik soatlarida foydalanish mumkin.

**KEYS: Globallashuv va axborot texnologiyalariga kirish**

"**Globallashuv va axborot texnologiyalariga**" mavzusi "Globallashuv asoslari" fanidan muammoli vaziyatlarni hal etish bo'yicha amaliy mashg'ulotda "Keys stadi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasi asosida ishlab chiqilgan.

Globallashuv asoslari fani o'rganilib kelingan an'anaviy qarashlar va yondashuvlar asosida tahlil qilinayotgan globallashuv va axborot texnologiyalarilarining jamiyat hayotidagi o'rni, tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan texnologik jarayonlarning yoshlarning jismoniy va ma'naviy yuksalishiga ta'siri natijasida vujudga kelayotgan muammolarni har tomonlama o'rganish, maqbul echimlar va variantlarni ilgari surish hozirgi davr fanining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Aynan ana shu muammolarni oldini olish yo'llarini ishlab chiqish "Keys stadi"ga asoslangan o'qitish texnologiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Ushbu texnologiya amaliy vaziyatlarni hal etish jarayonida o'rganilgan o'quv mavzusi bo'yicha bilimlarni mustahkamlashga, muammolarni tahlil qilish va qirralarni yakka tartibda yoki guruhlarda qabul qilish ko'nikmalarini egallashga, ijodiy va o'rganish qobiliyatlari, mantiqiy fikrlash, nutq va muhit sharoitlariga moslashish qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda qarorlarni mustaqil qabul qilishga va o'z-o'zini nazorat qilishga yordam beradi.

Quyidagi keys – yoshlarning ijtimoiy begonalashuv jarayonlariga tortilib borishi tendentsiyasi, mazkur jarayon uchun asos bo'layotgan omillar – internet, komp'yuter o'yinlari, ularga mukkasidan ketish va oxir oqibatda deviant holatlarga tushishi, yoshlar hayotini izdan chiqarishga qaratilgan jiddiy xatarlar va ularni oldini olish yo'llarini ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mavzu bo'yicha deviatsiya tushunchasi va uning mohiyati, yoshlar hayotini sotsiologik tadqiq etish tamoyillari, begonalashuv jarayoni, globallashuvning o'ziga xos jihatlari, milliy qadriyatlar, ma'naviy negizlar, ijtimoiy nazorat institutlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur.

Tavsiya etilgan keysni yechish quyidagi natijalarga erishishga imkon yaratadi:

- o'zlashtirilgan mavzu bo'yicha bilimlarni mustahkamlash;
- muammoning hamda qabul qilingan echimning individual va guruhiy tahlilida bilim va ko'nikmalarni qayta topshirish;
- mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- mustaqil ravishda qaror qabul qilish ko'nikmalarini egallash;
- o'quv axborotlarini o'zlashtirish darajasini tekshirib ko'rish;
- zamonaviy tahdidlar ko'lami va shiddati borasida yaxlit tasavvur hosil qilish.

## TARMOQMI YOKI QARMOQ

### Vaziyat № 1.

Qachonlardir g'orlardagi tasvirlar ko'rinishidagi muloqot bilan cheklangan odamzod bugun o'z kashfiyoti oldida ojiz qoldi. «Insoniyat ongi va tafakkurining kuchi bilan shu kungacha kashf etib kelingan barcha narsalar – samolyot, televizor, boringki, robotlar ham fantastik asarlarda, xayolparast olimlarning tasavvurlarida uchar gilam, oynai jahon yoki temir odamlar sifatida namoyon bo'lgan. Ammo komp'yuter kashf etilgach, jahon sahnasini allaqanday xavotirli sukunat qamrab oldi. Eng buyuk olimlarning tadqiqotlari, qisqa axborotlar, hayotimiz aks etgan sur'atlar, orzu-intilishlarimiz – hamma-hammasini mana shu temir quti ichiga joylashtirish mumkin. Hatto ba'zi olimlar tomonidan bashorat qilingan texnikaning insoniyat ustidan hukmronlik qilish davri etib keldimikan degan xayolga boraman», – deydi psixolog Feruza Alimova.

Internetning salbiy va ijobiy xususiyatlari to'g'risida bahs yurituvchilar ikkita katta guruhga bo'linib, o'z fikrining tasdig'i uchun qanchalik ko'p dalil keltirmasin, bu haqda aniq bir fikrni aytish qiyin. Odamlar ushbu elektron OAVdan qanday maqsadda foydalanyapti? Hamma muammo shunda.

«O'rgimchak to'ri»ni faqat axborot manbai sifatida biladigan katta avlod uchun bu gaplar mubolag'adek ko'rinishi mumkin. Biroq chat orqali o'ziga xos tarzda salomlashish maqsadida hosil qilingan «slm», «sava», «kaleyka» so'zlari bilan nutqimizni «boyitayotgan», «a» harfi o'rniga @ belgisidan foydalanishni afzal biladigan yoshlar ham ko'payib borayotgani mubolag'a emas.

### Yolg'on gapirishingiz mumkin!

Ingliz tilidan tarjima qilinganda «chat» mazmunsiz gaplar degan ma'noni anglatadi. Vaqtini chatlarda o'tkazayotgan odamlarning asosiy mashg'ulotini ana shunday gaplarni «muhokama» qilish tashkil etadi.

Internetga «o'rgimchak to'ri» deb nom berilganining asl sababi nimada, bilmadim-u, lekin bu to'rga ilingan «pashsha»larning soni kundan-kunga ortib bormoqda. Achinarlisi, internetdan foydalanuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Undan ham achinarliroq tomoni, internet domiga tushib qolganlarning vaqti chatlarda qizlar bilan tanishish, yigitlarni «avrash», do'stlar bilan chaqchaqlashish kabi «yumush»larga sarf bo'lyapti. Sabab sifatida odamlarning real hayotda muloqotga kirisha olmasligi, bo'sh vaqtning ko'pligi yoki shunchaki ko'ngilxushlik qilish istagini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, chat orqali suhbatlashishning o'ziga xos afzalliklari ham bor. Chatda istagan odam bilan istagan vaqtda istagancha suhbatlashish mumkin. Ya'ni muloqot davomiyligini siz belgilaysiz. Agar suhbat sizni qiziqtirmasa, suhbatdoshingiz bilan

muloqotni to'xtatasiz-qo'yasiz.

Internet orqali suhbatlasharkansiz, munosabatlar shunchaki bir o'yin ko'rinishida bo'ladi. U biz bilgan haqiqiy munosabatlarga umuman o'xshamaydi. Bu qanday suhbat bo'ldiki,sichqonchaning birgina harakati bilan yakunlash mumkin bo'lsa!?

Agar farzandingiz kuniga 5 soatdan ortiq vaqtini internetda o'tkazayotgan bo'lsa, demak, xavotir olishga etarli asos bor. Shuningdek, tarmoqning ashaddiy muxlislarida real dunyodao'zini noqulay his qilish, unda qancha vaqt bo'lganini yashirishga urinish, shu bilan birga, yolg'on gapirishga bo'lgan moyillikning ortishi va real hayotdagi sustlik kuzatiladi.Internetdan nima maqsadda foydalanish insonlarning tabiati, ularni o'rab turgan muhitga ham bog'liq. Tez asabiylashadigan, hissiyotlarga beriluvchan odamlar turli «otishmali o'yinlar»ga qiziqib, o'z g'azablarini shu yo'l orqali bosadi. Bunday odamlarning xatti-harakatida yuqori darajadagi agressivlik va tahlikaga tushish kuzatiladi. O'yinlarni, aslida, sotuvga chiqarishdan avval psixologik ekspertizadan o'tkazish lozim.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreyada internetdan me'yoridan ortiq darajada foydalanadigan maktab o'quvchilari 40 foizni tashkil etadi. 15 foiz o'quvchiga esa bemalol «internet kasalligi» degan tashxisni qo'yaverish mumkin.

Xitoydagi ko'rsatkichlar ham shunday. Afsuski, bu antiqa kasallikni davolaydigan mutaxassislar juda kam. Hech qanday bog'ich va vaktsinalar esa komp'yuter monitoriga tobora chuqurroq kirib borayotgan bolakaylarga yordam berolmaydi.Internet – juda arzon va qulay axborot manbai. Mobil aloqa vositalari orqali ham tarmoqqa ortiqcha qiyinchiliksiz ulanish mumkin. Texnika kundan-kunga rivojlanib boryapti,axir! Kursiga emaklab chiqadigan jajji bolakaylar ham xudi biz kabi axborot vositasidan erkin foydalanish imkoniyatiga ega. Butun mas'uliyat ota-onaning elkasida, chunki yarim yalang'och «xola»lar, zo'ravon «amaki»lar va yana boshqa har xil tushunarsiz tasvirlar ko'pgina saytlarning ko'rkiga ko'rk bag'ishlab turadi.

**Vaziyat № 2.**

**Biz robot emasmiz**

Internetga qaram bo'lib qolgan, chat va tanishuv saytlari umrining mazmuniga aylangan yoshlarning bu haqda o'z fikrlari bor.

*Latif Mamatov, 25 yosh:*

– Chat shunday narsaki, unga dastlab shunchaki qiziqish tufayli kirasiz. Ikkinchi gal nega kirganingizni aniq ayta olmaysiz, lekin sizni qiziqishdan kuchliroq hissiyot boshqaradi. Uchinchimarta siz tanish odamlar bilan suhbatlashish uchun «birrovga» kirgandek bo'lasiz. To'rtinchi marta sizni chatda muloqotqilishga bo'lgan ehtiyoj boshqaradi. Beshinchi gal o'zingizniyolg'iz sezib, odatiy hayotdan zerika boshlaysiz, ish ozgina kutib turar, biroz dam olish kerak deb o'ylaysiz. Oltinchi gal o'z qilmishingizni tushuntirib berolmaysiz ham. Oxir-oqibat sizshu erda – chatda yashay boshlaysiz.

*Sabina Ochilova, 15 yosh:*

– Hamma chatlarda qiziqarli odamlar bo'ladi. Ular bilan tanishish, fikrlarini bilishning o'ziga yarasha zavqi bor. Chatda o'zingizni siz istagan qiyofada ko'rsatishingiz mumkin. Turgan gapki, hamsuhbatingizdan kamchiliklaringizni yashirib,o'zingizni naq qahramondek his qilasiz. Elektron suhbatlar makoniga kimdir shunchaki vaqt o'tkazish uchun, kimlardir haqiqatdan ham u erdagi odamlar bilan muloqot qilishni yoqtirgani uchunkiradi.

– Ishdan qaytganimda o'g'limni boshi bilan komp'yuter ichiga«sho'ng'ib» ketgan holda ko'rishga odatlanib qoldim. «O'qishlaringyaxshimi?» degan savolimga «ha» ma'nosida bosh irg'aydi, xo-los. Uning soatlab internetda nima qilishini, to'g'risi, tushun-mayman ham. Bir narsani aniq bilamanki, o'g'limning «Referat tayyorlashim kerak», «5 daqiqa, xolos», «Zarur ishim bor» de-gan gaplari shunchaki bahona. Hayronman, farzandimni tarbiya
qilishda qanday xatoga yo'l qo'ydim? – deydi Nasiba Safarova.

Xorijda internetga mukkasidan ketish nikohlar, oilaviy munosabatlar va yaqin do'stlikning buzilishiga olib kelgan holatlar ko'p uchraydi. Yaqin kishilariga nisbatan internetga ko'proq vaqt sarflaydigan odamlar ham topiladi. Kir yuvish,do'kondan non xarid qilish, uy yig'ishtirish kabi yumushlardan qochib, o'zini internetning panasiga oladiganlar bor hatto.Masalan, amerikalik bir ayol kun bo'yi internet bilan band bo'lib, darslari allaqachon tugagan farzandini maktabdan olishni unutib qo'ygan.

## AMALIY VAZIYATNI BOSQICHMA – BOSQICH TAHLIL QILISH VA HAL ETISH BO'YICHA TALABALARGA USLUBIY KO'RSATMALAR

### Talabalarga yo'riqnoma

| Ish bosqichlari | Maslahatlar va tavsiyanomalar. |
|---|---|
| 1. Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish | Avvalo keys bilan tanishing. "Axloqning globallashuviga oid holatlarning namoyon bo'lishiga internetning ta'siri", "Yoshlar ijtimoiy begonalashuvining zamonaviy omillari" haqida tushuncha hosil qilish uchun bor bo'lgan butun axborotni diqqat bilan o'qib chiqish lozim. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmang |
| 2. Berilgan vaziyat bilan tanishish | Ma'lumotlarni yana bir marotaba diqqat bilan o'qib chiqing. Siz uchun muhim bo'lgan satrlarni belgilang. Bir abzatsdan ikkinchi abzatsga o'tishdan oldin, uni ikki uch marotaba o'qib mazmuniga kirib boramiz. Keysdagi muhim fikrlarni qalam yordamida ostini chizib qo'ying. Vaziyat tavsifida berilgan asosiy tushuncha va iboralarga diqqatingizni jalb qiling. Vaziyatlar tavsifida berilgan dalillarni sanab o'ting va qaysisi aniqlashtirilishi lozimligini aniqlang |
| 3. Muammoli vaziyatni tahlil qilish | Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatingizni jalb qiling.<br><br>***Asosiy muammo:* Internet - yoshlar hayotida deviant holatlar namoyon bo'lishining muhim omili**<br>Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.<br>1. Internet deganda nimani tushunasiz?<br>2. Ijtimoiy tarmoqlar nima?<br>3. Kompyuter o'yinlarining shaxs shakllanishiga ta'siri qanday?<br>Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlang. Muammoning asosiy mazmunini ajratib oling. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – ob'ektning holatini aniqlang, asosiy qirralariga e'tibor qarating, muammoli vaziyatning hamma tomonlarini tahlil qiling. Ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalash zarurati oshib borishi sabablarini, ijtimoiy begonalashuvning |

| | |
|---|---|
| | jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri, globallashuv davrida internet manbalari va imkoniyatlarining salbiy va ijobiy jihatlarini anglash zaruriyati va ijtimoiy nazorat institutlari oldida turgan ulkan vazifalar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib bering |
| 4. Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash | Ushbu vaziyatdan chiqib ketish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishing. Muammoni echish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqing, muqobil vaziyatni yarating. Muammoning echimini aniq variantlardan tanlab oling, muammoning aniq echimini toping. Jadvalni to'ldiring. Keys bilan ishlash natijalarini yozma shaklda ilova eting. |

**"Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldiring**

| Vaziyatdagi muammolar turi | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari |
|---|---|---|
| | | |

**Keys bilan ishlash jarayonini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**
(mustaqil auditoriyada va auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun)
**Auditoriyadan tashqari bajarilgan ish uchun baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

| Talabalar ro'yxati | Asosiy muammo ajratib olinib, tadqiqot ob'ekti aniqlangan mak. 5 b | Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari aniq ko'rsatilgan mak. 5 b | Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari Aniq ko'rsatilgan mak. 5 b | Jami mak.15 b |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

**Auditoriyada bajarilgan ish uchun**
**baholash mezonlari va ko'rsatkichlari**

| Guruhlar ro'yxati | Guruh faol mak. 1 b | Ma'lumotlar ko'rgazmali taqdim etildi mak. | Javoblar to'liq va aniq berildi mak. 5 b | Jami mak. 10 b |
|---|---|---|---|---|

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | 4 b | | |
| 1 | | | | |
| 2 | | | | |
| 3 | | | | |

8-10 ball – a’lo, 6- 8 ball – yaxshi, 4- 6 ball – qoniqarli

### 2.2.3. J.N., O.N., YA.N. SAVOLNOMALARI (INTELLEKTUAL TIZIM, TESTLAR, YOZMA ISH VA OG‘ZAKI SO‘ROV VARIANTLARI, UMUMIY SAVOLLAR)

**Fanni o‘qitish semestrlari va uslubiy ko‘rsatmalari:**

**“Globallashuv asoslari” fani 5- semestrda “**Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” yo‘nalishi, bakalavr bosqichi talabalariga o‘tiladi. **O’quv rejasi bo’yicha jami 112 soatga mo‘ljallangan bo‘lib, shundan 28 soat ma’ruza, 28 soat seminar mashg’uloti va 56 soat mustaqil ta’limni tashkil etadi.**

**Reyting balini to‘plash**

**REYTING TIZIMI**

| t/r | Semestr | J.N. | O.N. | Ya.N. | jami |
|---|---|---|---|---|---|
| **1** | **5- semestr** | **35** | **35** | **30** | **100** |
| | Saralash bali | 20 | 19 | 16 | |

| Joriy nazorat 35 | Oraliq nazorat 35 | Yakuniy nazorat 30 |
|---|---|---|
| 19-24- «3»<br>25-29- «4»<br>30-35- «5» | 19-24- «3»<br>25-29- «4»<br>30-35- «5» | 16-21- «3»<br>21-25- «4»<br>26-30- «5» |

### ORALIQ NAZORAT MAVZUSI VA MUSTAQIL TA’LIM
### I BO’LIM
### GLOBALLASHUV JARAYONINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSIARI

1.Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlari va uning o‘rganishning ilmiy-nazariy zaruriyati.

2. «Globallashuv asoslari» fanining tadqiqot doirasi, uning maqsad-vazifalari.

3. Dunyoning xozirgi mafkuraivy manzarasi.

4.Globallashuvning nazariy asoslari.

5.Globallashuv universallashuv jarayonida sifatida.

6. Globallashuv tushunchasi.
7.Globallashuvning asosiy xususiyatlari va namoyon bo‘lish yo‘llari.
8.Globallashuv amalga oshishining turli xil vositalari.
9.Globallashuv yuz berishida internet, badiiy adabiyot, OAV, ta’lim, hamkorlik va boshqalarning o’rni.
10.Dunyoning xozirgi mafkuraviy manzarasi.
11. Globallashuvning asosiy davrlari.
12. Globallashuv universallashuv jarayonida sifatida.
13.Globallashuvga bozor munosabatining ta’siri.
14.Globallashuv hayotning gomogenezatsiyasi sifatida.
15. Globallashuvning milliy iqtisodiy siyosat bilan aloqadorligi.
16. Globallashuv va dunyoning yo‘nalishi masalasi.
17. Globallashuv fenomen sifatida.
18. Globallashuv va ilm fan va texnika taraqqiyoti masalalari.
19.Dunyo miqyosida ro‘y berayotgan globallashuvning ijobiy va salbiy jihatlari.
20.Insoniyat xayotida jamiyat xayotining turli sohalarida xamkorlikning kuchayishi, uning turli jihatlari.
21.Insoniyatga tahdidlar va ularni hal etishda hamkorlikning roli.

## II BO’LIM
## GLOBALLASHUV SOHALARI

1. Siyosiy jarayonlardagi integratsiya.
2. O‘zbekiston va globallashayotgan dunyo.
3. Milliy ma’naviy metosni asrashda YuNESKO va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik.
4.Globallashuv jarayonlari tizimida demokratiya.
5. Demokratiya, sharqona demokratiya tushunchalari.
6. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish borasidagi vazifalar.
7. Globallashuv va xalqaro mehnat taqsimoti.
8. Insoniyat ehtiyojlarining o‘sib borishi.
9. Tabiiy qazilmalarning qazib olish, qayta ishlash, takror ishlab chiqarishda hamkorlik.
10. Transmilliy korporatsiyalar.
11. Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi sharoitida O‘zbekiston manfaatlari.
12. Madaniyat sohasidagi globallashuv jarayonlarining mazmun-mohiyati.
13.Madaniy muammolari va milliy-ma’naviy qadriyatlarning saqlash zaruriyati.
14.Madaniy globallashuvga axborot texnologiyalarining ta’siri.
15.Globallashuv sharoitida ta’lim sohasidagi «ommaviy madaniyat» ko‘rinishidagi mafkuraviy tazyiqlar.
16. Madaniy jarayonlarning globallashuvi sharoitida ta’lim tizimi oldidagi vazifalar.
17. Axborot texnologiyalari globallashuvning o‘ziga xos xususiyatlari.
18.Internet axborot globallashuvining o‘ziga xos vositasi.
19.Jamiyat axborotlashuvining global tendentsiyalari.
20. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo‘llari.
21. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi.

22. Xulq atvor strategiyasi va taktikasida sub'ektivlikning namoyon bo'lishi.
23. Ob'ektivlik umumiy harakat integral natija sifatida.
24. G'arb madaniyatiga taqlid globallashuvining sub'ektivlikda namoyon bo'lishi.
25. Globallashuvning ob'ektiv maqsadi.
26.Globallashuv evropa qadriyatlar tizimining bosqichi sifatida.
27. Mikro-mezo-makro darajalardagi globallashuv.
28. Dinning madaniyat fenomeni sifatida o'ziga xos xususiyatlari.
29. Islom dinida globallashuvning talqini.
30. Dinlarning rivojiga globallashuvning ta'siri.
31. Din globallashuvining mezonlari.
32. Din globallashuvida xalqning iroda va erkinligi masalasi.
33.Globallashuvning an'anaviy dinlarga ta'siri.
34.Globallashuvning ishlab chiqarishdagi tub islohotlarga ta'siri.
35.Globallashuvning lokal madaniyatning shakllanishiga global ta'siri.
36.Glokalizatsiya global integratsiya va global strukturalarga lokal javob orasidagi bog'lovchi bo'g'in sifatida.
37. Lokal madaniyatning globallikka ziddiyatli xarakteri.
38. Globallashuv va lokallashuvning o'zaro ta'siri.
40. Globallashuv va modernizatsiya ijtimoiy transformatsiya jarayoni sifatida.
41.Globallashuvning umumbashariy ijtimoy transformatsiyasi.
42. Modernizatsiya – ijtimoiy transformatsiyaning lokal jarayoni.
43. Ana'aviy jamiyatdan yangi jamiyatga o'tish.
44.Modernizatsiyaning klassik nazariyasi.
45.Modernizatsiyalashgan jamiyatda innovatsiyalarning globallashuvi.
46.Globallashuv postindustrial texnologik ishlab chiqarish vositasiga o'tishning sharoiti sifatida.
47. Globallashuvning gumanizatsiyasi va global innovatsiyalarning o'zaro aloqadorligi.
48.Kontinentlararo migratsiyaning globallashuvi.
49.Migratsiya jarayonlarining globallashuvdagi o'rni.
50. Migratsiya jarayonlarining mehnat malakasining oshirishdagi roli.
51.Jahon iqtisodiy tizimi globallashuvining oliy malakali kadrlar migratsiyasining shakllanishiga ta'siri.
52. Oliy malakali va malakasiz kadrlar migratsiyasidagi farqlar.
53. Nolegal migratsiyaning globallashuvi (qochoqlar, mehnat migratsiyasi) va uning oldini olish usul va vositalari.

## III BO'LIM
## GLOBALLASHUV VA GLOBAL BOSHQARUV

1. Ijtimoiy ong shakllarida globallashuvning namoyon bo'lishi
2. Axloqiy munosabatlarning globallashuvi insoniyat evolyutsiyasining qonuniyati sifatida.
3. Moslashuvchanlik va o'zaro bir-birini tushunish axloq globallashuvining asosiy tamoyillaridan biri.
4. Shaxs axloqiy sifatlarining shakllanishi intellektning erkinligi bilan bog'liqligi.

5.Axloqiy sifatlarning shakllanishiga davlat boshqaruvining ta’siri.

6. Axloq globallashuvi zarurligi va muqarrarligining keskinlashayotgan global ziddiyatlar bilan bog‘liqligi.

7. Madaniyatning globallashuvi yagona umuminsoniy madaniyat shakllanishi jarayoni sifatida.

8. San’at globallashuvning integral sintezi.

9. Hozirgi davr fanining global imkoniyatlari.

10.Globallashuv sharoitidagi fanning funktsiyalari.

11.Ta’lim globallashuvining ziddiyatli xarakteri.

12.Iqtisodning bilimga bog‘liqligi – yagona ta’lim tizimini yaratishning zarurati.

13. Ta’lim va tarbiyaning global bozor iqtisodi sharoitiga moslashishining zarurligi.

14.Ta’limning globallashuvi – mamlakatning milliy manfaatlariga jiddiy yondashuvining muhim omili.

15.Ta’limning globallashuvida internet va masofali o‘tishning roli.

16.Ta’lim globallashuvining rivojlangan industrial davlatlar va uchinchi darajali mamlakatlar ziddiyatining keskinlashuvi bilan bog‘liqligi.

17. Milliy maktab ta’lim tizimida vorisiylikni ta’minlash, mul’timadaniy universitet ta’limini rivojlantirish omillari.

18. Sport global jarayonga aylanishining o‘ziga xos xususiyatlari.

19. Sport millatlar va davlatlararo o‘zaro aloqalarni o‘rnatish vositasi.

20. Sportning globallashuviga olimpiyada xarakatining ta’siri.

21. Sport globallashuvining ijobiy xarakteri.

22.Sport globallashuvining salbiy xususiyatlari.

23. Sportning globallashuvida gegemoniyaning namoyon bo‘lishi.

24.Sportning ijtimoiy-madaniy maqsadlariga rivojlantirishning global ahamiyati.

25.Tashkillashgan jinoyatning global masshtablari.

26. Texnik modernizatsiyalashgan jinoyat: sputnik aloqa internet, hozirgi zamon etnik vositalari.

27. Giyohvandlik moddalarni tarqatish va iste’mol qilishning globallashuvi.

28. Rossiya G’arbiy Evropaga giyohvand moddalarni etkazuvchi tranzit davlat.

29.Qurol savdosi diniy etnik asosdagi lokal konfliktlarning manbalaridan biri.

30. Qurol savdosi jinoyat globallashuvidagi yangi bo‘g‘in.

31. Nolegal migratsiya va uning globallashuvi.

32. Odam savdosi – trafikaning globallashuvi.

33. Antikvariat bozorining globallashuvi.

34. Jinoyatchilikning globallashuvi dunyo xufyona iqtisodi rivojlanishining asosiy vositasi.

35. Xalqaro va mintaqaviy-tarmoq tashkilotlarning (BMT, NATO xalqaro valyuta fondi va jahon banki) ahamiyati.

36. Global siyosiy tizimlar doirasida demokratiyaning yangi shalki – manipulyativ demokratiyaning paydo bo‘lishi.

37. Manipulyativ demokratiya harakatining legitim xarakteri.

38.“Rangli inqiloblar” demokratiya eksportining ko‘rinishlari sifatida.

## IV BO’LIM
## GLOBALLASHAYOTGAN DUNYODA O’ZBEKISTON

2. Iqtisodiy gloallashuv jarayonida O’zbekistonning o’rni va roli.
3. O’zbekistonning iqtisodiy imkoniyatlari.
4. Modernizatsiya va innovatsiyalar – O’zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining strategiyasi.
5. Globallashayotgan dunyoda O’zbekistonning o’ziga xosligi.
6. Globallashuv jarayonida O’zbekistonda milliy o’zlikni anglash muammolari.
7. Globallashuvning O’zbekistonning ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotiga ta’siri.
8. Xalqaro miqyosda ro‘y berayotgan global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi.
9. Globallashuv sharoitida O’zbekistonning o’ziga hos pozitsiyasi
10. Ilmiy-texnikaviy salohiyatning o’sishi – raqobatbardoshlikning asosiy omili.
11. Globallashuv va ma’naviy inqiroz.
12. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlarining Prezident I.A.Karimov asarlarida yoritilishi.
13. Globallashuv jarayonlarida millat va milliy o‘zlikni anglash masalalari.
14. Globallashuvning millat xayotida namoyon bo‘lish xususiyatlari.
15. Demografik globallashuv, ma’naviyat va qadriyatlar.
16. “Ommaviy madaniyat” va milliy o‘zlikni anglash.
17. O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi davrida milliy o‘zlikning anglash masalalari.
18. Jamiyat hayotining turli sohalarida globallashuv.
19. Globallashuvning ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotga ta’siri.
20. Xalqaro miqyosda ro‘y berayotgan global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi masalalari.
21. Globallashuv va ma’naviy inqiroz.
22. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etish masalalari.
23. Mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish (prezident I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» asari asosida).
24. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi.
25. Prezident I. Karimovning «Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch» asari asosida ma’naviy taxdidlarga nisbatan kurash yo‘llari va vositalari.
26. Hozirgi kunda dunyo jamoatchiligi e’tiborini o‘ziga jalb qilib turgan “AQSH – Suriya” munosabatlarining global mohiyati.
27. BMT halqaro miqyosda dunyo mamlakatlari integrallashgan siyosiy tashkilot sifatida.
28. Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga tahdid” g’oyasining mazmun mohiyati.
29. Zamonaviy TMK va O’zbekiston.
30. O’zbekiston va xalqaro xavfsizlikni ta’minlash muammolari.
31. Mustaqil O’zbekiston davlatchiligi – xalqaro globallashuv chaqiriqlariga javob sifatida.
32. O’zbekistonning xalqaro terrorizmga qarshi kurashishdagi tashabbuslari

## JORIY NAZORAT TURIDA BAHOLASH MEZONLARI

Seminar mashg'ulotlarini baholash jarayonida quyidagilar inobatga olinadi:

a) seminar mavzusi doirasida ko'rsatilgan savollar bo'yicha konspektning mavjudligi;

b) mashg'ulotga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlardan foydalanganligi;

v) tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan (darslik, davriy matbuot, internet manbalari) foydalanganmi;

g) seminar rejasida qo'yilgan savollarga javoblarning aniq ilmiy asoslanganligi;

d) har bir savol bo'yicha xulosalarning to'g'riligi.

*Izox*: Muayyan seminar mashg'ulotlarni baholash jarayonida seminarga ajratilgan mustaqil ish soatlari hisobga olinadi.

## ORALIQ NAZORAT TURIDA BAHOLASH MEZONLARI

1.Fanning ON uchun belgilangan bo'limi yoki qismi bo'yicha nazariy bilimlarni to'la o'zlashtirganlik darajasi;

2.Olingan nazariy bilimlarni qo'llay bilish ko'nikmalarining shakllanganlik darajasi;

3.Qo'yilgan savollarga berilgan javoblarning ilmiy asoslanganligi;

4.O'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etganligi.

5.Tavsiya etilgan adabiyotlardan tashqari, boshqa davriy matbuot, va h.k. manbalardan foydalanilganlik.

### Yakuniy nazorat ishlarini baholash mezonlari

***86-100 ball bilan baholanadi:***

- Talaba Globallashuv asoslari fani bo'yicha mustaqil mushohada yuritsa;
- fanning qonuniyatlari, kategoriyalari va metodologiyasining mohiyati va mazmunini tushunsa;
- Globallashuv asoslari faniga doir aniq tasavvurga ega bo'lsa, ularni jamiyat va inson faoliyatiga oid misollar orqali ifodalab bersa, ularni amaliy faoliyatda qo'llay olsa;
- o'tilgan mavzular bo'yicha xulosa va qarorlar kabul qilsa;
- ijodiy fikrlasa, tanqidiy munosabatlar bildirsa, o'z fikrini erkin bayon etsa;
- ma'ruza, amaliy mashg'ulot va mustaqil topshiriqlarni o'z vaqtida bajarsa va to'plagan ma'lumotlarida birinchi manbalarga murojaat etgan bo'lsa

***71-85 ball bilan baholanadi:***

- talaba sotsiologiya fani bo'yicha mustaqil fikrlay olsa, bildirilgan fikrlarini anglay olsa;
- fanning muhim mezoniy tushunchalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lsa, uni bilsa va tushuntirib bera olsa;

- ma’ruza, seminar va mustaqil ish uchun berilgan topshiriqlarni bajarsa.

***56- ball bilan baholanadi:***

- fanning asosiy mezoniy tushunchalari va tamoyillarini tushunsa va aytib bersa;
- ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari va mustaqil ishlarni yozgan va bajargan bo‘lsa;
- mashg‘ulotlarda o‘z mulohazasi bilan ishtirok etib tursa.

***0- 55 ball bilan baholanadi:***

- fan va qonuniyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lmasa, ularning mohiyatini tushunmasa;
- JN va ON larni topshira olmagan bo‘lsa;
- ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil topshiriqlarni yozmagan va bajarmagan bo‘lsa;
- darslarni sababsiz qoldirgan bo‘lsa;
- darsda faol bo‘lmasdan va intizomsizlik qilsa.

## MUSTAQIL ISH SHAKLLARI

| № | Shakli | Maksimal ball |
|---|---|---|
| 1 | O’quv adabiyotlar taxlili | 3 |
| 2 | Maxsus adabiyotlar taxlili | 3 |
| 3 | Qo’shimcha adabiyotlar ustida ishlash | 3 |
| 4 | Tayanch tushunchalar ustida ishlash | 3 |
| 5 | Referat tayyorlash | 5 |
| 6 | Test tayyorlash | 4 |
| 7 | Kichik ilmiy ish | 3 |
| 8 | Internet tarmog’i bilan ishlash | 4 |
| 9 | Prezintatsiya | 3 |
| 10 | Ilmiy maqola va tezislar yozish | 4 |
| 11 | Albom tayyorlash | 3 |
| 12 | Trening o’tkazish | 4 |

# 1.
# O'QUV ADABIYOTLARI, TAYANCH TUSHUNCHALAR VA MAXSUS MANBALAR BILAN ISHLASH




## Namuna

## O'QUV ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qirg'izboyev M. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – Andijon, 2014,- 360 b
2. Aliyev B va boshqalar O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2012. – 280 b.
3. Ergashev I. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. – T.: "Navro'z", 2005.
4. Aliyev B., Hoshimov T. va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T.: TDIU, 2007. – 240 b.
5. Mirzayev A. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDTU, 2000. – 328 b.

## MAXSUS ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: «O'zbekiston», 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 dekabrdagi «Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi (yangi tahriri) 1999 yil 14 aprel Qonuni.
4. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qonunchilik palatasi to'g'risida"gi 2002 yil 12 dekabr Qonuni.

5. “O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to’g’risida”gi 2002 yil 12 dekabr Qonuni.

## O’zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Karimov I. A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – T. 1. – T.: O’zbekiston, 1996. – 364-b.
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T. 2.- T.: O’zbekiston. 1996. – 380-b.
3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3.- T.: O’zbekiston. 1996. – 366-b.
4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo’lidan. T. 4.- T.: O’zbekiston. 1996. – 349-b.

Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishash – davr talabi . T. 5.- T.: O’zbekiston. 1997. – 384-b

## QO’ShIMChA ADABIYOTLAR

1.Jo’rayev S. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. –T.: TDS’HI, 2003.– 364 b

2.Jo’rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. Ma’ruza matni. – T.: “Ma’naviyat”, 2001. – 24 b.

3.Jalilov Sh.I. Fuqarolik jamiyatining poydevori. – T.: “O’zbekiston”, 2003. 208 b.

4.Sultonov T., Hayitov A. Demokratik jamiyat sari: parlament saylovlari va siyosiy partiyalar. – T.: TDIU, 2004. – 64 b.

5. Do’stjonov T., Hasanov S. O’zbekiston demokratik taraqqiyot yo’lida. O’quv qo’llanma. – T.: TMI, 2004. – 188 b.

## ILMIY JURNALLAR

1. Zunnunov G’. Fuqarolik jamiyati sari // Demokratlashtirish va inson huquqlari. –2006. – №4.-B.35-37.;
2. Kenjayev E. Fuqarolik institutlari tushunchasi: ma’no va mohiyati // Jamiyat va boshqaruv. – 2008. – №3.- B.77.;
3. Musayev F. Demokratik davlat qurishning falsafiy-huquqiy asoslari. – Toshkent: O’zbekiston, 2007.-270b.;
4. Murodov S. Davlat va nodavlat tashkilotlarining o’zaro hamkorligi // Jamiyat va boshqaruv. – 2006. –№4. – B.75.;
5. Murodov S. Nodavlat sektorni modernizasiyalash va erkinlashtirish // Jamiyat va boshqaruv. – 2009. –№3. – B.22-24.;

## 2.
## TAYANCH TUSHUNCHALAR BILAN ISHLASH

- **Fanning (mavzuning) mohiyatini ochib beruvchi tushunchalarni o’zlashtirish** (masalan Falsafa fanidan – donolik, dunyoqarash, tafakkur, olam, borliq va yo’qlik, dunyoning yaratilganligi yoki o’z o’zidan mavjudligi,

substansiya, aloqadorlik, rivojlanish, taraqqiyot, xayot va inson, adolat, haqiqat, yaxshilik va yomonlik ...x.k )

- **Fanning (mavzuning) mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o'zlashtirish** (antologiya, gnosologiya, metodologiya, praksiologiya, dialektika, metafizika, etika, estetika, mantiq, ijtimoiy falsafa, antropologiya, ong, qadriyatlar, ijtimoiy faoliyat, globallashuv)
- **Fan tarixi to'g'risida ma'lumot beruvchi tushunchalarni o'zlashtirish** (Antik davr falsafasi, Avesto, Zardushtiylik ta'limoti Ramayana, Mahobxarat, Veda, Upanishada, Konfusiy ta'limoti, Aristotel falsafiy qarashlari, Milet maktabi, "Fozil odamlar shahri" asari, I. Kant falsafiy qarashlari ... va x.k.)

**Namuna**

| № | Mavzu | Tayanch tushunchalar |
|---|---|---|
| 1 | **"O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari** | Davlat, demokratiya, g'arb demokratiyasi, sharq demokratiyasi, erkinlik, tenglik, adolat, plyuralizm, diniy bag'rikenglik, tolerantlik, ijtimoiy adolat, qadriyat, umuminsoniylik, jamiyat, jamoa, shaxs, saylov, bevosita demokratiya, bilvosita demokratiya, fanning obyekti, fanning subyekti, OAV, NNT, ijtimoiy sherikchilik. |
| 2 | **Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning "O'zbek modeli"** | Istiqlol, mustaqillik, ozodlik, deklarasiya, davlat tili, diniy davlat, dunyoviy davlat, milliy model, o'tish davri, klassik usul, evolyusion usul, revolyusion usul, shved modeli, koreys modeli, erxart modeli, amerika modeli, yapon modeli, qonun ustivorligi, iqtisodning ustunligi, ijtimoiy himoya, davlat bosh islohotchi, bosqichma-bosqichlik tamoyili. |
| 3 | **O'zbekistonda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi** | Qonun, farmon, farmoyish, qaror, parlament, Senat, Qonunchilik palatasi, spiker, fraksiya, qo'mita, reglament, Vazirlar Mahkamasi, ijroiya hokimiyati, vazirliklar, qo'mitalar, markazlar, mahalliy davlat hokimiyati, sud hokimiyati, prokuratura, apellyasiya, kassasiya, instansiya, advokat, fuqarolik jamiyati, kuchli fuqarolik jamiyati, jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, O'zMTDP, O'zXDP, Adolat SDP, O'zLDP, Kasaba uyushmasi, modernizasiya, liberallashtirish, Xabeas korpusi, ombudsman instituti. |
| 4 | **Demokratik bozor** | Bozor munosabatlari, davlat mulki, |

| | | |
|---|---|---|
| | **islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirish. Kuchli ijtimoiy himoya va adolat.** | monopopoliya, ishlab chiqarish, diversifikasiya, mahalliylashtirish, xususiy mulk, tadbirkorlik, kasanachilik, ijara shartnomasi, tovar-ayriboshlash, birja, yarmarka, moliya, bank, inflyasiya, iqtisodiyot, korxona, aksiya, aksiyadorlik kompaniyalar, kredit byuro, garov reyestri, riyeltorlik, investisiya, pay fondlari. |
| 5 | **O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligida demokratik tamoyillarga asoslanishi** | Tashqi siyosat, chegaralar dahlsizligi, jahon hamjamiyati, yadro qurolidan holi zona, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy faoliyat vazirligi, elchi, konsul, vakil, "6+2" memorandumi, BMT, MDH, ShHT, YeI, YeXHT, YuNESKO, xalqaro hamkorlik, sanksiya, qurollanish poygasi, TRASEKA, ikki tomonlama hamkorlik, ko'p tomonlama hamkorlik, agressiya, narkobiznes, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, fundamentalizm. |

## 3.
## REFERAT

Referat baholashda quyidagilar inobatga olinadi:

a) mavzu dolzarbligining ochib berilganligi;
b) mavzuda ko'rsatilgan masalalarning to'la ochib berilganligi;
v) ko'rsatilgan masalalarni hal qilishda eng samarador usullardan foydalanilganligi;
g) chiqarilgan xulosalarning ilmiy asoslanganligi.

*NAMUNA*: Modul nomi – Siyosiy tizim (Siyosatshunoslik fanidan)
**Semestr**: 7.2015/2016
**Referat**: Individual yozma ish
**Baholanishdagi ulushi**: 20%
**Berilgan muddati**: 2 oktyabr, 2015
**Topshirish muddati**: 20 noyabr, 2015
**Ye-mail**: social@inbox/uz
**Kafdra soati**: Payshanba, soat 12.00-16.00
**Maqsad va vazifalar:**

**1.** Mavzuga oid adabiyotlar asosida mahalliy va xorijiy manbaa va maxsus adabiyotlar tahlili

**2.** Mavzuga doir qonunchilik hamda nazariy tahlil

**3.** Mavzuga doir yechim va muammolar tahlili va istiqbol yechimlar

**4.** Materialni aniq va to'g'ri xatosiz bayon etilishi, ishni sifatli rasmiylashtirilgani

**Vazifa(lar)**

Kirishda asosiy e'tibor mavzu doirasida ko'tarilgan muammoni ochib berishga qaratiladi. Mavzuning dolzarbligini anglay bilish, ko'tarilayotgan muammoni ko'ra bilish va uni tahlil qilishda qo'llaniladigan uslub kirish qismida aks etishi kerak.

1. Asosiy qismida mavzuga tegishli adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish
2. Tanlangan mavzuni O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil etilishi zarur
3. Mavzuga oid siyosiy jarayonlarni xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil etilishi lozim.
4. Amalga oshirilgan tahlillar asosida ilmiy xulosa chiqariligi zarur.

**Bahlash mezoni**

| Savol | Mazmuni | So'z hajmi | Bet | Ball |
|---|---|---|---|---|
| Asosiy qismida mavzuga tegishli adabiyotlarning ilmiy va amaliy jihatlari hamda dolzarbligini yoritish | Mavzuni ilmiy muammo tarzida ko'rsatish, uslubiy asosini ko'rsatish. Adabiyotlar ichida ilmiy jurnallar, xorijiy davlatda chop etilgan maqola va tezislarning tahliliga e'tibor berish talab qilinadi | 400 ta | 2,3 | 1 |
| Tanlangan mavzuni O'zbekiston misolida qiyosiy tahlil etilishi zarur | Mavzuni O'zbekistondagi mavjud siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda qiyosiy tahlil qilish | 800 ta | 4,5 | 1 |
| Mavzuga oid jarayonlarni xorijiy davlatlar misolida qiyosiy tahlil etilishi lozim | Mavzuga oid siyosiy jarayon va munosabatlarni xorijiy davlatlar misolida o'rganish ilg'or jihatlar xususida taklif va mulohazalar kiritish | 900 ta | 2,3 | 2 |
| Amalga oshirilgan tahlillar asosida ilmiy xulosa chiqarilishi zarur | Talaba tomonilan keltirilgan taklif va mulohazalar infogfika, jadval, turli ko'rinishdagi jadvallar asosida ko'rsatilishi talab qilinadi | 600 ta | 2 | 1 |
| | Jami | 2700 ta so'z (10-14 varaq) | | |

- 3 ball mustaqil ishi tuzilishi va tarkibi uchun beriladi
- 2 ball keltirigan ma'lumotlarning to'g'riligi va asoslanganligi uchun beriladi
- Umumiy ball 5 ni tashkil etadi

**Ko'rsatmalar**

- Ushbu mustaqil ishi individul topshiriq hisoblanadi. Mazkur topshiriqni bajarish uchun sizga kerakli ma'lumotlar va imliy manbalar ushbu kurs joylashgan **www.jspi-social.zn.uz** sahifasida joylashtirilgan
- Siz yaxshi tuzilishga ega bo'lgan 14 bet xajmdan ortiq bo'lmagan mustaqil ishi pechatlangan va elektron holatda topshirishingiz zarur bo'ladi. U diagrammalar, jadvallar va manbaalar ro'yxatini o'z ichiga olmaydi. Mustaqil ish Times New Roman shrifida, 14 kattalikda 1 oraliq masofaga ega bo'lgan A4 xajmda sahifalangan bo'lishi kerak. Talabaning FIO va tahsil oladigan fakultet va guruhi aniq ko'rsatilishi zarur.
- Internet sahifalardan ko'chirilgan ishlar antiplagiat dasturida tekshirilib ko'riladi. Ko'chirilgan bo'lsa ball qo'yilmaydi

Mazkur mustaqil ish uchun so'ngi muddat _____ yil _____ kuni _____ soat gacha. Guruhdagi barcha talabalar shu muddatda mustaqil ishlarini kafedraga topshirishi shart.

## 4.
## INTERNET TARMOG'IDAGI SAYTLARDAN FOYDALANISh BO'YIChA TAVSIYaLAR

| | | | |
|---|---|---|---|
| **1** | **www.anons.uz** | **14** | **www.xs.uz** |
| **2** | **www.gazeta.uz** | **15** | **www.mt.uz** |
| **3** | **www.12.uz** | **16** | **www.xdp.uz** |
| **4** | **www.uza.uz** | **17** | **www.stat.uz** |
| **5** | **www.daryo.uz** | **18** | **www.monitoring.uz** |
| **6** | **www.idrok.uz** | **19** | **www.natlib.uz** |
| **7** | **www.ictnews.uz** | **20** | **www.txt.uz** |
| **8** | **www.marifat.uz** | **21** | **www.dissercat.com** |
| **9** | **www.lex.uz** | **22** | **www.jspi-social.zn.uz** |
| **10** | **www.ziyonet.uz** | **23** | **www.mybook.uz** |
| **11** | **www.edu.uz** | **24** | **www.21asr.uz** |
| **12** | **www.xtv.uz** | **25** | **www.pv.uz** |
| **13** | **www.senat.uz** | **26** | **www.jspi.uz** |

## O'ZDJQNA FANIDAN SLAYD TAYYORLASH UCHUN MAVZULAR

| | |
|---|---|
| **1.** | O'zbekiston Respublikasi mustaqil taraqqiyot yo'lida. |
| **2** | O'zbekiston davlat ramzlarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishi. |
| **3** | O'zbekiston Respublikasining yangi konstitusiyasi. |
| **4** | O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi va uning siyosiy ahamiyati. |
| **5** | O'zbekistonda davlat hokimiyatining tashkil etilishi: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlari. |

| | |
|---|---|
| **6** | O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil etilishi funksiyalari va faoliyati. |

## 5.
## ALBOMLAR TAYYORLASH

| № | Mavzusi |
|---|---|
| **1** | O'zbekistonda oila institutining shakllanishida qadriyatiy munosabatlarning o'rni |
| **2** | Mustaqillik va diniy qadriyatlar |
| **3** | Mustaqillik va millatlararo totuvlik |
| **4** | O'zbekistonda bank tizimining shakllanishi tarixi |
| **5** | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik-iqtisodiyotimizning ajralmas qismidir |
| **6** | Tadbirkorlik rivoji –taraqqiyot garovi |
| **7** | "Sharq taronalari"-dunyo xalqlarini ezgulikka chorlovchi musiqa festivali |
| **8** | "O'tganlarni xotirlash, keksalarni e'zozlash-bizning farzandlik burchimiz"(9-may Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlab). |
| *«Muammoli vaziyat» turi* | *«Muammoli vaziyat» sabablari* | *Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari* |
|---|---|---|
| Nima uchun globallashuv sharoitida milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlashga ehtiyoj sezilmoqda? | | |

**Uyga vazifa "Madaniy sohadagi tahdidlar va dunyoning mafkuraviy manzarasi"" mavzusini FSMU texnologiyasi asosida bajarib kelish**

| | |
|---|---|
| **F** | (Fikringizni bayon eting). |
| **S** | (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating). |
| **M** | (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring). |
| **U** | (Fikringizni umumlashtiring). |

| **MAVZU** | **GLOBALLASHUV VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI** |
|---|---|

**Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni:* 78 | *Vaqti:* 2 soat |
| *Mashg'ulot shakli: Ma'ruza* | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan mashg'ulot. |
| *Ma'ruza rejasi* | 1. Axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari.<br>2. Internet axborot globallashuvining o'ziga xos vositasi.<br>3. Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo'llari.<br>4. Elektron hukumat shakllanishining globallashuvi. |
| *Mashg'ulotning maqsadi:* Mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta'minlash. | |
| *Pedagogik vazifalar* | *O'quv faoliyati natijalari.* |
| • mavzuni mustaqil o'rganish uchun asos yaratadi;<br>• mavzu bo'yicha bilimlarni chuqur o'zlashtirish va mustahkamlashga yordam beradi;<br>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;<br>• o'z nuqtai nazariga ega bo'lishni shakllantiradi;<br>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko'mak beradi. | - amaliy mashg'ulot rejalari bilan ol-dindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'radi;<br>- axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos xususiyatlari aytib bera oladi;<br>- internet axborot globallashuvining o'ziga xos vositasi ekanligini aytib bera oladi;<br>-axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilish yo'llari haqida o'z fikrini namoyon etadi. |
| *O'qitish usullari va texnika* | Topshiriqlar, amaliy ishlash usuli, bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash, «Qanday qilib» texnikasi, «Muammoli vaziyat» uslubi. |

| | |
|---|---|
| *O'qitish vositalari* | Ma'ruzalar matni, markerlar, qog'ozlar, doska, bo'r. |
| *O'qitish shakllari* | Jamoa va guruhlarda ishlash. |
| *O'qitish shart-sharoiti* | Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya. |
| *Monitoring va baholash* | Og'zaki nazorat, savol-javob, o'z-o'zini nazorat qilish, reyting tizimi asosida baholash. |

**Mashg'ulotning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o'qituvchi* | *talaba* |
| I-bosqich. Mavzuga kirish. (10 minut) | 1.1. Amaliy mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Ta'lim jarayoni «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi (1-ilova). | Tinglaydilar. O'UM ga qaraydilar. |
| | 1.2. «Qanday qilib» texnikasidan foydalanilgan holda talabalarga, «Qanday qilib axborot texnologiyalari globallashuvning o'ziga xos vositasiga aylandi?» degan savol bilan murojaat qiladi. Bajarilgan ishlarni ko'zdan kechirib xulosalaydi (2-ilova). | O'z fikrlarini erkin bildiradilar. Organayzerni to'ldiradilar. |
| | 1.3. Talabalarning fikrini umumlash-tirib, ularni 3-4 ta kichik guruhlarga bo'ladi. | Interfaol usul-lardan foydala-nilgan holda kichik guruhlarga bo'linadi. |
| | 1.4. Talabalarning mashg'ulotdagi fao-liyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi (3-ilova). | O'UM ga qaraydilar. |
| | 1.5. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriqlarni tarqatadi (4-ilova). | Topshiriqlar us-tida ishlaydilar. |
| II-bosqich. Asosiy (60 minut) | 2.1. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishi uchun yordam beradi. Ularni baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. | Faol qatnashadilar. |
| | 2.2. Har bir guruh topshiriqlarini vatman-qog'ozlarga tushirib, taqdimo-tini o'tkazishga yordam beradi, bilimla-rini umumlashtiradi, xulosalarga alo-hida e'tibor beradi. Topshiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi. | Jamoa bo'lib ba-jarilgan ishning taqdimotini o't-kazadilar, bahs-munozara yurita-dilar, qo'shimcha-lar qiladilar, xu-losa chiqaradilar. Baholaydilar. |
| | 2.3. Guruhlarga «Muammoli vaziyat» uslubidan foydalanilgan holda «Nima uchun Internet | Mustaqil baja-radilar. Erkin |

| | | |
|---|---|---|
| | axborot globallashuvining eng muhim vositasi sanaladi?» deb savol bilan murojaat qiladi (5-ilova). | fikrlarini namoyon etgan holda jadvalni to‘ldiradi. |
| | 2.4. Har bir guruh topshiriqlarni vat-man-qog’ozlarga tushirib, taqdimotini o‘tkazishida yordam beradi. YAgona xulosa chiqarishga ko‘mak beradi va nihoyasida umumlashtiradi. | Taqdimot o‘tkazadi. G’olib guruh-larni aniqlab, baholaydi. |
| III-bosqich. YAkuniy (10 minut) | 3.1. Ish yakunlarini chiqaradi. Faol talabalarni baholash mezoni orqali rag’batlantiradi. | Eshitadi. Aniqlaydi. |
| | 3.2. Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi: “Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidi kelgusi darsga Esse yozib kelish. | O‘UM ga qaraydilar. |

1- Ilova

**Kichik guruhlarda ishlash qoidasi**

1. Talabalar ishni bajarish uchun zarur bilim va malakalarga ega bo‘lmog’i lozim.
2. Guruhlarga aniq topshiriqlar berilmog’i lozim.
3. Kichik guruh oldiga qo‘yilgan topshiriqni bajarish uchun etarli vaqt ajratiladi.
4. Guruhlardagi fikrlar chegaralanmaganligi va tayziqqa uchramasligi haqida ogohlantirilishi zarur.
5. Guruh ish natijalarini qanday taqdim etishini aniq bilishlari, o‘qituvchi ularga yo‘riqnoma berishi lozim.
6. Nima bo‘lganda ham muloqotda bo‘ling, o‘z fikringizni erkin namoyon eting.

2- Ilova



**«Qanday qilib» organayzerini to’ldiring**




3- Ilova

**Baholash mezoni va ko‘rsatkichlari**

| Guruhlar | Savolning to‘liq va aniq yoritilishi 0-5 ball | Misollar bilan muammoga echim topishi 0-5 ball | Guruh a’zolarining faolligi 0-5 ball | Jami ball |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

15 – 13 ball – «a’lo».
12 – 10 ball – «yaxshi».
9 – 6 ball – «qoniqarli».

4- Ilova

**Ekspert qog’ozlari – topshiriqlar**

*1-guruh*

Axborot texnologiyalari globallashuviga nima sabab bo‘lgan? (Aniq misollar keltiring).

2-guruh

Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida Internet va axborot globallashuviga oid qanday fikrlar mavjud? (misollar keltiring).

3-guruh

Axborotlashgan jamiyatning shaxs, millat va davlat hayotidagi o‘rni?

4-guruh

Elektron hukumatni shakllanishiga nima sabab bo‘lmoqda? (misollar asosida).

5- Ilova

**«Muammoli vaziyat»**

| *«Muammoli vaziyat» Turi* | *«Muammoli vaziyat» sabablari* | *Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari* |
|---|---|---|
| Nima uchun Internet axborot globallashuvining eng muhim vositasi sanaladi? | | |

6- Ilova

**Uyga vazifa “Axborotlashgan jamiyatda global muammolarni hal qilishning o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusidi kelgusi darsga Esse yozib kelish.**

| | |
|---|---|
| **MAVZU** | **Ijtimoiy ong shakllarida globallashuvning namoyon bo'lishi** |

**Informasion-ko'rgazmali ma'ruza bo'yicha reja topshiriq va o'quv-uslubiy xujjatlar**

<table>
<tr><td colspan="2">Ma'ruza rejasi:<br>1. Axloq va madaniyatning globallashuvi.<br>2. Fan va ta'limning globallashuvi.<br>3. San'at va sportning globallashuvi.</td></tr>
<tr><td>Mashg'ulotning maqsadi:</td><td>Ijtimoiy ong tushunchasi, tuzilishi, mohiyati haqida tushuncha hosil qilish. Jamiyat hayotida ijtimoiy munosabat asoslarini, ko'rinishlarini to'g'ri anglagan holda ularni qo'llash malakasini shakllantirish. Ijtimoiy ong shakllaridan axloq, fan, ta'lim va san'at sohalarining globallashuvi to'g'risida umumiy tasavvurni shakllantirish.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Talabaning o'quv faoliyati natijalari:<br>• Ijtimoiy ongning asosiy shakllariga xarakteristika beradi;<br>• Axloq, fan, ta'lim va san'at sohalarining globallashuvi haqida olimlarning bildirgan fikrlarini talqin qila oladi;<br>• Axloq tushunchasini ta'riflay oladi;<br>• Fan tushunchasini, fan tasnifini, fanning globallashuvi va siyosiylashuvi jarayonlarini tahlil qila oladi;<br>• Ta'lim tushunchasi va uning mazmunini, shakllari va xilma- xilligini izohlaydi.<br>• Ahloqning globallashuvini izohlay oladi va uning ijobiy va salbiy jihatlarini tavsiflay oladi.<br>• Ta'limning sotsial institut sifatida amal qilishini va zamonaviy ta'limning yutuqlari va kamchimliklari misollar orqali ko'rsatib bera oladi.</td></tr>
</table>

**slayd**

| | |
|---|---|
| **Axloq** | Ruscha – moral, lotincha «mores», «moralis» so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. Axloq so'zi arabcha bo'lib, xulq so'zining ko'pligidir. |
| **Etika** | Yunoncha «ethos» so'zidan olingan bo'lib, buning ma'nosi xulq-odat demakdir. |
| **Xulq, odob** | Odamlarning xatti-harakatlari, kishilar o'rtasidagi amaliy-axloqiy munosabatlardir |
| **Ta'lim-tarbiya** | Ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. |
| **Axloq va iqtisod** | Iqtisod fani mehnatga bo'lgan moddiy ko'rsatkichlarni ifodalasa, axloq ma'naviy ehtiyojlarni ifodalaydi |

**SLAYD-1**

## AXLOQ VA MADANIYATNING GLOBALLASHUVI - BEGONALASHUV VA TANAZZUL

**Бегоналашув турлари**

ИКТИСОДИЙ

- Фаолиятдан бегоналашув
- Фаолият бошқарувидан бегоналашув
- Фаолият натижаларидан бегоналашув

СИЁСИЙ

- Сиёсиий ҳокимиятдан бегоналашув
- Сиёсий фаолликдан бегоналашув
- Сиёсий жараёнлардан бегоналашув

ТАНАЗЗУЛ ТАНАЗЗУЛ ТАНАЗЗУЛ

МАДАНИЙ

- Маънавиятдан бегоналашув
- Маданий меросдан бегоналашув
- Маданий қадриятлардан бегоналашув

РУҲИЙ

- Ўзлигидан бегоналашув
- Ўз моҳиятидан бегоналашув
- Ижтимоий соғломликдан бегоналашув

ИЖТИМОИЙ ИЖТИМОИЙ

- Мулоқотдан бегоналашув
- Ижтимоий тажрибадан бегоналашув
- Ижтимоий эҳтиёжлардан бегоналашув

Бегоналашув - одамлар ва ижтимоий гуруҳларнинг муносабатларидаги азалий бирликнинг бузилиши ва унга олиб келадиган жараён. Бегоналашув таназзулининг олдини олиш инсон тафаккурига боғлиқдир.

SLAYD

# ФАН

## Предметига кўра

Tabiatshunoslik – (tabiatni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish qonunlarini o'rganadi

Jamiyatshunoslik- ijtimoiy munosabatlarni, inson mavqei, iqtisodiy va ma'naviy hayotni o'rganadi

Texnik fanlar -inson tomonidan ixtiro qilingan mashina, mexanizmlar, ular tuzilishi, qurilishi, faoliyati qonunlarini o'rganadigaн фанларга bo'linadi

## Fundamental va amaliy

Fundamental fanlar- tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fanlar

Amaliy fanlar- ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, erishilgan har bir natijasi ishlab chiqarishga bevosita tatbiq etilib boriladigan fanlardir

## ФАННИНГ ХАРАКТЕРЛИ БЕЛГИЛАРИ

**ФАН** халқка хизмат қилади, кенг халқ оммаси иштирокида ривожланади;

**ФАНГА** давлат раҳбарлик қилади;

**ФАН** илмий методология, фалсафа билан қуролланган бўлади;

**ФАН** олимлари ўзаро ёрдам, жамоа режаси асосида ишлашади;

**Slayd**


фанлар классификациясининг бўлиниши:
1) Фундаментал йўналиш
2) Амалий йўналиш
Тадқиқот соҳасида фанлар классификациясининг бўлиниши:
1) Назарий тадқиқот
2) Эмперик тадқиқот
Тузилиш соҳаси бўйича фанлар классификациясининг бўлиниши:
1) Махсус фанлар соҳаси
2) Тармоқ соҳалари


ФАН ТАЪМИНОТИНИНГ КОНЦЕПТУАЛ ВАЗИЯТИ
1
Илмий тадкиқотларнинг тўла таъминлов концепцияси
2
Муҳим илмий ишларга ҳомийлик қилиш концепцияси
3
Фан бозор жараёнига мослашиш концепцияси
БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТИДА ФАННИНГ
Давлат бюджетидан тўғридан тўғри сармоялар ажратиш
1
Грант ва инновацион лойиҳалар орқали маблағлар ажратилиш
2
Корхона, фирма ва корпорациялар томонидан бюджетдан ташқари ҳисоб бўйича маблағ ажратиш
3

## I. O’QUV TOPSHIRIQLAR



**topshiriq**
**1-Vaziyat:**



**Savol:** Bizga ma’lumki, barcha davr, barcha xalqlar uchun bir xil bo’lgan yaxshilikning bo’lishi mumkin emas. U davr, jamiyat taraqqiyotiga qarab o’zgarib, yangi ma’no kasb eta beradi. Yaxshilik va yomonlik tushunchalari ham xuddi shunday o’zgarib boraveradi. Bir paytlar yaxshilik ma’nosini bildirgan hodisa vaqt o’tishi bilan yomonlikka aylanishi yoki teskari bo’lishi ham mumkin. Inson tafakkurining boshqa sohalarida bo’lgani kabi axloqda ham muttasil taraqqiyot sodir bo’lib turadi. Natijada yaxshilik va yomonlik har bir jamiyatda o’ziga xos xarakter kasb etadi. Sizning fikringiz?

**2 – vaziyat:**

Oldingda o’lim turganini sezishing g’am yeyishing uchun kifoyadir. Demak, xali o’lim kelmagan ekan, o’z g’amingni yeb qol, odamlarga yaxshilik qilish bilan nomingni yaxshilar qatoriga qo’shib ket.

Aqlli kishida uchta xislat bo’ladi: o’ziga berilgan savollarga odob bilan javob beradi, birovdan yomonlik ko’rsa ham yaxshilik qiladi, xalqi uchun foydali fikrlarni olg’a suradi.

**3– vaziyat:**

O’z fursatida qilinmagan yaxshilik – yomonlikka yo’l ochishi mumkin. Yomonlarni ehtiyot qiling! Yomon yo’q bo’lsa, yaxshining qadri bilinmay qoladi! Mehr – yaxshilik, qahr – yomonlik belgisi. Shunaqa-ku, mabodo teskarisi bo’lsa-chi? Tasavur qiling bir iflos kimsa begunox odamni o’ldirib qo’ydi. Siz mehr ko’rgazib ming yoqqa yugirdingiz. Bo’lgan hodisani «tasodifga» yo’yib uni jazodan qutqarib qoldingiz. Ertasiga esa u boshqa odamni o’ldirdi..Sizning mehringiz yaxshilikka xizmat qildimi, yomonlikkami? Dunyoda soat kapgiridek tebranib turadigan haqiqatlar ham bo’ladi.

**4 – vaziyat:**

Billur guldon bilan tosh to’qnashsa, toshga balo ham urmaydi, guldon sinadi. Negaki guldon bag’rida gul bor. Yaxshi bilan yomon to’qnashsa, yomonga baloyam urmaydi, yaxshining dili vayron bo’ladi. Negaki yaxshining qalbida ezgulik bor.

**5 – vaziyat:**

Yomonlikka yaxshilik bilan javob bersang bir xissa savob olasan. Yaxshilikka yomonlik bilan javob bersang, o’n xisa gunohga botasan. Negaki, bu dunyoda yomonlikka yaxshilk qiladiganlardan ko’ra yaxshilikka yomonlik qiladiganlar o’n xissa ko’p.

**6 – vaziyat:**

Bir kuni bir yaxshi kishi ko’chadan o’tib borg’onida bir necha hayosiz kishilar orqasidan yamon so’zlar ila so’kib qoldilar. Bu kishi alarning so’zini(ng) eshitib, qo’lini ko’tarib: «Yo Rab, bu nodonlarg’a o’zing aql bergil va to’g’ri yo’lg’a solg’il!»-deb duo qildi. Bu xoldan habardor bir kishi so’radiki, «Nima uchun siz ul kishilarning haqqig’a yaxshi duo qildingiz?»-deb. Ul kishi :»Ey birodar, har kim o’zida borini berur. Menda yaxshilik bor edi, shuni berdim, onlarda yamonlig’ bor ekan, oni berdilar. O’zingda yo’q narsani qaydan olib berursan, har kim qilganicha topar, yamonning yamonlig’i o’z

boshiga yetar»,-deb javob berdi.

**“Evristika” texnikasi vazifalari**

**1-vazifa:**

Abdulla Avloniyning “Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot– yo halokat masalasidur” degan fikrning ijtimoiy ahamiyatini izoxlab bering.

**2 – vazifa:**

So’fiylarning “Tavba - baxtsizlik yo’lining oxiri va to’g’rilik yo’lining boshlanishidir” degan fikrga qarashlaringiz.

**3 – vazifa:**

Axmad Yassaviyning “Boshim tufroq, jismim tufroq, o’zim tufroq, xaq vasliga yetarman deb ruhim mushtoq” yoki “Tufroq bo’lgin olam seni bosib o’tsin” degan fikrlarini axloqiy jixatdan sharxlab bering.

**4 – vazifa:**

Sahih hadislardagi “Avval onangga, yana onangga, yana onangga, keyin otangga yaxshilik qil” degan hadisni farzand burchi sifatida axloqiy jixatdan sharhlab bering

**3-topshiriq**

**Rolli zanjir usuli.” Agar men” o’yinni o’tkazish..**

**Rollar:**



*O’g’il bolalar:*

1. Xokimning o’g’li. 2. Narkoman, o’g’ri yigit.
3.Qimorboz yigit. 4. Bozordagi aravakash.
5.Ziyoli ( xunari bor) yigit.



*Qiz bolalar:*

1. Tilanchi qiz.
2. Yetimxonada tarbiyalangan qiz.
3. Prokuror qizi.
4. O’qigan va uqqan qiz.
5. Narkoman, yengiltabiat qiz.

**Savollar:**

1. Men juda ham baxtliman.
2. Bugun qornim juda och qoldi.
3. Mening qo’lim barcha narsaga yetadi.
4. Men ota – onamni norozi qildim.
5. Bugun juda ham kam pul topdim.
6. Men ota- onamni ko’rgani ko’zim yo’q.
7. Bugun yog’li ish topdim.
8. Men sevib qoldim. (kimni va nima uchun?)
9. Men sevgimni yo’qotdim. (nima uchun?)
10. Hayotimning ma’nosi bor.

| MAVZU | Global inqirozlar davrida yuksak ma’naviyatning dolzarbligi |
|---|---|

**Ma’ruzani olib borish texnologiyasi**

| | |
|---|---|
| *Talabalar soni:* 80 | *Vaqti:* 2 soat |
| *Mashg’ulot shakli: Ma’ruza* | Bilimlarni chuqurlashtirish va mustah-kamlashga qaratilgan mashg’ulot. |
| *Ma’ruza rejasi* | 1. Yuksak ma’naviyat ma’naviy inqirozning oldini oluvchi vosita.<br>2. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy negizlari.<br>3. Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi. |
| *Mashg’ulotning maqsadi:* Mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirishni ta’minlash. | |
| *Pedagogik vazifalar* | *O‘quv faoliyati natijalari.* |
| • mavzuni mustaqil o‘rganish uchun asos yaratadi;<br>• mavzu bo‘yicha bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va mus-tahkamlashga yordam beradi;<br>• kichik guruhlarda ishlashni tashkil qiladi;<br>• o‘z nuqtai nazariga ega bo‘lishni shakllantiradi;<br>• mantiqiy xulosa chiqarishga ko‘mak beradi. | • amaliy mashg’ulot rejalari bilan ol-dindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko‘radi;<br>• Yuksak ma’naviyat ma’naviy inqirozning oldini oluvchi vosita ekanligini tushuntira oladi;<br>• Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g‘oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi ekanligini asoslab bera oladi. |
| *O‘qitish usullari va texnika* | Ma’ruza, «T-sxemasi» texnikasi, baxs-munozara, FSMU texnologiyasi. |
| *O‘qitish vositalari* | Ma’ruza matni, komp’yuter texnologiyasi, proektor, slaydlar, tarqatma manba. |
| *O‘qitish shakli* | Jamoa, to‘g’ridan-to‘g’ri va guruxlarda ishlash |
| *O‘qitish shart-sharoitlari* | Texnik vositalar bilan ta’minlangan, o‘qitish usullarini kullash mumkin bulgan ukuv xona. |
| *Monitoring va baholash* | Kuzatish, og’zaki nazorat, yozma nazorat, savol-javobli so‘rov, o‘quv topshiriq. |

**Ma’ruzaning texnologik kartasi**

| *Ish jarayonlari vaqti* | *Faoliyatning mazmuni* | |
|---|---|---|
| | *o‘qituvchi* | *Talaba* |
| 1 bosqich. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Ma’ruzaning mavzusini e’lon qila-di, o‘quv mashg’ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. | Tinglaydi, mavzu nomini yozib oladilar |
| | 1.2. Mashg’ulotni o‘tkazish shakli va baho-lash | |

| | | |
|---|---|---|
| | mezonlarini e'lon qiladi. | |
| | 1.3. Talabaga mavzu bo'yicha tarqatma materiallarni tarqatadi. | Tarqatmalardan foydalanadi |
| | 1.4. Mavzu bo'yicha ma'ruza mashg'uloti-ning tayanch iboralari va ma'ruza reja-siga izox beradi (1- Ilova).<br>Mavzu yuzasidan blis-so'rov usulida ma'lum bo'lgan tushunchalarni faollash-tiradi, savollar beradi.<br>1. Ma'naviy inqiroz nima?<br>2. Mafkuraviy tahdid nima?<br>3. G'oyaviy bo'shliq nima?<br>Javoblarni to'g'rilaydi va xulosalaydi. | Tayanch iboralar bilan tanishadi<br><br>Savollarga javob beradi |
| 2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa) | 2.1. Yuksak ma'naviyat ma'naviy inqirozning oldini oluvchi vosita ekanligini slaydlar yordamida taxlil qiladi (2-Ilova).<br>Talabalarni e'tiborini asosiy fikr-larga qaratadi va xulosalaydi. | Tinglaydi. YOzadi, slaydga e'tibor qaratadi, savol beradi. |
| | 2.2. 2 va 3 reja savoli: O'zbekiston mustaqilligi, xavfsizligi va barqarorli-giga g'oyaviy tahdidlar hamda mafkuraviy immunitet xamda Ichki va tashqi tahdid-larining ko'rinishlari hamda g'oyaviy bo'shliqqa olib keluvchi sabablar savol-lari yuzasidan qisqa ma'ruza o'qiydi. Ekranga "T-sxemasi" jadvali chiqariladi va uning asosida talabalar bilan savol-javob uyushtiriladi (3-Ilova).<br>Javoblarni tinglaydi va xulo-salaydi | Tinglaydi, yozadi, savollar beradi, juftli guruxlarga bo'linib, organay-zerli jadvalni to'ldiradi. |
| | 2.3. «Mafkuraviy tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish davr talabi» savolini tushuntiradi.<br>FSMU texnologiyasidan foydalanib "Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning omili nimada?" savolini o'rtaga tash-laydi. (4-Ilova)<br>Berilgan javob fikrlarini umumlash-tiradi qo'shimcha qiladi. | Juftli guruxlarga bo'linib FSMU jadvalini to'ldiradi |
| 3 bosqich. YAkuniy bosqich (10 daqiqa) | 3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi. | Tinglaydi |
| | 3.2. Talabalarning bilim va ko'nikma-lari baholanadi. | |
| | 3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun topshiriq beradi:<br>(1). Nazorat savollariga og'zaki javob berish (5-Ilova). | Mustaqil ishlash uchun topshiriqni yozib olishadi va bajaradi |

O‘quv vizual material:

1-slayd

**Immunitet** – lotincha (immunitatis) so‘zidan olingan bo‘lib, biror narsadan xalos , ozod va forig’ bo‘lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo‘zg’atuvchi virusga, dardga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. “Immunitet” so‘zining ma’nosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va ta’sirlaridan himoyalanishi, qarshilik ko‘rsatishi, rezistentligini dildiradi. SHuningdek, u daxlsizlik ma’nosini xam anglatadi, (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti).

2-slayd

**Immunitet turlari** – aslida organizmni infeksion agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo‘yicha uchga bo‘linadi:

**1. Filogenetik immunitet** – anatomik va fiziologik belgisiga ko‘ra nasldan naslga o‘tadigan himoyaviy rezistentligi. Bunda organizm yuqumli kasalliklarga chidamli bo‘ladi.

**2. Tug’ma immunitet** – (turga xos, tabiiy), nisbatan chidamli, nasldan naslga o‘tadigan xarakterga ega.

**3. Orttirilgan immunitet** – hayot davomida orttirilgan immunitet. U o‘z-o‘zidan namoyon bo‘lmaydi. Uning namoyon bo‘lishi uchun ichki yoki tashqi g’oyaviy ta’sir bo‘lishi kerak.

3-slayd

**Мафкуравий иммунитет таркиби:**
1. мафкуравий билим;
2. ҳис-туйғу;
3. ирода;
4. кўникма;
5. малакалар

**2-Ilova**

Vizual materiallar:

1-slayd




Ular asosida hozirda jamiyatimiz hayotiga jiddiy xavf tug’diradigan mafkuraviy tahdidlar:

- islom xalifaligini tiklab, uning bayrog’i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;
- yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g’oyasi;
- tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;
- axloqsizlik g’oyalarini yoyib, xalqni ma’naviy jihatdan buzishga intilishlar;
- turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlar.

-slayd




5-slayd

*«Biz mavjud real xavf-xatarlarga jiddiy qaraymiz. Ayni vaqtda imkoniyatlarimizni, jozibali jihatlarimiz va afzal tomonlarimizni ham bilamiz. Bizning mineral xomashyo, insoniy va ishlab chiqarish zahiralarimiz ichki barqarorligimizning va xalqaro nufuzimizning mustahkam kafolati bo‘lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz XX1 asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida munosib o‘rin olish uchun tarixiy imkoniyatlarga ega».*

***Islom Karimov.***



**3-Ilova (3.1)**

O‘quv topshiriq:

“T – sxema”

1. O‘zbekiston mustaqilligiga xavf solayotgan ichki va tashqi taxdidlarni belgilang.

Aqidaparastlik, poraxo‘rlik, korrupsiya, diniy ekstremizm, maxalliychilik, millatchilik, islom xalifaligi, sobiq ittifoqqa birlashtirish g’oyasi, yonidagilarni mensimaslik, merkantilizm, xiyonat, ma’naviy emigrasiya, tarixni soxtalashtirish, mintaqaviy mojarolar, xalqni tabaqalashtirish, etnik va millatlararo ziddiyatlar, befarqlik, loqaydlik, o‘zligini anglamaslik.

| Ichki | Tashqi |
|---|---|
| | |

2. G’oyaviy bo‘shliqqa olib keluvchi sabablarni ko‘rsating.

Boshqa mafkuralarni tan olmaslik, yakka xokimlik, fanatizm, kommunis-tik mafkura, shariat yo‘li, milliylik, diniy dunyoqarash, ilmiy dunyoqarash, milliy tarix, o‘tmishni tan olmaslik, islom davlati, diniy meros, jamiyatga sig’ishmaslik, nigilizm, befarqlik, g’ayratsizlik, joxillik, xudbinlik.

| Ilmiy | Diniy |
|---|---|
| | |

## FANGA OID QISQACHA IZOHLI LUG’AT – GLOSSARIY

AVTORITARIZM (lot. **autoritas** - xokimiyat) boshkaruvning tazyikiy uslublar bilan ifodalanuvchi davlat tizimi.

ADAPTASIYA (lot. **adaptatio** - moslashtirish) - insonning yangi faoliyat sharoitlariga, ma’lum bir ijtimoiy guruxlardagi munosabatlar tizimiga moslashuvi.

ASOTSIAL XULQ (yunon. **a** - inkor va **socialis -** ijtimoiy)- aloxida olingan shaxs yoki odamlarning ijtimoiy-salbiy sabablar asosida yuzaga keladigan ijtimoiy xayoti shakli bulib, bunday xatti-xarakat boshka shaxs, ijtimoiy gurux va xatto jamiyatga nokulayliklar yoki zarar yetkazishi mumkin (masalan, ichkilikbozlik yoki jinoyatchilik).

ATRIBUSIYA (lot. **attributum** - berilgan) - ijtimoiy obyektlarga (inson, gurux, ijtimoiy birliklar) xos bulgan, lekin kuz ilKamaydigan xususiyatlar.

AXBOROTNI KODLAShTIRISh - 1) empirik ma’lumotlarni zarur talablar asosida kayta ishlash va taxlil kilishga tayyorlash buyicha chora-tadbirlar yiKindisi; 2) sosiologik ma’lumotlarni kayta ishlash boskichining birinchi davri (fazasi).

AXLOQIY-MA’NAVIY ME’YOR - tuKri yoki notuKri xulk-atvor va xatti-xarakat xakidagi g’oyalar va karashlar tizimi bulib, u bir xil xarakatlarni bajarishni talab etadi va boshkalarini takiklaydi.

AHLOQ - u yoki bu ijtimoiy guruxlar va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar ni nazorat kilish va tartibga solish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institut, me'yorlar, baxolar, xulk-atvor namunalari tizimi.

BASHORAT (prognoz) - ma'lum bir dalillarga asoslangan xolda biror-bir jarayon rivojlanishi yunalishlarini oldindan ilmiy tarzda kura bilish.

BEGONALAShUV - odamlar, ijtimoiy guruxlarning bir-biri bilan yonma-yon yashashlariga karamay, ularning munosabatlaridagi azaliy birlikning buzilishi va unga olib keladigan jarayon.

VERIFIKATSIYA (lot. **verus** - xakkoniy va **facio** - kilmok) - ilmiy xulosalarning xakkoniyligini empirik tekshirish orkali urnatish jarayonini ifodalovchi metodologik tushuncha. Verifikasiya fanning nazariy xulosalarini kuzatilayotgan obyekt, tadkikot bilan takkoslash orkali tekshirib kurish, tajribada tasdiklash bilan ifodalanadi.

GLOBALISTIKA umumsayyoraviy miqyosdagi ijtimoiy-tabiiy jarayonlar b-n bog'liq muammolarni o'rganadigan fan sohasi.

GLOBALLASHUV (lot. Globus — shar, Er sayyorasi ma'nosini anglatadi) — XX asrning ikkinchi yarmi — XXI boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibot, tamadduniy bosqich mazmun-mohiyati, davlatlar va kishilar o'rtasida o'zaro aloqalarning kengayishi va murakkablashishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integrasiyalащuv, atrof muhitga texnogen ta'sirning kuchayishi, ommaviy madaniyat namunalarining keng tarqalishi, informasion-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etadigan global jarayon.

GLOBAL MUAMMOLAR butun insoniyatga, er shariga daxldor bo'lgan muammolar bo'lib, o'zining ko'lami va qamrovi jihatidan xilma-xildir. Bu muammolarga yangi jahon urushi xavfi, yadro urushi, ozon muammosi, ekologiya muammosi, Orol muammosi , "ommaviy ma'naviyat", jinoyatchilik, giyohvandlik, zo'ravonlik, OITS kasalligi, qashshoqlik, ishsizlik, inflyasiya, xalqaro terrorizm, poraxo'rlik va b.qalar kiradi.

GEGEMONIZM hamma sohada ustunlik va o'z hukmiga bo'ysindirishni anglatuvchi tushuncha. G. mohiyatan dunyo barqarorligiga yo'naltirilgan yoki ounga xizmat qilishi kerak bo'lgan jahon siyosatiga zid hodisa bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va jamiyat aarqarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi.

GEOSIYOSAT ustuvor darajada siyosiy leksikonga taalluqli bo'lib, davlat tashqi hamda ichki siyosati yo'nalishi, ya'ni maqsad va vazifalariga xususan uning geografik joylashuvi, hududida mavjud bo'lgan resurslarning u yoki bu darajada ta'sir o'tkazish jarayoni b-n bog'liq tushuncha.

GENOSID (yun. genos – nasl-nasab va lot. saedere–o'ldiryapman, yo'q qilyapman) – odam zoti va insoniyatga qarshi qaratilgan hamda ma'naviyat qonunlariga butunlay zid bo'lgan eng og'ir jinoyatlardan biri. Aholining ayrim guruhlarini irqi, millati, etnik yoki diniy belgilariga qarab yo'q qilish, ularni qasddan batamom yoki qisman qirib tashlashni ko'zda tutadigan shart-sharoitlarni vujudga keltirish, shuningdek, bolalar tug'ilishini cheklashga qaratilgan choralar ko'rish.

GENOFOND genlar zahirasi; turli gen (irq)larning tarqalishi, ularning nisbiy miqdor va tarkibiy sifati; u yoki bu organizmlarning tarqalganligi. Merosiy belgilarni o'rganish va aniqlash inson genetikasi uchun ham, jonivorlar hamda o'simliklar genetikasi uchun ham chuqur ahamiyatga ega.

GUMANIZM (lot. humanus – insoniylik) – insonga nisbatan yuksak ma'naviyat

tamoyillari asosida munosabatda bo‘lish, insonparvarlik g’oyasi va amaliyoti.

GUMANISTIK E’TIQOD inson borlig’ini, unga xos ma’naviyat, madaniyat va ma’rifatni ulug’lovchi, bu borada milliylik b-n umuminsoniylikning mushtarakligini ta’minlovchi ishonch, bilimlar, g’oya va qarashlar majmui.

GASTERBAYTER nemischa termin bo‘lib, “yollanma ishchi” degan ma’noni anglatadi. Gasterbayterlik XX asrning 50-yillarida Germaniyada mashhur “Marshall rejasi” siyosati davrida paydo bo‘lgan. II – jahon urushidan so‘ng jahonda ikki harbiy – siyosiy blok va ikki qarama-qarshi qutbiy lager paydo bo‘ldi. AQSH o‘zining “Marshall rejasi” yordamida G’arbiy Germaniyani qayta tiklash siyosatini olib bordi. Sanoatni, qishloq xo‘jaligi va h.k. sohalarni rivojlantirish uchun juda katta mehnat resurslari kerak edi. Bunday holatga nisbatan qoloq mamlakatlar, xususan Turkiya davlati javob bera oldi. U erdan Germaniyaga ish qidirib kelgan migrantlarga “gasterbayterlar” degan nom qo‘yildi.

DEVIANT UULK-ATVOR (lot. **deviatio** - oKish) - ijtimoiy normativlar va me’yorlardan oKib ketuvchi xatti-xarakat.

DEMOGRAFIYA - (grek. Demos - xalk xamda grapho yozaman: xalk xakidagi yozuvlar), - axolishunoslik tuKrisidagi fan. Demografiya axolining barcha tabaka va guruxlarini son va sifat jixatidan urganadi. Bu yerda asosan tug’ilish, ulim, nikox, ajrim, migrasiya jarayonlari xamda ularga ta’sir kiluvchi omillar urganiladi.

INDETERMINIZM (lot. - **in** - inkorni ifodolovchi sifatdosh va determinizm) - tabiiy va ijtimoiy xodisalarning sababli alokadorligini inkor etuvchi falsafiy ta’limot.

LEGITIMLAShTIRISh (lot. **legitimus** - konuniy) - biror bir konun, vakolatning konuniyligini tan olish yoki tasdiklash. Legitimlashtirish biror bir ijtimoiy muassasaning konuniy kuchga ega belishida ifodalanadi.

MADANIYAT (lot. **cultura** - kayta ishlash) - inson jamiyati yaratgan va jamiyat rivojining ma’lum darajasini ifodalovchi moddiy va ma’naviy maxsulotlar, kadriyatlar majmui.

MANIPULYASIYA (lat.manipulus – qo‘l harakati).

1. Qo‘l mashqi, qo‘l harakati, shu jumladan qo‘l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish.
2. Maxinasiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik.

Odamda ma’lum motivasion holatlar (shu b-n birgalikda hissiyotlar, attityudlar, stereotiplar) ta’sirining faollashtirilishiga olib keladigan kommunikasion ta’sir. Bu ta’sir odamni kommunikator uchun istalgan (foydali bo‘lgan) hatti-harakatga undaydi. E.L.Dosenkoning ta’rificha, manipulyasiya – psixologik ta’sir turlaridan biri hisoblanib, undan o‘zga kishini ma’lum hatti-harakatlarni amalga oshirishga yashirin holda undash yordamida bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi.

MARGINAL ShAXS - (fr. **marginal** - chekka, chegara) - ijtimoiy jixatdan normal xolatda bulmagan shaxs. Bunday shaxs ikki va undan kup madaniy tizimlar urtasidagi chegarada oralik xolatini egallaydi, kisman xar biriga singgan buladi, ammo xech biriga tulik mansub bulmaydi.

MENTALITET (lot. **mens** - akl, tafakkur) - individ yoki ijtimoiy guruxning, millatning uziga xos tafakkur tarzi, vokelikni ma’lum bir tarzda tushunishi va birgalikda xarakat kilishga tayyorligi va moyilligi.

MIGRASIYA (lot. **migratio** - kuchib utish) - individlar yoki ijtimoiy guruxlarning doimiy yashash joylarini uzgartirish jarayoni bulib, u boshka juKrofiy xudud yoki mamlakatga kuchib utishda ifodalanadi.

MONITORING (lot. **monitor** - nazorat kiluvchi, ogoxlantiruvchi) - sotsiologiyada: maxsus nazorat asboblari yordamida zarur daraja va sharoitlarda saklanishi zarur bulgan ma'lum bir ijtimoiy parametrlarni (masalan, jamoatchilik fikrini) doimiy nazorat kilish

MOTIVASIYA (fr. **motif** - xarakatlantiraman) - insonning shaxsiy yoki guruxiy extiyojlarini amalga oshirishga xarakatlantiruvchi istaklar.

NARKOMANIYA (yunon. **narke** - karaxtlik va **mania** - extiros) - narkotik moddalarni iste'mol kilish natijasida shaxsning ruxiy va ijtimoiy voyaga yetishishining sekinlashuvi va undan kelib chikadigan ijtimoiy muammolar.

RASMIY (FORMAL) GURUH - yuridik makomga ega bulgan ijtimoiy gurux bulib, bunda guruxga a'zolik, vazifalar, maksad va xulk-atvor koidalari me'yoriy xujjatlarda kayd etilgan buladi.

SIVILIZASIYA (lot. civilis—fuqaroviy, ijtimoiy) — serqirra va murakkab mazmunga ega bo'lgan ijtimoiyfaliy tushuncha. S. tushunchasini shotland tarixchisi va faylasufi A.Fergyusson (1723—1816) jahon tarixiy jarayonining ma'lum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatparvarlari aqlidrok va adolatga asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan

STATISTIKA ijtimoiy vokea va xodisalarning mikdoriy jixatlarini maxsus urganuvchi fan.

STATUS 1. Muayyan tizim, targ'ibot, xamda iyerarxiyaning xolati, darajasi va mavkei. 2. Biror shaxs, davlat organi yoki xalkaro tashkilotning ijtimoiy mavkeini ifodalovchi burch va majburiyatlar majmui.

TARBIYA - jamiyatda amal kilayotgan me'yorlarga mos ravishda shaxsni maksadli tizmiy shakllantirish jarayoni. Keng ma'noda yosh avlodni xayotga tayyorlash ma'nosini ifodalaydi.

TA'LIM individning jamiyat xayotining turli soxalariga jaimyatda mavjud madaniyatga tayyorlash va moslashtirish vazifasini bajaruvchi ijtimoiy institut.

TURMUSH TARZI - konkret-tarixiy, ijtimoiy-iktisodiy munosabatlarga xos bulgan insonning individual va jamoaviy xayot faoliyati usul, shakl va shart-sharoitlari.

URBANIZASIYA (lot. **uzbanus** - shaxar) - jamiyat rivojida shaxarlar mavkei va rolining oshib ketish jarayoni.

XALQARO NIZOLAR xalqaro huquq subyektlari o'rtasida rasmiy hisoblangan kelishmovchilik bo'lib, huquq yoki mavjud yuz bergan fakt masalalari yuzasidan kelib chiqishi mumkin. Xalqaro nizolar ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bo'ladi. Aniq davlatlar va boshqa davlatlar faoliyatining javobgarligida har xil tarmog'ida u yoki bu xalqaro shartnomalarni qo'llash yoki tuzish, tushuntirish jarayonidagi munosabatlarda vujudga keladi.

XALQARO SANKSIYA xalqaro huquq normalarining tarkibiy elementi bo'lib, bunda ayrim davlatlar tomonidan xalqaro huquq normalariga rioya etilmasligi oqibatida unga nisbatan xalqaro tashkilotlar, asosan BMT tomonidan siyosiy, iktiso-diy va xokazo majburlov choralarini qo'llash hisoblanadi.

XALQARO TASHKILOTLAR xukumatlararo va noxukumat xusiyatidagi doimiy birlashgan tashkilotlar xalqaro bitimlar asosida tuziladi. Xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligini har tomonlama rivojlantirishda va ta'sis hujjatlariga asoslangan xolda, asosiy maqsadi xalqaro muammolarni hal qilishga, aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lish jarayoni, asosan Ikkinchi jahon urushidan keyin boshlandi. Bunga misol qilib BMT tashkil etilishini keltirish mumkin

XALQARO TINCHLIK VA XAVFSIZLIKNI Qo'LLAB-QUVVATLASH deganda

davlatlar va xalqaro tashkilotlarning faoliyatidagi maqsadi tinchlikning bUzilishiga yo‘l qo‘ymaslik va xalqaro xavfsizlikka taxdid qilishning oldini olishdan iborat bo‘lib, jumladan, xalqaro huquqning asosiy prinsipiga ayniqsa kuch ishlatish va taxdid solishni man etishga asoslanadi.

XALQARO HUQUQNING ASOSIY TAMOYILLARI ma’lum tarixiy davrda xalqaro hayotning asosiy va muhim masalalari bo‘yicha xalqaro munosabat subyektlarining xatti-xarakatlari aks ettirilgan, umum tan olingan qoidalardan iborat. Xalqaro huquqning har qanday subyekti bu tamoyillarni e’tirof etganligini e’lon qilinganligidan qat’i nazar, ularga rioya qilishi lozim. Asosiy tamoyillarning majburiy xarakteri shuni bildiradiki, davlat o‘zining tashqi siyosatida nafaqat qattiq rioya etishi, balki xalqaro huquqning boshqa subyektlari b-n munosabatda bo‘lganda, bevosita o‘zining ichki qonunlarini ham yanada takomillashtirishi lozim. 1992 yili 2 martda O‘zbekiston Respublikasi BMTga a’zo bo‘lib kirganda, O‘zbekiston uchun bu kirish nomiga rasmiy bo‘ldi. 1990 yil 20 iyundagi Mustakillik Deklarasiyasi xalqaro huquq qoidalariga binoan bir tomonlama e’lon qilingan edi. BMT Ustavida va xalqaro huquqding tamoyillari to‘g’risidagi Deklarasiyada quyidagi ettita asosiy tamoyillar belgilangan: Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish yoki qo‘llash, qo‘rkitishni rad qilish; Xalqaro nizolarni tinchlik yo‘li b-n hal etish; Boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; BMT Ustaviga asosan boshqa davlatlar b-n hamkorlikda bo‘lish; Davlatlarning suverenitetiga hurmat b-n qarash; xalqlarning teng huquqdiligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi; BTM Ustaviga asosan a’zolikka qabul qilingan davlatlar o‘z majburiyatlarini vijdonan bajarishlari zarurligi. 1966 yili Inson huquqlari to‘g’risidagi Paktning kuchga kirishi munosabati b-n asosiy tamoyil ruyxatiga sakkizinchi tamoyil - Inson huquqiga hurmat qo‘shildi.

XALQLAR HUQUQI xalqaro huquq subyekti hisoblangan xalqlar (davlatlar)ning huquq va majburiyatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy normalarning shakllanayotgan tizimi ayrim hollarda "xalqaro huquqdagi xalqlar huquqi" deb ham nomlanadi. YAngi tizimdagi bu huquqning vujudga kelishi jahondagi etnik o‘zlikni anglash b-n bog’liq. Xalqlar huquqining jahon e’tirof etgan hujjati 1999 yilga qadar ishlab chiqilmagan, bu huquqlar bir qator mintaqalararo deklarasiyalarda o‘z aksini topdi.

CHET EL INVESTISIYALARI deganda, tadbirkorlik faoliyati va boshqa turdagi faoliyat obyektlariga chet ellik investorlar qo‘shadigan barcha turdagi mulkiy, moliyaviy va intellektual boyliklar tushuniladi. Bunday boyliklar: pul mablag’lari, aniq maqsadli bank omonatlari, ulushlar, aksiyalar, sug’urta polislari va boshqa qimmatli qog’ozlardan; ko‘char va ko‘chmas mol-mulkdan (binolar, inshootlar, asbob-uskunalar va boshqa moddiy boyliklar); mualliflik huquqlaridan kelib chiqadigan mulkiy va mulkka oid bo‘lmagan huquqlar va boshqa intellektual boyliklardan; O‘zbekiston Respublikasi, mamlakat yuridik shaxslari va fuqarolarining egaligidagi erdan, mol-mulkdan hamda tabiiy boyliklardan foydalanishga chet ellik investorlar sotib olgan ijara huquqlaridan; o‘zga boyliklardan iborat bo‘lishi mumkin.

CHEGARALAR DAXLSIZLIGI davlat mustaqilligi amal qiluvchi hudud davlat chegarasi b-n belgilanganini va o‘nga tajovo‘z qilish taqiqlanganligini bildiruvchi xalqaro huquq tamoyili. Chegaralarni buzish davlat mustaqilligiga hiyonat qilishni bildiradi. Davlat chegaralarini majburan o‘zgartirish xalqaro huquq tomonidan taqiqlangan anneksiyadir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 17-moddasida qayd qilingan chegaralarning daxlsizligi mamlakatimiz tashqi siyosatining asosiy tamoyilidir.

EKSPANSIYA (lot. expansio - kengaytirish, yoyish, tarqatish)—kuchli davlatlarning

diplomatik, iqtisodiy va harbiy usullar b-n o‘z ta’sir doirasini boshqa mamlakatlarga yoyishga qaratilgan siyosat.

EKSTRADASIYA (lotin. ex traditio) - bir davlatning boshqa (chet el) davlati o‘z fuqarosini ixtiyoriga topshirishi; hozirgi davrda amaldagi konstitusiyalar o‘z fuqarolarini chet el davlatlari ixtiyoriga topshirishni so‘zsiz taqiqlab qo‘yishgan. Agarda davlatning xalqaro shartnomalarida ko‘rsatilmagan bo‘lsa, fuqarolarni boshqa davlatlar ixtiyoriga topshirish mumkin emas. Xalqaro huquqning umum tan olingan tamoyillariga muvofiq, agar boshqa davlat ixtiyoriga topshiriladigan fuqaro hayoti xavf ostida qolsa, ya’ni o‘lim jazosi va qiynash kabi jazo choralari nazarda tutilgan bo‘lsa, ekstaradasiyaga yo‘l qo‘yilmaydi.

EKSTREMIZM (lot. – o‘ta, so‘nggi) — siyosatda ashaddiy, favqulodda tadbirlar va qarashlarga tarafdorlik ma’nolarini bildiradi. Dunyodagi bir qator mamlakatlarda 20a. boshlarida turli ekstremistik guruhlar maydonga keldi. Ular goh siyosiy, goh diniy, goh hududiy masalani bahona qilib turli jinoyatlarni sodir etadilar. O‘z maqsadlariga erishish uchun davlat rahbarlariga suiqasd uyushtirish, o‘g’irlash, tuhmat, odam o‘ldirish, bosqinchilik kabi razil illatlardan aslo qaytmaydilar. E.ning siyosiy, terror, diniy, milliy va boshqa guruhlari mavjud.

EMANSIPASIYA (lot.emanci patio) – 1) jabr-zulm, qaramlik, tutqunlik, turli bid’atlardan qutulish (mas., xotin-qizlar E.si); 2) voyaga etmagan kishini muomalaga layoqatli deb e’lon qilish. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqida E. qoidalari FKga 1-marta kiritildi. Voyaga etmagan shaxsni to‘la muo malaga layoqatli deb e’lon qilish ota-onaning, farzandlikka oluvchilarning yoki homiyning roziligi b-n vasiylik va homiylik organining qaroriga muvofiq yoxud bunday rozilik bo‘lmagan taqdirda, sudning qarori b-n amalga oshiriladi.

ETNIK GURUH fanda etnik jamoa (xalq, etnos)ni anglatish maqsadida qo‘llaniladigan tushuncha bo‘lib, E. G. deganda umumiy etnik o‘zlikni anglash qobiliyatiga, umumiy nom va madaniyat belgilariga ega bo‘lgan hamda boshqa jamoalar b-n muntazam aloqalarga kirishuvchi insonlar guruhi tushuniladi.

ETNIK JARAYONLAR deyilganda u yoki bu etnos (etnik birlik) b-n bog’liqlikda kechadigan barcha o‘zgarishlar tushuniladi. Demak, etnik jarayonlar keng qamrovli tushuncha bo‘lib, etnos b-n bog’liq genetik, lingvistik, psixologik, xo‘jalik-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni o‘ziga qamrab oladi.

ETNOMADANIY O‘XSHASHLIK shaxsning ma’lum bir muayyan etnomadaniy jamoaga mansubligini anglashga taalluqli psixologik kategoriya bo‘lib, shaxsning ijtimoiy o‘xshashligining tarkibiy qismiga kiradi.

ETNOSENTRIZM u yoki bu millat uning intilishlari haqida o‘ta ziddiyatli, kerak bo‘lsa ongli ravishda murakkablashtirilib kelingan, ayni paytda ayrim siyosiy kuchlar tomonidan ko‘pirtirilayotgan joya tarzida, global barqarorlik hamda millatlararo o‘zaro ishonch amaliyotiga salbiy ta’sirga ega joyaviy-siyosiy kuch hisoblanadi.

YUNESKO Birlashgan Millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari b-n shug’ullanuvchi ixtisoslashgan hukumatlararo tashkiloti, 1946 y. tuzilgan. Dunyoning 1 ortiq mamlakatlari, jumladan, O‘zbekiston ham Yu.ga a’zo, tashkilotning asosiy maqsadi maorif va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash, madaniy va ilmiy texnikaviy axborotlarni tarqatish, shuningdek, ta’lim masalasida turli cheklash va huquqbuzarlikka qarshi kurash, hamda, milliy madaniyatni himoya qilish va b. Nizomga muvofiq tashkilotga a’zo davlatlarda Yu. ishlari bo‘yicha maxsus milliy hay’at faoliyat ko‘rsatadi. Yu.ning oliy organi – uning bosh konferensiyasi hisoblanadi. Shtab kvartirasi Parij shahrida joylashgan.